


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
JISMONIY MADANIYAT FAKUL'TETI**



**“Sport faoliyati” kafedrası**

**T.F. “JISMONIY MADANIYATNI O’QITISH TEXNOLOGIYALARI  
VA LOYIHALASHTIRISH”**

**FANI BO’YICHA**

**O’QUV USLUBIY MAJMUA**

**Bakalavriyat yo’nalishi: “5610535”-sport faoliyati  
(xotin qizlar sporti yo’nalishi bo’yicha)**


**Urganch -2020**




**O'quv uslubiy majmua** Urganch davlat universiteti Ilmiy-metodik kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va ishlatishga tavsiya etilgan (2020 yil "28"- avgustdagi 1-sonli bayonnoma

<b>Fakultet:</b>	"Jismoniy madaniyat"
<b>Kafedra:</b>	"Sport faoliyati"
<b>Mutaxassislik:</b>	"5610535"-sport faoliyati (xotin qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha)
<b>Kurs:</b>	IV
<b>Semestr:</b>	VIII

**Tuzuvchilar:**

Sh.R.Xasonova  - UrDU, "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi


**Taqrizchilar:**

F.T.Masharipov  - UrDU, "Sport faoliyati" kafedrasida mudiri.  
A.A.Sadullayev -UrDU, "Sport faoliyati" kafedrasida katta o'qituvchisi.

UrDU Jismoniy madaniyat

fakulteti dekani:


2020 yil "27" 08 \_\_\_\_\_



dots. S.U.Ko'palov

"Sport faoliyati" kafedrasida mudiri:

2020 yil "26" 08 \_\_\_\_\_



dots. F.T.Masharipov

## MUNDARIJA

1	Ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar	5-151
2	Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari	152-153
3	Glossariy	154-662
4	Fan dasturi	163-171
5	Fan ishchi dasturi	172-176
6	Baxolash mezonlari	176-180
7	Testlar	181-208
8	Tarqatma materiallar	209-211

## **MA`RUZA MASHG`ULOTLARI**

**1-mavzu: Ta`limni texnologiyalashtirishga kirish.**

## Reja:

1. Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.
2. Ta'limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi va ahamiyati.
3. Ta'lim texnologiyasining evolyutsion taraqqiyoti.
4. Ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari.
5. Ishlab chiqarish texnologiyasining mazmuni va mohiyati.
6. Pedagogik texnologiyasining tuzilishi va mohiyati.
7. Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan pedagogik (ta'lim) texnologiyasini qiyosiy tahlili.
8. Ta'lim texnologiyasi bilan o'qitish metodikasining qiyosiy tahlili.

**Tayanch so'z va iboralar:** Ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitish texnologiyasi, pedagogik tizim, ta'limni texnologiyalashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tizimli yondoshuv, faoliyatli yondoshuv, dialogli yondoshuv, hamkorlikdagi ta'limni tashkillashtirish, muammoli ta'lim,

### **“Yangi pedagogik texnologiyalar” fani pedagogika faning alohida tarmog'i sifatida.**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning birinchi bosqich vazifalari muvaffaqiyatli hal qilindi, ikkinchi sifat bosqichida o'quv-tarbiya ishlari butunlay yangi asosda tashkil qilindi va yuqori sifat ko'rsatkichiga erishildi. Uchinchi bosqich 2005 va undan keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tashkil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, Shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi. Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga: - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash; - kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish; - ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi. Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida Pedagogik texnologiyalarlarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da Pedagogik texnologiyalarlarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan, ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi. Pedagogik texnologiya atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne»-mahorat, san'at, «logos»-tushuncha, o'rganish demakdir. Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish Shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud.

Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana Shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni; - rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida Pedagogik texnologiyarlardan foydalanish zarurligi; - fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimining tobora ko'payib borayotganligi; - zamonaviy texnikalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim

jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish kerakligi; - talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo'lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligi to'g'ri yo'lga qo'yilganligi; - o'qituvchi ta'lim jarayonini yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta'lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishganligi; - o'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnika bazasining yaratilganligi; - ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi; - o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuiy yonda. Shu tamoyilidan foydalanishni talab qilishidir. Demak, Pedagogik texnologiyar yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir hisoblanadi. Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtirish sanaladi. Respublikamizda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga doir keng ko'lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to'plandi. Ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko'rsatmoqda. «Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak. Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiq'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi

## 2. Pedagogika texnologiya nazariyasining umumiy asoslari.

**Pedagogik texnologiya** – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektida sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vosita va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan

ijtimoiy sifatlarni jadal shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin. Professor N. Saidahmedovning fikricha, «Texnologiya shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida mujassamlashtirgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir». Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;

- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi. Amal – o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining Shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya: ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, Pedagogik texnologiyar , axborot texnologiyasi, yangi tajriba va ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, Shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

### 3. "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi rivojlanish bosqichlari tarkibiy tuzilmasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Pedagogik texnologiyar pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiyar bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Avvalo, Pedagogik texnologiyar nimani anglatadi?

1. Pedagogik texnologiyar o'quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va Shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsadi esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

2. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari Shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, audial vositalar ham mavjud bo'lib, ular Pedagogik texnologiyar larni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiyar mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq Pedagogik texnologiyar inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiyar boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda ta'lim tizimida axborot texnologiyasi – «o'quvchi yoki talaba – kompyuter» o'rtasidagi muloqotdir. Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashtirilgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati Shundaki, «sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq bo'ldi, ya'ni axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida Pedagogik texnologiyar larni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik

texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan Shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

**Talabalar bilimni mustaxkamlash uchun savollar:**

1. Ta'limni texnologiyalashtirishni mazmunini tushuntirib bering?
2. Ta'limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi va ahamiyati nimada?
3. Ta'lim texnologiyasining evolyutsion taraqqiyotiizoxlab bering?
4. Ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari?
5. Ishlab chiqarish texnologiyasining mazmuni va mohiyati?
6. Pedagogik texnologiyaning tuzilishi va mohiyati?
7. Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan pedagogik (ta'lim) texnologiyasini qiyosiy tahlilini ayting?
8. Ta'lim texnologiyasi bilan o'qitish metodikasining qiyosiy tahlilini ayting?

**2MAVZU- TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TUZILISHI.**

**REJA:**

1. Ta'lim texnologiyasining tashkiliy elementlari.
2. Ta'lim texnologiyasining maqsadini aniqlash.
3. Ta'lim texnologiyasining belgilari.

Ta'lim texnologiyasi tizim sifatida qaralsa, uning tuzilmasini *tashkiliy funksional elementlar* buyicha tasavvur etish mumkin.

Ta'lim texnologiyasining tashkiliy elementlari:

- taxsil beruvchi,
- taxsil oluvchi,
- maqsad,
- natija,
- axborotlar mazmuni,
- metodlar vositalar,
- usullar,
- o'qitishning tashkiliy shakllari,
- nazorat qilish,
- tashxislash,
- axborotlar olish usul va vositalaridan iborat.

Pedagogik jarayon o'quv maqsadini qo'yish bilan boshlanadi.

**Maqsad** shunday aniq bo'lishi lozimki, u vositasida ta'lim-tarbiya jarayonini kandy darajada amalga oshirilganligini aniqlash, berilgan vaqtda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni ko'rish imkonini bersin.

**Axborot mazmuni**, yangi o'quv materiali kuydagilarda o'z aksini topadi: ko'rilayotgan fanni o'qitish, mazmunni o'zida aks ettirgan ta'lim texnologiyalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining matni, axborot manbalari.

**O'qitish metodlari, vositalari, usullari va tashkil etish shakllari**, ya'ni taxsil oluvchiga pedagogik ta'sir etish texnikasi va qurollari, axborot mazmuni va didaktik maqsadlarga uyg'un holda tanlab olinadi va amaliyotga tadbiiq etiladi. Shuningdek, bunga taxsil oluvchilarning yosh, fiziologik xususiyatlari, ta'lim muassasalarining moddiy jixozlanishi, ijtimoiy muxit ham xisobga olinadi.



**Nazorat qilish, tashxislash va axborot olish usullari va vositalari:** qo'yilgan maqsad va o'quv materiallari mazmuniga nisbatan tanlanadi.

Agar qo'yilgan maqsad bilan olingan natija bir-biriga mos kelsa, pedagogik jarayon tugaydi. Bunda qo'yilgan maqsad bilan olingan natijaning to'liq mosligini ta'minlashni ko'rsatib o'tish zarur, chunki ular predmetning ob'ektiv muhim qonunlaridan kelib chiqadi.

Lekin **pedagogik faoliyat shaxsiy-sub'ektiv emotsional harakteriga egadir.** U pedagogning individual, ijodiy qobiliyatiga, kasbiy-psihologik xususiyatlariga va taxsil oluvchilarning ko'plab individual, aqliy va boshqa shaxsiy xususiyatlariga asoslanadi. SHuning uchun ham uning natijasi **variativ harakterga ega bulishi mumkin.**

Shuni ta'kidlash joizki, ko'rsatilgan pedagogik tuzilmaning biror elementi ham mavjud bo'lmasa, unda pedagogik jarayonning uzi kechmaydi yoki kuzlangan natijani to'liq bera olmaydi. Har qanday holda ham bunday pedagogik jarayondan ijobiy natija olish tasodifiy harakterga ega buladi. Ta'lim texnologiyasi xaqida gap ketganda daxldor kuydagi xodisalarni bir-biridan farqlashga extiyoj tug'iladi:

- ta'lim didaktik loyixalash (1),
- loyixani amalga oshirish (2)
- ta'limning joriy va oralik natijasiga ko'ra didaktik loyixasiga tuzatish, o'zgartirishlar kiritish (3),
- ta'limni takrorlash (4),
- yakuniy nazorat (5).

Bu xodisalarni 1 va 2-si an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchining diqqat markazida turadi: o'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib bolalarni o'zlari erishgan yutuqlaridan ogox qilib turadi; o'quvchilar esa o'z yutuq va kamchiliklarini anglab, birinchisini yana kupaytirishga, ikkinchisini bartaraf etishga intiladi.

***O'quv materiallarining mazmunini***

- ***o'rgatishda ko'zda tutilgan maqsadi,***
- ***o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi,***
- ***maqsadlarni amalga oshirish va xisobga olish varaqalari,***
- ***berilgan uy ishlar miqdori,***
- ***mavzulari buyicha o'tkaziladigan test savollari,***
- ***reyting nazorat bosqichlari,***
- ***etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab ko'yiladi. Bu ishlarning barchasini ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.***

Ta'limning harakatchan modelini ongda yaratish ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biri bulib, bu san'atni egallagan o'qituvchi

- ta'limning borishiga zudlik bilan o'zgartirish, qo'shimcha tuzatishlar kirita oladi. (1),
- u ta'limni ko'rish, yana takroriy ko'rish, zarur bo'lsa yana bir bor ko'rishni osonlik bilan amalga oshiradi (2),
- o'quvchilarni har bir mavzuni to'liq o'zlashtirishga etaklaydi (3),
- ta'lim mazmunini etalon darajasida va etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchilarni guruxlarga ajrata oladi (4),
- har bir guruxga mos keladigan ish uslubini zudlik bilan tanlay oladi (5),
- o'quvchilarning qobiliyati, ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan vositalar tizimini, muammolarini ishlab chiqadi (6),
- sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot, qo'shimcha topshiriqlarni bajarish uchun shart- sharoit tayyorlaydi (7).

"Pedagogik texnologiya" doirasida ta'limning tashkiliy-uslubiy jixatidan ilgari qo'yilgan ta'lim maqsadalariga turli uslubiy majmualar yordamida erishish mumkin. Agar texnologik tizimlarda asosiy e'tibor masala va nazorat sxemalarini ko'rishga karatilgan bo'lsa, uslublar majmuasini tanlash asosan empirik asosda amalga oshiriladi.

**Ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari.**

«Texnologiya» atamasi ishlab chiqarish doirasidan yuqori komponentli psixologopedagogik injeneriyali muxitga kiritilgan pedagogik muxitdan olingan.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu pedagogika fanining yo'nalishi hisoblanib, tadqiqot qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi, ta'lim jarayoniga texnologik yondoshuv asosida ta'lim maqsadlariga samarali erishishning optimal yo'llari va vositalaridir.

Ta'lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), «texnik va inson resurslarini hamda ularning o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli hisoblanadi (YUNESKO).

O'qitish texnologiyasi -

- bu ta'lim, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning jamlangan va tartibga solingan optimal yo'llari va vositalaridir, bu ta'lim jarayonini uzgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida samarali natijalarga kafolatli erishishni va aniq ta'lim jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchisi hisoblanadi (PT jarayonli –bayonli aspekti);
- bu mavjud jarayondir, ta'lim jarayoni sub'ektlarining hamkorlikdagi yuzaga kelgan tartibli xarakatidir (PT jarayonli xarakat aspekti).

Pedagogik texnologiya – bu ta'limni texnologiyalashtirish sohasida pedagogik xodisalar va jarayonlarda qo'llaniladigan tushuncha

«Pedagogik tizim», «ta'lim texnologiyasi» va «fan metodikasi» tushunchalari va ularning bir-biridan farqi

Pedagogik tizim – belgilangan sifatlarga ega shaxsni shakllantirishga qaratilgan, maqsadli va oldindan belgilangan pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar, jarayonlar birligidan iborat ma'lum bir butunlik (V.Bespalko).

Ta'limning predmet metodikasi – ta'lim tizimida quyidagi predmetning ahamiyati va ularni, uning vazifalari va ta'lim mazmunini aniqlab beradi. Shu predmet yuzasidan ta'lim usullari, shakllari va vositalaridan qanday foydalanish va boshqarilishiga izox keltiradi.

Tizimli turkum (kategoriya) kabi ta'lim texnologiyasi quyidagilarni ifodalaydi:

(1) pedagogik tizimning tarkibiy qismlarini (komponentlarini), (2) ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismlarini (elementlarini), uning protsessual qismini, (3) ta'lim metodikasining keyingi darajasini – maqsadga erishish uchun uslubiy (metodik) tizimni o'quv jarayoni qatnashchilarining harakat izchilligiga aylantiradi.

Fan metodikasidan o'qitish texnologiyasining faqki:

- faqatgina «qanday o'rgatish?» savoliga javob bermay, balki u muxim qo'shimchalar qiladi - «samarali natija olish uchun qanday o'rgatish va qanday optimal o'quv jarayonini tashkillashtirish?»;

- aniq talablarga va taxminiy natijalarga emas balki aniq vazifalarga tayangan holda aniq pedagogik g'oya asosida loyixalashtiriladi;

- natijalarni qayta ishlab chiqish bilan farq qiladi;

- bilim olishda, ta'lim beruvchiga yo'naltirilgan, darsning metodik ishlanmalaridan farqli o'laroq, shaxsiy faoliyatlarini hisobga olgan holda yutug'larni ta'minlaydi va ta'lim oluvchilarga yo'naltiradi.

Pedagog-texnologning uslubiyotchidan (metodistdan) farqi:

- *tajriba o'tkazmaydi*: u aniq belgilangan natijalar bilan ish olib boradi;

- ma'lum muddatda va talab bo'yicha qo'yilgan maqsadni amalga oshirishda shubxa tug'dirmaydigan, faqatgina *asoslangan ta'lim modeliga tayanadi*;
- ta'lim maqsadi qo'yilgandan so'ng, pedagogik vazifalar aniq belgilangandan so'ng, taxmin qilingan o'quv natijalari shakllangandan so'ng va ta'lim jarayonining ketishi bo'yicha qo'yilgan talablardan so'nggina xarakatni boshlashi mumkin.

### Zamonaviy o'qitish texnologiyasida asoslangan ana'naviy ta'limning farqi

<i>An'anaviy ta'lim</i>	<i>Texnologik yondoshuv asosidagi ta'lim</i>
<i>1. Konseptual asoslar</i>	
<p>(1) Pedagogikada majburlash, ta'lim oluvchiga nasixatgo'ylik bilan yondashish, ustun usul (metod)ni reproduktivligi (esda qolgan narsani tiklashga oid), ta'lim berishni tashkillashtirishda qattiqqo'llikning avtoritarligi, ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mustaqilligining so'nishiga asoslanadi.</p> <p>(2) O'qitish o'rta bilimli o'quvchining imkoniyatlariga, bilimlarni o'zlashtirish va yuzaga chiqarishiga yo'naltirilgan.</p> <p>(3) O'qish – eslab qolish funksiyasi, o'qitish esa – yetakchi faoliyat.</p> <p><b>(4) Ta'lim paradigmasi:</b> ta'lim beruvchi – darslik - ta'lim oluvchi.</p> <p>(5) Shaxsning xabardorligi uning madaniyati ustidan primatligi.</p>	<p>(1) Shaxsga yo'naltirilgan, ta'limga asoslangan. Ta'lim oluvchi shaxsning butunligi – ta'lim jarayonining markaziy shakli. Munosabatlarni insonparvarligi va demokratlashuvi, o'qishga majburlashdan voz kechish.</p> <p>(2) O'qitishga differensiyalashgan yondoshuv: ta'lim oluvchining umuman intellektual rivojlanish doirasini va uni, ushbu predmetni, mavzuni o'zlashtirishni, uning qobiliyatlarini va sifatlarini hisobga olish.</p> <p>(3) O'qish faoliyati – bilimlarni mustaqil egallash va ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash: xususiyati bo'yicha muammoli-izlanuvchan, ijodiy.</p> <p><b>(4) Ta'limning yangi paradigmasi:</b> ta'lim oluvchi – darslik – ta'lim beruvchi.</p> <p>(5) Ta'lim va tarbiyaning bir butunligi, shaxs madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirish.</p>
<i>2. Ta'lim oluvchining tutgan yo'li va vazifasi (funksiyasi)</i>	
<p>(1) Ta'lim beruvchi ta'sirining tobe ob'ekti.</p> <p>(2) Bilim – birdan-bir maqsad</p> <p>(3) Xato - jazolanish.</p>	<p>(1) Ta'lim jarayonining teng xukukli sub'ekti, mustaqil ravishda bilish faoliyatini olib boradi.</p> <p>(2) Bilim – shaxsiy muammolarni yechish vositasi</p> <p>(3) Xato qilishga xaqqi bor – xatolarda o'rganadi.</p>
<i>3. Ta'lim beruvchining tutgan yo'li va vazifasi (funksiyasi)</i>	
<p>Yagona tashabbuskor shaxs, kitob bilan birga – bilimning asosiy va ayniqsa kompetentli manbasi, bilish sub'ektini nazorat qiladi, boshqaruv organlarining ko'rsatmalarini bajaradi.</p>	<p>Tashkilotchi ta'lim oluvchilarning mustaqil, faol bilish faoliyatida tashkilotchi, ularning kompetentli maslaxatchisi va yordamchisidir.</p> <p>Faqatgina ta'lim oluvchilar bilim, malaka va ko'nikmalari nazoratini ta'minlab beribgina qolmay, balki kutilayotgan kamchiliklarga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish maqsadida qay darajada o'rganganliklarini aniqlab beradi.</p>
<i>4. Ta'lim berish va o'qitish usullari</i>	
Verbal bayoni orkali tayyor	Muammoli vaziyatlarni ishlab chiqishga, faol bilim

<p>bilimlardan ma'lumotlar berish. Alohidalikdan umumiylikka induktiv mantikka asoslangan holda, mexanik xotira bilan, reproduktiv (uzgartirishsiz eslash) bayonda namuna bo'yicha o'qitish. Natijada ta'lim oluvchilarni sustlikka, sust nutq qobiliyatiga olib keladi.</p>	<p>orttirishga, ijodiy-tadqiqot faoliyatlariga asoslangan, muammolarni izlashda va ularni echishga yo'naltirilgan, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashda ta'limning faol usullari.</p>
--	--

#### 5. Ta'lim berish vositalari

<p>Ta'lim beruvchining so'zi, ko'rgazmali va texnik vositalar. Murakkab (texnik til bilan) yozilgan o'quv kitoblar, Shuning uchun ularni tushunish qiyin; asosan ular uy vazifalar uchun ishlatiladi.</p>	<p>Ta'limning ana'naviy vositalari bilan birgalikda – axborot texnologiyalari. O'quv materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan asosan bilimlarni mustaqil izlashda foydalaniladi.</p>
---	---

#### 6. Ta'lim berish shakllari

<p>Ommaviy ta'lim: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan muloqot qila olmaydilar, mustaqillikning yuqligi.</p>	<p>Diolog, polilog, munozara, hamkorlik va uzaro ta'limga asoslangan kollektiv va guruxlar shaklida faoliyat turlarini tashkillashtirish.</p>
--	---

#### 7. Boshqaruv yo'llari va vositalari

<p>(1) Maqsadlashtirish: mezonlar bo'yicha belgilangan yakuniy o'quv natijalar kabi aniqlangan maqsad vazifalariga erishish uchun kafolatlangan natijani joriy qilish; mezonlari va olingan natijalarni o'lchash instrumentlari bor.</p> <p>(2) Faqatgina pedagogik faoliyatni aniqlashtirish, loyixalashtirish va rejalashtirishgina emas, balki o'quv faoliyatning tuzilishini va mazmunini ishlab chiqadi, ta'lim oluvchilarga mustaqil o'quv-bilish faoliyatini aniqlashda, rejalashtirishda va tashkillashtirishda yordam beradi. Ta'lim beruvchi ta'lim jarayonini ta'lim oluvchilar bilan o'quv diolog kabi ko'radi; mustaqil fikr yuritish, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, mustaqil aniqlash, mustaqil amalga oshirish va mustaqil ravishda prezintatsiya qilish motivatsiyalarini rivojlantirish uchun ularga sharoitlar yaratadi.</p>	<p>(1) Maqsadlashtirish: yakuniy o'quv natijalarini tanqidiy-qayd (kriterial-fiksatsiya) qilinganligi kabi tashxislangan vazifalar maqsadiga kafolatli erishishni joriy etish; olingan natijalar sifatini o'lchashning me'zonlari va asbob anjomlar mavjud;</p> <p>(2) Nafaqat pedagogik faoliyatni tashxislaydilar, loyixalashtiradilar, rejalashtiradilar, balki o'quv faoliyatining tuzilishi va mazmunini ishlab chiqadilar, mustaqil o'quv-o'rganishni prognozlashda, rejalashtirishda va tashkillashtirishda ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligini oshiradilar va qo'llab-quvvatlaydilar. Ta'lim beruvchi bilim berish jarayonini ta'lim oluvchilar bilan o'tadigan dialog sifatida tuzadi; ularga mustaqil bo'lish uchun motivatsiyani, o'z bilimini oshirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini yaratish va o'z-o'zini chiqishlar bilan namoyish etishni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratib beradi.</p>
--	--

<p>(3) Faqatgina BMKni nazorat qilish emas, balki bilimlilik, rivojlanish, tarbiyaviylik monitoringi hamdir.</p> <p>(4) Ta'lim beruvchi umumiy natijaga baxo beradi va uzining ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi ishini taxlil qiladi: rejalashtirilgan natijani nega bajarilmaganligi yoki yarmi bajarilganligi haqida ma'lumot.</p>	<p>(3) Faqat BMKni nazorat qilish emas, ta'lim olish monitoringini, rivojlanishni, tarbiyani ham.</p> <p>(4) Ta'lim beruvchi umumiy natijalarni baxolaydi va ta'lim oluvchilar bilan birga qilgan mehnatini taxlil qiladi: nima uchun rejalashtirilgan natijaga erishilmagan yoki qisman erishilganligi haqidagi ma'lumotlar.</p>
---	---

## 5. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari

**Konsepsiya** – bu qarashlar tizimi, umumiy fikr yoki taxminlar, biron bir narsa to'g'risida tushuncha

O'quv texnologiya aniq pedagogik fikrga ko'ra ishlab chiqiladi, uning asosida:

- (1) muallifning ma'lum bir uslubiy, falsafiy tutgan yo'li (pozitsiyasi) yotadi;
- (2) pedagogik, psixologik, ijtimoiy fanlar va pedagogik amaliyot yutuqlari – konseptual

asoslar yotadi.

Ko'pgina chet el davlatlariga o'xshab mamlakatimiz ta'lim tizimi falsafa, psixologiya va pedagogikaning gumanistik (insonparvarlik g'oyalari) yo'nalishi prinsiplari asosida ko'rilmogda. Pedagogikadaga bu yo'nalishning asosiy xususiyati ta'lim oluvchilarga shaxs sifatida alohida e'tibor berish, ongli ravishda mustaqil tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hisoblanadi, xar bir ta'lim oluvchining, ularning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil faol bilish faoliyatlarining aniq yo'l-yo'riqlari belgilanadi. Jahon pedagogikasi amaliyotida bu yondoshuv ta'lim oluvchilarning tayyor bilimlarni egallashlari va ularni eslashlariga asoslangan alternativ ana'aviylik sifatida kuriladi.

Gumanistik (insonparvarlik) prinsiplar yo'nalishiga qaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyasi taxmin qiladi:

- (1) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim,
- (2) tizimli yondoshuv,
- (3) faoliyatli yondoshuv,
- (4) diologli yondoshuv,
- (5) hamkorlikdagi ta'limni tashkillashtirish,
- (6) muammoli ta'lim,
- (7) axborotlarning yangicha yo'l va vositalarini qo'llashni ko'rsatish – ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash.

**Pedagogik texnologiya** - barcha boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog'likligini taxlil qilish, tanlash, loyixalash va nazorat qilish yo'li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya (PT)-shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida XXI asrda davlatimizda ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba-yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllanadi. Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyiligini anglab etadigan, avtoretar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan sabr bardosh-li, kanoatli, uzgalar fikrini xurmatlaydigan, milliy madaniy va umuminsoniy kadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni kuzda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning echimi qaysi darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq? Texnologiya tushunchasi texnikaviy

taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1972 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan-texnos (techtnt)- san'at, xunar va logos (logos) - fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib xunar fani ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonini to'lik tavsiflab bera olmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlariga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir. Ya'ni: PT- bu o'qituvchi (tarbiyachi) ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba) larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldin belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Hozirgi kundagi pedagogik nashirlarda (texnologiya) atamasini xilma xil talqin etilishi xolatini kuzatishimiz mumkin: o'qitish texnologiyasi, o'quv jarayoni texnologiyasi, ma'lumot texnologiyasi, tarbiy texnologiyasi va x.k. O'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsada aynan o'xshash ma'noni anglatadi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materiallarini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

PT esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi-pedagogika jarayon o'qituvchi (talaba)". Funktsional tizim qonuniyatlarga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Ba'zan metodikani texnologiyadan ajrata olmaydigan, ular bir narsa deb e'tirof etadigan amaliyotchi o'qituvchilar uchrab turadi.

Metodika-o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat desak, PT- o'qituvchining kasbiy faoliyatini yakunlovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolaja yig'indisidir. Ma'lum vaqt davomida PT- o'quv jarayonini texnik vositalari yordamida amalga oshirish deb qarab kelingan edi. 70-yillardan boshlab esa pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati ancha keng talqin etila boshlanadi. Yaponiya olimi T.Sakovmoto tomonidan "**o'qitish texnologiyasi-bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi**" deb izoxlanadi. Rus olimi N.F.Talizina texnologiyasi "**Belgilangan o'quv maqsadga erishishning okilona usullarini aniqlashdan iborat**" deb tushuntiriladi. I.Ya.Lernerning fikricha **PT-o'quvchilar xarakterlarida aks etgan o'qitish natijalari orkali ishonch-** li anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni takozo etadi. Kurinib turibdiki, PT belgilangan boshlangich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyixalash sifatida tashkil etilgan. Bu bir jixatdan tugri bo'lsa, chukurrok taxlil etilsa, bir yoklamalik aniqlanadi yoki bunday yondaShuvda o'quvchi shaxs e'tibordan chetda kolmokda. Bu xolatni yoki kamchilikni akademik V.P.Bespalko aniqladi va PT bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvofakiyatini kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsni shakllantirish jarayoni- ning loyixasidir deb ta'riflaydi. Bu ta'rif asosida kuyidagi ilmiy tamoyillarni ko'rsatish mumkin:

PT o'quvchi (talaba) larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyixalanadi;

Loyixalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi; Yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

PT mohiyatini aniqlashga qaratilgan ta'riflarning xilma xilligi rivojlangan mamla-katlarda bu masalani u yoki bu darajada xal etilganligini kursatsa, ikkinchi tomondan PTni amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

PT to'g'risidagi tushunchalarni rivojlanish tarixi nuqtai nazardan qaralgan, PT nazariyasi va amaliyotini bir biriga bog'liq bo'lmagan holda talqin etilganligini ko'ramiz.Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilgor metodikalar texnologiya darajasiga ko'tarila olmay asta - sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogik nazariyasidan uzoqlashib borgan. Masalan 60-yillarda katta shov-Shuvga sabab bo'lgan "Dasturli ta'lim" yoki 70-80-yillardagi "shatalovchilik xarakati" kabilar.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi pedagogik soha mutaxasislarining ilmiy salohiyati PT mohiyatini ochib berishga etadi. PT ni pedagogik fanning alohida tarmogi sifatida yoki faqat ta'lim

amaliyotini maqbullashtirishga yo`naltirilgan ta`lim yo`nalishi deb qarash ham ma`qul emas. **PT bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatini aks ettiradi.**

PT ga “yangi” so`zini qo`shib qo`llanilishi-bu ta`lim- tarbiya jarayonini loyixalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko`rsatadi. Demak, savol tug`iladi “yangi PT” nimani anglatadi? Shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab oladi va Shunga mos holda ma`lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o`quv yurti) mavjud bo`ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o`z ta`sirini va ta`lim - tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. “Maqsad” esa o`z navbatida pedagogik tizimning qolgan elementlarini yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta`lim-tarbiyaning maqsadini yangi yunalishga buradi: “o`tmishdan qolgan mafko`raviy qarashlar va sarqitlardan to`la xolos bo`lgan, rivojlangan demokratik davlat darajasida yuksak ma`naviy va axloqiy talabalarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash”- deb belgilanadi. Demak, ta`lim - tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanish ruy bermokda, bunday yangi texnologiyalar kirib kelmokda. Yangi metodikalarni talab etadigan va unga o`zining ma`lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular yangi PT ni real voqelikka aylantiradi.

PT mohiyat jixatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalar qatori o`z xususiy sohasiga, metodlariga va vositalariga ega, ma`lum “material” bilan ish ko`radi. Biroq, PT inson ongi bilan bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga tushunarli bo`lmagan pedagogik jarayon ifoda etish bilan ishlab chiqarish, biologik, xatto axborotli tarbiya komponentlarini mujassamlantirgandir. PT boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzuliksiz boyib boradi va an`anaviy o`quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta`sir ko`rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Afsuski, bu jarayon xozirgi ta`lim tizimida juda qiyin kechyapti, haqiqiy kompyuterli PT o`zining ilmiy ishlamasini kutyapdi: “Kompyuterlarning Shu kundagi qo`llanishi - ekstensivlik xolos: an`anaviy o`quv kurslari Shunchaki ekran monitoriga joylashtirilyapti”. Shu erda PT va axborot texnologiyasi o`rtasida o`zaro munosabatni oydinlashtirish lozim bo`ladi. Keyingi vaqtlarda ba`zi bir olimlar (informatika sohasi vakillari) PT ni axborotlashtirishga qo`shish yoki tenglashtirish (ba`zan ustun qo`yish) ni yoqlamoqdalar. Bu urinishlar to`g`ri yo`l emas. O`quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiy ( ayniqsa XX asr ikkinchi yarimidan boshlab) voqeylik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy “burilish” uning muhim bosqichidir. Sodda qilib aytilsa, ta`limda axborot texnologiyasi - bu “o`quvchi- kompyuter” o`rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya PT ning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallashtirish zamonaviy turi sifatida ta`lim jarayonida qo`llanila boshladi. Kelajakda iqtisodiy muammolar hal etilib o`quv yurtlarida dasturli “mashina” bilan etarli darajada ta`minlanadi. Suunidagina axborotli texnologiya asosida o`quvchi (talaba)larning bilish faoliyati tashkil etish va boshqarish imkoniyatlari tug`iladi va u o`qituvchining yaqin ko`makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to`liq bajaradi.

**Ta`limni texnologiyalashtirish** ob`ektiv jarayon ekanligini zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo`nalishi bilan belgilanishi tan olingan holda PT ning o`ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog`liq vazifalarni ko`rsatib o`tamiz:

- 1) ko`p bosqichli ta`lim tizimida PT ning o`rnini asoslash zaruriy.
- 2) zamonaviy sanoat, tibbiy, iqtisodiyot, ekologiya kabi texnologiyalar bilan PT larni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni samaradorlik mezonlarini aniqlash;
- 3) istiqbolli o`qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan hoda ilg`or PT larni loyixalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va aniqlash;
- 4) Tegishli boshqaruv organlari (ta`lim markazlari) tomonidan o`quv muassasalari faoliyatida yangi PT larni tadbir etish darajasini nazorat qilish va baxolash;
- 5) Pedagog- o`qituvchilarni ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalari bo`yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzuliksiz tashkil etish;

6) Bo'lajak pedagogik - o'qituvchilarga PT nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus kurs tashkil etilishi va o'qitish;

7) Ilg'or o'qituvchilar ish tajribalari va usullarini o'rganib borish, ularni yaratgan yangi metodikalari yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish;

8) O'qituvchi faoliyati pedagogik texnologiya, qonunlariga moslashtirish muammolari va boshqalar.

Pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonidagi xato, kamchiliklarni, mavjudligini oldini olish, maqsadni qo'ya olish, ta'lim jarayoni pedagogik texnologiya sifatida qarash, yangilikka, ijodga intilish.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya- ta'lim-tarbiya jarayonini majmuyini amalga oshirish texnikasidir.

O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni ahamiyati.

Pedagogika fani ta'lim jarayoning ikki tomonlama xususiyatiga ega ekanligi o'quvchi tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati va o'qituvchining urgatuvchanlik faoliyati yig'indisi didaktik jarayoni ekanligiga asoslanib berilgan.

Prezident Islom Karimov "Ta'lim O'zbekiston xalq ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb - kori, mahorati uzliksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasini anglab olinadi va yosh avlodga utadi"- deb, ta'lim tushunchasi milliy nuqtai nazaridan ta'rif berilgan. Yurtboshimiz tomonidan ta'limning yangi modeliga asosan solindi va uning kelajak istikbollari ilmiy asoslab berildi. Ta'limning yangi modelini amaliyotga tadbik etish o'quv jarayonini texnologiya bilan bog'liqdir. Jumladan, xozirgi kunda barcha sohalarida yangi texnologiyalarni joriy etilishini xayotning uzi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talab etmokda. Shuning uchun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida "O'quv - tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" uning 2 va 3 - bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Tabiiy savol tug'iladi: Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbik etish zarurati tug'ildi?

Bu omil mamlakatimizning ijtimoiy siyosatini belilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan modelning amalga oshirish bilan jamiyatimizning xayotida ruy berish kutilayotgan "**Portlash effekti**" ijobiy natijalar ruyrost kursatib berildi:

- ijtimoiy - siyosiy iklimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muxit butunlay uzgaradi:

- insonning xayotidan uz urnini topish jarayoni tezlashadi:

- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi:

- jamiyatimizning potensial kuchlarini ruyobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi:

-fuqarolik jamiyatini qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyoda munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada yoyib tarannum etishga erishiladi.

Prezidentimiz tomonidan ko'rsatib berilgan "portlash effekti" sari shijoat bilan kadam tashlash, bu yo'lda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma- bosqich va izchil hal etish masalalari nafaqat pedagogik nazariyoti va amaliyotlarini jumbushga keltiradi, balki, jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiyaShunoslik asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga etkazish jarayoni yangi pedagogik "qurol" va vositalar bilan ta'minlash davr taqazosidir.

Sungi payitlarda pedagogik olimlar, amaliyot-chilar ilmiy asoslangan ta'lim texnologiyalarini uz faoliyatlarida keng kullashga intilmokdalar. Ta'lim texnologiyalarini ishlab chikish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadvik etishni kuzda tutadi, bunda eng avvalo kuydagilarni aniqlash lozim:

- ta'lim texnologiyasi sifatida nimani anglatishi va uning tuzilmasi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan;



-jarayon sifatida ta'lim texnologiyasining funksional tuzimasi nimalardan iborat;  
-ta'lim texnologiyalari Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga qanday darajada tugri kelishi va uni qanday baxolash mumkinligi.

O'quv jarayonini texnologiyalashtirishda didaktik masalalarni belgilash konuniyatlari.

Erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv- tarbiyaviy ishlarni pedagogik texnologiya "rels" iga o'tkazish takazo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi. Chunki: butun ixtiyoriy kurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini kat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. Aslida ham ijtimoiy tajriba elementlari-bilim, ijodiy faoliyat, ob'ektiv borlikka munosabatlar - pedagogik jaryon maxsulidir va ma'lum pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi. Pedagogik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyixasidir. Unda pedagogik tizim nima? Uning tarkibi qanday? Bu savollarga mavjud pedagogik nashrlardan topish mumkin.

N.V.Kuzmina pedagogik tizim uzida ta'lim va tarbiya maqsadida buysindirilgan uzaro bog'liq tarkibli elementlardan tashkil topishini ukdira-dilar: pedagogik maqsad; o'quv va ilmiy axborot; pedagogik aloka vositalari: o'quvchilar va pedagogik. V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra "Pedagogik" tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni kuzlab va oldindan uylab pedagogik ta'sir etishini vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan uzaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisidir. Xar jamiyatda Shu jamiyat mafko'rasiga xos shaxsni shakllantirish maqsadi va unga mos pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Agar maqsad uzgarsa tizim ham uzgaradi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi jamiyat, davlat va oila oldida uz javobgarligini xis etadigan fukarolarni tarbiyalashni bosh maqsad qilib kuygan. Demak, Milliy dastur ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib miliy mafko'raning tarkibiy qismini tashkil etadi. Faqat ijtimoiy (davlat) buyurtmasigina belgilab beradi yoki oliy (urta, urta maxsus, kasb-xunar) ta'lim uchun pedagogik tizimining mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Kuyidagi barcha ta'lim tizimlari uchun umumiy bo'lgan pedagogik tizim loyixasi keltirilgan. Professor N.Saydaxmedovning tadkikot etishicha xar qanday pedagogik tizim uzaro bog'liq bo'lgan kuydagi invaritiv elementlardan tashkil topadi: 1- o'quvchilar ; 2-ta'lim maqsadlari, 3-ta'lim (t-ya) mazmuni,

4- didaktika jarayonlar, 5- tashkiliy shakllar 6-pedagogik yoki o'qitishning texnik vositalari (UTV) .

Yuqoridagi shakldan 2 ta tushunchani izoxlash mokin: didaktik masalalar va ularni amalga oshirishning pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining muxim sohasi sifatida aniq maqsad va unga erishish uchun shart - sharoitlar hamda bu faoliyat uchun axborotlar bulishi kerak.

3.Didaktik masalalarni xal etish maqsadi shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish zarur bo'lsa, shart sharoitlar-o'quvchi (talaba) larning boshlangich sifat kursatkichlari, axborot esa o'quv predmetining mazmuni yoki tarbiyaviy ta'siridir.

Har bir didaktik masala pedagogik tizimda uziga mos keladigan PT elementlari bilan xal kilinadi, ular didaktiv jarayon, o'qitishning tashkiliy shakllari hamda pedagog yoki o'qitishning texnik vositalari (UTV). Yuqorida shakl ijtimoiy buyurtma yunalishi didaktiv masalalarga qaratilgan va bu bejiz emas, chunki ta'lim xar doim jamiyat talablarini kondirishga xizmat qiladi va u ongli ravishda yoki induktiv tarzda tez, balki sekinlik bilan bu talablarga mos holda tuzilib boradi. XXI asr busagasida ta'lim taraqqiyotining xarakatlantiruvchi kuchi, xakkoniy dvigateli- bu uzida didaktiv masalalar va PT ni mujassamlashtirilgan pedagogik tizim hisob- lanadi. PT ning muvaffakiyatli loyixalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab etish darajasiga va darsda ularni tugri belgilab olishga bog- likdir. Bu vazifa xozirga kadar o'qituvchilar tomonidan anglashilmay kelinyapti, kator xollarda esa ular metodikani texnologiyadan farklay olmayptilar.

Shu boisdan kuyida PT ning loyixalanishi uchun zaruriy shartlardan biri didaktik masalalar to'g'risida fikr yuritiladi. Chunki xar bir o'qituvchi pedagogik faoliyatga kirishishidan oldin xal etilishi lozim bo'lgan pedagogik masalalarni etarlicha aniq tasavvur etishi va ifodalanishi, ayni paytda uz o'quvchilariga ham tushuntira olishi kerak.

Bugungi xar kadamda va xar qanday ta'lim muassasasining o'qituvchisi faoliyatida tasodifiy o'quvchi (talaba) lar guruxining aniq urnatilmagan maqsadga erishish uchun ixtiyoriy tanlangan ta'lim mazmunini o'zlashtirishga oid xarakatlarni boshqarayotganligini kuzatish mumkin. Bu xolatni izoxlashga xarakat kilamiz.

**4. Getrogen gurux.** Nima uchun "*tasodifiy o'quvchilar guruxi*" deyapmiz? Ma'lumki, o'quv yurtlariga (maktab, kasb-xunar kolleji, oliygox va boshqa) o'quvchilarni kabul qilish, asosan, ikki omil vositasida amalga oshirilyapti, ya'ni: o'zlashtirish darajasiga yoki yoshlarning tengligi (yakinligi) ga karab. Ayni paytda abituriyentlarning shaxs sifatlari, tugma iste'dod nishonalari, kobiliyati, faoliyatga kizikishlari va boshqa yakkaliy xususiyatlari hisobga olinmayapti. Natijada o'quv guruxlari tasodifiy tarkibi N ta o'quvchilar sonidan tarkib topadi, ya'ni "**getrogen**" gurux tuziladi. "Bozor ma'muriyati" ustiga bu gurux o'quvchilariga bir xil o'quv fani sharoitida yagona ta'lim maqsadiga erishish zarurligini uktiriladi. Bunga esa amaliyotda erishib bulmaydi. Olti oylik sessiya natijalarini kuz oldingizda gavdalantiring, xayratdan yoka ushlaysiz! Axir o'quvchilar test yordamida imtixon topshirib ukishga kirgan-ku? Nima uchun imtixon natijalari yomon? Sababi nima ekan?

Sababi esa biz yuqorida tilga olgan omillar: talabada kobiliyat nishonalari yuk yoki tanlagan faoliyat turiga kizikmaydi. Shu boisdan, xatto, bitiruvchi bosqich talabalari ham kupincha kelajakda qaysi mutaxasis egasi bo'layotganligini yoki bo'lajak ish faoliyatini tulik tasavvur etisha olmaydi. Respublikamizda Xalk ta'limi vazirligi tasarrufidagi "**Iste'dod**" markazi ma'lum darajada bu masalaga ijodiy yondoshmokda. markaz o'quvchilarining kobiliyatlarini va o'zlashtirish darajalarini psixologik testlar yordamida aniqlab, kerakli ilmiy tavsiyalar ishlab chikayapti va ular akademik litseylarga tanlov o'tkazishda kul kelmokda.

Ta'lim texnologiyasi tizim sifatida qaralsa, uning tuzilmasini *tashkiliy funksional elementlar* bo'yicha tasavvur etish mumkin: Ta'lim texnolo-giyasining tashkiliy elementlari-taxsil beruvchi, taxsil oluvchi, maqsad, natija, axborotlar mazmuni, metodlar vositalar, usullar va o'qitishning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, tashxislash, axborotlar olish usul va vositalaridan iborat.

Pedagogik jarayon o'quv maqsadini kuyish bilan boshlanadi. Maqsad shunday aniq bulishi lozimki, u vositasida ta'lim-tarbiya jarayonini qanday darajada amalga oshirilganligini aniqlash, berilgan vaktida kuzlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni kurish imkonini bersin.

Ta'lim texnologiyasining maqsadi urgani-layotgan o'quv predmetining maqsadlaridan va mazmunidan, tarbiyaviy ta'siridan kelib chikkan holda aniqlanadi, hamda ta'lim maqsadiga mansub bo'ladi.

Axborot mazmuni, yangi o'quv materiali kuydagilarda uz aksini topadi: kurilayotgan fanni o'qitish, mazmunni uzida aks ettirgan ta'lim texnolo-giyalari, darsliklar va o'quv kullanmalarining matni, axborot manbalari.

O'qitish metodlari, vositalari, usullari va tashkil etish shakllari, ya'ni taxsil oluvchiga pedagogik ta'sir etish texnikasi va kurollari, axborot mazmuni va didaktik maqsadlarga uygun holda tanlab olinadi va amaliyotga tadbik etiladi. Shuningdek, bunga taxsil oluvchilarning yosh, fiziologik xususiyatlari, ta'lim muassasalarining moddiy jixozlanishi, ijtimoiy muxit ham hisobga olinadi.

Nazorat qilish, tashxislash va axborot olish usullari va vositalari: qo'yilgan maqsad va o'quv materiallari mazmuniga nisbatan tanlanadi.

Agar qo'yilgan maqsad bilan olingan natija bir-biriga mos kelsa, pedagogik jarayon tugaydi. Bunda qo'yilgan maqsad bilan olingan natijaning tulik mosligini ta'minlanishni kursatib utish zarur, chunki ular predmetning ob'ektiv muxim konunlaridan kelib chikadi.

Lekin pedagogik faoliyat shaxsiy-sub'ektiv emotsional xarakteriga egadir. U pedagogning individual, ijodiy kobilyatiga, kasbiy-psixologik xususiyatlariga va taxsil oluvchilarning kuplab idividual, akliy va boshqa shaxsiy xususiyatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham uning natijasi **variativ xarakterga ega bulishi mumkin**.

Shuni takidlash joizki, ko'rsatilgan pedagogik tuzilmaning biror elementi ham mavjud bulmasa, unda pedagogik jarayonning uzi kechmaydi yoki ko'zlangan natijani to'lik bera olmaydi.

Xar qanday holda ham bunday pedagogik jarayondan ijobiy natija olish tasodifiy xarakterga ega bo'ladi.

Ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda daxldor kuydagi xodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tugiladi: ta'lim didaktik loyixalash (1), loyi-xani amalga oshirish (2) ta'limning joriy va oralik natijasiga ko'ra didaktik loyixasiga tuzatish, uzgartirishlar kiritish (3), ta'limni takrorlash (4), yakuniy nazorat (5). Bu xodisalarni 1 va 2-si an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farki Shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bulishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchining diqqat markazida turadi: o'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib bolalarni uzlari erishgan yutuklaridan ogox qilib turadi; o'quvchilar esa uz yutuk va kam chiliklarini anglab, birinchisini yana kupaytirishga, ikkinchisini bartaraf etishga intiladi.

O'quv materiallarining mazmunini urgatishda kuzda tutilgan maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varakalari, berilgan uy ishlar mikdori, mavzulari bo'yicha utkaziladigan test savollari, reyting nazorat bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasini ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

Ta'limning xarakatchan modelini ongda yaratish ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biri bulib, bu san'atni egallagan o'qituvchi ta'limning borishiga zudlik bilan o'zgartirish, qo'shimcha tuzatishlar kiritadi. (1), u ta'limni qurish, yana takroriy qurish, zarur bo'lsa yana bir bor qurishni osonlik bilan amalga oshiradi (2), o'quvchilarni har bir mavzuni to'lik o'zlashtirishga yetaklaydi (3), ta'lim mazmunini etalon darajasida va etalon darajasidan past uzlashtirgan o'quvchilarni guruxlarga ajrata oladi (4), xar bir guruxga mos keladigan ish uslubini zudlik bilan tanlay oladi (5), o'quvchilarning kobiliyati, ehtiyoj va kizikishlariga mos keladigan vositalar tizimini, muammolarini ishlab chikadi (6), sust uzlashtiruvchi o'quvchilar bilan kushimcha mashgulot, kushimcha topshiriklarni bajarish uchun shart- sharoit tayyorlaydi (7).

"Pedagogik texnologiya" doirasida ta'limning tashkiliy-uslubiy jixatidan ilgari qo'yilgan ta'lim maqsadalariga turli uslubiy majmualar yordamida erishish mumkin. Agar texnologik tizimlarda asosiy e'tibor masala va nazorat sxemalarini kurishga qaratilgan bo'lsa, uslublar majmuasini tanlash asosan empirik asosda amalga oshiriladi.

### **3-MAVZU: TA'LIM TEHNOLOGIYANING BOSQICHLARI.**

#### **REJA:**

1. Ta'lim texnologiyaning bosqichlari.
2. Ta'lim texnologiyaning birinchi bosqichi-loyixalash.
3. Ta'lim texnologiyaning ikkinchi bosqichi-ta'lim loyixasini amalga oshirish.
4. Ta'lim texnologiyaning uchinchi bosqichi-nazorat, baholash.

Ta'lim texnologiya quydagi uch bosqichdan iborat, qo'plab operatsiyalarni qamrab oladi: loyixalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va baholash.

**I.LOYIXALASH** – mo'ljallangan maqsad va uni amalga oshirish usuli va vositalari yig'indisini aniqlashdan iborat. Bu blok doirasida quydagi ketma-ketlikda operatsialar amalga oshiriladi:

- ta'lim texnologiyasini amalga oshirish vaqtini aniqlash; o'quv choragi, yarim yilligi, yillik va butun o'qitish davri uchun;
- o'quv materiallarini tahlil etish;
- maqsad va didaktik vazifalarni ajratib olish;
- o'quv materiallarini ma'lum tuzilmaga keltirish va vaqt bo'yicha taqsimlash;
- bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bosqichlari, shuningdek, shaxsning sifat va fazilatlarini rivojlantirishni aniqlab olish;

- o'quvchilarni qiziqtirish usuli va vositalarini aniqlash. O'quv materiallarini takrorlash, kirish, joriy ko'rsatmalar berish, o'quvchilar diqqat-e'tiborini o'quv materiallarining muxim tomonlariga jalb etish maqsadida muommoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, qiziqarli bilish vazifalari va shu kabilarni oldindan belgilab olish. Ular oldindan belgilangan va maqsadga yetaklovchi vosita sifatida qaralmog'i lozim. Bunday yondashuv taxsil oluvchiga o'z o'quv - bilish faoliyatining tuzilmasi va mazmunini tasavvur etirish imkonini beradi.

Rejalashtirilgan natijalar xaqida tasavvur tarkib toptirish quyidagi shakllarda rasmiylashtiriladi:

Bilim, ko'nikma ish - harakat usuli, muhim yo'nalganlik, ijtimoiy muhim shaxsiy sifat va fazilatlar va boshqa yoki kutilgan natijalari yozishmasi.

Oqilona o'qitish modeli tuziladi, ular didaqtik vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi va o'qitish metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari, pedagogik usullar to'plamidan iborat. Ko'rsatiladigan qo'rollar va pedagogik texnik o'quv materiallariga, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyati va rivojlanganlik darajasiga uyg'un bo'lishi kerak. Shuningdek, ta'lim muassasasining modiy ba'zasi xisobga olinishi lozim.

Darslarning tuzilmasi o'ylab ko'riladi va quydagicha amalga oshiriladi:

- ta'lim - tarbiya ishining hozirgi holatini diagnostikalash;
- nazorat qilinadigan muxim ko'rsatkichlarni ajratib olish;
- pedagogik jarayon holatini joriy va yakuniy nazorat qilish;

Tashxislash va nazorat qilish natijalariga asosan teskari aloqa bog'lash usullari va vositalarini aniqlash;

Ta'lim texnologiyani amalga oshirish uchun extimoldan holi bo'lmagan va unga xalaqit beruvchi omillar tashqi muxit va ularni bartaraf etish yo'llari uylab ko'riladi.

**II.TA'LIM LOYIXASINI AMALGA OSHIRISHDA** quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

-o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, etalon darajasida o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- o'quvchilarning faol, mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, bolalar diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rgatish zarurligini aytib, bilishga qiziqish uyg'otish o'qish-o'rganishga xavas, muammolarni bajarishga extiyoj uyg'otish. Emotsiyalar, tafakkur hodisalar bilimlarni o'quv holatlariga tadbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgartirish, ko'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish. Ta'lim jarayoni stoxastik harakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, o'rganilgan natijalarga asoslanib loyixaga yangi o'zgartirish, ko'shimcha, tuzatishlar kiritiladi, bolalarning etalon darajasiga qanchalik yaqinlashganliklari ham aytib o'tiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish. Oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchilar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o'quvchilarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchilaklarini ko'rsatish, sinfning har bir o'quvchisiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo'shimcha topshiriqlar berish, bolalarni o'quv materiallarini yanada atroflicha etalon darajasida o'zlashtirishga rag'batlantirish;

-Yakuniy nazoratning asosiy funksiyasi bolalarning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchilarni ogoxlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish.

**III.NAZORAT QILISH-BAHOLASH BLOKINING** vazifasi ko'yilgan maqsadni amalga oshirishning borishi xaqida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazish, ya'ni muntazam ravishda

teskari aloqani ta'min etish va axborotga qayta ishlov berishdan iborat. Olingan axborotni tahlil qilib, zarur hollarda kelgusida harakatlarga o'zgartirishlar kiritiladi va nixoyat, qo'yilgan maqsad va olingan natijalarning mosligi xaqida xulosa chiqariladi. Har qanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita natijalarning mosligi xaqida xulosa chiqariladi.

Tashqi shart - sharoitlar: o'quv binolari, xonalarni jixozlashda, texnik va boshqa vositalar bilan ta'minlanganlik darajasida, ijtimoiy muxit va boshqalarda o'z aksini topadi.

Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi omillar o'ziga xos to'siq bo'lishi ham mumkin:

-pedagogik tizimning barcha tashkiliy elementlari va ularning o'zaro aloqadorligida uyg'unlikning mavjud emasligi;

-ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik, shaxsiy, individual va boshqa xususiyatlari.

-taxsil beruvchining kasbiy kompetentligi kabilar.

Pedagogik texnologiyalar qo'llash darajasiga ko'ra universal yoki xususiy idorada bo'lishi mumkin.

## X U L O S A.

Ta'lim maqsadlarini, baholash mezonlarini hamda ta'lim sharoitlarini takroriy xosil qilishdagi imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'lim- tarbiya jarayonini tarbiyaviy omillariga ham "texnologik" jarayonini keng tadbiiq etish mumkin. Bu jixatdan "pedagogik texnologiya" ta'lim va tarbiya o'rtasidagi farqni qisqartiradi. "Pedagogik texnologiya" ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish va qismlashtirish, ta'lim natijalarini standartlashtirish, ta'lim jarayonidagi samarali teskari aloqa, avtomatlashtirish imkoniyatlari kabi muxim ta'lim muammolarini hal qilish imkonini beradi. Ushbu muammoni ishlab chiqishda "pedagogik texnologiya" dagi ta'lim tizimlarini ko'rishdagi tajribasini hisobga olish va tanqidiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

"Pedagogik texnologiya" ning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarining tanqidiy tahlil qilinishi, ta'limga reduksion yondashishdan voz kechish bilan belgilanadi. Bir vaqtning o'zida "Pedagogik texnologiya" nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birgalikda uning "muammo maydoni"ni ham o'zgartirish lozim.

Ta'lim jarayonining "texnologik" ko'rilishi qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ular sirasiga, birinchi navbatda, didaqtik maqsadlarini ishlab chiqish, ularni muvofiq ravishda tarkib toptirish, mos ravishdagi ta'lim jarayonini loyixalashtirishda uning shakl va mazmuni muvofiqligini taminlash, o'quvchilar tomonidan tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha ta'lim oluvchilar saviyasini tenglashtirish va oshirish kabilarni kiritish mumkin.

Bulgusi mutaxassislarini sifat jixatidan zamon talabi darajasida tayyorlashga avvalo ularga aniq bilimlar berish, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni kelgusi faoliyatlarida unumli qo'llashga o'rgatish orqali erishish mumkin. Shunday ekan, o'quv-tarbiya jarayonini ta'lim nazariyasi faoliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, barcha ta'lim-tarbiya ishlarini "pedagogik texnologiya" yo'nalishiga o'tkazish, maktab amaliyotidagi ixtiyoriylik bilan uning har bir elementini jiddiy asoslash lozim bo'ladi.

### 3- mavzu semenar. Ta'lim texnologiyasida maqsadni belgilash.

#### Reja:

1. Maqsadni belgilash.

2. Maqsad, maqsadni belgilash, natija tushunchalariga ta'rif berish.

3. O'zlashtirish darajasiga asoslanib maqsadni va natijalarni belgilash.

**Maqsadni belgilash** – texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o'quv jarayonini tuzish hamda tashkillashtirish Shundan boshlanadi.

**Maqsad** -faoliyat natijasini nihoyatda oldindan bilish. Modomiki, o'qitish maqsadlari turli darajalarda o'qitish natijalari belgilanishi va tavsiflanishi lozim.

**Maqsad**–ko'zlanayotgan natija modeli ko'rinishidagi muhim yo'nalishning mahsuli.

**Maqsad** -faoliyat natijasini nihoyatda oldindan bilish.

Bu esa, ta'lim sub'ektlarining faoliyat yakunida egallashlari ko'zlanayotgan narsadir.

**Natija** - (1) o'quv faoliyatida olingan natija ta'lim oluvchining rivojlanishida oldinga siljish bo'lib, bu uning u yoki bu faoliyatida o'z aksini topadi; (2) o'quv jarayonining samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishilganlik darajasini xususiyatlaydi: ta'lim berish va ta'lim olish jarayoni natija maqsadga mos kelgandagina tugaydi.

**Bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini belgilash**

<b>O'quvchilar tomonidan</b>	<b>Ularga erishishning maqsad va natijalarini ifodalanishi</b>
<p>I. Bilishlikka oid (tanish bo'yicha harakatlanishi)</p> <p>II. Algoritmli (namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish)</p>	<p><b>Ta'lim maqsadi:</b> ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish.</p> <p><b>Natijalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• (ma'lum, tanish narsani o'zgartirishsiz, umumiy taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi;</li> <li>• (o'z so'zlarida) qaytarib beradi;</li> <li>• tashqi belgi va xususiyatlari bo'yicha biladi, taniydi; (so'zma-so'z) yozadi.</li> </ul> <p><i>Baholash mezonlari:</i> axborotni xatosiz qaytatakrorlaydi.</p> <p><b>Ta'lim maqsadi:</b> ...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni algoritm bo'yicha bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash).</p> <p><b>Natijalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• asosiy fikrni ajratadi;</li> <li>• baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi;</li> <li>• tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi;</li> <li>• mustaqil vazifalarni echadi;</li> <li>• tanish sharoitlarda (namuna) tayyor ketma-ketlik bo'yicha harakatlarni bajaradi: o'lchashlarni o'tkazadi, sinaydi; tekshiradi, (tizimlarni, jihoz va boshqalarni) tashxis qiladi; echadi, yig'adi; texnik topshiriq, chizmalarni o'qiydi; ishlab chiqarish ishlarini bajaradi, (jihozlarni) ishlatadi va boshqalar;</li> <li>• referat tayyorlaydi, tuzadi va grafik, sxema, jadvallarni o'qiydi.</li> </ul> <p><i>Baholash mezonlari:</i> harakatlarni asos bilan namunali o'rgangani bo'yicha o'qituvchi rahbarligi ostida bajaradi.</p>
<p>III. Evristikli (harakatlarni tanlash)</p>	<p><b>Ta'lim maqsadi:</b> ... shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va Shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish</p> <p><b>Natijalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• shaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkillashtiradi;</li> <li>• kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi;</li> <li>• yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi;</li> <li>• bilim va ko'nikmalarni yangi holatlarda tanish va nostandart topshiriqlarni, muammoli holatlarni yechish uchun qo'llaydi;</li> <li>• (jihoz va boshqalarni) ishlatish bo'yicha tayyorlov qo'llanmasini o'qiydi va sharhlaydi, tushuntirish olib boradi. Chizma va jadvallarni; (kompyuter va boshqalarni) tizimdagi to'liqsiz tashkil</li> </ul>

<p>IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)</p>	<p>etuvchilarni to'ldiradi va almashtiradi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• nosozliklarni mantiqan izlanishini o'tkazadi, kerak bo'lsa ta'mirlaydi, tiklaydi, almashtiradi, sozlaydi, ya'ni modifikatsiyalaydi (turlanishi, ko'rinishi, shakllanishi, o'zgarishi).</li> </ul> <p><b>Baholash mezozi:</b> yangi holatda faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi, yangidan hosil bo'lgan bilimlari asosida harakatlarni bajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi.</p> <p><b>Ta'lim maqsadi:</b> ... muammoni mustaqil ajratish va yechish qobiliyati, izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish)</p> <p><b>Natijalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo'lini topadi;</li> <li>• tadqiqot ob'ekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, tajriba o'tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi</li> </ul> <p><b>Baholash mezozi:</b> tadqiqotchilik turdagi maqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondoshish yo'llariga ega, tahlil qilish malaka va ko'nikmalarni namoyish etadi.</p>
---	--

### O'quvchilarning o'quv yutuqlari nazoratiga kirish

**Bilimni tekshirish va baholash** – ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u talabalaraning o'quv faoliyatini darsda, uyda og'zaki, yozma va amaliy topshiriqlar yordamida tizimli nazorat yo'li orqali amalga oshiriladi. O'qituvchini talabalar bilimini Shundaygina ro'yxatlashi emas, balki har bir talabani erishgan yutuqlarini tahlili asosida butun o'quv-tarbiya jarayoniga **o'zgartirish kiritishi**, ma'muriyatni va ota-onalarni muvaffaqiyat va kamchiliklar to'g'risida axborot berish imkoniga ega bo'ladi.

#### Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashning shakli hamda usullari

O'quv jarayonida tekshirish va baholash joyidan, topshiriq hajmi, tekshirishga ajratilgan vaqtga va talabalar sonidan qat'iy nazar quyidagi tekshirish turlarini ajratadilar, ya'ni: **joriy, oraliq, yakuniy nazorat**.

Tekshiriladigan savollarning soni va xususiyati bo'yicha tekshiruv *individual, ommaviy va kombinatsiyalashgan* bo'ladi. (masalan, bir talabani og'zaki javob berishi, boshqalarni yozma javob berishi va boshq.)

O'quv amaliyotida nazoratning *og'zaki va yozma* turlaridan foydalaniladi.

**Nazorat** – doimiy tekshirish yoki nazorat maqsadidagi tekshiruv.

**Joriy nazorat** – o'qituvchi tomonidan har kungi ishda, asosan darsda jarayonida amalga oshiriladi.

**Oraliq nazorat** – dastur mavzusi, bo'limlari o'zlashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

**Yakuniy nazorat** – o'quv yili yarmida yoki yil oxirida amalga oshiriladi.

**Og'zaki nazorat** – nazoratning eng o'zgaruvchan usuli bo'lib, o'qitishning barcha bosqichlarida qo'llaniladi va talabalar bilan aloqani onson ushlab turishga, ularning fikr va harakatlarini kuzatishga, javoblarini to'g'rilashga yordam beradi.

**Yozma nazorat** (*diktant, bayon yozish, savollarga yozma javob berish va yozma nazorat ishlari*) – vaqt bo'yicha tejamli bo'lib, butun guruhni va har bir talabani ta'lim olishga tayyorligini bir vaqtda aniqlash imkonini berib, topshiriqni individual bajarish xususiyati bilan ajralib turadi, biroq topshiriqni tekshirishga ko'p vaqtni talab qiladi.

Nazorat turi va vositani tanlash o'qitish maqsadi va talabani individual xususiyatidan, o'qitish sharoitidan kelib chiqib tanlanadi. Nazorat vositalariga kiruvchi test nazoratini ko'rib chiqamiz. Test

tuzish o'qitish natijalarini ifodalash bilan o'zaro bog'liqlikda olib boriladi. Test topshiriqlar soni unga ajratilgan nazorat turi va vaqtga bog'liq bo'ladi.

**Tashxislanuvchi maqsad.** Nima uchun "aniq urgatilmagan maqsad" deyap- miz? Chunki ta'lim maqsadini predmet yoki mavzular bo'yicha aniq urnatish uchun u *tashxislanuvchan* holda bulishi kerak. Tashxislanuvchan deganda o'quvchilarda shakllanayotgan ma'lum sifat yoki xususiyatlarni o'lchash va baxolash tushuniladi. Maqsad tashxislanuvchan tarzda urnatilishi mumkin, agar:

- shakllanayotgan bilim, ko'nikma va shaxs sifatleri etarli darajada aniq va ravshan ifoda etilishi va tavsiflanishi kerakki, natijada ularni boshqa xar qanday ijtimoiy tajriba elementlaridan xatosiz farqlash mumkin bo'lsa (If);

-tashxislanayotgan shaxs sifatlerining shakllanganlik darajasini aniqlab oladigan usul, **"qurol"** mavjud bo'lsa va o'lchash amalga oshirilsa (Ush).

- o'lchash natijalariga tayana oladigan sifatleri baxolash mezonl mavjud bo'lsa (Bm).

Shunday qilib, tashxislanuvchanlikning ramziy formulasini quyidagicha yozish mumkin:

$$Tsh=If+Ush+Bm$$

Oliy va o'rta maktablar rivojining xozirgi bosqichida yuqorida qayd etilgan talablarni muayyan pedagogik tizimning umumiy (asosiy) maqsadleri ham, alohida o'quv predmetlerini o'rganishning xususiy maqsadleri ham qanoatlantirmaydi.

Xar bir darsda ta'lim maqsadining aniq o'rnatilishi o'qitish texnologiyasini loyixalashda muxim shartlardan biri sanaladi.

Savol tug'ilishi tabiiy: fan mavzulari buyi- cha o'qitishning tashxislanuvchan maqsadi qanday urnatiladi? Darxakikat, xar qanday fan uzining paydo bo'lgan vaktlardan boshlab katta bilim (axborot) lar xajmini tuplagan va u yuqori tezlikda boyitib borayapti. Fan fidoiylarining ma'lumotiga ko'ra, jahonda axborotlar bir soatda 200 mln suz tezlik bilan oshib borayapti yoki bu 5000 saxifaga teng bosma matn degan suz. Inson esa bu vakt oraligida yarim varak yangi ilmiy matnni o'zlashtirishga kodir ekan. Axborotlarning bunday okimida o'quvchi (talaba) ning "gark" bulib ketmasligi uchun o'qituvchi nima qilishi kerak? Javob tayyor: o'qitish uchun faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish kobiliyatiga mos holda ular xajmini mikdoriy ulchamga keltirish zarur.

**O'quv elementi.** Bu masalani amalda bajarish uchun "o'quv elementi" (UE) tushunchasi mavjud. O'quv elementi deganda urganish maqsadida tanlangan barcha fan ob'ektlari (FO) tushuniladi. Tabiiyki, UE uchun soni FO sonidan kichik bo'ladi. UE ni tanlab olishi uchun tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassis shaxsiga yakin 3-5 yil ichida qo'yiladigan talablarni tasavvur kila olish va zaruriy bilim va ko'nikmalar tarkibini aniq ifodalashi kerak.

UE soni va tarkibini saralashni ikki usuli mavjud. Birinchisi -ekspert usuli bulib, mahoratli va tajribali metodistlar (o'qituvchilar) uz ish uslubiga tayangan holda vazifani uncha murakkab bo'lmagan metodika yordamida xal etishadi. Ikkinchisi- tajriba sinov usuli bulib, o'quv yurti bitiruvchisining faoliyati taxlil kilinadi va Shu asosda ma'lum fan ob'ektlari to'g'risida kerakli ma'lumotlar ajratib olinadi. Xar ikki usul ham amaliyotda kullanilib bir-birini tuldiradi va boyitadi. O'quv materialini saralash imtixosi predmet dasturi uchun UE yig'indisini tuplash hisoblanadi va u ruyxat kurinishda beriladi.

Misol tarikasida texnika o'quv yurtlarida ukitiladigan mexanizm va mashinalar nazariyasi fanidan "Mexanizmlar tasnifi" mavzusi bo'yicha UEni tulikligiga da'vogarlik kilmagan holda keltiramiz:

1. Richagli mexanizmlar.
2. Kulochokli mexanizmlar.
3. Aylanma xarakatni uzatuvchi kattik zvenoli mexanizmlar.
4. Epichiklik mexanizmlar.
5. Universal sharnir.
6. Egiluvchan evenoli mexanizmlar.
7. Pnevmatik mexanizmlar.
8. Gidravlik mexanizmlar.
9. Elektrik mexanizmlar.



Demak, mavzu bo'yicha UE ni bo'lajak muxandislar qaysi maqsadini aniqlashga qaratilgani yana bir kursatkich predmetni urganish ilmiyligi yoki fan taraqqiyotining *abstraksiya pogonalari (AP) kiritiladi.*

**Abstraksiya pogonalari.** Har qanday fan o'ziga tegishli narsa va xodisalarni bosqichma-bosqich o'rgangan holda rivojlanib boradi. Rivojlanishning uzluksiz jarayoni turli fanlarda turlicha, xatto bir fan bo'limlari o'rtasida ham notekis kechadi. Shu boisdan fanning rivojlanish darajasini aniqlash hamda o'quv mavzulari bo'yicha maqsadni aniq belgilash uchun abstraksiya pogonalari va unga mos UEni bayon qilish usullari mavjud.

Birinchi abstraksiya pogonada (fenomenologik- =1) narsa va xodisalarning bayonini tavsiflash cheklangan, ob'ektlarning ma'lum tartibli ruyxati keltirilgan bo'ladi, ularning xususiyat va sifatleri kayd etiladi. UE oddiy, odatdagi tilda tushuntiriladi.

Ikkinchi abstraksiya pogonada (analitik-sintetik- =2) fan uchun xususiy bo'lgan tushuncha va atamalar, konuniyatlar UE ning asosiy tarkibini tashkil etadi. Jarayonlarning kechishi va rivojlanishi yunalishlarini bashoratlashga imkoniyatlar tugiladi. UE fan tilida bayon etiladi.

Uchinchi abstraksiya pogonada ( prognostik - =3) fanga tegishli ma'lum xodisalarni ularning sonli nazariyalari asosida tushuntiriladi, asosiy jarayonlarni modellashtirish konun va xususiyatlarini analitik tasavurlash amalga oshiriladi. Xodisa va jarayonlarning kechish muddati va sonini oldindan oshiriladi. Xodisa va jarayonlarning kechish muddati va sonini oldindan aytib berish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Rivojlangan fan tili vujudga kelgan bulib, UE bayoni fanlararo boglanishlar asosida olib boriladi. Fan asta-sekinlik bilan uzining yangi rivojlanish bosqichiga uta boradi.

Turtinchi abstraksiya pogona ( aksiomatik - = 4) narsa va xodisalarni tushuntirish materiallarining keng kamrovligi, xodisalar mohiyatiga chukur kirib borish bilan tavsiyalashning yuqori darajali umumlashmasidan foydalangan holda oshirish bilan belgilanadi. Fanning predmetlararo tili (kiberne- tika, informatika va boshqa) mavjud bulib, ular yordamida ilmiy bilimlarning amaliy yunalishlari kaytadan ilmiy asoslanadi.

**O'zlashtirish darajalari.** Yuqorida UE ni tushuntirish darajalari to'g'risida fikr yuritildi. O'z navbatida o'quvchi (talaba) lar UE ni qaysi darajada o'zlashtirishlari yoki qanday mahorat bilan bajarilishi kerak? Bu savolga psixologlar tomonidan yaratilgan faoliyat nazariyasi javob beradi. Faoliyat nazariyasi zamirida yotuvchi pastulat Shundan iborat-ki, xar qanday faoliyat inson tomonidan oldin uzlashtirib olingan axborotlar yordamida amalga oshiriladi. Axborotlardan foydalanish xarakteriga karab faoliyatning ikki kurinishini farklash mumkin.

**Nomaxsuldor va maxsuldor.** Ularning bir-biridan farki Shundaki, nomaxsuldor faoliyatida inson uziga ma'lum bo'lgan xarakat (algoritm) koidalardan foydalanadi va bu jarayonda xech qanday yangi axborotlar yuzaga chikmaydi. U faqat oldin uzlashtirgan usullarni kaytadan ishlab chikadi. Maxsuldor faoliyatini bajarishda inson doimo yangilikka duch keladi yoki yangi axborotlar ( yangi ob'ektlar, xodisalar, jarayonlar, faoliyatlar, metodlari) vujudga keladi. Xar ikki faoliyat turi ham mustaqil ravishda yoki tashkaridan kursatil gan ta'sir yordamida bajariladi. Misol uchun, nomaxsuldor faoliyati kursatma (yuriknoma, lugat, ustoz) orkali yoki xarakatlarini bajarish koidalari to'g'risida boshqa bir axborot manbalari asosida, ya'ni kursatmasi, mustaqil ravishda bajariladi. Maxsuldor faoliyat ham ma'lum metodik kursatmalar ostida bajarilishi mumkin, biroq bu erda xarakatlar ketma- ketligi, tartib koidalari ayni vaziyatda yangilangan yoki xech kimga ma'lum bo'lmagan usullar vositasida amalga oshadi. Demak, bu erdan ham ikki faoliyati darajasini kuzatish mumkin: *evrestik va ijodiy.*

Yuqorida bayon kilingan fikirlarni hisobga olgan holda o'quvchi ( talaba) ning o'quv materiallarini o'zlashtirish faoliyati xar qanday masalalarni echa oladigan kuyidagi turt darajadan iboart bulishi mumkin: ( $\alpha=I-IV$ )

**I daraja:** tanki ta'sirlaridagi xarakat. Bu faoliyatning shartli ravishda TANISHUV deb nomlaymiz. ( $\alpha_1$ )

**II daraja:** xotira asosidagi xarakat. Bu faoliyatning ALGORITIM darajasi deb nomlaymiz. ( $\alpha_2$ )

**III darja:** nostandart vaziyatlardagi maxsuldor xarakter. Bu faoliyatning EVRESTIK darjasi deb nomlaymiz. ( $\alpha_3$ )

**IY daraja:** faoliyatning yangi kirralarini tadqiq kiluvchi maxsuldor xarakter. Bu faoliyatning IJODIY darajasi deb nomlaymiz. ( $\alpha_4$ )

Shunday qilib, bilim va ko'nikmalarni uzlashtirish sifati buyicha ta'lim maqsadlarining tashxislanuvchanligi o'zlashtirishning zaruriy darajalarini aniqlashtirishni talab etar ekan. Endi kuydagi savollarni urtaga tashlaymiz: muxandis yuqorida kayd kilingan UE ni qaysi darajada o'zlashtirishi kerak? Bu savolga javob bir xil bulishi mushkil. Ba'zi bir UE chukurrok, boshqalari esa past darajada egallanishi mumkin. Bu nima bilan asoslanadi? Albatta, birinchi navbatda talabning bo'lajak faoliyatiga va mutaxassislik mahoratiga qo'yilgan talablar e'tiborga olinadi. Agar talaba "kishlok xujalik mashinalari" mutaxassisligida ta'lim olayotgan bo'lsa, Shu sohadagi texnikalardan eng kup uchraydigan mexanizmlarni (1-6), agar kelajakda aviatsiya mutaxassisligi bo'yicha bo'lsa, samolyotsozlikda kup kullanadigan mexanizmlarni (7-9) chukurrok urganishi kerak bo'ladi. YOki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, talaba bakalavr UE ni, asosan, 3-darajada o'zlashtirishi lozim. Demak, ta'lim maqsadlarini (2- element) aniqlash ham o'quvchi (talabalar) ning UE ni o'zlashtirish darajasi mos holda amalga oshirilgan ekan.

**Test.** Yuqorida tilga olingan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun munosib testlar ishlanishi kerak.

Test (ingilizcha-sinash) - bu biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga va baxolash maqsadida xar bir testga ekspert metodi yordamida ifodalash mumkin:

Test (T) = Topshirik (Tsh) + Etalon (E) yoki  $T = Tsh + E$

**O'zlashtirish koeffitsienti.** Etalon yordamida test echimiga olib keladigan jiddiy amallar soni (R) aniqlash kiyin emas. O'quvchi (talaba) ning javobi etalon bilan solishtirilgach, testning sifatlil bajarilganligi to'g'risida tegishli xulosa kilinadi va tugri echilgan amallar soni (a) yordamida o'zlashtirish koeffitsienti aniqlanadi.  $K\alpha = a/r$

$K\alpha$  ni aniqlash o'zlashtirish sifatlilni o'lchash operatsiyasi hisoblanadi. O'zlashtirish koeffitsienti me'yorlanadi ( $0 \leq K\alpha \leq 1$ ) va u baxolash mezoni bilan takkoslanishi mumkin. Bu kursatkich yordamida ukish jarayo ning tugallanganligi to'g'risida xukm chikariladi. Agar  $K\alpha \geq 0,7$  bo'lsa, keyingi faoliyatlarda xatoliklariga yul kuyadilar va ularni tuzatishga kurbi va kobilyatlari etishmaydi.

Shunday qilib, pedagogik aylanmaga o'quvchilarning tajribani o'zlashtirish darajasi sifatlilni o'zlashtirish koeffitsienti  $K\alpha$  yordamida aniq hisoblash metodikasini kiritib PT ning muxim tamoyillaridan birini ifodalashga mumkin bo'ladi - bu ta'limni tugallanganlik tamoyilidir. Shu tamoyil tufayligina maktabda o'qitish jarayoning sifatsizligini keltirib chikaruvchi muammolar echim va yuna-lishlarini izlab topish sohasidagi didaktikaning davriy xatolalaridan biri ochiladi.

**Ta'lim ma'zmuni.** Didaktik masalalarning uchinchisi - "ta'lim (tarbiya) mazmuni" (3-element) yoki Shunday axborotlar majmuasi, ular yordamida yangi avlodlarga umuminsoniy va milliy tajribalar uzatiladi.

Nima uchun biz yuqorida "ixtiyoriy tanlangan ta'lim mazmuni" deb takidladik? Bu haqida tasavvur xosil qilish uchun mavjud yonda Shuvlarga murojat kilaylik. Ta'lim mazmuni deganda inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar xajmi va xarakter tushuniladi. Biroq bilim va ko'nikmalar ta'lim mazmunini mukmamal ifodalay olmaydi. Ba'zi bir boshqa mazmunlar ham mavjudki, ularni uzlashtirmasdan turib rivojlanish yuk.

Unda ta'lim mazmunining tulaligini, ayniksa, erkin shaxsni tarbiyalash maqsadida ta'minlaydigan tarkibini izlashga qanday yondashish kerak?

Ta'lim mazmunini loyixalashga kiritilgan pedagogik tizimning 1- elementi - maqsad bilan uzaro farklanadigan tomonlarini hisobga olish kerak bo'ladi. CHunki xar ikkalasida ham UE mavjud. Aslida ham Shunday bulishi kerak, biroq pedagogik tizimning maqsadini belgilashda, yuqorida ta'kidlanganidek, uni o'quvchilar urganishi lozim bo'lgan ruyxati keltiriladi xolos va ular

ta'lim maqsadini aniqlash uchun xizmat qiladi. Ta'lim mazmunini saralashda esa UE boshqacha ma'no kasb etadi, yangi axborotlarning umumiy xajmidan UE sifatida o'quvchilarga etkaziladi. O'quv yurtlarida urgatilayotgan fanlarning UE nixoyatda kup, biroq xar bir o'quv yurti turiga karab UE soni cheklanadi. Misol tarikasida fizika fanini olaylik. Bu fan mavzulari bo'yicha Umum ta'lim maktablari uchun alohida, urta maxsus, kasb xunar kollejlari uchun alohida, oliy o'quv yurtlari uchun alohida aniqlanadi. Buning uchun esa UE bayoni o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.

**O'quv dasturi.** O'quv dasturi bu xujjat hisoblanib, bo'lajak mutaxassis shaxsiga qo'yilgan talablarga mos holda ta'lim mazmunini va uni o'quvchi (talaba) lar tomonidan o'zlashtirishni tashkil etish usullarini uzida aks ettiradi. O'quv dasturlarida umum insoniy tajriba, Shuningdek, ta'lim va tarbiya tajribasi ma'lum kurinishda (yoki shaklda) saklanadi. Bu tajriba bo'lajak mutaxassis o'zlashtirishi kerak bo'lgan turli xil axborotlar va bu tajriba o'qitish jarayonida qanday uzatilishi kerakligi to'g'risida ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

O'quv dasturida UE maqsadi aniq belgilanishi, mazmuni esa ma'lum didaktik tamoiyillar-tuShu-narlilik, ilmiylik, kursatmalilik asosida kurulishi kerak. Dasturda o'quv materialining tushunarli tarzda berilishi muxim ahamiyat kasb etadi. O'quv materialining tushunarli bulishi uchun u ma'lum murakkablik darajasida bayon etiladi. Shu boisdan didaktikada "oddiydan murakkablikka" koidasi mavjud. Bu koidaga ta'lim mazmunini izchil va ketma- ket yoritishda rioya kilinadi.

Dastur o'qitish jarayonida o'zlashtirish kerak bo'lgan savollar ruyxatidan iborat bo'lganligi uchun bilimlar mazmunini tulik yoritib berolmaydi. Shuningdek, ular xajmini va chukurligini, ko'nikma va malakalar mazmunini va xarakterini ham aniqlamaydi. Dastur o'qitish darajasi ilmiy-nazariy va siyosiy jixatdan qanday bulishi kerakligini o'quvchilarda dunyokarashning qaysi kirralarini shakllantirish zarurligini kursatsa, darslik bu muammolarni aniq tushuntirib beradi.

**Darslik.** Pedagogik nashrlarda "darslik" tushunchasi tegishli fanga oid ilmiy bilimlar asoslarini dasturga mos holda kiluvchi kitob deb ta'riflanadi. Darslik dastur mazmunini aniq kurinishda ifoda etadi va bir vaktning uzida unga teskari ta'sir kursatgan holda uni yana ham aniqlashtiradi, rivojlantiradi va takomillashtiradi.

Darslik bu pedagogik tizimning axborotli modelidir. Nima uchun model? CHunki xar bir o'quv jarayo ning ma'lum bosqichlari kursatilgan bo'ladi. Darxakikat, o'quvchilar darslik mavzularini ukib, undagi topshiriklarni ma'lum xarakter kurinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va xakozo. Bu xarakterlar darslik matnlarida ochik yoki yashrin shaklda berilishi mukin. Bu, demak; darslikda ma'lum pedagogik jarayon u yoki bu xolatda bayon etilishidan dalolat beradi. Shunday qilib pedagogik jarayon, muallif tomonidan darslikda ma'lum darajada aks ettirilgan moddiy mavudlik, yangilikdir.

Nima uchun darslik - pedagogik tizim modeli? CHunki pedagogik jarayon xar doim aniq boshqariladigan tizim doirasida amalga oshiriladi, darslik esa uzida pedagogik tizimning alohida xususiyatlari va tomonlarini aks ettiradi Afsuski, xozirga kadar olimlarimiz darslikdan pedagogik tizim modeli sifatida, ya'ni bulgusi o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish vositasi ekanligidan foydalanish-maydi. Shuni alohida kayd etish lozimki, darslik uz-uzidan pedagogik tizimni modellashtirmaydi va o'quv jarayoniga aylantirmaydi bo'larning hammasini pedagog darslikdan foydalangan holda amalga oshiradi.

Nixoyat, biz nima uchun darslik-pedagogik tizimning *axborotli* modeli deb atadik? Bu savolga javob sodda: chunki model axborotlarning ma'lum bayoni tarzda beriladi.

Shunday qilib, darslik avtonom ta'lim vositasi sifatida pedagogik tizim elementlarining axborotli modeli hisoblanib pedagogik jarayonni boshqarishni avtomatlashtirish uchun muljallangandir.

Darslikda pedagogik tizimni modellashtirish jarayoni va ketma- ketligi kuyidagi tartibda borishi mumkin:

-dastlab pedagogik tizim mavjudligini maqsadi aniqlanadi va tulik yoritiladi;

-keyin kuyidagi umumdidaktik tamoyillarni hisobga olgan holda ta'lim mazmunini yoritish amal- ga oshiriladi: ketma-ketlik, tushunarlilik, ilmiylik, kursatmalilik. Ta'lim mazmunida Shunday axborotlar bulishi kerakki, ular o'quvchi uzlashtirayotgan faoliyatning yunaltirilgan asoslarini

(koida, ta'rif, xususiyat, tamoil, algoritm, metod) tashkil etilishi zarur. Ta'lim mazmunini tanlash uning maqsadiga mos holda darslikda yoritilishi kerak;

- darslikni yaratishning keyingi bosqichi va unda pedagogik tizimning aniqlanishi **didaktik jarayonlarni** tanlash va ishlab chikishdan iborat. Bu bos- kich darslikda o'quvchilarning bilishiga qaratilgan xarakterlarini ma'lum tizimda ifodalashga va ta'lim maqsadiga mos holda bu faoliyatni bajarishni ta'minlashga tegishlidir;

- darslikni yaratishning yakuniy bosqichi ta'limning **tashkiliy shakllarini** chegaralash hisob- lanadi. Darslikda mavzular bo'yicha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi o'qitishning makbul shakllariga (dars, amaliy mashgulot, masala, topshirik, uy ishi va xokazo) mos holda yoritilishi kerak. Bu o'qituvchi va o'quvchilarning darslikdan foydalanish faoliyatini tartibga solib turadi.

Yuqorida biz darslik yaratishga yangicha-tizimli yondoshish yulini ko'rsatishga xarakter kildik. Umuman olganda darslikni takomillashtirish ikki yunalishda borishi mumkin: 1-mazmunini yangilash, 2-yangi didaktik echimlarni izlab topish.

Zamonaviy darslik mazmunini o'quvchi (talaba) larda uzining uzbek millatiga mansubligini anglab etishi, davlatimizning tashki va ichki siyosatiga sodikligini tarbiyalash kerak. Bu degan suz mamlakatimizda mustaqillik yillarida ruy berayotgan ijtimoiy-iktisodiy isloxotlar, ma'naviy- ma'rifiy sohadagi yutuklar darslikda uz urnini etarlicha topishi kerakligini ko'rsatadi. Bu nafaqat ijtimoiy-gumanitar sikldagi fanlarga, balki tabiiy, matematika fanlariga ham bir xilda tegishlidir.

Darslik mazmunini takomillashtirishda uning politexnik jixatlarini chukurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Darsliklar u yoki bu ixtisoslikka mos holda o'quvchi (talaba) larni zamonaviy ishlab chiqarishning asosiy yunalishlari, uning bosh sohalari, etakchi kasblari, yangi texnika va texnologiyalari, mehnatni tashkil etish asoslari bilan tanishtirish kerak.

Didaktik nuqtayi nazardan uz echimini darslikda topishi kerak bo'lgan muammolar katorida o'quv predmeti sikllari bo'yicha ichki boglanishga ham, predmetlararo boglanishni ta'minlashga ham alohida e'tibor karatish, darsliklarga kiritilayotgan yangi tushunchalarni ham obdon uylab, tushunarli bulishini hisobga olib kiritishi kabi masalalarni ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, yaratilgan darslik ma'lum fan sohasining o'quv uslubiy majmuasidan( o'quv dasturi, kullanma, o'qitish vositalar va boshqa) markaziy urnini egallashi uning zamonaviyiligini kursatib beradi.

An'anaviy o'quv jarayonida biz ko'proq o'qituvchining mahoratiga suyanib samaraga erishishga harakat qilamiz. Buning uchun esa pedagog ma'lum tajriba orttirgan bo'lishi talab etiladi. Pedagogik texnologiyaning asosi esa proektlashtirishdir. Ana Shu aniq proektlashtirilgan dastur pedagogga samarali natijaga erishish imkonini tug'diradi. Bunday proekt asosida ish olib borayotgan pedagog katta pedagogik tajribaga ega bo'lmasa-da, yuqori samaraga erisha oladi. Biz bilamizki, pedagogik texnologiya bu avvalom bor aniqlikka ega bo'lgan va qat'iy, ilmiy loyihalashtirilgan jarayondir. O'quv jarayonini tashkil etishdagi birinchi qadam bu o'quv maqsadlarini aniqlash hisoblanadi. Bugungi kunda biz darsning maqsadini qanday belgilaymiz? – degan savol albatta hammani qiziqtiradi. Biz bugungi kunda darsning maqsadini umumiy holda belgilaymiz va Shuning uchun ham erishgan natijamizni baholashda qiynalamiz. Bunday umumiy maqsadni belgilash pedagogik texnologiyani qoniqtira olmaydi. Pedagogik texnologiyalar dars maqsadini belgilashda ham aniqlik bo'lishini talab etadi. Aniq maqsadlarni belgilash nazorat va baholash ishini engillashtiradi va bu jarayonga oydinlik kiritadi. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi birinchi qadam bu aniqlashtirilgan maqsadlarni ishlab chiqishdir degan xulosani beradi. Pedagogik texnologiyalarning ishlanishida asosiy e'tibor oxirgi natijaga qaratilgan bo'ladi va qo'yidagi izchillikda ishlab chiqiladi:

1. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish va ularni guruhlarga ajratish.
2. O'quv maqsadlarini nazorat ishi va test vazifalariga o'tkazish.
3. Maqsadga erishish yo'lini va usullarni tanlash.
4. Natijani baholash va o'zlashtirish darajasini aniqlash.
5. Dasturli ta'lim.

Demak, pedagogik texnologiyalar an'anaviy ta'limdan tubdan farq qilgan holda tuziladi. U o'zaro yopiq siklni va o'zaro izchil bog'liqlikni taqozo etadi. Aniqlashtirilgan maqsadlar pedagogga nazorat ishini belgilashda, baholashda va usullarni aniqlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Barcha etaplar bir maqsadga bo'ysunadi va yuqori natijani kafolatlaydi.

An'anaviy ta'lim esa quyidagi izchilikda tashkil etiladi:

1. Umumiy maqsadni aniqlash.
2. Usullarni aniqlash
3. Nazorat ishini belgilash.
4. Baholash.

An'anaviy ta'lim tizimida va o'quv jarayonida umumlashtirilgan o'quv maqsadlari belgilanadi. Masalan: ekologik madaniyatni shakllantirish, suv havzalarini muhofaza qilish haqida tushuncha hosil qilish. Ko'rinib turibdiki bunday qo'yilgan maqsad mavhum xarakterga ega, chunki tushuncha turli darajada hosil qilinishi mumkin. Bunday maqsadni tekshirish va baholash ham muammoli. Bunday maqsadni belgilash ishda noaniqlikni vujudga keltiradi. Natijada o'zlashtirish samaradorligi ham pasayadi. Bunday tizim pedagogik texnologiyani qoniqtira olmaydi (M. V. Klarin tizimi).

AQSH va Angliyada o'qituvchi va talabalar uchun alohida aniqlashtirilgan maqsad rejaları tuzish qabul qilingan. O'qituvchilar uchun tushuntirish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish, o'rgatish kabilar nazarda tutilsa, talabalar uchun esa, talaba dars oxiriga borib nimani bilishi, ishlay olishi, qo'llay olish kerak degan yo'nalishda tuzilgan. Darsdan oldin bilmagan va dars davomida o'rganib, uni qo'llay oladigan vazifalar belgilangan. Talabalar ushbu mavzuni o'rganishda ulardan nimalarni bilish va bajara olish talab etilayotganini aniq biladilar va dars davomida ana shu momentlarga o'z diqqatlarini ko'proq qaratadilar. Har bir qo'yilgan maqsadni erishganlik darajasini me'yorlarni ishlab chiqish shart. Har bir qo'yilgan maqsad alohida o'z mazmuniga xos ravishda tekshiriladi va natijalar tahlil qilinib xulosalar chiqariladi. Buning uchun hozirda identifikatsiya (uchebno'x seley) ya'ni aniqlashtirilgan maqsadlarni ishlab chiqish zarur. Umumiy maqsadlarni esa tekshirish qiyin va bunda har bir o'qituvchi o'z tushunchasidan kelib chiqqan holda tekshirish ishlarini tashkil etadi. Umumiy maqsad o'qituvchi nimaga erishmoqchi ekanligini aniq ko'rsata olmaydi, talabada esa umumiy tushunchalar hosil qilishgagina xizmat qiladi.

Aniqlashtirilgan maqsadli proektda o'qituvchi aniq tushunlardan foydalanishi lozim. Buning uchun **aniq** va **mavhum** tushunchalarni ajrata olishi kerak.

**Mavhum tushunchalar:      Aniq tushunchalar:**

- |                         |                               |
|-------------------------|-------------------------------|
| 1. O'rganmoq.           | 1. Belgilab chiqmoq.          |
| 2. Tanishib chiqmoq.    | 2. Guruhlarni tashkil qilmoq. |
| 3. Ko'rib chiqmoq.      | 3. Ajratib olmoq.             |
| 4. Tushunmoq.           | 4. Tuzish.                    |
| 5. Yoddan aytib bermoq. |                               |
| 6. Masala echmoq.       |                               |

**Tekshirish uchun savol:**

Darsdan maqsad:

1. Talabalarda qonuniyat haqida tushuncha hosil qilmoq.
2. Talaba qonuniyatni yoddan aytib berishi va amalda masala ishlashi lozim.

Ushbu maqsadlarning qaysi biri aniq va uni tekshirish oson?

Aniq maqsadni belgilash talabadan va o'qituvchidan nima talab etilayotganligini aniq anglab etishga yordam beradi va natijani baholashda qulaylik vujudga keltiradi.

Ba'zan talabalar og'zaki emas, balki yozma ishlar bajaradilar, bunday holda ham aniq maqsadlarni belgilash mumkin.

Agar yozma tekst bilan ishlash lozim bo'lsa quyidagi aniq maqsadlarni belgilash tizim tavsifiya etiladi.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari albatta birinchi galda qanday nazorat ishi orqali tekshirilishi aniqlanishi kerak. Maqsaddan kelib chiqqan holda test va nazorat ishlari tanlanadi. Tanlangan nazorat har bir maqsad uchun alohida qo'llaniladi. Masalan birinchi qo'yilgan maqsad uchun alohida, keyingi maqsadga erishish uchun alohida nazorat ishi topilishi kerak. Barcha nazorat ishlari umumlashtirilib oxirgi baholash ma'lum qilinadi.

Masalan: 1-maqsad ta'rifni yoddan bilish deb belgilangan bo'lsa, uni yoddan aytib berish talab etiladi. 2-maqsad formulani amalda qo'llashga o'rgatish bo'lsa, uni amalda masala ishlab qo'llash talab etiladi. 3-maqsad formulani noan'anaviy holatda qo'llash bo'lsa, unga mos misol tanlanadi va uni ishlash talab etiladi. Demak, nechta maqsad aniqlashtirilgan bo'lsa, Shuncha nazorat ishi ham ishlab chiqilishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, maqsad va nazorat ishi o'rtasida uyg'unlik hosil qilinadi. Nazorat ishlarini tanlashda albatta maqsadning xarakteri hisobga olinadi. Aniq belgilangan maqsadlar esa tekshirishni osonlashtiradi. Nazorat ishlarida turli xil test turlaridan foydalanish mumkin.

### **Maqsadga erishish yo'lini va usullarni tanlash.**

#### **Test shakllari va turlari**

Hozirgi kunda respublikamizda test vazifalarini o'rtacha o'tkazish normativlari ishlab chiqilgan. Albatta bu testlar har bir o'quv dargohi maqsadidan kelib chiqqan holda o'tkazilishi ham nazarda tutilgan.

1. Joriy nazorat: 10-15 savoldan iborat bo'lib, unga 10-15 daqiqa ajratiladi.
2. Oraliq nazorat: 25-30 savol, 30-40 daqiqani o'z ichiga oladi.
3. Yakuniy nazorat: 50 savol, 1-1,5 soatni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari fanning yo'nalishidan kelib chiqqan holda va talabalar darajasidan kelib chiqqan holda test turlari, shakllari tanlanishi lozim. Test turlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

**1. Eslash, yodda saqlash, tanish** kabi psixik jarayonlarning borishini ta'minlovchi testlar. Bu testlar mustahkamlash va tekshirish vazifasini bajaradi.

**2. O'zlashtirishning reproduktiv darajasini o'lchovchi testlar.** Bu testda talaba o'z bilimlarini tipovoy ya'ni o'rgangan holatida qo'llay olishi talab etiladi. Bu testlarni ishlashda talaba to'rt xil psixologik operatsiyani bajarishi lozim:

- a) formulani eslash;
- b) tengliklarni eslash;
- v) Shunga o'xshash misollarni eslash;
- g) misolni eslash.

Bunday test talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashga yordam beradi. Ammo bu testda ko'proq qo'llay olish nazarda tutiladi. Bunday testlar ijodiy fikrlash darajasiga ta'sir etmaydi va ularni reproduktiv testlar deb atash o'rinli bo'ladi.

**3. Produktiv test turi.** Bunday testni echishda talabadan ijodiy yondaShuv talab etiladi. Bunday testni echish uchun talaba 5-6 ta operatsiyani bajarishi lozim. Bu test mantiqiy fikr yuritishni va izchillikni talab etadi. Buning uchun o'quv jarayonida echilgan mashqlardan bir oz boshqacharoq (netipovoy) vazifalar tanlab olinishi kerak bo'ladi.

**4. Izlanuvchan – ijodiy test turi.** Ma'lumki ijod - bu qandaydir yangi echimni topishdir. Buning uchun bu testda standart bo'lmagan vazifalar beriladi. Bu murakkab test bo'lib, ijodni rivojlantirishda va iqtidorli talabalarni tanlab olishda ishlatiladi.

Testlarning shakliga ko'ra ham bir qancha guruhlariga ajratish mumkin.

**1. Yopiq testlar.** Bu test shart yoki so'roq va bir qancha javoblardan tuzilgan bo'lib, bittasi to'g'ri javob hisoblanadi. Uning yopiq test deyilishiga sabab, talaba o'zining to'g'ri javobini bera olmaydi. U faqat mavjud javoblardan bittasini tanlashi mumkin. Bunday

testlarni tuzishda yuzakilikdan ehtiyot bo'lish kerak va javoblar tuzayotganda mantiqiylik va tahlilga asoslanishi lozim.

2. **Ochiq testlar.** Bu testda shart va so'roq beriladi. Javob esa mustaqil talaba tomondan topiladi. Bunda eng muhim o'zaki so'z tushirib qoldirilishi mumkin, ana shu o'zakda esa so'z topilishi lozim.

3. **Munosiblikni tanlashga qaratilgan testlar.** Bu testlar ajratish va joy – joyiga qo'yish kabi operatsiyalarni bajarishda ishlatiladi.

4. **Izchillikni o'rnatishga bag'ishlangan test.** Bunda tartibsiz berilgan elementlar izchil ketma – ketlikda joylashtirilib chiqishi kerak.

#### 3.4. Natijani baholash va o'zlashtirish darajasini aniqlash

B.Blum taksonomiyasi mavhum tushunchalarni baholashda nimalarga e'tibor qaratish lozim degan savolni yoritishga yordam beradi. Agar o'qituvchi mavhum tushunchalarni qo'llagan bo'lsa B.Blum taksonomiyasidan foydalanishi mumkin. Taksonomiya tushunchasi o'zaro izchil algoritmik bog'langan tizimni bildiradi. Ushbu taksonomiyadan ham baholash jarayonida foydalanish mumkin.

### Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish ( V. Bespalko bo'yicha)

Test maqsadi	Testlar toifasi va turlari	Xususiyatlari	Javoblar	Test topshiriqlarini ifodalash namunalari
Talabalar avval o'rgangan materialni tanishini tekshirish (o'zlashtirishning I darajasi)	1. Tanib olishlikka oid topshiriq	Bir vaqtning o'zida (aytib berish uchun) <i>topshiriq va javobdan iborat bo'ladi</i>	«Ha» «Yo'q»	... hisoblanadimi?
	2. Ajratib olishlikka oid topshiriq	<i>Savol hamda tanlash uchun javob variantlaridan iborat bo'ladi</i>	1) 2) 3) 4)	... Shulardan qaysi biri... to'g'riligini ko'rsating
	3. Tasniflashlikka oid topshiriq	Mos qismlarni taqqoslash topshiriqlaridan iborat bo'ladi	1-(a) 2-(v) 3-(b) 4-(g)	Mosliklarni ko'rsating (ularning tushunchasi va belgilanishi)
Tashqi aytib berishlarsiz esda qolganlar bo'yicha o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qayta aytib berish va Shular asosida namunaviy topshiriqlar echish ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirishning II darajasi)	1. Qo'shimchalar qo'yiladigan testlar	Hohlagan shaklda: og'zaki, belgili, chizmalarda taqdim etilgan fikrlarni to'ldirish talab etiladi	yo'q	... (formulani) to'ldiring, (etishmayotgan elementni)... ko'rsating
	2. Tuzilishlik (konstruktorlik)ka oid testlar	Esda qolganlarni aytib berishlarsiz qayta takror tiklashni talab etadi	yo'q	Bu "(tushuncha / ifodalash ko'rsatiladi) nima?"... CHizma chizing ... Uchun formulani yozing
	3. Namunaviy topshiriqlar	Ma'lum bo'lgan qoidalarni qayta tiklash va uni izlanayotgan natija uchun qo'llash talab etiladi	1) 2) 3) 4)	Namunaviy topshiriq
Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish	Nooddiy topshiriqlar	Namunaviy tartib ostidagi topshiriqlarni oxiriga etkazishda,	1) 2) 3)	Nooddiy topshiriqlar

(o'zlashtirishning III darajasi)		qo'shicha ma'lumotlarni qidirish uchun, dastlabki sharoitlarni o'zgartirish talab etadi.	4)	
----------------------------------	--	--	----	--

#### **Talabalar bilimini mustaxkamlash uchun savollar:**

1. Uch darajali test topshiriqlarini ishlab chiqish sabablarini tushuntirib bering?
2. Uch darajali testlar asosida o'quv natijasiga erishish darajasini baholash mezonlari?
3. Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish mohiyatini aniqlang?
4. Maqsadga erishish yo'lini va usullarni tanlash qoidalari?
5. Test shakllari va turlarini izoxlab bering?

#### **4. MAVZU: O'QUV JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISHDA DIDAKTIK MASALALARNI HAL QILINISHI.**

##### **REJA.**

1. Tashxislanuvchi maqsad.
2. O'quv elementi.
3. Abstraksiya pogonalari.
4. O'zlashtirish darajalari.
5. Test.
6. O'zlashtirish koeffitsenti.
7. Ta'lim mazmuni.
8. O'quv dasturi va darslik.
9. Xulosa.

##### **TASHXISLANUVCHI MAQSAD.**

Nima uchun "aniq o'rgatilmagan maqsad" deyap- miz? Chunki ta'lim maqsadini predmet yoki mavzular bo'yicha aniq o'rnatish uchun u *tashxislanuvchan* holda bo'lishi kerak. Tashxislanuvchan deganda o'quvchilarda shakllanayotgan ma'lum sifat yoki xususiyatlarni o'lchash va baholash tushuniladi. Maqsad tashxislanuvchan tarzda o'rnatilishi mumkin, agar:

- shakllanayotgan bilim, ko'nikma va shaxs sifatleri etarli darajada aniq va ravshan ifoda etilishi va tavsiflanishi kerakki, natijada ularni boshqa har qanday ijtimoiy tajriba elementlaridan xatosiz farqlash mumkin bo'lsa (If);

-tashxislanayotgan shaxs sifatlarining shakllanganlik darajasini aniqlab oladigan usul, **"ko'rol"** mavjud bo'lsa va o'lchash amalga oshirilsa (Ush).

- ulchash natijalariga tayana oladigan sifat-larni baholash mezoni mavjud bo'lsa (Bm).

Shunday qilib, tashxislanuvchanlikning ramziy formulasini qo'yidagicha yozish mumkin:  
 $Tsh = If + Ush + Bm$

Oliy va o'rta maktablar rivojining hozirgi bosqichida yuqorida kayd etilgan talablarni muayyan pedagogik tizimning umumiy (asosiy) maqsadlari ham, aloxida o'quv predmetlarini o'rganishning xususiy maqsadlari ham qanoatlantirmaydi.

Har bir darsda ta'lim maqsadining aniq o'rnatilishi o'qitish texnologiyasini loyixalashda muxim shartlardan biri sanaladi.

Savol tug'ilishi tabiiy: fan mavzulari bo'yi- cha o'qitishning tashxislanuvchan maqsadi qanday o'rnatiladi? Dar xaqiqat, har qanday fan o'zining paydo bo'lgan vaqtlardan boshlab katta bilim (axborot) lar xajmini to'plagan va u yuqori tezlikda boyitib borayapti. Fan fidoiylarining



ma'lumotiga ko'ra, jaxonda axborotlar bir soatda 200 mln so'z tezlik bilan oshib borayapti yoki bu 5000 saxifaga teng bosma matn degan so'z. Inson esa bu vaqt oralig'ida yarim varaq yangi ilmiy matnni o'zlashtirishga qodir ekan. Axborotlarning bunday oqimida o'quvchi (talaba) ning "gark" bulib ketmasligi uchun o'qituvchi nima qilishi kerak? Javob tayyor: o'qitish uchun fakat zaruriy axborotlarinigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatiga mos holda ular xajmini miqdoriy o'lchamga keltirish zarur.

### ***O'QUV ELEMENTI.***

Bu masalani amalda bajarish uchun "o'quv elementi" (UE) tushunchasi mavjud. O'quv elementi deganda o'rganish maqsadida tanlangan barcha fan ob'ektlari (FO) tushuniladi. Tabiiyki, UE uchun soni FO sonidan kichik bo'ladi. UE ni tanlab olishi uchun tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassis shaxsiga yaqin 3-5 yil ichida ko'yiladigan talablarni tasavvur qila olish va zaruriy bilim va ko'nikmalar tarkibini aniq ifodalashi kerak.

UE soni va tarkibini saralashni ikki usuli mavjud. Birinchisi -ekspert usuli bulib, maxoratli va tajribali metodistlar (o'qituvchilar) o'z ish uslubiga tayangan holda vazifani uncha murakkab bo'lmagan metodika yordamida xal etishadi. Ikkinchisi- tajriba sinov usuli bo'lib, o'quv yurti bitiruvchisining faoliyati tahlil qilinadi va shu asosda ma'lum fan ob'ektlari to'g'risida kerakli ma'lumotlar ajratib olinadi. Har ikki usul ham amaliyotda qo'llanilib bir-birini to'ldiradi va boyitadi. O'quv materialini saralash imtixosi predmet dasturi uchun UE yig'indisini to'plash xisoblanadi va u ro'yxat ko'rinishda beriladi.

Misol tariqasida texnika o'quv yurtlarida o'qitiladigan mexanizm va mashinalar nazariyasi fanidan "Mexanizmlar tasnifi" mavzusi bo'yicha UEni to'liqligiga da'vogarlik qilmagan holda keltiramiz:

1. Richagli mexanizmlar.
2. Kulochokli mexanizmlar.
3. Aylanma harakatni uzatuvchi qattiq zvenoli mexanizmlar.
4. Epichiklik mexanizmlar.
5. Universal sharnir.
6. Egiluvchan evenoli mexanizmlar.
7. Pnevmatik mexanizmlar.
8. Gidravlik mexanizmlar.
9. Elektrik mexanizmlar.

Demak, mavzu bo'yicha UE ni bo'lajak muxandislar qaysi maqsadini aniqlashga qaratilgani yana bir ko'rsatkich predmetni o'rganish ilmiyligi yoki fan taraqqiyotining *abstraksiya pogonalari (AP) kiritiladi.*

### ***ABSTRAKSIYA POGONALARI.***

Har qanday fan o'ziga tegishli narsa va xodisalarni bosqichma-bosqich o'rgangan holda rivojlanib boradi. Rivojlanishning uzluksiz jarayoni turli fanlarda turlicha, xatto bir fan bo'limlari o'rtasida ham notekis kechadi. Shu boisdan fanning rivojlanish darajasini aniqlash hamda o'quv mavzulari bo'yicha maqsadni aniq belgilash uchun abstraksiya pog'onalari va unga mos UEni bayon qilish usullari mavjud.

Birinchi abstraksiya pog'onada (fenomenologik- =1) narsa va xodisalarning bayonini tavsiflash cheklangan, ob'ektlarning ma'lum tartibli ro'yxati keltirilgan bo'ladi, ularning xususiyat va sifatleri qayd etiladi. UE oddiy, odatdagi tilda tushutiriladi.

Ikkinchi abstraksiya pog'onada (analitik-sintetik- =2 ) fan uchun xususiy bo'lgan tushuncha va atamalar, qonuniyatlar UE ning asosiy tarkibini tashkil etadi. Jarayonlarning kechishi va rivojlanishi yo'nalishlarini bashoratlashga imkoniyatlar tug'iladi. UE fan tilida bayon etiladi.

Uchinchi abstraksiya pog'onada ( prognostik - =3) fanga tegishli ma'lum xodisalarni ularning sonli nazariyalari asosida tushuntiriladi, asosiy jarayonlarni modellashtirish qonun va xususiyatlarini analitik tasavurlash amalga oshiriladi. Xodisa va jarayonlarning kechish muddati va sonini oldindan oshiriladi. Xodisa va jarayonlarning kechish muddati va sonini oldindan aytib berish imkoniyatlari mavjud buladi. Rivojlangan fan tili vujudga kelgan bulib, UE bayoni fanlararo

bogʻlanishlar asosida olib boriladi. Fan asta-sekinlik bilan oʻzining yangi rivojlanish bosqichiga oʻta boradi.

Toʻrtinchi abstraksiya pagʻona ( aksiomatik - = 4) narsa va xodisalarni tushuntirish materiallarining keng qamrovligi, xodisalar mohiyatiga chuqur kirib borish bilan tavsiyalashning yuqori darajali umumlashmasidan foydalangan holda oshirish bilan belgilanadi. Fanning predmetlararo tili (kiberne- tika, informatika va boshqa) mavjud bulib, ular yordamida ilmiy bilimlarning amaliy yoʻnalishlari qaytadan ilmiy asoslanadi.

Oʻquv predmetining ilmiy darajasi va bu parametr yordamida oʻquvchi ( talaba) lar bilim sifatini baholash uchun ilmiylik koeffitsentini kiritiladi:

$$K_{\beta} = \beta_x / \beta_t, \quad \text{kaerda:}$$

$\beta_x$ - oʻqitish olib borilayotgan darslik yoki metodik qoʻllanma yozilgan abstraksiya pogonasi:

$\beta_t$ - fan sohasida erishilgan va oʻquv predmetini yuzaga keltirgan abstraksiya pogonasi. Uz- oʻzidan koʻrinib turibdiki, ilmiylik koeffitsenti  $1/4 \leq K_{\beta} \leq 4$  chegarasi buladi.

### **OʻZLASHTIRISH DARAJALARI.**

Yuqorida UE ni tushuntirish darajalari toʻgʻrisida fikr yuritildi. Oʻz navbatida oʻquvchi (talaba) lar UE ni qaysi darajada oʻzlashtirishlari yoki qanday maxorat bilan bajarilishi kerak? Bu savolga psihologlar tomonidan yaratilgan faoliyat nazariyasi javob beradi. Faoliyat nazariyasi zamirida yotuvchi pastoʻlat shundan iboratki , har qanday faoliyat inson tomonidan oldin oʻzlashtirib olingan axborotlar yordamida amalga oshiriladi. Axborotlardan foydalanish harakteriga qarab faoliyatning ikki koʻrinishini farqlash mumkin. **Nomaxsuldor va maxsuldor.** Ularning bir-biridan farqi shundaki, nomaxsuldor faoliyatida inson uziga maʼlum boʻlgan harakat (algoritm) qoidalaridan foydalanadi va bu jarayonda xech qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi. U faqat oldin oʻzlashtirgan usullarni qaytadan ishlab chiqadi. Maxsuldor faoliyatini bajarishda inson doimo yangilikka duch keladi yoki yangi axborotlar ( y yangi obʻektlar, xodisalar, jarayonlar, faoliyatlar, metodlari) vujudga keladi. Har ikki faoliyat turi ham mustaqil ravishda yoki tashqaridan koʻrsatilgan taʼsir yordamida bajariladi. Misol uchun, nomaxsuldor faoliyati koʻrsatma (yuriqnoma, lugʻat, ustoz) orqali yoki harakatlarini bajarish qoidalari toʻgʻrisida boshqa bir axborot manbalari asosida, yaʼni koʻrsatmasi, mustakil ravishda bajariladi. Maxsuldor faoliyat ham maʼlum metodik koʻrsatmalar ostida bajarilishi mumkin, biroq bu erda harakatlar ketma- ketligi, tartib qoidalari ayni vaziyatda yangilangan yoki xech kimga maʼlum boʻlmagan usullar vositasida amalga oshadi. Demak, bu erdan ham ikki faoliyati darajasini kuzatish mumkin: **evrestik va ijodiy.**

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni xisobga olgan holda oʻquvchi ( talaba) ning oʻquv materiallarini oʻzlashtirish faoliyati har kanday masalalarni echa oladigan kuyidagi toʻrt darajadan iboart bulishi mumkin: ( $\alpha = I - IV$ )

**I daraja:** tanki taʼsirlaridagi harakat. Bu faoliyatning shartli ravishda TANISHUV deb nomlaymiz. ( $\alpha_1$ )

**II daraja:** xotira asosidagi harakat. Bu faoliyatning ALGORITIM darajasi deb nomlaymiz. ( $\alpha_2$ )

**III darja:** nostandart vaziyatlardagi maxsuldor harakat. Bu faoliyatning EVRESTIK darjasi deb nomlaymiz. ( $\alpha_3$ )

**IV daraja:** faoliyatning yangi kirralarini tadvik qiluvchi maxsuldor harakat. Bu faoliyatning IJODIY darajasi deb nomlaymiz. ( $\alpha_4$ )

SHunday qilib, bilim va koʻnikmalarni uzlash- tirish sifati buycha taʼlim maqsadlarining tashxislanuvchanligi oʻzlashtirishning zaruriy darajalarini aniqlashtirishni talab etar ekan. Endi kuydagi savollarni oʻrtaga tashlaymiz: muxandis yuqorida qayd qilingan UE ni qaysi darajada oʻzlashtirishi kerak? Bu savolga javob bir xil boʻlishi mushkil. Baʼzi bir UE chukoʻrrok, boshqalari esa past darajada egallanishi mumkin. Bu nima bilan asoslanadi? Albatta, birinchi navbatda talabaning bulajak faoliyatiga va mutaxassislik maxoratiga qoʻyilgan talablar eʼtiborga olinadi. Agar talaba “qishloq xoʻjalik mashinalari” mutaxassisligida taʼlim olayotgan boʻlsa, shu sohadagi texnikalardan eng koʻp uchraydigan mexanizmlarni (1-6), agar kelajakda aviatsiya mutaxassisligi

bo'yicha bo'lsa, samolyotsozlikda ko'p ko'llanadigan mexanizmlarni (7-9) chuqurroq o'rganishi kerak bo'ladi. yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, talaba baqalavr UE ni, asosan, 3-darajada o'zlashtirishi lozim. Demak, ta'lim maqsadlarini (2- element) aniqlash ham o'quvchi (talabalar) ning UE ni o'zlashtirish darajasi mos holda amalga oshirilgan ekan.

### **TEST.**

Yuqorida tilga olingan o'zlashtirish darajasi- ni aniqlash uchun munosib testlar ishlanishi kerak.

Test (ingilizcha-sinash) - bu biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida ifodalash mumkin:

$$\text{Test (T) = Topshiriq (Tsh) + Etalon (E) yoki} \quad T = Tsh + E$$

### **O'ZLASHTIRISH KOEFFITSIENTI.**

Etalon yordamida test echimiga olib keladigan jiddiy amallar soni (R) aniqlash qiyin emas. O'quvchi (talaba) ning javobi etalon bilan solishtirilgach, testning sifatli bajarilganligi to'g'risida tegishli xulosa kilinadi va to'g'ri echilgan amallar soni (a) yordamida o'zlashtirish koeffitsienti aniqlanadi.

$$K\alpha = a/r$$

$K\alpha$  ni aniqlash o'zlashtirish sifatini o'lchash operatsiyasi xisoblanadi. O'zlashtirish koeffitsienti me'yorlanadi ( $0 \leq K\alpha \leq 1$ ) va u baholash mezoni bilan takkoslanishi mumkin. Bu ko'rsatkich yordamida o'kish jarayo ning tugallanganligi to'g'risida xukm chiqariladi. Agar  $K\alpha \geq 0,7$  bo'lsa, keyingi faoliyatlarda xatoliklariga yo'l qo'yadilar va ularni tuzatishga qarab va qobilyatlari etishmaydi.

SHunday qilib, pedagogik aylanmaga o'quvchilarning tajribani o'zlashtirish darajasi sifatini o'zlashtirish koeffitsienti  $K\alpha$  yordamida aniq xisoblash metodikasini kiritib PT ning muxim tamoyillaridan birini ifodalashga mumkin bo'ladi - bu ta'limni tugallanganlik tamoyilidir. Shu tamoyil tufayligina maktabda o'qitish jarayoning sifatsizligini keltirib chikaruvchi muammolar echim va yuna-lishlarini izlab topish sohasidagi didaktikaning davriy xatololaridan biri ochiladi.

### **TA'LIM MA'ZMUNI.**

Didaktik masalalarning uchinchisi - "ta'lim (tarbiya) mazmuni" (3-element) yoki shunday axborotlar majmuasi, ular yordamida yangi avlodlarga umuminsoniy va milliy tajribalar uzatiladi.

Nima uchun biz yuqorida "ixtiyoriy tanlangan ta'lim mazmuni" deb takidladik? Bu xaqida tasavvur xosil qilish uchun mavjud yondashuvlarga murojat qilaylik. Ta'lim mazmuni deganda inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar xajmi va harakter tushuniladi. Biroq bilim va ko'nikmalar ta'lim mazmunini mukmamal ifodalay olmaydi. Ba'zi bir boshqa mazmunlar ham mavjudki, ularni o'zlashtirmasdan turib rivojlanish yuq.

Unda ta'lim mazmunining to'laligini, ayniqsa, erkin shaxsni tarbiyalash maqsadida ta'minlaydigan tarkibini izlashga qanday yondashish kerak?

Ta'lim mazmunini loyixalashga kiritilgan pedagogik tizimning 1- elementi - maqsad bilan o'zaro farqlanadigan tomonlarini xisobga olish kerak bo'ladi. Chunki har ikkalasida ham UE mavjud. Aslida ham shunday bo'lishi kerak, biroq pedagogik tizimning maqsadini belgilashda, yuqorida ta'kidlanganidek, uni o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan ro'yxati keltiriladi holos va ular ta'lim maqsadini aniqlash uchun xizmat qiladi. Ta'lim mazmunini saralashda esa UE boshqacha ma'no kasb etadi, yangi axborotlarning umumiy xajmidan UE sifatida o'quvchilarga etkaziladi. O'quv yurtlarida o'rgatilayotgan fanlarning UE nixoyatda ko'p, biroq har bir o'quv yurti turiga qarab UE soni cheklanadi. Misol tariqasida fizika fanini olaylik. Bu fan mavzulari bo'yicha Umum ta'lim maktablari uchun aloxida, o'rta maxsus, kasb xunar kollejlari uchun aloxida, oliy o'quv yurtlari uchun aloxida aniqlanadi. Buning uchun esa UE bayoni o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.

### **O'QUV DASTURI.**

O'quv dasturi bu xujjat xisoblanib, bo'lajak mutaxassis shaxsiga ko'yilgan talablarga mos holda ta'lim mazmunini va uni o'quvchi (talaba) lar tomonidan o'zlashtirishni tashkil etish usullarini o'zida aks ettiradi. O'quv dasturlarida umum insoniy tajriba, shuningdek, ta'lim va tarbiya tajribasi ma'lum ko'rinishda (yoki shaklda) saqlanadi. Bu tajriba bo'lajak mutaxassis o'zlashtirishi kerak bo'lgan turli xil axborotlar va bu tajriba o'qitish jarayonida qanday uzatilishi kerakligi tug'risida ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

O'quv dasturida UE maqsadi aniq belgilanishi, mazmuni esa ma'lum didaktik tamoyillari tushunarlilik, ilmiylik, ko'rsatmalilik asosida ko'rilishi kerak. Dasturda o'quv materialining tushunarli tarzda berilishi muxim ahamiyat kasb etadi. O'quv materialining tushunarli bulishi uchun u ma'lum murakkablik darajasida bayon etiladi. Shu boisdan didaktikada "oddiydan murakkablikka" qoidasi mavjud. Bu qoidaga ta'lim mazmunini izchil va ketma- ket yoritishda rioya qilinadi.

Dastur o'qitish jarayonida o'zlashtirish kerak bo'lgan savollar ro'yxatidan iborat bo'lganligi uchun bilimlar mazmunini to'liq yoritib berolmaydi. Shuningdek, ular xajmini va chuqurligini, ko'nikma va malakalar mazmunini va harakterini ham aniqlamaydi. Dastur o'qitish darajasi ilmiy-nazariy va siyosiy jihatdan qanday bo'lishi kerakligini o'quvchilarda dunyoqarashning qaysi qirralarini shakllantirish zarurligini ko'rsatsa, darslik bu muammolarni aniq tushuntirib beradi.

### **DARSLIK.**

Pedagogik nashrlarda "darslik" tushunchasi tegishli fanga oid ilmiy bilimlar asoslarini dasturga mos holda qiluvchi kitob deb ta'riflanadi. Darslik dastur mazmunini aniq ko'rinishda ifoda etadi va bir vaqtning o'zida unga teskari ta'sir ko'rsatgan holda uni yana ham aniqlashtiradi, rivojlantiradi va takomillashtiradi.

Darslik bu pedagogik tizimning axborotli modelidir. Nima uchun model? Chunki har bir o'quv jarayoni ma'lum bosqichlari ko'rsatilgan bo'ladi. Darxaqiqat, o'quvchilar darslik mavzularini o'qib, undagi topshiriqlarni ma'lum harakatlar ko'rinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va xakozo. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashrin shaklda berilishi mumkin. Bu, demak; darslikda ma'lum pedagogik jarayon u yoki bu holatda bayon etilishidan dalolat beradi. Shunday qilib pedagogik jarayon, muallif tomonidan darslikda ma'lum darajada aks ettirilgan moddiy mavudlik, yangilikdir.

Nima uchun darslik - pedagogik tizim modeli? Chunki pedagogik jarayon har doim aniq boshqariladigan tizim doirasida amalga oshiriladi, darslik esa uzida pedagogik tizimning aloxida xususiyatlari va tomonlarini aks ettiradi. Afsuski, xozirga qadar olimlarimiz darslikdan pedagogik tizim modeli sifatida, ya'ni bo'lgusi o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish vositasi ekanligidan foydalanishmaydi. Shuni aloxida qayd etish lozimki, darslik o'z-o'zidan pedagogik tizimni modellashtirmaydi va o'quv jarayoniga aylantirmaydi bularning hammasini pedagog darslikdan foydalangan holda amalga oshiradi.

Nixoyat, biz nima uchun darslik-pedagogik tizimning *axborotli* modeli deb atadik? Bu savolga javob sodda: chunki model axborotlarning ma'lum bayoni tarzda beriladi.

Shunday qilib, darslik avtonom ta'lim vositasi sifatida pedagogik tizim elementlarining axborotli modeli xisoblanib pedagogik jarayonni boshqarishni avtomatlashtirish uchun muljallangandir.

Darslikda pedagogik tizimni modellashtirish jarayoni va ketma- ketligi quyidagi tartibda borishi mumkin:

- dastlab pedagogik tizim mavjudligini maqsadi aniqlanadi va to'liq yoritiladi;
- keyin quyidagi umum didaktik tamoyillarni xisobga olgan holda ta'lim mazmunini yoritish amalga oshiriladi: ketma-ketlik, tushunarlilik, ilmiylik, ko'rsatmalilik. Ta'lim mazmunida shunday axborotlar bo'lishi kerakki, ular o'quvchi o'zlashtirayotgan faoliyatning yo'naltirilgan asoslarini (qoida, ta'rif, xususiyat, tamoil, algoritm, metod) tashkil etilishi zarur. Ta'lim mazmunini tanlash uning maqsadiga mos holda darslikda yoritilishi kerak;

- darslikni yaratishning keyingi bosqichi va unda pedagogik tizimning aniqlanishi *didaktik jarayonlarni* tanlash va ishlab chiqishdan iborat. Bu bos- kich darslikda o'quvchilarning bilishiga

qaratilgan harakatlarini ma'lum tizimda ifodalashga va ta'lim maqsadiga mos holda bu faoliyatni bajarishni ta'minlashga tegishlidir;

- darslikni yaratishning yakuniy bosqichi ta'limning **tashkiliy shakllarini** chegaralash xisob- lanadi. Darslikda mavzular bo'yicha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi o'qitishning maqbul shakllariga (dars, amaliy mashg'ulot, masala, topshiriq, uy ishi va xokazo) mos holda yoritilishi kerak. Bu o'qituvchi va o'quvchilarning darslikdan foydalanish faoliyatini tartibga solib turadi.

Yuqorida biz darslik yaratishga yangicha tizimli yondoshish yo'lini ko'rsatishga harakat qildik. Umuman olganda darslikni takomillashtirish ikki yunalishda borishi mumkin: 1-mazmunini yangilash, 2-yangi didaktik echimlarni izlab topish.

Zamonaviy darslik mazmunini o'quvchi (talaba) larda o'zining o'zbek millatiga mansubligini anglab etishi, davlatimizning tashki va ichki siyosatiga sodiqligini tarbiyalash kerak. Bu degan so'z mamlakatimizda mustakillik yillarida ro'y berayotgan ijtimoiy-iktisodiy isloxotlar, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yutuqlar darslikda o'z o'rnini etarlicha topishi kerakligini ko'rsatadi. Bu nafaqat ijtimoiy-gumanitar sikldagi fanlarga, balki tabiiy, matematika fanlariga ham bir xilda tegishlidir.

Darslik mazmunini takomillashtirishda uning politexnik jixatlarini chuko'rlashtirish aloxida ahamiyat kasb etadi. Darsliklar u yoki bu ixtisoslikka mos holda o'quvchi (talaba) larni zamonaviy ishlab chiqarishning asosiy yunalishlari, uning bosh sohalari, etakchi kasblari, yangi texnika va texnologiyalari, mexnatni tashkil etish asoslari bilan tanishtirish kerak.

Didaktik nuqtayi nazardan o'z echimini darslikda topishi kerak bo'lgan muammolar qatorida o'quv predmeti sikllari bo'yicha ichki bog'lanishga ham, predmetlararo bog'lanishni ta'minlashga ham aloxida e'tibor qaratish, darsliklarga kiritilayotgan yangi tushunchalarni ham obdon o'ylab, tushunarli bo'lishini xisobga olib kiritishi kabi masalalarni ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, yaratilgan darslik ma'lum fan sohasining o'quv uslubiy majmuasidan( o'quv dasturi, ko'llanma, o'qitish vositalar va boshqa) markaziy o'rnini egallashi uning zamonaviyligini ko'rsatib beradi.

#### **4-semenar mavzu. Ta'lim shakllari - ta'lim texnologiyasi tarkibi.**

##### **Reja:**

1. Ta'lim shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.
2. Shakl, ta'lim shakllari, ta'limni tashkil etish shakllari tushunchalari.
3. Ta'limni tashkil etish shakllarining ta'lim texnologiyasidagi o'zni va ahamiyati.
4. Ta'limni tashkil etish shakllarining tasniflanishi.
5. Ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.

**Tayanch so'z va iboralar:** ta'lim shakllari, sinf, sinf dars, ma'ruza, amaliy, seminar, loybaratoriya, amaliyot, ekskursiya, kurs ishi, hamkorlikda o'zaro o'qish, "Birgalikda o'rganamiz" ("Koop-koop") usuli, "Ilon izi" ("Arra") texnikasi

**O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha.** Ta'lim insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki paytlaridayoq katta rol o'ynagan. Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va Shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli ya'ni dars necha yillardan beri takomillashib, unga qo'yilgan talablar murakkablashib va zamonaviylashib bormoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

Ya. A. Komesnkiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi. Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon mamlakatlariga tadbiiq etilmadi. Ularda 1917 yilga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi (shakli) davom etib keldi. Ushbu maktablarda 6 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga bir xonada bir vaqt maboynida mashg'ulot olib borilardi. Shu boisdan

bolalarning bilim darajalari va o'zlashtirishi ham turlicha bo'lar edi. O'zbek maktablari oktyabr to'ntarishidan keyin sinf-dars tizimiga o'tdi. Hozirgi davrgacha guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va Shuncha vaqt maboynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

**Sinf-** yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhi. **Dars** deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars - o'quv ishlarining markaziy qismidir. Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi: Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi. Dars mashg'uloti asosan 45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi. Endilikda mustaqil respublikamiz xalq ta'limi oldiga qo'ygan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maktab ta'limini tashkil qilishning yangi-yangi shakllari yaratilmoqda. Bugungi kunda maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

**Sinf-dars** shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

**Sinf-dars** shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba yer uchastkalarida ishlash, ekskursiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.

#### **Sinf – dars shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.**

Ta'lim maskanlari oldida turgan yangi vazifalar va ehtiyojlar o'quvchi-talabalarga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini - darsning tashkiliy daqiqalari deb ataladi. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi yoki tuzilishiga kirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish muhimdir. Tajribali va mahoratli o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar. Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa – butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi. Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib o'qtirish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Darsda rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi darsni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi, turli xil ta'lim metodlaridan unumli foydalanish va o'quvchilarga ko'proq muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularga yangi materialni bayon qilishi dars sifatini oshiradi. Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir. Buning uchun:

a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni o'qtirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. Ya'ni o'qituvchi bayon qilayotgan mavzu o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir. O'qituvchi darsda mavzuni bayon qilish davomida o'quvchilarga muammoli vaziyat tug'diradigan savollar berib, ularni fikrlash va izlanishga undasa o'quvchilar ushbu materialni puxta o'zlashtirib oladi.

v) Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faolligi (og'zaki, yozma mashqlar va laboratoriya-tajriba ishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog'i lozim. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilimlarini ham ishga tushirishga hizmat qiladi va to'g'ri baholash uchun katta imkoniyat tug'diradi.

g) dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallari boshqa fanlarning aloqador mavzulari bilan bog'lanishini ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega.

Darsda o'quv – tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan deb hisoblash qabul qilingan. Shunga asosan o'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondoshishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Umuman olganda, sinfga ham reproduktiv, ham ijodiy topshiriqlar berish mumkin.

**Darsga bo'lgan talablar, dars turlari va ularning tuzilishi.** Dars - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu sohada ko'pgina islohatlar amalga oshirilmoqda. Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim: .

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'log'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i, shuningdek xilma xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalanilgan holda olib borilmog'i lozim.

4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq zarur.

5. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

6. Darsda o'quv materialining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

7. Darsda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilar:

Yangi bilimlarni bayon qilish darsi (ma'ruza).

O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.

O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

Takrorlash – umumlashtiruvchi va kirish darslari.

Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanishi).

Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirishini nazorat qilib borishiga yordam beradi. Maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri – yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

a) yangi bilimlarni bayon qilish;

b) yangi bilimlarni mustahkamlash;

v) yangi bilimlar ustida ishlash;

g) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalari topshirish.

Demak, dars boshdan – oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki Shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (savol-javob), yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish (masala va misollar yechdirish, grafik ishlari olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi-tushuntirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va h. k) kabi boshqa elementlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar Shunga buysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi. Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo'lavermaydi. U o'qitish usuli

bilan bog'langandagina dars tuzilishini tashkil qiladi. Ya'ni dars tuzilishining o'zgarishi bilan oq dars olib borish usuli ham o'zgaradi. Darsning tuzilishi qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'limning darsda qo'llanadigan metodlari va usullariga, o'quvchilarning tayyorgarlik va kamolat darajasiga, darsning o'quv jarayonidagi o'rniga bog'liqdir.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va Shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Masalan, aralash dars turning tuzilishi: uy vazifalarini so'rash, tekshirib ko'rish; yangi materiallarni bayon qilish; yangi materiallarni mustahkamlash; uy vazifalarini topshirishni o'z ichiga oladi. Bunda:

a) uy vazifalarini ko'rish suhbat (savol-javob), misol va masalalar ishlatish yo'li bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining birinchi qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o'qituvchi tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma'ruzasi, suhbat kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining ikkinchi qismi, darsning ikkinchi bosqichi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining uchinchi qismi, uchinchi bosqichi;

g) uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishini to'rtinchi qismi, darsning to'rtinchi bosqichidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan dars turlarining hammasi o'z tuzilishiga ega bo'lganidek, ma'lum bosqichlarga ham ajraladi.

Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma'lum bir qismi yoki yirik mavzu o'tib bo'lganidan keyin o'tkaziladi. Bunda o'tilgan materiallarni takrorlash – qayta esga tushirish va mustahkamlash maqsadida o'tilgan mavzularni qamrab olgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan savollar orqali umumlashtirish nazarda tutiladi.

#### **Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari.**

Oliy maktabdagi o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil etishning ko'p qirrali yagona tizimiga asosan amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishning shakl va usullari tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;
- talabalarning o'quv va bilish faoliyati.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonunida «Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi» deyilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga ham o'rgatadi. Shu o'rinda yurtboshimiz ta'kidlaganidek «Ayniqsa o'sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq qaray olmaydi. Bunda oliy o'quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir». Shu nuqtai nazardan oliy maktablarda bilimlarni hozirgi zamon darajasida berib borish alohida ahamiyatga ega. Hozirda oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat, ya'ni bakalavriat va magistratura. Mana Shu bosqichlarni amalga oshirishda, aniqrog'i, oliy ma'lumotli yetuk mutaxassis tayyorlashda o'qitishning bir qancha tashkiliy shakllari qo'llaniladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asosan olib boriladi.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlar, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil ta'limi kabilar kiradi.

**Ma'ruza**– bilim berishning Shunday shakli, unda pedagog (o'qituvchi) tomonidan berilayotgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar talabalarga yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruza - o'quv jarayonining ilg'or usullaridan biri bo'lib, dastlab u o'rta asrlarda biron bir kitobni o'qish yoki uni izohlash yo'li bilan namoyon bo'lgan. Jamiyat rivojlanishi maboynida og'zaki tushuntirishning bu usuli XVIII asrda lotin tilida amalga oshirildi. XVIII asr o'rtalariga kelib ma'ruzalar rus tilida o'qiy boshlandi. Uning ilg'or namoyandalaridan biri M.V. Lomonosovdir.

Fanlar bo'yicha ma'ruzada hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;
- talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtiriladi;



- o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarining barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi. Didaktik maqsadiga (yo'nalganligiga) ko'ra kirish, tematik va umumiy – yakuniy ma'ruzalar farqlanadi.

**Amaliy mashg'ulot** - o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarining umumiy tushunchasi hisoblanadi. Agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg'ulotlar talabalarning bilimini sinashga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda mashqlar, laboratoriya ishlarini o'tkazish, har xil ilmiy tajribalarni o'tkazish kabilar amalga oshiriladi. Bilim berishning bu shaklida ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyot bilan bog'lanadi va o'quvchilar tomonidan tajribalar amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulot shakllaridan biri seminardir.

**Seminar** – talabalarning ma'ruzadan olgan ilmiy-nazariy bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan ta'lim shakllaridan biridir. Seminar jarayonida o'qituvchining o'rni juda yuksak, ya'ni o'qituvchi talabaning o'rniga javobni aytib bermaydi, balki muhokamalarni tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Seminar mashg'ulotiga tayyorlanish talabalardan katta mas'uliyatni talab etadi. Jumladan, talabalar seminar darslariga tayyorgarligi davomida mustaqil o'qishlari, kerakli adabiyotlar bilan ishlashlari, ro'znoma va jurnallardan foydalana bilishlari, Shuningdek boshqa mavzuga oid manbalarni izlab topishlari, ularni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi.

**Laboratoriya mashg'ulotlari**- Bunda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi. Laboratoriya mashg'uloti odatda maxsus jihozlangan xonada hamda tegishli apparat, asbob-uskunalar: mikroskop, lupa, kolba, o'lchov asboblari va boshqa qurollar bilan ta'minlangan joylarda (auditoriyada) olib boriladi.

**Ekskursiya** – ta'lim va tarbiya ishlarining Shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, dala, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko'rgazma va h.k.larga) tashkiliy ravishda olib boriladi. Ekskursiya usuli asosan o'qituvchi yoki ekskursiya o'tkazishga mas'ul bo'lgan shaxsning kuzatilayotgan ob'ektni bayon qilishi, tushuntirishi orqali olib boriladi. Ekskursiya oxirida, albatta yakunlovchi dars o'tkaziladi va unda o'quvchi-talabalar tomonidan tayyorlangan chizma, rasm, taassurotlar kabi materiallardan foydalaniladi. O'qituvchi mulohaza va fikrlarni umulashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

**Amaliyot** – ta'lim shakllaridan yana biri bo'lib, unda talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiiq etadi. Bu jarayonda amaliyotchiga amaliyot davomida oliy o'quv yurtidan ilmiy rahbarlar tayyorlanadi. Amaliyot talaba uchun kelajak ish faoliyatida ilk qadami bo'lib, Shu amaliyot davomida talaba oliy o'quv yurtida olgan bilimlarini qanchalik amaliyotga qo'llay olishini o'z nuqtai nazaridan ham baholaydi va bu orqali unda kelajagini tasavvur qilishga imkon yaraladi.

**Kurs ishi** – oliy maktab o'quv rejasida qayd qilingan ta'lim berishning shakllaridan biri. Kurs ishlari biror fanning nazariy kursi tugallangandan so'ng amalga oshiriladi. Ta'lim berishning bu turi talabalarning ilm olish davrida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, nazariy bilimlarini qanchalik amaliyot bilan bog'lay olishi negizida paydo bo'ladi. Kurs ishi tayyorlash jarayonini bevosita mustaqil ishlar tarkibiga kiritish mumkin. Kurs ishi ham o'quv rejasida kiritilgan bo'ladi.

**Diplom ishi** – talabaning oliy o'quv yurtida olgan bilimlarining natijasi, ilmiy izlanishlarning boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, ta'lim berishning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Diplom ishi bir mutaxassislikning talaba tomonidan tamomlanayotgan, Shu mutaxassislik rahbari bilan birga tayyorlanadigan va o'quv yurti rejasida qayd qilingan ta'lim berish shakllaridan biridir.

Oliy maktabda o'quv jarayoni mustaqil ta'limni tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Talabalarning mustaqil taxsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan initalishi sifatida qaraladi. Mustaqil ta'limning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini

yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish. Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'z ustida ishlashga hamda ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir. Mustaqil ta'lim bo'yicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasi tuziladi. Umuman olganda barcha oliy maktablarda ta'lim berishning tashkiliy shakllari amal qilar ekan, ularga bir qator talablar qo'yiladi.

### **Ta'lim shakllari - ta'lim texnologiyasi tarkibi.**

**Ta'lim shakllari** (forma-lotincha-tashqi ko'rinish) - bu usul o'quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

- *ta'lim oluvchilar soni*: ommaviy, kichik guruhlarda, yakka holda o'qitish;
- *o'qitish vaqti*: 45- sinf darsi, 90-birlashgan dars, «tanaffussiz dars»;
- *o'qitish joyi*: auditoriya, laboratoriya mashg'ulotlari, ustaxonalarda ishlash.

#### ***O'quv ishini tashkillashtirish shakli:***

- ma'ruza, seminar, mustaqil ish va boshqalar.

#### ***Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish yo'llari:***

- umumiy (frontal), guruhli, yakka tartibli.

**Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari:** ***Ommaviy ish*** (frontal) - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.



## Yo'riqnomaga talab:

Yo'riqnoma o'zida quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- topshiriqni aniq ifodalanishini;
- kutilayotgan natijalarga aniq yo'naltirish;
- tajribada sinalgan bo'lishi kerak: bu yo'riqnomani avval o'zi yoki hamkasbidan bajarishini iltimos qilish kerak;
- guruh topshiriqni mustaqil bajarish bo'yicha to'la tavsiyanomalar bo'lishi kerak;

8. Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash

(1) O'quv guruhida xayrihona munosabat muhitini yaratadi: faqat shunda ular hamkoriy ishni ijodiy bajaradilar.  
(2) ta'lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarda bajarish qoidasini bilishlari va y'naltirilgan b'ylishlari kerak.

☝ **Guruhda ishlash qoidalari:**

har kim o'z o'rtog'larini nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;  
har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;  
har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;  
har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;  
har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur

9. Guruhni bo'lish yo'lini tanlash

Kichik guruhlarini birlashtirish yo'lini tanlaydi. Ta'lim oluvchilarni kim guruhlarga bo'ladi?, aniqlaydi. Agarda bajarish uchun turli topshiriqlar berilsa, ularguruhni o'z qiziqishlari bo'yicha tanlashlari mumkin.

10. Guruhda ta'lim oluvchilar bajaradigan vazifalarini

Ta'lim oluvchilarni bajaradigan vazifalarini aniqlaydi: maslahatchi, sardor, ma'ruzachi, bayonnomachi, ramiylashtiruvchi va bosh.

11. Ish joyini tayyorlaydi

Stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda:  
- ta'lim oluvchilar auditoriyada erkin harakatlanishlari oson bo'lsin;  
- har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak;  
- zarur o'quv qo'llanmalar barchaga tushunarli bo'lishi kerak.



## IV bosqich. Yakun yasash, tahlil va baholash

### F a o l i y a t

#### Guruhlar ishida tarqoqsizlikni oldini olish yo'li:



Guruhlar ishini har doim boshqarib turish kerak: mavzudan chetga chiqish- bu ta'lim oluvchilar uchun yo'ldan chiqishdir.

Guruh sardorlariga e'tibor berish kerak.

Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan, barcha materiallar tushunarli bo'lganligiga ishonch hosil qilish.

Ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
<p>1. Bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezon va ko'rsatkichlarini eslatadi.</p> <p>2. Natijalar tekshiruvini o'tkazadi:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>▪ guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi;</li><li>▪ yoki buni avvaldan tayinlangan nazoratchi qilishi mumkin;</li><li>▪ yoki materialga taalluqli bo'lgan, topshiriqni bajarish vaqtida o'zlashtirilganlar bo'yicha, test o'tkazadi;</li><li>▪ yoki berilgan material bo'yicha boshqalar ma'lumot olganliklarini aniqlash uchun, har bir guruh o'zaro tekshirish uchun savol berishi yoki tayyorlashi mumkin. Bunda guruh a'zolari testga tayyorlanishlarida bir-birlariga hamkorlikda yordam berishlariga ruxsat beradi.</li><li>▪ 3. Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.</li></ul>	<p>Guruh vakillari ish natijalari to'g'risida ma'lumot beradilar</p>

### 3. Hamkorlikda o'zaro o'qish.

*Ushbu bo'limda hamkorlikdagi o'qishni tashkil etish usul va vositalari: tamoyillari va qoidalari; «Birgalikda o'qiyamiz», «Arra», «O'ylang-Juftlikda ishlang-Fikr almashing» texnikalari haqida ma'lumotlar beriladi.*

#### 3.1. Hamkorlikdagi o'qish: tamoyil va qoidalari

1) guruhga bitta topshiriq;

2) bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;

3) har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyatligi;

4) hamkorlikdagi faoliyat: guruh muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

5) muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirishga, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

*Hamkorlikda o'qiyotganlar uchun asosiy qoidalar:*

topshiriqni birgalikda oddiy bajarish emas, balki birgalikda o'qish;

musobaqalashish emas, balki hamkorlashish;

birgalikda ishlashga yorganish, yiqish va ijod;

har doim bir-biriga yordam qilishga, muvaffaqiyat quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik achchiqini

birga tortishga tayyor bo'lish

**“Ilon izi” (“Arra”) texnikasining texnologik xaritasi**

Ish bosqich-lar	F a o l i y a t	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
1	Lavhalarning murakkabligi va hajmi bo’yicha teng bo’lingan o’quv material ustida ishlash uchun 4-6 kishidan iborat bo’lgan guruhlarni shakllantiradi.	
2	Oldinda turgan ish xususiyatini tushunturadi, ekspert varaqlarini tarqatadi - har bir guruh a’zosi umumiy ishning alohida qismini oladi va o’zining o’quv material sohasining eksperti bo’ladi.	<p>2.1. Har bir guruh a’zosi ekspert varag’iga mos ravishda o’quv materialidan kerakli ma’lumotni topadi</p> <p>2.2. Mutaxassislar uchrashuvi-har xil guruhlarda faqat bir materialni o’rganayotganlar bilan uchrashadilar va ekspertlar sifatida axborotlar bilan almashiladilar, o’zlarining savollarini ishlaydilar, dastlabki o’zlarining guruh a’zolariga ushbu axborotni samaraliroq bayon etishni birgalikda rejalashtiradilar</p> <p>2.3. Mutaxassislar o’zlarining dastlabki guruhlariga qaytadilar va boshqalarga o’zlari bilib olgan barcha yangiliklarni o’rgatadilar: har biri o’zining topshirig’ining qismi to’g’risida ma’ruza qiladi(xuddi arraning bir tishiday)</p> <p>2.4. Umumiy mavzu bo’yicha bir-savollar beradilar va bilimlarni o’zlar yoki ta’lim beruvchi tomonidan mavzular bo’yicha testlarni bajaradilar</p>
3	Ish yakunidan so’ng guruhlardagi hohlagan ta’lim oluvchiga mavzu bo’yicha hohlagan savolga javob berishishi taklif etadi.	Savollarga javob beradilar

**“Birgalikda o’rganamiz” (“Koop-koop”) usulining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari	F a o l i y a t	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchi
1	O’qiganlik darajasi bo’yicha 3-5 kishidan iborat bo’lgan har xil guruhlarni shakllantiradi	
2	Har bir guruhga umumiy mavzuning qismini - bir topshiriq beradi, bu bo’yicha barcha o’quv guruhlari ishlaydi. Tayanch (ekspert varaqlar)ni taqdim etadi	Guruh ichida umumiy topshiriq bo’linadi
3	Topshiriqni bajarish muvaffaqiyatini, muomala madaniyatini nazorat qiladi	<p>3.1. Hamma alohida topshiriqni bajaradilar va barcha mavzular bo’yicha mustaqil ishlaydilar.</p> <p>3.2. Guruh a’zolarini kichik-</p>

		ma'ruzalarini tinglaydilar. Umumiy ma'ruzani ifodalaydilar
4	Guruhlardagi ish yakunini va natijalar taqdimotini e'lon qiladi	Guruh sardorlari yoki hamma guruh ma'ruza taqdimotini o'tkazadilar.
5	Guruh natijalarining tahlili va baholashini o'tkazadi, g'olib-guruhni aniqlaydi.	

### **“O‘ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing” texnikasi**

Ushbu texnika birgalikdagi faoliyat bo‘lib, talabalarni matn ustida fikrlash, o‘z g‘oyalarini shakllantirish va ularni hamkorlar yordamida muayyan shaklda ifodalashga yo‘naltiradi.

#### **«O‘ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi**

1. O‘qituvchi savol va topshiriq beradi: oldin o‘ylab chiqish, so‘ng qisqa javoblar yozish tartibida.



2. Talabalar juftliklarga bo‘linib, bir - biri bilan fikr almashadilar va ikkala javobni mujassam etgan umumiy javobni ishlab chiqishga harakat qiladi.



3. O‘qituvchi bir necha juftliklarga o‘ttiz sekund davomida auditoriyaga o‘z ishining qisqa yakunini ifodalab berishni taklif qiladi.

Quyidagi o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun 3 guruhga bo‘lining:

1. Mustaqil xohlagan shaklda «hamkorlikdagi o‘qish», «o‘zaro o‘qish», «birgalikda o‘qish» tushunchalariga, sizning fikringiz bo‘yicha, munosib tavsif va belgilarni yozing.

2. Guruhda birgalikda yozilganlarni muhokama qiling va ushbu tushunchalarni birga taqqoslab tahlil qilishga harakat qiling (grafik tashkil etuvchilaridan foydalanishingiz mumkin).

3. Siz uchun uchta o‘qish texnikasidan qaysi biri ma’qul? O‘z javobingizni asoslab bering.

Ushbu mavzu bo‘yicha guruh bilimni aks etadigan ko‘rgazmali taqdimotni tayyorlang.

Boshqa guruh a’zolarining bilimni tekshirish uchun savollarni tayyorlang.

#### **Talabalar bilimni mustaxkamlash uchun savollar:**

1. Ta’lim shakllari – ta’lim texnologiyasining tarkibi deganda nimani tushunasiz?

2. Shakl, ta’lim shakllari, ta’limni tashkil etish shakllari tushunchalarini izohlab bering? .

3. Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi izohlang?

4. Hamkorlikda o‘zaro o‘qishni tushuntirib bering?

5. “Ilon izi” “Arra” texnikasi

6. “Birgalikda o‘rganamiz” (“Koop-koop”) usulining texnologik xaritasi



## **5-MAVZU: TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MAQSAD VA MAZMUNINING MOXIYATINI OYDINLASHTIRUVCHI KO'RSATKICHLAR.**

### REJA:

1. Ta'lim mazmunini murakkabligi.
2. O'zlashtirishning avtomatlashuv darajasi (XT).
3. O'zlashtirish sifati anglashuvchanlik.
4. Anglab o'zlashtirishning darajalari.
5. Ta'lim mazmunini didaktik tayyorlash.

Demak, mavzu bo'yicha UE ni bo'lajak muxandislar qaysi maqsadini aniqlashga qaratilgani yana bir ko'rsatkich predmetni o'rganish ilmiyligi yoki fan taraqqiyotining abstraksiya pog'onalari (AP) kiritiladi.

### Abstraksiya pog'onalari.

Har kanday fan o'ziga tegishli narsa va xodisalar murakkab yozilganligiga ishongach hosil qilish mumkin. Shu boisdan bu tushuncha o'quv dasturi va darsliklar yaratishda juda muhim tushuncha xisoblanadi. Sababi har bir tushuncha darslik o'quvchilarning bilish faoliyatini mustaqil o'quv ishlari tarzida tashkil etishni qo'zda tutadi. O'quv predmetining murakkabligi "oddiydan murakkabga" deb nomlangan muhim didaktik qoida bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, bu qoida oddiy o'quv materialining har doim bir muncha qiyin bo'lgani bilan bosqichma bosqich to'ldirib borishni taqazo etadi. Aniq o'quv materialini bayoni uchun "sodda" va "murakkab" tushunchalarini qo'llash mumkin, biroq bu baholash mezonlari ham yaxlitlikka da'vogarlik qila olmaydilar, chunki o'quv materialini bir o'quvchi uchun murakkab bo'lsa, boshqasi uchun esa tushunarli bo'ladi. Shu boisdan o'quv predmetini o'rganishda past abstraksiya pog'onasida ifodalangan materialdan yuqori abstraksiya pog'onasida yozilgan materiallarga o'tish va o'quvchilarni bu o'tishga oldindan tayyorlash kerak bo'ladi.

**2. O'zlashtirishning avtomatlashuv darajasi.** (Kt). Ijtimoiy tajribani o'zlashtirish sifatini baholash uchun uni o'zlashtirish darajasi va bayon qilishda abstraksiya pog'onalari kabi tushunchalardan tashqari ko'pchilik faoliyat turi uchun yana bir muhim ko'rsatkich tajribani egallash darajasi yoki asosiy amallar va usullarni o'zlashtirishda avtomatlashuv darajasi-malakalar mavjudligi xisoblanadi. "Malaka" tushunchasi qator pedagogik maqolalarda etarlicha yoritilgan bo'lsada, biroq ularni o'lchash va me'yoriylash bilan metodika fani xanuzgacha shug'ullanmaydi. Ayni vaqtda ta'limga qo'yilgan asosiy talab uning sifati ekanligi e'tirof etilayotgan bir sharoitda malaka muammosiga etarlicha diqqatni jalb etishi kerak bo'ladi. Malaka aqliy va amaliy harakatlarni bajarish ko'nikmalarining ma'lum o'lchovda avtomatlashuvi deb ta'riflanadi. Demak, ko'nikma va malaka o'rtasidagi farq egallangan harakatni tavsiflash usulida ekan: agar harakat mazmun bo'yicha (o'qiyapti, yozyapti, echadi, bajaradi) tavsiyalansa biz ko'nikma bilan ish ko'rayotgan blamiz, agar harakat uni bajarish tezligi (vaqti) bilan ham tavsiflansa, unda gap harakatning avtomatlashuvi malaka xaqida boradi.

O'quvchilarning tajriba (faoliyat) ni egallash darajasi oldindan belgilangan vaqt bilan bog'liqdir. Shu bilan u yoki bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga ma'lum vaqt ajratiladi va bu vaqt ana shu topshiriqni tajribali mutaxassis tomonidan bajarish vaqti etalon bilan taqqoslanadi. Ularning o'zaro nisbati "egallash darajasi koeffitsienti yoki avtomatlashuv darajasi"ni bildiradi. ya'ni:

O'quv jarayoni uchun da'vogar ko'rsatkich bu ( $t_{o'quvchi}$ ) xisoblanadi. Chunki  $t_{mutaxasis}$  tajriba sinov natijasidan bizga har doim ma'lum. Demak,  $K_t$ -avtomatlashuv darajasining sekinlashuvi yoki tezlashuvini ifoda etadigan ijtimoiy o'zgaruvchan koeffitsient ekan.

**3. O'zlashtirish sifati anglashuvchanlik.** (U) Inson tomonidan faoliyatini sifatli boshqarish shartlaridan biri uni tushunib etish, anglash darajasi xisoblanadi. Anglagan holda tajribalarni o'zlashtirish shunchalik muhimki, xatto didaktikada unga alohida e'tibor qaratilgan: o'quvchilarning bilimlarni anglab, tushunib o'zlashtirishni talab etadigan didaktik tamoil mavjud. Pedagogik nashrlarda bilimlarni anglab o'zlashtirish yoki akliy rivojlanish darajasi uchga bo'linadi.

Birinchi- harakat usullarini tanlash argumenti ma'lum vaziyatlarda predmetdagi bir xil ob'ekt va xodisalarni ifodalaydigan tor doiradagi tushunchalar va konuniyatlarga tayanadi. Bu anglashuvchanlik pgonasi predmetli deb nomlanadi. Harakatlarni predmetli anglashga o'quvchilarning matematika, fizika, kimyo, adabiyot va boshqa predmetlardan masalalar echishni misol tarikasida ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi- o'quvchilar harakat usullarini tanlashni argumentlashda biror predmet ma'lumotlarni boshqa predmet doirasidagi bilimlar bilan qo'shishga tayanadi. Misol uchun, kimyoviy masalalarni echishda fizikaga, biologik-kimyoga tayanib ish ko'riladi. Bu anglashuvchanlik pog'onasi *predmetlararo* deb nomlanadi.

Uchinchi- argumentlash uchun turli fan sohalari ma'lumotlariga murojat etiladi. Bu darajani shakllantirish uchun yangi ilmiy bilimlarning tizimli tahlili, amallar tahlili, faoliyatni axborotlashtirish kabi akliy darajalari xizmat qilishi mumkin. Bu anglashuvchanlik pog'onasi *tizimli* deb nomlanadi. Shunday kilib, anglashuvchanlik pog'onalari bo'lishi mumkin. Faoliyatni anglashuvchanlik o'qitish sifatini belgilovchi ko'rsatkich xisoblanib, ta'lim maqsadi sifatida berilishi va o'qitish jarayoni uning natijasi sifatida joriy etilishi mumkin. SHu boisdan o'quv materialni o'zlashtirishning anglashuvchanlik koeffitsienti ( $K_y$ ) kiritiladi:

Bu erda o'quvchilarni o'quv materialni o'zlashtirishda anglashuvchanlik darajasi 1,2,3 shqala bilan baholanadi sinf bo'yicha anglashuvchanlik darajasining o'rtacha qiymatli. Bu anglashuvchanlik ko'rsatkich o'zlashtirish darajasi bilan qanday bog'lanishda bo'lishi mumkin? Ma'lum bo'lishicha va faqat esa bilan to'g'ri kelishi mumkin, faqat faoliyatning darajasiga tayanishni talab etadi.

### **TA'LIM MAZMUNINI DIDAKTIK TAYYORLASH.**

Ta'lim mazmuni ma'lum qonuniyatlar asosida didaktik tayyorlanmas ekan, uni berilgan vaqt davomida o'zlashtirish murakkab kechadi. Qator hollarda bu mazmun o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatiga mos kelmay qoladi. Shu boisdan o'quvchilarning o'zlashtirish bo'yicha o'quv ishlarini engillashtirish maqsadida ta'lim mazmuniga nimadir kiritish yoki pedagogika fani to'plagan boshqa bir usullarni taklif etish kerak bo'ladi.

Ta'lim maqsadi ma'lum: o'quvchilar darsda  $\beta$ -abstraksiya pog'onasida yoritilgan, o'zlashtirish darajasi avtomatlashuv darajasi anglashuvchanligi bo'lgan N ta o'quv elementlarini (UE) uzlashtirish kerak. Agar bu ko'rsatkichlarga taklif etilayotgan ta'lim mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish tezligi (ESDA) qo'shilsa, o'qish jarayonini utkazmasdan turib o'quv materialining ularga tushunarligi yoki yo'qligini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu amalni majburiy tartibda bajarish kerak, sababi ortiqcha o'quv yuklamasi o'quvchi (talaba) larni nafaqat charchatadi, balki qushimcha ravishda faoliyatga qiziqishlarini ham yuqotadi. Bu xaqiqat bizning uzoq hamkasblarimizga ham yaxshigina tanish bo'lgan va ular bu talabni o'qitishni yakka tartiblashtirish talabi sifatida yozib qoldirganlar. Biroq ular ta'lim maqsadini tushunarli bo'lishini aniq metodlar yordamida baholash mumkinligini anglab etmaydilar va bu ishni o'qituvchining xususiy intitsiyasiga bog'lab qo'ydilar.

Akademik V.P.Bespalkoning ta'kidlashicha, qator pedagogik maqolalarda va xatto dissertatsiyalarda ham xech kimni majburlamaydigan quyidagi tavsiyalarni o'qish mumkin: "maktab dasturlari mazmunini diqqat bilan tahlil qilish, ulardagi eskirgan materiallarni aniqlash va dasturlarni mumkin qadar engillashtirish (6,104). Taajub, qanday qilib va qanchali "yengillashtirish" kerak, buni xech kim bilmaydi va bu xaqda pedagogikada ham xech narsa

yoziqlmagan. SHu boisdan V.P.Bespalko tomonidan taklif etilgan metodikani qisqacha izoxlashga e'tiborni qarataylk.

U yoki bu o'quv materialining o'quvchilarga tushunarli bo'lishini xisoblash uchun dastlabki shartlarni eslash zarur o'qish jarayoni o'quvchilarning o'quv materiallarida ifodalangan ba'zi axborotlar hajmini qabullash, qayta ishlash va saqlashdan iborat. O'zaro bog'liq bo'lmagan va tashxislanuvchan ko'rsatkichlarni ma'lum yig'indisi yordamida bu axborotlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish sifati, tabiiyki uni o'qitish sifati yoki ularning o'rganayotgan predmetdan egallangan faoliyati sifati yoritiladi. Bu bog'lanmagan ko'rsatkichlar yig'indisi kitobxonga ma'lum:

N - ta'lim mazmunidagi UE soni;

o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasi;

$\beta$ - o'quv axborotlari bayon qilinadigan abstraksiya pog'onalari;

N- bir o'quv elementida bayon qilinadigan axborotlarning o'rtacha qiymati;

-axborotlarni o'zlashtirishda anglashuvchanlik darajasi.

K-o'zlashtirishning avtomatlashuv darajasi.

Bu ko'rsatkichlar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun taklif etilayotgan axborotlar xajmini xisoblash formulasini tuzish mumkin:

axborotlarni ikkilamchi birligi (6,105).

O'quvchining dars mazmunini o'zlashtirish tezligi (S) tajriba sinov yo'li bilan aniqlanadi. Uning tajribiy qiymati oddiy hollar uchun 0,1-0,3 ikkilamchi birlik/sek ga teng. Bu kattalik yordamida ana shu mazmunni o'zlashtirish uchun ketgan vaqti;

$T = Q/S$  sek (min, o'quv soati)

Keyin esa o'quvchilarning *yuklanganlik koeffitsenti* (esda) aniqlanadi. Agar aynan shu materialni reja (dastur) da Tr sondagi o'quv vaqti evaziga o'rganish kerak bo'lsa, u holda;

Tadqiqotning ko'rsatishicha agar 1,5 bo'lsa o'quvchilar o'quv predmetini asosli ravishda o'rganishga ulgurmaydilar va ular bilan yuzaki tanishadilar (K 0,3+0,5).

Yuklanganlik koeffitsenti o'zlashtirish tezligiga bog'liq bo'lib, o'quvchi uchun doimiy emas va uning qiymati o'quvchi loyixalaydigan didaktik jarayonga bog'liq bo'ladi. Didaktik jarayon qanchalik yomon tashkil etilsa, o'quvchi uchun o'quv yuklamasi shunchalik sezilarli bo'ladi.

O'quvchi faoliyatining muhim bosqichi bu didaktik jarayon (yoki o'quv bilish tuzilmasi) ni loyixalash xisoblanadi. Aynan shu didaktik jarayon pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qiladi yoxud u belgilangan vaqt ichida ta'lim (tarbiya) maqsadida erishish uchun UE mazmunini o'quvchi (talaba) larga uzatish yo'llarini aniqlab beradi. Shu bilan birgalikda didaktik jarayonning nazariy asoslarini yaxshi bilmasdan turib samarali pedagogik texnologiyani yaratish mumkin emas.

Xo'sh, didaktik jarayon moxiyati nimadan iborat? Ularni loyixalashga qanday pedagogik talablar ko'yiladi? Psihologiya va pedagogika fanida didaktik jarayon mutaxassis shaxsini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. SHu o'rinda ilmiy raxbar akademik V.P. Bespalko bilan bo'lib o'tgan bir munozara matnini qisqacha keltirib o'tamiz:

N.S.Vladimir Pavlovich, siz nima uchun o'qitish jarayonini didaktik jarayon deb uktirasiz ular o'rtasidagi farq nimadan iborat?

V.Pavlovich o'qitish jarayoni "klassik qoida"ga bo'ysunadi. Ya'ni o'qituvchi sinf (auditoriya) ga kirib, dars mavzusini e'lon qiladiyu, darhol uning mazmunini bayon qilishga kirishib ketadi. Didaktik jarayon esa har bir dars (ma'ruza) ni boshlashdan oldin o'quvchi (talaba) lar diqqatini jalb qila oladigan faoliyat bosqichi motivatsiyani vujudga keltirishdan boshlanadi. Ana shu motivatsiya bosqichi o'quv bilish faoliyatining kaliti xisoblanadi. Afsuski bu kalitdan xano'zgacha o'qituvchilar ta'limning sexrli sandigini echish uchun foydalanishmaydi. (Fevral, 1981).

Dastlabki o'qitish jarayoni tuzilmasi bilan tanishaylik.

Bu jarayonni ramziy tarzda quyidagi shartli formula bilan ifodalash mumkin.

$UJ = UF + UkF$ , qaerda:

UF- o'quvchi bajaradigan o'quv faoliyati: UkF-o'qituvchi bajaradigan o'qituvchilik faoliyati. Bu formula asosida juda muhim sanalgan № 1 pedagogik qonun qayd etilyapti:

o'quvchining xususiy o'quv faoliyati va unga hamoxang bo'lgan o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatidan tashqari xech qanday o'qitish jarayoni mavjud bo'lmaydi.

Ko'plab psihologik-pedagogik adabiyotlarni va tadqiqotlarni o'rganish natijasida didaktik jarayon o'zaro bog'liq bo'lgan qo'yilagi komponentlardan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi: motivatsiya (M), o'quvchi (talaba) ning o'quv bilish faoliyati (UF) va uni pedagog tomonidan boshqarish (B) uning shartli formulasi:

$$D_j = M + U_f + B \quad (5,96)$$

Bu jarayon bosqichlarini o'rganishdan oldin yuqorida keltirilgan ikki formulani o'zaro takkoslash zarur bo'ladi. E'tibor bersangiz, o'qitish jarayoni ikki faoliyat turidan o'quvchining o'rgatuvchilik va o'quvchining o'quv faoliyatidan iborat. O'qitish jarayoning ana shu komponentlari didaktik jarayonning keyingi ikki bosqichi bilan bir xil ma'no kasb etadi, yoki bir xil faoliyatni ifodalaydi. Bir biridan farqi n- didaktik jarayondagi dastlabki element bumotivatsiya bosqichining mavjudligidir. O'quv bilim faoliyatining motivatsiyasi o'qituvchi maxoratigi tegishli tushunchadir.

Didaktik jarayon tuzilmasini batafsil tahlili qilishga kirishaylik.

### **MOTIVATSIYA BOSQICH.**

Motivatsiya n bu shaxs xatti harakatini yuzaga keltiruvchi ichki haraklantiruvchi kuch, xissiyot bo'lib, pedagog uni boshqarishga harakat qiladi va o'quv jarayonini tashkil etish uchun xisobga oladi. Uni amalda vujudga keltirish uchun o'qituvchi o'rgatilayotgan faoliyat tajribalaridan tassurotli dalilari maxsus yig'ini va o'quvchilarga o'qitilayotgan predmetning asosiy holatlari bo'yicha bilimlar asosida noqulay vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini namoish qilish kerak. O'qituvchining pedagogik maxoratiga bog'liq holda o'quvchilarda xosil bo'ladigan motivlar kuchli yoki kuchsiz bo'ladi. Demak, o'qituvchi har bir dars maqsadi va mazmuniga mos holda motivatsiya me'yorini aniqlashi lozim bo'ladi. Pedagogikada o'quvchilarni darsga qiziqtirish yo'llari xilma xildir. Birmuncha samarali bo'lgan metodika bu muammoli vaziyatlarni mashg'ulot boshlanishida o'quvchilarga taklif etish yoki predmet mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berilishi kerak.

Muammoli vaziyatlar o'zida o'quvchining qiyinchiligini aniq yoki xira aniqlashni ifodalaydi va uni zabt etish yangi bilimlarni, yangi usul va harakatlarni izlab topishni talab etadi. Agar o'quvchida qiynalishlarni bartaraf etish yo'llarini qidirish uchun boshlang'ich bilimlar etishmasa, u muammoli vaziyatlarni kabul qila olmaydigan va tabiyki, tafakko'rida ko'rash va qarama-qarshi jarayon kechmaydi.

Mavjud vaziyatlarning uch ko'rinishini keltirish mumkin:

1. **Vaziyat ma'lum.** Uni xal etish uchun shunga o'xshash aniq namunalar mavjud bo'ladi. Bunday holatda variantni echish metodi standartli bo'lishi mumkin.

2. **Vaziyat o'xshash.** Bunday holatda uni shunga o'xshash boshqa vaziyatlar bilan taqqoslash zarur. Ular bir biriga aynan o'xshash bo'lmasligi mumkin, biroq yaxlit asosga ega bo'lganligi uchun uning ko'rinishini o'zgartirib qaralayotgan vaziyatga yaqinlashtirib makbullanastiriladi va oqilona echish yo'li topiladi.

3. **No'malum vaziyat.** Bunday vaziyat amaliy faoliyatda uchramaydi. Uni boshqa kandaydir namuna bilan solishtirish imkoni yuk. Shu boisdan echimning yangi metodini izlab topish zarur bo'ladi.

Muammoli vaziyatlar ta'lim maqsadini ko'zlab oldindan konstruksiyalanadi va o'qitish jarayoning ma'lum qismiga kiritiladi. Didaktik jarayonini motivatsiya bosqichi esa muammoli topshiriqlarni ko'proq darsning boshlang'ich qismiga kiritishni va o'quvchilar diqqatini dars mavzusiga to'liq jalb etishni taqozo qiladi. O'quvchi ham o'z navbatida tanish vaziyatlarini, ob'ekt tuzilishini anglab olishi, muqobil echimlarni topa bilishi kabi ijodiy faoliyatni namoyish qilish kerak.

Didaktik jarayoning motivatsion bosqichi o'quvchilarning bilish faoliyatiga kirib ketishini tezlashtirishga imkon beradi. Bu faoliyatni kerakli faollik darajasida ushlab turish uchun uni tashkil etish metodlari va usullarini o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish sifatiga bog'liq holda tanlay olishi kerak.

Misol uchun, kuchlanish, toq kuchi, sig‘im kabi fizik kattaliklarning o‘zaro faoliyatini tushuntirish maqsadida o‘qituvchi quyidagi muammoli vaziyatni qo‘llash mumkin “Ural“ kolyaskali mototsiklda ham traqtorda ham bir xil kuchlanishli ( 12V) aqumulyator ishlatiladi. Biroq mototsiqli aqumulyatori traqtorga o‘rnatilsa dvigatelni o‘t oldira olmaydi. Nima uchun? Agar o‘quvchi toq kuchi, sig‘im kabi tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa muammoning kuchi, sig‘imi kabi tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa muammoning echimini tezda topadi va tug‘ri xulosaga keladi: aqumulyator quvvati kuchlanishga emas, balki toq kuchiga va sig‘im kattaligiga bog‘liq bo‘ladi.

Dars mavzusini tushuntirishda tarixiy materiallardan foydalanish ham o‘quvchilarda kuchli motivlarning vujudga kelishiga bilishga qiziqishini kuchaytirishga sabab bo‘ladi. Biroq o‘quv materialini bayon qilishga tarixiy yondoshish qo‘shimcha harakterga ega bo‘lishi, mavzu bo‘yicha egallanayotgan bilimlar tizimi ichida mantiqiylik saklanishi kerak.

U yoki bu mavzuga oid qisqa metrajli kino qadr ham kuchli motivatsion omil xisoblanadi. Biroq kino dars o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida bo‘ladigan evrestik suxbat mazmuniga zamin yaratish kerak, shundagina o‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga extiyoj tug‘iladi va ko‘zlangan maqsadga erishiladi. O‘qituvchi anglab etishi kerak bo‘lgan holat shundan iboratki, darsga motivlarni o‘quvchilargda rivojlantirish asosiy maqsad, balki o‘quvchining bilish faliyatini tezlashtirish vositalaridan biri sanaladi.

O‘quvchilardagi motivatsiya harakteri ko‘p jixatdan ularning o‘quv faoliyatiga bog‘liq. Urganish bu keng ma‘noda o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Lekin har qanday o‘rganish ham o‘quv faoliyati bo‘la olmaydi. O‘rganish o‘quv faoliyati darajasiga ko‘tarilishi uchun o‘quvchilar bilimlarni egallash davomida ularni yangi usullarini mustaqil ravishda topshiriqlarni belgilashi, o‘zo‘zini nazorat qilish va o‘z xususiy o‘quv holatini baholash mezonlarini bilishlari kerak.

Pedagogik jarayon bilan shug‘ullanuvchi har bir kishiga ma‘lumki, bilimlarni o‘quvchilar tomonidan egallanishi ularning xususiy o‘quv faoliyati natijasi tufayli ro‘y beradi. Psihologlar bu faoliyat turini keng qamrovda o‘rganib chiqqanlar va uning bilim harakatlarini egallashga olib keladigan turli ko‘rinishdagi tuzilmasini aniqladilar. (Galnerni P.YA. Tanzina N.F.CHEbisheva V.V.) Biroq psihologiya fani xanuzgacha o‘qitishda o‘quvchilarning ketma-ket bilish harakatlarining eng yaxshi tarkibi to‘g‘risida yakdil fikrga kelganlaricha yo‘k. Bu tarkib va o‘quvchilarning bilishiga oid harakatlarining ketma-ketligi mavjudlik algoritmi (MA) deb nomlanadi. MA, birinchidan, bu harakatlarning qatiyan ketma-ketligi, ikkinchidan, bu harakatlarining qatiyan oldindan aniqlanganligini takidlaydi. Shu boisdan MA moxiyat jixatdan o‘quv - bilish nazariyalarining turiga mos holda turli ko‘rinishlarga va mazmunga ega buladi. Har kanday MA ning invariativ elementi bu-o‘quv jarayonida o‘zlashtirish darajasi buyicha ketma-ket harakatlanishdir. Harakat “kadam” ning uzi har bir “qadam” mazmuni tanlangan o‘zlashtirish nazariyasiga bog‘liq bo‘ladi. Tanlash usuli va tanlangan o‘zlashtirish nazariyasiining sifat mezonlari-o‘qituvchinng pedagogik faoliyatidagi muhim mo‘ljali va uning pedagogik texnologiyasi tavsifnomasi xisoblanadi.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har qanday o‘quv faoliyati umumiy loyixasi buyicha ko‘riladi va o‘zida mo‘ljalli, yo‘naltiruvchi, bajaruvchi, nazorat qiluvchi va tuzatuvchi harakatlarni mujassamlashtiradi.

Bu harakatlarni o‘quvchilar bevosita o‘qituvchi yoki darslik yordamchida turlicha to‘liqlikda va turlicha ta‘lim nazariyasiga tayangan holda bajarishlari mumkin. O‘qituvchi dastlab o‘quvchidagi mavjud harakat turlarini kuzatishi kerak. O‘quv harakatlarining alohida har bir UE ni o‘zlashtirishning ma‘lum bosqichida namoyon bo‘ladi. Misol uchun, Mx ni bajarilishi va o‘quv topshiriklarini o‘zlashtirishni quydagicha amalga oshiirladi: a) o‘qituvchi belgilangan tayyor topshiriklarni tushunib etishi; b) o‘zi uchun bu topshiriklarni faol qabul qilishi; v) mustaqil ravishda o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini o‘rgatish; g) bir qancha o‘quv topshiriklarini mustaqil o‘rgatishi.

O‘quvchining mo‘ljalli harakatlari ( Mx) o‘zlashtirish davomida shunday axborotlar bilan ta‘minlanadiki, ular o‘quvchi egallaydigan harakat qonunlari va usullarini umumiy ko‘rinishda

ifodalay oladi. Odatda Mx har bir o'quv topshirigini bajarishda ma'lum ketma- ketlikka rioya qilishni taqazo etadi va bu harakatlar tizimi ko'pincha yo'riqli haritada o'z aksini topadi. Bu harakatlar yordamida o'quv materiallarni o'zlashtirish davom etadi, biroq endi bu jarayon bilish faoliyatining keyingi bajaruvchilik bosqichida ro'y beradi.

Bajaruvchi harakatlar (Bx) ham o'zlashtirishning turli bosqichlarida bo'lishi mumkin: a) asosiy o'quv harakatlarining bajarilishi; b) alohida harakatlarni operatsiyaning bir zvenosi sifatida bajarilishi; v) bir masalaning echimiga qaratilgan va yirik bloklarga qo'shilgan holda amalga oshadigan bir qator o'quv harakatlarini bajarish; g) bu yirik bloklarni anglash darajasi yoki "avtomatik" darajasida amalga oshirilishi.

Aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasida o'quvchining bajaruvchi harakatlari (Bx) o'quv bilish faoliyatining turli shakllarini ketma-ket almashtiradigan amallarni bosqichli jarayon sifatida tashkil etishni taqazo etadi, ya'ni: tashqi moddiylikdan (Md) ichki nutq (Nt) shakli orqali aqliy (Ak) harakatga.

Keyingi bosqich nazorat qiluvchi (Nx) harakat mavzu bo'yicha UE ni o'zlashtirish darajasi o'quvchining o'z - o'zini nazorat qilish evaziga amalga oshiriladi va etalon bilan solishtiriladi. Agar o'zlashtirish darajasi past ( $K \leq 0,7$ ) bo'lsa, u yoki bu harakat bosqichida yo'l qo'yilgan xatolar o'quv faoliyatining tuzatuvchi bosqichida (Tuz) aniqlanib, tuzatishga oid didaktik jarayon tashkil etiladi. Shuni aloxida ta'kidlash joizki, T operatsiyasi bu shunchalik o'quvchining mashk bajarishida yoki test echishida yo'l kuygan xatolarini tuzatish emas, balki didaktik jarayonni tuzatish, kayta ko'rish demakdir. Agar Nx o'quv faoliyatining barcha bosqichlari uchun tegishli bo'lsa Tuz ya'ni  $K > 0,7$  bo'lgan hollardagina amalga oshiriladi. Agar  $K \geq 0,7$  bo'lsa, To'zga xojat kolmaydi va keyingi bosqichlarga kadam kuyiladi. SHunday kilib, yuqorida ta'limning maqsad va mazmunini ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan tanishib chikdik. Bu ko'rsatkichlarga amal kilgan holda TT si olib borilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin va TT ni yanada takomillashtirish mumkin; o'quvchilarning bilim, malakalarini sifatlarini oshirish va xatolarni tuzatishga imkon yaratiladi.

## 5-SEMENAR mavzu. Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasi tarkibi.

### Reja:

1. Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.
2. Usul, ta'lim usullari tushunchasi.
3. Ta'lim usullarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati.
4. Faol ta'lim usullari, interfaol usullar tushunchalari.
6. Ta'lim usullarining tasnifi.
7. Ta'lim usullarining mazmuni.
8. Interfaol usullarning boshqa usullardan farqli tomonlari.
9. Interfaol usullar mazmuni.
10. Ta'lim usullarini tanlash omillari.

**Tayanch so'z va iboralar:** metod, ta'lim berish usuli, interfaol ta'lim, baxs (munozara), aqliy hujum, insert usuli, pinbord,

Metod (usul) - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "Metodos"- biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi.

*Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish b'yyicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar y'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li.*

Ta'lim berish usuli, ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Usullar: ushbu ta'lim berish davridan chiqqanda ta'lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Usullarning tanlashni asosiy qoidasi > turlicha emas ta'lim berish maqsadiga mos kelishi

Usullarga qo'yiladigan asosiy talab > natija beradigan, faqat bittasini qo'llash.

Usulning asosiy natijaviyligining mezon > belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamkorligi.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashda usulni ongli tanlash, ularni har birining imkoniyatlarini ko'ra bilish kerak

Ta'lim usullari to'g'risida tushuncha.

Ta'lim jarayonida to'g'ri usul tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. O'qitishning samarali borishi, o'quvchi-talabalarining har bir fanni chuqur o'zlashtirib olishlari, Shuningdek ular bilimlarni ongli va mukammal egallashlari uchun hamda yoshlarda mustaqil va ijodiy faoliyat-fikrlarining rivojlanishiga bevosita o'qituvchining ta'lim usullaridan keng va mohirona foydalana olishiga bog'liqdir. Pedagogika tarixidan, pedagogika amaliyotida ham o'qitish usullarining juda katta boyligi to'plangan.

**Ta'lim** usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Demak, o'qitish usullari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni, usullarni o'z ichiga oladi. Ammo, har ikkala faoliyat ham hamisha bir xil va bir yo'nalishda bo'lavermaydi. Dars jarayonida o'tiladigan mavzuning xarakteri, mazmuniga qarab, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati turlicha yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

**Ta'lim** usullari, o'qituvchining o'qitish faoliyati tug'risida o'tmishda ham, jumladan Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida alohida asoslab berilgan. Abu Nasr Forobiyning «Fan va san'atning afzalligi» risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar mukammal ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi fikrlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga aniq ishontirish kerakligini o'qitgan.

Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bo'lar: ko'rsatmali tajriba usullari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javob usullari (Abu Rayxon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish usullari (Forobiy, al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning hammalari o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar.

Hozirda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida kengroq joriy etilishi zamirida o'quvchi-talabaga berilishi lozim bo'lgan ilmiy bilimlar ko'lami o'qitish usullari va shakllarining doirasini kengashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

O'qitishning hikoya, suhbat, ma'ruza, illyustratsiya turlari, namoyish qilinadigan asbob-uskunalar va priborlarni ko'rsatish, mashqlarni, mehnat topshiriqlarini, laboratoriyada o'tkaziladigan tajribalarni bajarish, xalq pedagogikasi materiallaridan foydalanish usullari va uslubi, o'quv munozaralari, o'quv faoliyatida rag'batlantirish va tanbeh, o'quv materiallarini muammoli bayon qilish, muammoli suhbatlar, tadqiqot tajribalarini qo'llash, kitob ustida ishlash, kompyuterlardan mustaqil foydalanish kabi usullarni qo'llash, og'zaki so'rash, yozma ishlar, avtomatlashtirilgan qurilmalar yordamida dasturlashtirilgan nazorat usullaridan foydalanish va hokazolar o'qituvchilar uchun juda tushunarlidir.

Ta'lim jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishida, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal egallashlari uchun o'qituvchining asosiy vazifasi darsda samarali usul-metodlardan foydalanib, o'quvchi-talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, mustaqil hayotga tayyorlash, Shuningdek ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishdan iboratdir. Shunday qilib, o'qitish usullari o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'lidir.

Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur usul orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilaydi.

4. Ta'lim usulining tushunarligi bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday ta'lim usulidan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi. Shu boisdan unga erishishda pedagogik faoliyatda o'qituvchidan yuksak bilim, ijodkorlik va pedagogik qobiliyat hamda mahoratli bo'lishni talab etiladi.

2. Ta'lim usullarining turlari.

**Ta'lim** usullarini tasniflashda o'quvchiga dastur materiallarini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarini tushunishda yordam beradi, o'qituvchining faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoit vujudga keltiradi.

Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda o'qitish usullarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganamiz.

1. Ta'limning og'zaki usullari.

2. Ta'limning ko'rgazmali usullari.

3. Ta'limning amaliy usullari.

4. Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.

5. Ta'limning induktiv va deduktiv usuli.

6. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.

7. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.

8. Kitob bilan ishlash usuli.

**Ta'limning og'zaki** usullari. O'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llanib kelinmoqda. Didaktikada o'qitishning og'zaki usullari uch turga: o'qituvchining hikoyasi, suhbat va maktab ma'ruzasiga ajratiladi. Og'zaki bayon qilish usulida ikki faoliyatning, ya'ni bir tomondan o'qituvchining o'quv materiallarini mohirlik bilan og'zaki bayon qilib berishi va ikkinchi tomondan, bayon qilinayotgan materiallarni o'quvchilar diqqat bilan tinglab, ongli va mustahkam



o'zlashtirishlari birligiga amal qilinadi. Og'zaki bayon qilishda (tushuntirishda) o'qituvchi o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda ularning diqqatini tez jalb etishi va bilishga doir ishlarni faollashtirish zarur.

**Hikoya.** Bu usul maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu juda qisqa va aniq, yuqori sinflarda esa katta materiallarni bayon qilishda to'liq hikoyadan foydalaniladi. Hikoya yakunlangach, u suhbat va tushuntirishlar bilan to'ldiriladi. Hikoyada o'qituvchining nutqi yorqin, aytgan so'zlari bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, hikoya qilish - o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid omil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir.

O'quv materiallarini **tushuntirish** - o'qituvchi tomonidan o'tilayotgan mavzuning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, ta'rif, qonun va qoidalarni uqtirishdir.

**O'quv ma'ruzasi.** Ushbu usuldan yangi bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish uchun foydalaniladi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda, ularni to'la qamrab oladi. Ma'ruza asosan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida, o'rta maxsus kasb-xunar kollejlari va akademik litsey hamda oliy o'quv yurtlarida o'qiladi.

**Suhbat.** Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Ko'pincha, bu usul savol-javob usuli deb ham yuritiladi. Suhbatning to'rt xil turi mavjud bo'lib, ular: yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materiallarni takrorlashda qo'llanadigan suhbatlardir. O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholashda ham o'tkaziladi.

**Ta'limning ko'rgazmali usullari.** O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik usulidan foydalanishning muhimligi o'qituvchining o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishi bilan izohlanadi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi. O'qitishda namoyish etish usulidan foydalanish materiallarning xarakteriga – mazmuni, shakli va hajmiga bog'liqdir. Ko'rgazmali materiallar xarakter e'tiboriga ko'ra ikki turda bo'ladi:

1. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, hayvonlar, ma'danlar, kollektsiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

2. Tasviriy-ko'rgazmali materiallar: buyum, narsa va hodisalarning tasvirini ifodalovchi materiallar: rasm, surat, diafilm, kinofilm, jo'g'rofiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h.k. Tasviriy - ko'rgazmali materiallar – illyustratsiya materiallari deb ham ataladi. Ta'lim jarayonida tasviriy – illyustratsiya materiallaridan foydalanish keng qo'llaniladi.

Ekskursiya ta'lim va tarbiya ishlarining Shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (tabiatni kuzatish, zavod, fabrika) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko'rgazmalar) tashkiliy ravishda boriladi.

**Ta'limning amaliy usullari.** O'qitishning amaliy usullariga yozma mashqlar (masalalar yechish, chizmalar tayyorlash), tajriba – laboratoriya tipidagi mashqlar (frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyot, o'qitishning texnik vositalari va boshqalar); mehnat topshiriqlarini bajarish usullari kiradi. Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qullaniladi. O'qitishning amaliy usullaridan foydalanishning ijobiy tomoni o'quvchilarni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni mustaqil kuzatishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularda mustaqillik, faollik va tashabbuskorlik ortadi. Amaliy ish tajribalari – ko'nikma, malakalari, hosil qilinadi va mehnat madaniyati rivojlanadi.

**Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.**

O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari o'quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv usullar birinchi navbatda, o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi. Reproductiv tipidagi amaliy mashqlar Shunisi bilan farqlanadiki, bu ishlarning davomida o'quvchilar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llaydilar.

**Muammoli vaziyat** - o'quvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. O'quvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va mustaqil izlanish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi.

**Ta'limning induktiv va deduktiv usuli.** *O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari o'quv materialini mazmunining xarakteri va mantig'ini yoritish usulidir. Induktiv metodda o'qituvchi avval faktlarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi va umumlashtiradi.*

**Deduktiv metod** - o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishda xususiyan umumiyga yoki umumiydan xususiya o'tishning qaysi birini tanlashni anglatadi.

#### ***O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.***

O'qitish tizimida barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining samarali bulishi uchun nazorat ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, nazorat qilish tufayli o'qitishdagi o'zaro muloqot, o'qitishning borishini jadal boshqarish va kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish, yangi darsga aniq vazifalar qo'yish imkonini beradi. Nazorat ham bir qancha turlarga: og'zaki, yozma va laboratoriya turlarga bo'linadi.

O'qituvchi yoshlarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatishda o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishga, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni ko'ra olish mahoratini shakllantirmog'i lozim. Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish uslublarini o'zaro mohirona biriktirish barcha o'quv fanlari bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

### **3. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.**

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb kishining aktiv faoliyatga bo'lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu boisdan rag'batlantirish - o'qituvchi faoliyatining muhim omili hisoblanadi. Ammo rag'batlantirish kishining faoliyatga bo'lgan ichki mayliga ta'sir qilgandagina real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. Shu bilan birga yana bunday ichki undash faqat tashqi rag'batlantirishlar ta'siridagina emas, balki o'quvchilarning o'z-o'zining ta'sirida ham, uning oldingi tajribasi, ehtiyojlari va hokazolar ta'sirida yuzaga keladi.

O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri - o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishdir. Rag'batlantirish o'quvchitalabaning ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi va uni yanada yaxshiroq o'qishga undaydi. Rag'batlantirish yo'llari bu yaxshi baho qo'yish, maxsus tanlangan topshiriqlar berish, fotosuratlarini maxsus rag'batlantirish oynalariga ilish kabilardir. Muvaffaqiyatga erishish vaziyatini o'quvchining oraliq harakatlarini rag'batlantirish, ya'ni uni yangi zo'r berishlarga maxsus undash yo'li bilan ham tashkil qilish mumkin. Muvaffaqiyat vaziyatlarni yaratishda u yoki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida qulay ma'naviy-ruhiy muhitni ta'minlash muhim o'rin egallaydi.

Rag'batlantirish va tanbeh berish usullari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Masalan, baho bilan rag'batlantirish, maxsus tanlangan topshiriqlar berish yo'li bilan o'qishdagi muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, imtiyozli stipendiyalar tayinlash, tajriba va laboratoriya ishlarini tayyorlashda qatnashish, ekranlarni jihozlashlari orqali rag'batlantirish; bilimlarni jamoatchilik tomonidan ko'rish yakunlariga qarab rag'batlantirish va hokazolar.

O'qishga doir tanbehtar: dars paytidagi og'zaki tanbeh berishlar, bahosini pasaytirib qo'yish, ish daftariga yozishlar, xatolarni ko'rsatish, koyish va boshqa usullar orqali qo'llaniladi. Koyish hamda jazolashning boshqa turlarini qo'llash o'qitish usulida istisno hol, chunki bu usul eng so'nggi ilojisiz chora hisoblanadi. Maktabda, Shuningdek barcha ta'lim muassasalarida o'quvchitalabalarga tan jazosi berish, o'zlashtiraolmagani uchun uni haqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon

iboralar bilan soʻkish aslo mumkin emas. Pedagogik faoliyatda bu kabi usullardan foydalanish nojoiz sanaladi.

Usulni tanlab, oʻqituvchi oʻziga savol berishni boshlaydi:

→ Usulni qoʻllashdan soʻng natijalar qaysi sohalarda: Bilimlar sohasidami? Koʻnikmalardami? Malakalardami? Yoki koʻrsatmada koʻp boʻladi.

→ Keyingi savol taʼlim berishning bajariladigan ishlar tartibiga taalluqli: “Talabalarning faolligi (tashabbus) qanday boʻlishi kerak?”

***Taʼlim usullarining natijaviyligini qaysi mezonlar aniqlaydi?***

*Yaxshi yoki yomon usullar mavjud emas. Usulning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa boʻyicha xulosa chiqarish mumkin.*

Qanday qilib, keng tarqalgan usullar, jumladan aqliy hujum yoki guruhli munozarani natijaviyligini oʻquv mashgʻulotida echiladigan topshiriqlar bilan bogʻliqsiz, yoki aniq amaliy vaziyatni tahlil qilish va echish (keys-stadi) usulini natijaviyligini, ushbu usul qoʻllanilayotgan oʻquv mashgʻulotining maqsad va vazifalaridan uzilishda oldindan baholash mumkin.

Tajribalarning koʻrsatishicha, usulning **asosiy natijaviylik mezonlari** quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qoʻllashning mosligi va iqtisodiyligi; uni qoʻllashda soddalik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni taʼminlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini taʼminlay olishi.


Eng koʻp tarqalgan va xususiyatga ega boʻlgan taʼlim usullari quyidagilar hisoblanadi: suhbat, bahs, oʻyin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar hisoblanadi.

**Фаол таълим бериш усули** - таълим олувчиларнинг билим фаолиятларини рағбатлантирувчи усулдир. У ёки бошқа муаммони ечиш тўғрисидаги фикрларни эркин алмашинувини назарда тутувчи суҳбат асосида қурилади.

**Interfaol (Interactive)** - suhbatli. Interfaol taʼlim berish - suhbatli taʼlim berish, bunda taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchi, taʼlim oluvchi va kompyuterning oʻzaro harakati amalga oshiriladi.

### 1.1. Ta'lim usullarini tasniflash.

(Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkoriy faoliyatini tashkillashtirish yo'li va o'quv faoliyati natijalari asosida)



## 2. Ta'lim usullarining va texnikalarining xususiyatlari.

### 2.1. Birinchi guruh ta'lim usullari

*Birinchi guruh ta'lim usullari: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.*

#### MA'RUZA

**Ma'ruza - davomli vaqt ichida o'qituvchi tomonidan katta hajmdagi o'quv materialini monologik bayon qilishi.**

Usulning asosiy vazifasi-ta'lim berish. *Belgilari:* qat'iy tuzilma, og'zaki-mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko'pligi.

Ma'ruzalar muhim lahzalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkillashtirish usulining samaradorlik shartlari quyidagilardan iborat:

- ✓ ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ✓ ta'lim oluvchilarga ma'ruza mavzusi maqsadi vazifalari va rejani eshittirish;
- ✓ har bir rejani yoritgandan so'ng qisqa umumlashtiruvchi xulosalarni shakllantirish;
- ✓ ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tganda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;
- ✓ yozib olish uchun zarur joylarni ajratib ko'rsatish (aytib turish);
- ✓ uning alohida holatlari batafsil ko'rib chiqiladigan seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan ma'ruzaning to'g'ri kelishi.

#### HIKOYA, TUSHUNTIRISH

Hikoya - hodisa, voqea, haqiqat to'g'risida o'qituvchini monologik xabar berishi odatda u nazariy holatlarni aniqlashtirish, o'rganayotgan materialga qiziqishni uyg'otish uchun qo'llaniladi.

Hikoya qilishga asosiy talab-materialni hissiy etkazib berish, san'atkorona, ta'sirchan bayon qilish.

Tushuntirish – bayon qilinayotgan materialni turli holatlarini sinf taxtasiga yozib tushuntirish, tahlil qilish, izoh berish va isbotlash orqali o'quv materialini bayon qilish.

#### YO'RIQNOMA BERISH

Yo'riqnoma berish – kasbiy tayyorgarlikda keng foydalaniladigan mustaqil usul bo'lib, u talabalarga aniq harakatlarning vazifalarini, ularni amalga oshirish yo'llarini, amaliy topshiriqlarni echish talablarini, ko'nikmalardan iborat haraktlar tartibini, ma'lum tipga xos bo'lgan vaziyatlar tavsifi va ularni amaliyotda qo'llashni tushuntirish.

O'quv jarayonidagi o'rniga ko'ra yo'riqnoma berish uch turda bo'ladi:

- 5) kirish yoki yo'l-yo'riq berish;
- 6) joriy;
- 7) yakuniy.

*Kirish yo'riqnomasini berish* quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- talabalarga bajarildigan ish mazmuni, pedagogik o'zaro harakatning usul, vosita va shakllarini, texnik hujjatlar va yakuniy natijaga, mehnat mahsuliga bo'lgan talablarni etkazish;
- ish bajarish qoidasi va izchilligi va alohida harakatlar, usullarni tushuntirish;
- qiyinchiliklar, xatoliklar, mehnat xavfsizligi to'g'risida o'gohlantirish.

*Joriy yo'riqnoma berish* quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- ishni bajarishga qiynalayotgan talabalar ishini to'g'rilash;
- har bir talaba ishini kuzatish;
- ish turlarini bajarish va ish natijalari vaqtidagi mustaqillikni o'rnatish.

*YAkuniy yo'riqnoma berish* quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- jamoaviy va guruhli mehnat natijalarini baholash;
- o'quv – bilish faoliyatning mustaqillik darajasi;
- mehnat harakatlarini bajarishdagi alohida kamchiliklarni aniqlash;
- kasbiy muhim sifatlar, ko'nikma, o'zini tutishning odob – ahloqiy me'yorlarini shakllanganligi;
- baholar bilan tanishtirish.

Yo'riqnoma berish shakliga ko'ra og'zaki, yozma, ko'rgazmali va aralash bo'lishi mumkin. YOzma yo'riqnoma berishda eng katta samaraga erishish mumkin bo'lib, bunda turli yo'riqnomali, ishlab chiqarishli, o'quv –ishlab chiqarishli va o'quv –uslubiy hujjatlardan (yo'riqnomali, texnologik, yo'riqnomaviy – texnologik va harakatlar xaritasi, ishlar tartibi, qoidasi) foydalaniladi.

*Texnologik va yo'riqnomaviy – texnologik xaritalar* o'quv –ishlab chiqarishli ishlarni bajarishda qo'llaniladi. Ular texnologik izchillikdan tashqari, texnologik talab, tartib, umumiy ishlarni bajarish vositalari, ishlarni bajarish qoidasining yo'riqnomali bayonidan iborat bo'ladi.

*Harakatlar xaritasi va ishlar tartibidan* yozma yo'riqnoma berish: xizmat ko'rsatish, nosozliklarni tashxislash, murakkab jihozlarni sozlashni o'rgatishda foydalaniladi. Ular ishlab chiqarish faoliyatida bajariladigan turli ishlab chiqarishli ko'rsatma va qoidalarni o'z ichiga oladi. Ish o'rnida har bir talabani yozma yo'riqnomadan foydalanishi eng samarali hisoblanadi.

## NAMOYISH

**Namoyish** - ta'lim oluvchilarni ob'ekt va hodisalar, jarayonlarni ularning tabiiy ko'rinishda ko'rgazmali-hissiy tanishtirish.

Bu usulning etakchi vazifasi - o'qitish hisoblanadi. Biz namoyishdan o'rganilayotgan hodisalar, o'zgaruvchanlikni ochib berish uchungina foydalanamiz, Shu bilan birga bu usul ta'lim oluvchilarni narsalarni tashqi ko'rinishi bilan uning ichki tuzilishi yoki o'xshash narsalar qatorida tutgan o'rni bilan tanishish uchun xizmat qilishi mumkin.

Namoyishni ko'rib chiqilayotgan ob'ektni yozuv taxtasida sxemali rasm chizish yoki ko'rsatish, chizmalarni chizib olib borish mumkin, bu namoyish etilayotgan ob'ekt asosidagi tamoyillarni tushunishni engillashtiradi.

Namoyish usulining ta'limiy vazifasi samaradorligi quyidagilarni bajara olishni ta'minlaydi:

- ob'ektlarni to'g'ri tanlash;
- ta'lim oluvchilar e'tiborini namoyish qilayotgan hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirish;
- ta'lim oluvchilar namoyish qilinayotgan ob'ektni yaxshi ko'rishlari va imkon bo'yicha na faqat ko'z, balki barcha sezish a'zolari bilan qabul qilish;
- ta'lim oluvchilar e'tiborini imkoni boricha o'rganilayotgan ob'ektning muhim tomonlariga jalb etish;
- ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan ob'ekt sifatlarini mustaqil baholash.

## KO'RSATISH

**Ko'rsatish** narsa, jarayonlar va hodisalarni ularni tasviriy ko'rinishda ko'rsatish va qabul qilishni ko'zlaydi.

Bu usulning asosiy vazifasi - o'rgatish. Ko'rsatishning vositalariga sxemalar, jadvallar, rasmlar, sur'atlar, albomlar, xaritalar, yassi modellar xizmat qiladi.

## KO'RISH USULI

**Ko'rish** usuli axborotni ko'proq ko'rgazmali kodoskop, proektor, kinoapparat, o'quv televideniylar, shuningdek axborotni displey bilan aks ettiruvchi kompyuterlar bo'yicha qabul qilishga asoslanadi.

### 2.2. Ikkinchi guruh ta'lim usullari

*Ikkinchi guruh amaliy ta'lim usullari: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar*

## KITOB BILAN ISHLASH

**Kitob bilan ishlash usuli:** ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va qiziqtirish vazifalarini bajaradi.

Ta'lim oluvchilar kitob bilan ishlashlari mumkin:

- o'quv mashg'ulotda sizning rahbarligingiz ostida;
- uyda mustaqil.

Uyda kitob bilan ishlash vazifasini o'quvchilar oldiga qo'yishdan avval kitob bilan mustaqil ishlash usullariga ega ekanliklariga ishonch hosil qiling:

- uning tuzilishi bilan tanishish;
- ko'z yugurtirib chiqish;
- alohida boblarni o'qish;
- savollarga javob qidirish;
- referat yozish;
- tayanch konspektlar tuzish;
- mantiqiy tuzilmaviy chizmalarni tuzish;
- misol va topshiriqlarni echish, mashqlarni bajarish;
- nazorat testlarini bajarish;
- materialni xotirada saqlash.

Agarda ish o'quv mashg'ulotida olib borilsa, unda kitob bo'yicha o'rganadigan materialni biz alohida qismlarga bo'lamiz va ularni nazorat qilamiz.

### Tajriba usuli

**Tajriba usuli** -bu shunday usulki, bunda ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi rahbarligi ostida va oldindan tayyorlangan reja bo'yicha tajribalar o'tkazadilar yoki amaliy topshiriqlarni bajaradilar, shu jarayonda yangi bilimlarni qabul qiladilar va anglab etadilar.

Usulning asosiy vazifalari - o'rgatish va rivojlantirish. Bu usul ta'lim oluvchilarga quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- jihoz bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini egallash;
- ma'lum bo'lganlarni tekshirish va mustaqil tadqiqotning yo'llarini tanlash;
- amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash; natijalarni qayta ishlash va avvalgilari bilan solishtirish.



Tajriba usuli murakkabdir. U maxsus, qimmatli jihozlarni bo‘lishi, nafaqat sizni, balki ta’lim oluvchilarning ham puxta tayyorgarligini talab etadi. Undan foydalanish kuch va vaqtni sarflash bilan bog‘liq. Shuning uchun, tajriba usulini rejalashtirayotganda, mustaqil tadqiqotning ta’lim samaradorligini oshirishiga bo‘lishiga ishonch hosil qilish zarur, chunki bunga boshqa soddaroq, tejamliroq usullar bilan erishish mumkin.

### Mashq

O‘rganilayotgan materialni amaliyotda qo‘llash maqsadi bilan muntazam tashkillashtirilgan ko‘p takrorlanuvchan harakat.

- maxsus;
- sharhlashga oid;
- yozma;
- og‘zaki;
- ishlab chiqarish.

### 2.3. Uchinchi guruh ta’lim usullari

*Uchinchi guruh ta’lim usullari: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o‘quv faoliyati va ta’lim oluvchilarga bilim va ko‘nikmalarni 3 - darajada o‘zlashtirishni ta’minlovchi, usullar.*

#### Suhbat

**Suhbat** – dialogli (yunoncha: dialogos-ikki yoki bir necha insonlar orasidagi so‘zlashuv), ta’lim berish va o‘rganishning savol–javobli yo‘li.

Usulning etakchi vazifasi-qiziqtirish: maqsadga yo‘naltirilgan va mohirona qo‘yilgan savollar yordamida ta’lim oluvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini eslashga va bayon qilishga harakat qilinadi va o‘qituvchi rahbarligida boshqa ta’lim oluvchilar bilan muhokama qilinadi. Ta’lim oluvchilar o‘qituvchi bilan birga qadamma-qadam mustaqil fikrlash, yakunlash, xulosalash va umumlashtirish yo‘li bilan yangi bilimlarni anglaydilar va o‘zlashtiradilar.

Suhbatning afzalligi yana Shundaki, u ta’lim oluvchilar fikrlashini faollashtiradi va bilim kuchini rivojlanishiga yordam beradi.

Suhbatlar vazifasiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- kirish yoki tashkillashtiruvchi (didaktik vazifasi: ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotdagi ishga tayyorlash);
- yangi bilimlarni etkazish (didaktik vazifasi: ta’lim oluvchilarni yangi material bilan tanishtirish);
- sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi: ta’lim oluvchilar bilimlarini tizimlashtirish, “mustahkamlash”, eslab qolishi va fikrlashi).

*Suhbatlar tashkiliy shakli bo‘yicha o‘quv va “davra suhbatiga” bo‘linadi.*

“Davra suhbatini” o‘quv suhbatidan erkin holatda ishtirokchilar joylashish tartibi va asosiysi, ular fikrini navbat bilan bildirishi bilan farqlanadi.

Eng muhimi savollarni to‘g‘ri shakllantirish va berish muhim. Ular o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lishi kerak, o‘rganilayotgan savol mohiyatini ochib berishi, tizimda bilimlarni o‘zlashtirishga yordam berishi kerak. Savollar mazmuni va shakliga ko‘ra ta’lim oluvchilarning rivojlanish darajasiga mos kelishi lozim.

*Esda tuting:* oson savollar faol bilish faoliyatini rag‘batlantirmaydi, jiddiy munosabat esa bilishga rag‘batlantiradi.



### Suhbatning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1 - bosqich Tayyorgarlik	Suhbatning mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi, asosiy va yordamchi savollarni shakllantiradi, uni tashkillashtirish va olib borishni o'ylab chiqadi: savollarni berish tartibi, qanday bog'liq holatlar bo'yicha umumlashtirish va xulosalar qilish lozimligi va boshq.	
2 - bosqich Suhbatga kirish	Qisqa shaklda o'quv suhbatining mavzusi, uning vazifalarini eshittiradi, ushbu mavzu bo'yicha ega bo'lgan bilim va malakalarni eslatadi. Suhbat davomida ta'lim oluvchilarning alohida mulohazalarini umumlashtiradi. Suhbatda hamma ta'lim oluvchilar faol ishtirok etishlariga harakat qiladi.	
3 - bosqich Suhbat	To'g'ri javoblarni ma'qullaydi, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmaganlarni sharhlaydi, aniqlaydi. Noto'g'ri javob bergan ta'lim oluvchining o'ziga xatosini topishni taklif qiladi. Agar u buni qilaolmasa, boshqa ta'lim oluvchilarni yordamga chaqiradi	Savollarni diqqat bilan tinglaydilar, javob beradilar, o'zgalar javoblarini tahlil qiladilar, o'zlarining shaxsiy mulohazarini aytadilar
4 - bosqich Xulosa	Usullardan birini tanlab, suhbat natijalarini umumlashtiradi: <ul style="list-style-type: none"> <li>◆ o'zi yakun yasaydi;</li> <li>◆ yo'naltiruvchi savollar yordamida suhbat natijalarini "yig'adi"</li> </ul>	
5-bosqich. YAkunlash	YAkun yasaydi: ta'lim oluvchilarning faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi	O'z-o'zlarini baholaydilar.

### Baxs (munozara)

Baxs (munozara) - aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi.

Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ✓ yangi bilimlarni shakllantirishda;
- ✓ ta'lim oluvchilar u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, ularning mohiyatiga kirishni ta'minlashda;
- ✓ ta'lim oluvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib etishga o'rgatishda;
- ✓ o'zaro fikr almashinuv ko'nikmalarni shakllantirishda;
- ✓ ta'lim oluvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish.

*Munozara erkin bo'ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo'lishi mumkin. U faqat o'zlashtirish lozim bo'lgan mavzu va savollarga taalluqli bo'lishi kerak.*

**Ma'ruzada boshqariladigan munozaraning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1 - bosqich Tayyorgarlik.	Munozara mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi, natijalarni shakllantiradi; "Munozara ishtirokchisiga eslatma" plakat/ slaydni rasmiylashtiradi; munozarani kerakli maromda ushlab turadigan savollar va oraliq xulosalarni tayyorlaydi; uni o'tkazish tartibi va tashkillashtirishni loyihalaydi: munozarani qanday va nimadan boshlash; unda barcha ta'lim oluvchilar ishtirokini qanday ta'minlash; munozarani qanday yakunlash va oxirgi xulosalarni aniq shakllantirish	
2 - bosqich Kirish	Mavzuni e'lon qiladi, uning tuzilishini bayon qiladi, o'zining mulohazalarini bildiradi va ta'lim oluvchilarga o'zlarining fikrlarini bayon qilishni taklif etadi. Munozara boshlanishini qiziqtirish uchun, tayyorlab qo'yilgan bir necha savollarni beradi	
3 - bosqich Asosiy qism	Munozarani qiziqtiradi, ishtirokchilarni qoidani bajarishlarini ta'minlaydi	Takliflar kiritadilar, muhokama qiladilar
4 - bosqich YAkuniy-tahliliy	Munozara so'nggida qisqacha va bahosiz bog'liqli savollarni ajratadi va tuzilmaga soladi.. xulosalaydi	Tinglaydilar, baholar bilan tanishadilar

**Seminar - munozaraning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1 - bosqich Tayyorgarlik.	Seminar mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi; ta'lim oluvchilar munozarada erishishi mumkin bo'lgan, natijalarni shakllantiradi; munozarada muhokama qilish muhim bo'lgan muammoni ajratadilar, ma'ruzachi va ishtirokchi uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini shakllantiradi.1) seminar olib boruvchisi,. 2) e'tirozchi va taqrizchilarni, 3)mantiqchi, 4) ruhShunos, 5) ekspertlarni belgilaydi va ularga tayyorgarlikda yordam beradi. Munozara o'tkazish tartibi va tashkillashtirishni dasturlashtiradi	Seminar boshlovchisi ta'lim oluvchilardan biriga seminar mavzusi bo'yicha ma'ruza qilishni topshiradi.
2 - bosqich Kirish	Seminar mavzusini e'lon qiladi, seminar olib boruvchini tanishtiradi	Olib boruvchi ma'ruzachi, e'tirozchi, taqrizchi, mantiqchi, ruhShunos va ekspertlarni tanishtiradi

3 - bosqich Asosiy qism	Savollar beradi, alohida bildirishlar qiladi, ma'ruzani asosiy holatini aniqlaydi, fikrlashdagi qarama-qarshiliklarni cheklaydi. Gapirilayotgan fikrlarda erkinlik va qiziquvchanlikni namoyon qiladi, muammoning ishonchli ravonini ishlatadi	Ma'ruzadan so'ng olib boruvchi e'tirozchi va taqrizchilarga so'z beradi. Ishtirokchilarni "Munozara ishtirokchilari eslatmasi" bilan tanishtiradi va munozara boshlanishini e'lon qiladi
4 - bosqich YAkuniy-tahliliy	Munozara yuzasidan qisqa va bahosiz bog'liqli savollarni ajratadi va tuzilmaga keltiradi.. YAkuniy xuloslarni shakllantiradi. Ishtirokchilarga baho beradi.	Olib boruvchi e'tirozchi, taqrizchi, mantiqchi, ruhshunosga so'z beradi

***Munozara ishtirokchisi uchun eslatma:***

Munozara munosabatlarni aniqlash emas, muammoning echish usuli bo'ladi.

Boshqalarga ham gapirish imkonini berish uchun juda uzoq gapirmang.

Sening aqlli fikrlaring maqsadga erishish uchun, so'zlarni o'lchab ko'r, ularni o'ylab gapir, his-hayajonlarni nazorat qil.

E'tirozchi yo'lini tushunishga harakat qil, unga hurmat bilan yondash.

Faqat munozara bo'yicha gapir, o'zingni o'qimishligin va umumiy bilimdonligin bilan g'ururlanma.

***Seminar - munozarani vazifali vositasi:***

**Olib boruvchi** - ta'lim beruvchining barcha majburiyatlarini oladi-muhokamani borishiga rahbarlik qiladi, isbotlarni sharhlashi yoki tushuncha va atamlarni aniq ishlatishni, muomalani to'g'rilashni qaytaradi.

**E'tirozchi**- Taqrizchi tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan olqishlash muolajasini keltirib chiqaradi.

**Mantiqchi** - ma'ruzachi yoki e'tirozchi fikrlashidagi qarama-qarshilik va mantiqiy xatolarni ajratadi, tushunchalardagi ma'nolarni aniqlaydi, isbot yoki qaytarish yo'lini, farazni harakatlanish ravonligini tahlil qiladi.

**Ruhshunos** - natijaviy muomalani tashkillashtirishga va o'zaro harakatga javob beradi, hamkorlikdagi harakatlarning kelishganligiga harakat qiladi, munozarani ziddiyatlarga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

**Ekspert** - barcha munozarani natijaviyligini, ilgari surgan faraz va takliflarni to'g'riligini, qilingan xulosalarni baholaydi, munozaraga hissa qo'shgan aniq ishtirokchilar to'g'risida fikrlarni gapiradi

## «AQLIY H U J U M» USULI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to'zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar echish g'oyasini iamoaviv vuzasa keltirish

**Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'l qo'ymay uni hal etishning ko'proq shaxsiy g'oyalari yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq oqilona/samrali/maqbul va boshqa g'oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.**

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta'lim oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va echishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta'sir ostida fikrlashdan ozod bo'lish va ijodiy topshiriqni echishda birlamchi yo'l fikrlarini engib o'tishni tarbiyalaydi.

An'anaviy ta'limda vazifani echish vaqtida ko'pgina ta'lim oluvchilar o'zlarini g'oyalari aytishga botina olmaydilar. O'z takliflarining xatoligi va ta'lim beruvchining salbiy munosabatidan, boshqa ishtirokchilarning yo'q qilib yuboruvchi tanqidi va kulgisidan asosli qo'rqadilar.

Aqliy hujum qoidasi:

Hech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham –hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma-hamma aytilgan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rta chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!

Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, hafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni «jo'sh urishiga» ruxsat ber!

### Baholash tizimi va kichik guruhlarda eng yaxshi g'oyalarni tanlash

Baholash tizimi va kichik guruhlarda eng yaxshi g'oyalarni tanlash

2. Har bir g'oya bo'yicha olingan barcha ballar jamlanadi

3. Barcha g'oyalar bir uzun qog'oz varag'iga yoziladi. Agarda g'oyalar takrorlansa, unda avval yozilganni yonida belgi qo'yiladi

4. G'oyalar umumiy ballni pasayishiga qarab saralanadi (masalan, 10dan 1) katta bo'lmagan ballni to'plagan g'oyalar yutib chiqadi. Tortishuv xolatida

1. Har bir ishtirokchi 5 ballik bahoni oladi. U ularni hammasini birdaniga bir ?oyaga yoki ikkiga bo`lib berishi mumkin (2:3,

5. Ishtirokchilarning eng muhim g`oyalari jamoaviy g`oyalar shaklida ifodalanadi

### Aqliy hujum usuli qo`llanilgan o`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta`lim beruvchi	ta`lim oluvchi
1 - bosqich Tayyorgarlik	O`quv mashg`ulotida aqliy hujum o`rnini aniqlaydi, uning maqsadini shakllantiradi, muammoni va uni echish bo`yicha taklif etilayotgan g`oyalarni baholash mezonlarini aniqlaydi	
2 - bosqich <b>Kirish</b>	Mavzuni e`lon qiladi, muammo bilan tanishtiradi, uni echishning izlash yo`lini va baholash mezonini asoslaydi. Jamoaviy ishlash sharoiti va ahloq qoidasi bilan tanishtiradi (eslatadi). Ishtirokchilarni 3-4 guruhga bo`ladi (AH ni-jamoaviy o`qitish sharoitida to`g`ri olib borish mumkin, lekin bu boshqaruvni qiyinlashtiradi va samaradorlikni pasaytiradi). Ta`lim oluvchilarga ruhiy qiyinchilik va qo`rquvlardan qutulish uchun, mavzuga to`g`ri borish bilan bog`liq bo`lmagan, balki yaqinroq mavzudan olingan kutilmagan, qiziq savollarga tez javoblar izlash mashqini o`tkazadi. Berilgan muammoni eslatadi va boshlashga ruxsat beradi	Har bir guruh baho va maqbul/samarali/ oqilona g`oyalarni qayd etib borishi uchun ekspert tanlaydi. Guruh a`zolari hamkorlikda ishlashlari mumkin bo`lgan holda o`tiradilar
3 - bosqich Asosiy	Kuzatadi, yo`llaydi, rag`batlantiradi. O`zini tortiShuvga aralashishini, o`zini nuqtai-nazarini aytishga yo`l qo`ymaydi. CHidash, chidamlilik, hayron bo`lmaslikni namoyon qiladi. Kerak bo`lganda guruhni xayrixohlik bilan ish holatiga qaytaradi	Muammoni echish bo`yicha g`oya va takliflarni aytadilar, ekspertlar esa, ularni yozadilar

	1 - variant. Aytilgan g'oyalarni ekspertlar bilan muhokama qilishni, ularni taklif etilgan mezonlarga mos holda baholash va tanlashni tashkillashtiradi. Muammoni echish uchun tanlangan g'oyalarni ekspertlar guruhi taqdimotini va ularning muhokamasini tashkillashtiradi.	Ekspertlar ishlayotgan paytda, boshqa barcha ishtirokchilar mavzular bosqichi bo'yicha krossvord echadilar, o'quv holatini muhokama qiladilar. Ekspertlar tanlangan g'oyalarni taqdim etadilar. Ushbu g'oya mualliflari himoyani olib boradilar
	2 - variant. G'oyani alohida baholash va eng yaxshilarini jamoaviy tanlashni tashkillashtiradi	
4 - bosqich Yakun yasash, tahlil qilish va baholash	YAkunlarni umumlashtiradi, guruhlar ishini tahlil qiladi va baholaydi: ijobiy, ijodkorlikning yuqori darajasi holatlari, jamoaviy faoliyat muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi	O'z-o'zlarini baholaydilar

### INSERT USULI (texnikasi)

Insert – samarali o`qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo`yilish muolajasi. Shundan so`ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o`zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob.

Insert- bu, o`zlashtirishning majmuali vazifalarini echish va o`quv materialini

### Matnda belgilash tizimi

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(-) - meni bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o`ylantirib qo`ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

√	+	—	?

## Insert usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t m a z m u n i	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1 - bosqich Tayyorgarlik	O'quv mashg'ulot maqsadini aniqlaydi, uning natijalari, ta'lim oluvchilar faoliyatini baholash mezonlarini shakllantiradi, kerakli o'quv materiallarini tayyorlaydi	
2 - bosqich <b>Kirish</b>	O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari uning natijalari, ta'lim oluvchilar faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladilar.
3 - bosqich Asosiy	<p>Mavzu bo'yicha mavjud axborotlarni faollashtiradi: aqliy hujum usuli yordamida quyidagi savolga javob berishlarini taklif etadi: «Siz... Shu to'g'risida nimalarini bilasiz?»</p> <p>YOzuv taxtasida alohida so'z yoki so'z bog'lovchilari ko'rinishida yozishni tashkillashtiradi. Olingan axborotlarni toifalar bo'yicha tizimlashtirishni taklif etadi. Buning uchun:</p> <p>1) toifali jadval tuzilmasini jamoaviy muhokamasini tashkillashtiradi;</p> <p>2) yozuv taxtasida jadval chizishni va unga (jamoaviy/ alohida) olingan axborotlarni kiritishni taklif etadi</p> <p>Hosil qilingan bilimlarni umumlashtiradi: quyidagi savolga javob berishlarini taklif qiladi: «Siz qanday yangiliklarni bilishni xohlar edingiz?», «Sizga...Shu to'g'risidagi bilimlar nima uchun kerak?»</p> <p>Matnni tarqatadi, uni o'qib chiqishni va insert usulidan foydalanib matn chetida belgilar qo'yishni taklif etadi. Ishning borishini kuzatadi. Ishning o'zaro tekshiruvini o'tkazish va o'qish paytida paydo bo'lgan savollarga javob berishni taklif etadi</p> <p>Ixtiyoriy belgi bo'yicha guruhlarga bo'ladi va guruhli Insert jadvallarini tuzishni va ularga olingan axborotlarni kiritishni taklif etadi.</p> <p>Natijalar taqdimoti boshlanishini e'lon qiladi</p>	<p>Savollarga javob beradilar</p> <p>Jadvalning tuzilmaviy tarkibiy qismlarini echishda ishtirok etadilar.</p> <p>Unga axborotlar «Kiritadilar».</p> <p>Savollarga javob beradilar</p> <p>Juftlikda ishlaydilar; o'rganilgan material bo'yicha fikr almashadilar</p> <p>Muhokama vaqtida tanlab olingan axborotlarga asoslanib, guruhli jadvallar tuzadilar</p> <p>Guruh sardorlari natijalar taqdimotini o'tkazadilar. Bunda ular e'tiborni asosiy axborotga qaratadilar, o'qish davomida paydo bo'lgan savollarni aytadilar.</p>
4 - bosqich. Yakuniy	Olingan axborotni umumlashtiradi va sharhlaydi. Paydo bo'lgan savollarga javob beradi, muhim qo'shimcha axborotni beradi. Maqsadga erishish muvaffaqiyatini tahlil qiladi va baholaydi. Keyingi ish istiqbollarni aniqlaydi	

## 2.5. PINBORD TEXNIKASI

Pinbord (inglizchadan: pin- mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o`quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

→ Taklif etilgan muammoni echishga o`z nuqtai nazarini bayon qiladi.

→ Ommaviy to`g`ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

*Ta`lim oluvchilar quyidagi g`oyalarni:*

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko`p maqbul (samarali va boshqa g`oyalarni tanlaydilar va ularni qog`oz varag`iga asosiy so`zlar ko`rinishida (2 so`zdan ko`p bo`lmagan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.

→ Guruh a`zolari ( ta`lim beruvchi tamonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

1. aniq xato yoki qaytariluvchi g`oyalarni saralaydilar;
2. tortiShuvlarni aniqlaydilar;
3. g`oyalarni tizimlashtirish mumkin bo`lgan belgilar bo`yicha aniqlaydilar;
4. Shu belgilar bo`yicha hamma g`oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/ varaqlar).

*Ta`lim beruvchi:*

→Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

### Pinbord usuli qo`llanilgan o`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta`lim beruvchi	ta`lim oluvchi
1 - bosqich Tayyorgarlik	O`quv mashg`ulotida pinbord o`rnini aniqlaydi, uning maqsadini shakllantiradi, muammoni va uni echish bo`yicha taklif etilayotgan g`oyalarni baholash mezonlarini aniqlaydi	
2 - bosqich <b>Mavzuni yaxshi o`rganish</b>	Mavzu tuzilmasini aniqlaydi. Pinbord usulini tushuntiradi. O`zining fikrlarini aytadi va ta`lim oluvchilarga o`z fikrlarini aytishlarini taklif etadi, munozara boshlanishini tezlatish uchun bir qator savollar beradi. Kuzatadi. Berilgan muammoni eslatadi va boshlashga ruxsat beradi	Har bir guruh baho va maqbul/samarali/ oqilona g`oyalarni qayd etib borishi uchun ekspert tanlaydi. Guruh a`zolari hamkorlikda ishlashlari mumkin bo`lgan holda o`tiradilar
3 - bosqich Yakuniy xulosani yozma bayon etish 4 - bosqich Umumlashtirish	Maslahat, tavsiyalar beradi	Munozara jarayonida ishlab chiqilgan, o`z fikrlarini, asosiy yakuniy xulosadek, kichik qog`ozlarga yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar. O`quv guruhidan 2-3 vakillar boshqa ta`lim oluvchilar bilan maslahatlashib, ma`lumotni tizimlashtiradilar va mazmuniga ko`ra guruhlaydilar. Ko`rsatuvchi chiziqlar yoki boshqa belgilar



		yordamida ularning mosliklarini ko'rsatadilar.
5 - bosqich Yakun yasash, tahlil qilish va baholash	Yakunlarni umumlashtiradi, guruhlar ishini tahlil qiladi va baholaydi: ijobiy, ijodkorlikning yuqori darajasi holatlari, jamoaviy faoliyat muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi.	O'z-o'zlarini baholaydilar.

### TA'LIMIY O'YIN

Ishbilarmon va rolli (holatli) o'yinlar muommali topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material o'rniga, ta'lim oluvchilar tomonidan o'ynaladigan saxnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlatiladi.

- **rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlash, nutq, atrof-muhit sharoitiga o'rganish qobiliyatini rivojlantirish;
- **motivatsionli:** ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosa qabul qilishini rag'batlantirmoq;
- **tarbiyalovchi:** ma'suliyatlilikni, fikr almashishlikni shakllantirish.

O'yin usullari va dars shaklidagi mashg'ulotlar holatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda sodir bo'ladi:

- didaktik maqsad ta'lim oluvchilar oldiga vazifa ko'rinishida qo'yiladi;
- o'quv faoliyat o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv material o'yinning vositasi sifatida ishlatiladi;
- o'quv faoliyatga didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan musobaqa bo'lagi kiritiladi;
- didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

*Ishbilarmon o'yinni rolli o'yindan farqi nimada?*

Ishbilarmon o'yin ishtirokchilariga hayotiy holatda qurilgan o'yinli syujet taklif qilinadi, bunda ishtirokchilar oldiga yagona umumiy maqsad: taklif etilayotgan muammoni echish qo'yiladi.

Shu bilan bir vaqtda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi lozim. Shuning uchun echimni ishlab chiqish jarayonni alohidaligi-guruhli xususiyatga ega: har bir ishtirokchi avval o'zining vazifali maqsadiga muvofiq qaror qabul qiladi, undan so'ngra esa uni guruh bilan kelishadi. Alohida vazifali maqsadni bajarilishi butun guruh qaror qabul qilish natijalariga bog'liq. Odatda, ishbilarmon o'yin davomidagi muammoni echish bir nechta bosqichda (2 dan 10 gacha va bir o'yin ko'p).

Ishtirokchilar harakatini baholash yakuniy va oraliq natijalar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. oraliq baholash belgilangan maqsadni amalga oshirishda ularning anglab etishini oshirish maqsadida bizga o'yin davomida ishtirokchilar harakatiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.
2. yakuniy natijani baholashda ishtirokchilarning tashkiliy faoliyatlari va ular tomonidan vazifali rolli maqsadni bajarish hisobga olinadi.

Rolli o'yin, ishbilarmonlik kabi vaziyatda ko'rsatilgan, muammoni echishda ishtirokchilarning faol birgalikdagi harakatlariga asoslanadi. Mavzu qatnashchilarining bitta majburiy maqsadlari bor-muammoni echish. Lekin alohidaligi maqsadlar, ishbilarmon o'yindagi kabi kelishib olinmaydi. Rolli o'yinning har bir ishtirokchilar maqsadlari-g'alaba qozonish, o'zini ko'rsatish. Vaziyatli o'yin yakunlarini nafaqat umumiy maqsadga erishish natijalari bo'yicha emas va balki har bir ishtirokchining rolli maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha baholanadi.

Siz tomondan ishlab chiqilgan o'yin haqiqiy hayotga mumkin qadar yaqin bo'lishi, lekin ishtirokchilar uchun juda murakkab va qiyin bo'lmasligi kerak.

## Ishbilarmon o'yin usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1 - bosqich Tayyorgarlik	Mavzu tanlaydi, maqsad, vazifalar va natijalarni shakllantiradi; o'rganilayotgan muammoni bayon qiladi, qo'yilgan vazifani asoslaydi; o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqadi; o'yin tartibini, vaziyat mazmuni va qatnaShuvchilar xususiyatlarini aniqlaydi.	
2 - bosqich Kirish	Ishtirokchilar uchun yo'riqnomalar va o'yinning aniqlovchilarini tayyorlaydi; natijalarni baholash mezonlarini aniqlaydi. Ishtirokchi va ekspertlarni yo'llaydi. Ish tartibini aniqlaydi, mashg'ulotning bosh maqsadini shakllantiradi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlashni asoslaydi. Ishtirokchilarga materiallar solingan paketlarni: yo'riqnomalar, o'ynash lozim bo'lgan qaxramonlarning xususiyatlari, Shuningdek vaziyatli ko'rsatmalarni tarqatadi	Materiallarni birgalikda muhokama qiladilar, rollarni taqsimlaydilar.
3 - bosqich. Rollarni bajarishga tayyorgarlik	Kuzatadi, alohida maslahatlar beradi	Oldindan belgilangan vaqtda qo'yilgan vazifani anglab etadilar va rolga kiradilar: har bir ishtirokchi, ssenariyda bayon qilingan o'zining rolli maqsadini amalga oshirishni rejalashtiradi. Kerak bo'lganda qo'shimcha axborotlar yig'adi, maslaxat uchun olib boruvchi va ekspertlardan maslaxat oladi
4 - bosqich YAkuniy	O'yin yo'nalishini o'zgartirish bevosita aralashish huquqisiz kuzatadi. O'yining oraliq natijalarini baholashni amalga oshiradi (ta'minlaydi), Shu bilan birga ularning anglab etishishlarini oshirish maqsadida ishtirokchilar harakatiga o'rtacha ta'sir ko'rsatadi	O'yin shartlarida yozilgan talab bo'yicha, rollarni o'ynaydilar, bir-birlari bilan faol hamkorlik qiladilar. Shu bilan birga bunda oshkora bo'lmagan o'yindan chiqishni, taqiqlovchi, o'yinga sust munosabatda bo'lish boshqalarning faolligini bostirish o'zini tutish etikasi va reglamentini buzmaslik qoidalariga amal qiladilar
5 - bosqich Tahlil, muhokama, natijalar bo'yicha o'z-o'zini baholash	O'yin yakuni muhokamasiga yo'naltiradi. Tahlil avval e'lon qilingan ko'rsatkich va baholash mezonlari bilan chegaralanadi. Bunda ishtirokchilar tomonidan berilgan mavzuni qabul qilish, rolli maqsadlarga erishish	Ekspertlar chiqishini eshitadilar, fikrlar bilan almashinadilar, rolli maqsadlarga erishish bo'yicha o'zlarining xulosalarini himoya qiladilar. O'zlarining

	darajasidan tashqari, ishtirokchilarning qo‘l harakatlari, mimika, ularni o‘qitish vositalari bilan ishlay olishlarini tanqidiy kuzatish bo‘lishi mumkin.	harakatlari va xulosalarini o‘yin qahramonlari harakatlari bilan taqqoslaydilar
6 - bosqich Yakun yasash, va baholash	Erishilgan natijalarni sharhlaydi, xatolarni ko‘rsatadi, mashg‘ulotning so‘nggi yakunini chiqaradi, o‘yinni o‘quv fani mazmuni bilan bog‘liqligini aniqlaydi	Tinglaydilar

### 3. Ta’limning faol usullari va texnikasi

**Ta’limning faolligi** – ta’lim oluvchilarning faolligini tashkillashtirishni ta’minlab beruvchi ta’lim.

**Ta’limning faol usullari** – ta’lim oluvchilarning bilim orttirish faoliyatini kuchaytirish usullari. Asosan u yoki bu muammoni echish yullarini izlashda taxminiy erkin fikr almashinish diologi asosida kuriladi.

Ayniksa keng tarkalgan va uziga xos xususiyatga ega bo‘lgan ta’limning faol usullariga quyidagilar kiradi: suxbat, munozara, ta’limiy uyinlar, «keys-stadi», loyixalash usuli, muammoli usul, miyaga xujum va bosh.

**Interaktiv (Interactive)** – dialogli.

**Interfaol ta’lim** – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi (ta’lim oluvchi va kompyuter) uzaro xarakatni amalga oshiruvchi dialogli ta’lim.

Interfaollik – ta’lim doirasida prinsipial yangi xodisa – Shu tufayli ta’lim oluvchi:

(1) ta’lim jarayonining hamma sub’ektlari bilan faol uzaro xarakatda bulishi, faqatgina o‘qituvchi bilan shaxsiy munosabat yulidagina emas, balki boshqa talabalar, ma’muriyat bilan ham kila olishi mumkin;

(2) multimedia ob’ektlarini taxlil qilish jarayonida ularning mazmunini, shaklini, ulcham va ranglarini dinamik ravishda boshqarishni, turli tarafdan ularni kuzatishni, boshqa Shunga o‘xshash manipulyasiyalarini kayta ta’minlashni, ko‘proq aniq kursatuvga erishish uchun xoxlagan joyidan tuxtatib va davom ettira olish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, interfaollik faqatgina axborotlarni passiv kabul qilish uchungina emas, balki urganilayotgan ob’ektlar yoki jarayonlarda va virtual modellarning uzaro xarakatlarida multimedia modellari xususiyatlarini faol tadkikot qilish uchun ham imkoniyat yaratib beradi.

Interfaollik darajasi kanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim jarayoni ham Shunchalik samarali bo‘ladi.

#### «Miyaga xujum» usuli

**Miyaga xujum** (breynstorming – miya tufoni) – g‘oyalarni generatsiya qilish usuli. qatnashchilar birlashgan holda amaliy va ilmiy muammolarni echishga xarakat qiladilar: uni echish uchun shaxsiy g‘oyalarni ilgari (generatsiya qiladilar) suradilar.

Miyaga xujum jarayonida katnashchilar kiyin muammoni bir-birlari bilan fikr almashgan holda echishga xarakat qiladilar: muammoni echishda uni tankidga uchramasligi uchun uzlarining ko‘proq shaxsiy fikrlarini (generatsiya qiladilar) bayon etadilar, keyin esa mos keladigan, ratsional,

samarali, optimal va bosh. g'oyalarni (fikrlarni) tanlab oladilar, ularni muxokama qiladilar, ularni kengaytiradilar, chukurlashti-radilar, ularni isbotlanishi yoki rad etilishi imkoniyatlarini baxolaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning o'quv-bilim orttirish faoliyatini faollashtiradi, muammolarni mustaqil tushunish va echishda ularning motivatsiyasini ustiradi va muomala madaniyatini tarbiyalaydi, kommunikativ (uzaro fikr almashinuvi) malakalarini rivojlantiradi, fikrni inersiya (xolatni saklash xususiyati) xolatidan ozod etish va ijodiy vazifalarni echishda o'rganib kolingan fikrlarni engib utishga yordam beradi.

An'anaviy ta'limda kuppina ta'lim oluvchilar muammoni muxokama qilish vaktida uz fikrlarini ayta olmaydilar, chunki, ular urtamiyona talaba bulishlari, uz fikrlarini bayon etayotganlarida boshqa muzokara katnashchilarning salbiy munosabatlaridan, tankidlaridan, kulgilaridan chuchishdan uzlarini ximoya qiladilar. A. Osborn fikrlarni generatsiya qilishni tavsiya etadi va bunday sharoitlarda tankid ta'kiklanadi va aksincha xar bir g'oya, fikrlar turli yullar bilan rag'batlantirilib turiladi, xatto eng be'manilarini ham. Hamma bildirilgan fikrlar yoziladi, keyin birma-bir taxlil kilinadi, baxolanadi va Shundan keyingina eng samaralisi, optimali, ratsionalliligi va istikboli borlari tanlab olinadi.

**Kollektivga xos tug'ridan-tug'ri miyaga xujum** – iloji boricha kup fikrlarni jamlashni ta'minlab beradi. Hamma katnashchilar bitta muammoni echadilar. Optimal katnashchilar soni: 15 kishidan ortmasligi kerak. Davomiyligi: 1 soatgacha. Bu usuldan samarali foydalanish kupincha ta'lim beruvchiga bog'lik bo'ladi.

**Keng ommaga xos miyaga xujum** – auditoriyada (60 kishigacha) fikrlarni generatsiya qilish samaradorligini jiddiy kupaytirishga imkon beradi. Mikro-guruxlar ichida umumiy muammoning bir tomoni (aspekti) xal kilinadi.

#### **Talabalar bilimni mustaxkamlash uchun savollar:**

1. Ta'lim usullari to'g'risida tushuncha?
2. Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usulitushuntirib bering?
3. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbeh berish usullari?
4. Muammoli ta'limning maqsad va mohiyati?
5. Ta'limning faol usullari va texnikasi qanday?
6. «Miyaga xujum» usuli

### **6-MAVZU: TA'LIM TEXNOLOGIYASINI BOSHQARISH.**


#### **REJA:**

1. Boshqarishning tizimining kisimlari.
2. Ta'lim texnologiyasida boshqarish sub'ekti va boshqarish ob'ekti.
3. Boshqarish turlari.
4. Didakdik jarayonda o'qitish usullari.
5. Didaktik jarayonni belgilovchi omili - tashkiliy shakllari.

#### **BOSHQARISH.**

Didaktik jarayonning sunggi tarkibiy qismi o'quv bilish faoliyatini boshqarish xisoblanadi. Shuni qayd etish joizki, har qanday o'quv faoliyatini boshqarish imkoniyati mavjud. Boshqarish tizimi ikki boshqaruvchi va boshqariluvchi ob'ektdan iborat bo'ladi. Agar didaktik jarayonda o'qituvchi boshqarish sub'ekti xisoblansa, o'quvchilar boshqarish ob'ektidir. Sub'ekt uzluksiz tarzda ta'lim maqsadiga muofik ob'ektga bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Ob'ekt ham o'znavbatida sub'ekt tomonidan o'rnatilgan maqsad va vazifalarni tug'ri anglab etishi va unga

erishish choralarini ko'rgandagina o'quv faoliyatini samarasi to'g'risida fikr yuritishi mumkin bo'ladi. Birinchi rasmda Oliy o'quv yurtlarning o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish tizimini keltiramiz.



1-rasm. O'quv tarbiyaviy jarayonini boshqarish sub'ekti va ob'ektlarining o'zaro ta'siri (R-ректор, D-dekan, K-qafedra mudiri, U-o'qituvchi, T-talaba).

Pedagogikada o'quv faoliyatini boshqarishning kibernetika fanida ishlab chikilgan tasnifidan foydalaniladi: ochiq, yopiq yoki siklik, yoyilgan. Didaktik jarayonni boshqarishda ko'proq siklik turdagi boshqarish tizimi ko'l keladi. Sababi, zaruriy o'quv harakatlar to'g'risidagi axborotlar oqimi o'rgatuvchilar to'g'ri aloqa yordamida o'rganuvchilarga uzatiladi. Asosiy harakatlarni bajarilganligi xaqidagi ma'lumotlar esa teskari aloqalar yordamida esa o'rganuvchidan o'rgatuvchiga uzatish imkoniyati mavjud bo'ladi. Demak, o'quv faoliyatini boshqarish siklik tarzda, ya'ni: "o'rgatuvchi-axborot o'rganuvchi" tizimi ko'rinishida amalga oshar ekan.

Yopiq boshqarish doimo har bir o'quv elementi bo'yicha o'qitishning asosiy ko'rsatkichlarini

( $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $r$ ,  $\tau$ ) o'quvchining o'quv faoliyati davomida ko'zatishni va bu ko'rsatkichlar belgilangan me'yoridan farq qilsa faoliyat uchun zaruriy tuzatishlarni uchun amalga oshirish taqozo etadi.

O'qitishda boshqarishning yopiq usulidan foydalanishning bir muncha sodda usuli o'quvchining so'roq qilish va o'quv materialini o'zlashtirishda yo'l qo'yayotgan xatolarini zudlik bilan tushuntirish so'roq natijalarini xisobga olgan holda qo'shimcha mashqlar bajarish zarur.

Boshqarishning muxim sharti shundaki, agar nafaqat o'quvchi tomonidan bajarilsa, boshqarish algoritimi ( $B$ ) o'qituvchi tomonidan yoki o'quvchi ham bajarish mumkin. Buning uchun o'qituvchi nafaqat o'quvchilarga mashq yoki topshiriq tavsiya etadi, balki ularning to'g'ri javoblarini etallonlarni ham beradi. Shunda o'quvchilar o'z faoliyatlarini tekshirishi va harakatlarini tuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Shunday qilib, didaktik jarayonni (4 element) loyixalash qonunyatlarini yuqorida bayon qildik. Biroq uning har bir bosqichi ilmiy jixatdan asoslangan o'qitish metodlari va vositalarini tanlashni talab etadi. Didaktik jarayonning har bir bosqichiga mos keladigan yoki didaktik jarayon nazariyasiga asoslangan o'qitish metodlari tasnifi pedagogika fanida 1983 yil ishlab chikildi, va pedagogika amaliyotiga joriy etildi. Ular uch guruh metodlaridan iborat:

1) o'qitish va mehnatga rag'bartlantiruvchi va motivatsiya metodlari; 2) o'quv bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari; 3) o'quv bilish faoliyatini boshqarish metodlari.

Didaktik jarayon samaradorligini yoki pedagogik texnologiya maqbulligini belgilovchi omillardan yana biri o'qitish shakllarini o'quv faoliyati bosqichlariga mos holda to'g'ri tanlash va ularni oqilona tanishtirish tamoyili xisoblanadi.

### **TASHKILY SHAKILLAR.**

Didaktik jarayonni tashkil etishda o'qituvchi o'quv bilish faoliyatini tashkiliy shakllarini (5-element) ham ta'lim mazmuniga mos holda tanlay olishi kerak. PT ni loyixalash shartlaridan biri ham "tashkiliy shakllar" ni to'g'ri tashkil etish sanaladi. Pedagogikada o'qitishning tashkiliy shakli deganda o'quvchilar o'qitish jarayonida tashki shart sharoitlar yig'indisi tushuniladi.

Ma'lumki, ta'lim tizimida bilish faoliyati auditoriyada (ma'ruza, seminar) va auditoriyadan tashqari (uyda, kutubxonada tayyorgarlik va boshqa.) mashg'ulotlar kiradi.

Pedagog o'quv faoliyati shakllarini tanlashda quyidagi savollarga javob topishi kerak; didaktik jarayon ishtiroqchisi kim, (o'quvchi, talaba, tinglovchi) va u qanday boshqarilishi kerak (o'quv faoliyatini o'qituvchi boshqaradi, avtomatlashgan sinf yordamida yoki boshqa texnik vositalar yordamida kinodiyafilm, kompyuter, modeli ta'lim, va xakozo).

Didaktik jarayon u yoki bu texnik vositalardan ta'lim mazmuniga mos holda uzluksiz ko'llashni taqazo etadi. Bu yunalish PT ning mavjudlik shartlaridan biridir.

Pedagogik texnologiyaning loyixachisi ham, uni amaliyotga joriy etuvchi ham pedagog (6 element) xisoblanib, malakali, mutaxassis tayyorlashdek muxim ijtimoiy (davlat) buyurtmasini bajaradi. Xo'sh, pedagogning pedagogik tizimida tutgan o'rni nimadan iboart ?

1. O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadini (2 element) tashxislanuvchan holda aniq va ravshan belgilashi kerak, natijada ajratilgan vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lgan.

2. O'qituvchi belgilangan ta'lim maqsadiga to'g'ri keladigan o'quv tarbiyaviy jarayon mazmunini (3-element) saralashda fanning abstraksiya pog'onalarini va o'zlashtirish darajalariga mosligini inobatga olishi zarur.

3. O'qituvchi pedagogik tizimining tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayoni (4element) tuzish talablari bilan tanish bo'lishi va uning eng maqbul variantini har bir dars mavzusiga bog'liq holda loyixalash kerak. Bu talablar jadallashtirish va tabiatdan monadlik tamoyilidir. Jadallashtirish tamoyili didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida bir muncha tez va yuqori saviyada xal eta oladigan didaktik jarayonni qo'llashni talab etadi. Ta'lim va tarbiyada jadallashtirish ta'moyillini aniqlab beruvchi omil o'quvchilarning ma'lum faoliyatini o'zlashtirish tezligi xisoblanadi. Ikkinchi tamoyil o'quv-tarbiyaviy jarayonini shunday tashkil etishga asoslanadiki, bunda mumkin qadar o'quvchilarning keng doirada tajriba (bilim, kunikma va ijodiy faoliyat), egallashiga imkon tug'diradigan va ularning aqliy zakovatini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin.

4. O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan (5 element) foydalana olishi zarur. Bu pedagogik tizimda elementlarning ma'lum qonuniyat asosida bog'liq ekanligini bildiradi. Bu bog'lanishlardan foydalanish va maqbul bo'lgan tashkiliy shakllar topish ta'limda rasmiyatchilikni yuqotishga yo'l ochadi.

5. O'qituvchi pedagogik tizimining ishtirokchisi bo'lgan o'quvchining (1 element) ta'lim mazmunini va tarbiya ta'sirini kaydarajada egallayotganligini eng maqbul usullari bilan nazorat qilib borishi lozim. Olingan axborotlar pedagogik tizimni maqsadga muvofik tarzida boshqarish imkoniyatini beradi yoki pedagogik tizimlarga qaysi elementini mazmunini tuzatish kerak ekanligini belgilab beradi.

## **6-SEMENAR mavzu: Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasi tarkibi.**

Reja:

1. Ta'lim vositasi - ta'lim texnologiyasining tarkibi.
2. Ta'lim vositalari haqida tushuncha.
3. Ta'lim vositalarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati.
4. Ta'lim vositalarining tasnifi.
5. Chizmalı organayzerlar haqida tushuncha. Ma'lumotlarni ko'rgazmalı taqdim etish usullari va vositalari.

**Таълим воситалари - ўқув материални кўргазмали тақдим этиш ва шу билан бирга ўқитиш самарадорлигини оширувчи ёрдамчи материаллар хисобланади.**

### Ta'lim vositalari:

1. Ta'lim berishning texnik vositalari (TTV);
2. YOrdamchi ta'lim vositalari (YOTV);
3. O'quv - uslubiy materiallar (O'UM).


**Ta'limning texnik vositalari (TTV)** - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

**YOrdamchi ta'lim vositalari (YOTV)** – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

**O'quv - uslubiy materiallar (O'UM)** - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarining mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Talabalarni o'quv - bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdagi ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq: 1) maqsadni belgilash; 2) asosiy bilim manbaiga; 3) ta'lim usuliga; 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga; 5) talabalarni o'quv imkoniyatlariga.

### 1.1. Ta'lim vositalarining tasnifi



### 1.2. Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:

- Maqsadni belgilash;
- O'quv axborot mazmuni;
- Ta'lim vositalari;
- Etakchi bilim manbai;
- O'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

### 1.3. O'UM turlari va ulardan foydalanishning xususiyatlari

O'UM turlari	Xususiyatlari		
	qo'llanilishi	mazmuni	rasmiylashtirish


1	2	3	4
Yo'riq noma berish	Alohida, juftlikda va guruhli ish doirasida guruhli topshiriqni bajarishda	Bajarish uchun taqdim etilayotgan topshiriqning aniq ifodalanishi. Vaqtga va ish shakliga, kutilayotgan natija, natijani taqdim etish shakliga, uning baholash mezoniga qaratilishi.	Tuzilmaviylik, aniqlik
Eslatma	Materialni mustahkamlashda, dars yakunida va mustaqil qo'llash uchun	Mashg'ulotda o'tilgan asosiylarining eng qisqa umumlashtirilishi	Qisqa tuzilmaviylikda asosiy mazmuni bayon etilishidan iborat; qisqa takliflar, aniq fikrlar, misollar; matn o'rnida chizma, rasm, jadval va boshqalardan foydalanish.
Nazorat varag'i	Egallagan bilimlarni tekshirishda	Fikrlash uchun savollar va yangi bilimlarni qo'llash.	O'qituvchi tekshiruv natijalarini kiritish uchun bo'sh joy bo'lishi kerak.
Tezislar	Mashg'ulot <i>oldidan</i> - yordamchi qo'llanma sifatida; O'quv mashg'ulot <i>vaqtida</i> -yakun chiqarishda, mashg'ulotga tayyorlangan materialni mustahkamlash uchun; - qisqa qayd etish uchun faol vositadek; - o'quv mashg'ulotidan <i>so'ng</i> - bilimlarni mustahkamlash uchun ma'lumotnomadek.	Mavjud mashg'ulot mazmuniga mos kelishi va uni to'ldirish zarur	Qisqaligi: imkoni boricha bir varaq A4. Talabalar shaxsiy fikrlarini yozishlari uchun bo'sh joy bo'lishi zarur.




## 2. Grafikli organayzerlar texnikasi

**Графикли органайзерлар (ташкил этувчи) – фикрий жараёнларни кўргазмали тақдим этиш воситаси.**

### 2.1. Ма'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtasida aloqa va aloqadorlikni o'rnatishning yo'li va vositalari





Klasterni tuzish qoidasi

1. Ақлингизга нима келса, барчасини ёзинг. Ғоялари сифатини муҳокама қилманг фақат уларни ёзинг.
2. Хатни тўхтатадиган имло хатоларига ва бошқа омилларга эътибор берманг.
3. Ажратилган вақт тугагунча ёзишни тўхтатманг. Агарда ақлингизда ғоялар келиши бирдан тўхтаса, у ҳолда қачонки янги ғоялар келмагунча қоғозга расм чизиб тулинг.

**ТОИФАЛАШ ЖАДВАЛИ**

Тоифа-хусусият ва муносабатларни муҳимлигини намоён қилувчи (умумий) аломат.

Ажратилган аломатлар асосида олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди.

Тизимли фикрлаш, маълумотларни тузилмага келтириш, тизимлаштириш кўникмаларини ривожлантиради.

Тоифали шарҳлашни тузиш қoidasi билан танишадилар. Ақлий ҳужум / кластер тузиш/ янги ўқув материали билан танишишдан сўнг, кичик гуруҳларда, олинган маълумот лавҳаларини бирлаштириш имконини берадиган тоифаларни излайдилар.

Тоифаларни жадвал кўринишида расмийлаштирадидилар. Ғояларни / маълумотларни тоифага мос равишда бўладилар. Иш жараёнида тоифаларнинг айрим номлари ўзгариши мумкин. Янгилари пайдо бўлиши мумкин.

Иш натижаларининг тақдимоти

## Toifalash sharhini tuzish qoidasi

1. Тоифалар бўйича маълумотларни тақсимлашнинг ягона усули мавжуд эмас.
2. Битта мини - гуруҳда тоифаларга ажратиш бошқа гуруҳда ажратилган тоифалардан фарқ қилиши мумкин.
3. Таълим олувчиларга олдиндан тайёрлаб қўйилган тоифаларни бериш мумкин эмас бунларнинг мустақил танлови бўла қолсин.

*Toifalash jadvali*

<i>Toifalar</i>				



...tushunchalarga yondashuvlar	Tavsiflar, toifalar, xususiyatlar va boshqalar			

**Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ-** Биламан/ Билишни хоҳлайман/ Билиб олдим.  
 Мавзу, матн, бўлим бўйича изланувчиликни олиб бориш имконини беради.  
 Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Жадвални тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида /кичик гуруҳларда жадвални расмийлаштирадилар.

“Мавзу бўйича нималарни биласиз” ва “Нимани билишни хоҳлайсиз” деган саволларга жавоб берадилар (олдиндаги иш учун йўналтирувчи асос яратилади). Жадвалнинг 1 ва 2 бўлимларини тўлдирадилар.

Маърузани тинглайдилар, мустақил ўқийдилар.

Мустақил/кичик гуруҳларда жадвалнинг 3 бўлимни тўлдирадилар

В/ВХ/В jadvali

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim




## 2.2. Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashning yo'li va vositalari

**ВЕННА ДИАГРАММАСИ** - 2 ва 3 жиҳатларни ҳамда умумий томонларини солиштириш ёки таққослаш ёки қарама-қарши қўйиш учун қўлланилади.  
 Тизимли фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Диаграмма Венна тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гуруҳларда диаграмма Веннани тузадилар ва кесишмайдиган жойларни (x) тўлдирадилар

Жуфтликларга бирлашадилар, ўзларининг диаграммаларини таққослайдилар ва тўлдирадилар

Доираларни кесишувчи жойида, икки/уч доиралар учун умумий бўлган, маълумотлар рўйхатини тузади.



“SWOT – tahlil” jadvalining nomi inglizcha so‘zlarning bosh harflaridan tuzilgan:  
**Strengths** – kuchli tomoni, tashkillashtirishning ichki manbalari mavjudligi nazarda tutiladi;  
**Weakness** – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarning mavjudligi;  
**Opportunities** – tashkillashtirishdan tashqarida rivojlanish uchun mavjud, imkoniyatlar;  
**Threats** – tashqi muhitda tashkillashtirishni muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi xavf-xatarlar.


“SWOT - tahlil” jadvali


<b>S</b>	<b>W</b>
<b>O</b>	<b>T</b>

☞ *Qoidага kўra, SWOT – taхlil muvaffaqiyatiuni tashkilashtirishiga bogliқ bўlмай, balki muҳokamaning natijalari kelgusidaги aniq taқlif va loyiҳalarni ishlab чиқишда ҳисобга олиниши мумкин. Бундаги кетма-кетликлар қуйидагича бўлиши керак:*

	<i>Tahlil tarkiblari</i>	<i>☞ Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari</i>
<b>S</b>	Kuchli tomonlari (tashkillashtirishning ichki manbalari)	- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi; - yangi loyihalar asosi hisoblanadi; - to‘siqlarni engib o‘tishning yo‘li bo‘lishi mumkin.
<b>W</b>	Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)	- tashkillashtirish faoliyati aynan shularni engib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim; - yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; - rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur
<b>O</b>	Imkoniyatlar (tashqaridan)	- moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha ko‘rsatkichi yoki tashqi manba bo‘lib xizmat qiladi, - ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo‘ladi; - yangi loyihalarning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo‘lishi mumkin.
<b>T</b>	Xavflar (tashqaridan)	- Har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur; - ularni engib o‘tish yoki betaraf etish yo‘llari ishlab chiqilishi kerak; - ba’zida mantiqqa mos kelmaydigan “raqiblar” “ittifoqchilarga” aylanishi bo‘lishi mumkin.

### 2.3. Muammoni aniqlash, tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirishning yo‘llari va vositalari





### 🕯 «Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari

1. Айлана ёки тўғри тўртбурчак шакллардан фойдаланишни ўзингиз танлайсиз.
2. Чизманинг кўринишини - мулоҳазалар занжирини тўғри чизиқлими, тўғри чизиқли эмаслигини ўзингиз танлайсиз.
3. Йўналиш кўрсаткичлари сизнинг қидирувларингизни: дастлабки ҳолатдан изланишгача бўлган йўналишингизни белгилайди.


**“Балиқ скелети” чизмаси**  
 Бир қатор муаммоларни тасвирлаш ва уни ечиш имконини беради.  
 Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради

Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гуруҳларда юқори “суягида” кичик муаммони ифодалайди, пастда эса, ушбу кичик муаммолар мавжудлигини тасдиқловчи далиллар ёзилади

Кичик гуруҳларга бирлашадилар, таққослайдилар, ўзларининг чизмларини тўлдирадилар. Умумий чизмага келтирадилар.

Иш натижаларининг тақдимоги

### «Baliq skeleti» chizmasi






## «Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari

1. Кўпгина ҳолларда муаммони ечишда “нима қилиш керак”лиги тўғрисида ўйлашиб қолмаслигингиз керак. Асосан муаммо, уни ечишда “буни қандай қилиш керак?”, “қандай”асосий саволлар юзага келишидан иборат бўлади.

“Қандай” саволларининг изчил берилиши қуйидагилар имконини беради:

1. муаммони ечиш нафақат бор имкониятларни, балки уларни амалга ошириш йўлларини ҳам тадқиқ қилиш;
  2. қуйидан юқорига босқичма-босқич бўйсунадиган ғоялар тузилмасини аниқлайдилар.
- Диаграмма стратегик даражадаги саволлар билан ишлашни бошлайди. Муаммони ечишнинг пастки даражаси биринчи галдаги ҳаракатларнинг рўйхатига мос келади.
1. Барча ғояларни ўйлаб ўтирмасдан, баҳоламасдан ва таққосламасдан тезликда ёзиш керак;
  3. Диаграмма ҳеч қачон тугалланган бўлмайди: унга янги ғояларни киритиш мумкин;
  4. Агарда чизмада савол унинг “шоҳларида” бир неча бор қайтарилса, унда у бирор муҳимликни англатади. У муаммони ечишнинг асосийси бўлиши мумкин;
  5. Янги ғояларни график кўринишида: дарахт ёки каскад кўринишидами, юқоридан пастгами ёки чапдан ўнгда қайд қилинишини ўзингиз ҳал этасиз;
  6. Агарда сиз ўзингизга тўғри саволлар берсангиз ва унинг ривожланиши йўналишини намоён бўлишида ишонччи сақласангиз, диаграмма, сиз ҳар қандай муаммони амалий жиҳатдан ечимини топишингизни кафолатлайди

## Tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Pog‘ona”



### • Tuzilmaviy-mantiqiy chizma «Pog‘ona»ni qurish qoidalari

1. «Погона»ни тузиш жараёнида тизимли схеманинг таркибий қисми ва элементларини силжитиш мумкин – бу у ёки бу ҳолатни қайта фикрлаш имконини беради.

2. Агарда сиз ғояларни ишлаб чиқишда тор йўлакка кириб қолсангиз, у ҳолда бир-икки даража юқорига қайтинг ва муҳим нарсани унутмаганингизга ҳамда бошқача нимадир қилиш мумкин эканлигини кўриб чиқинг.

3. Сиз чапдан ўннга ёзишга ўргангансиз. «Каскад» қуришни ўнгда чапга қараб тузишга ҳаракат қилинг. Бунинг учун асосий ғояни чап тарафда эмас, балки ўнг тарафда жойлаштиринг.




**“ПИРАМИДА” чизмаси -**  
 Ғояларни куйидан юқорига босқичма-босқич тақдим этиш воситаси.  
 Тизимли фикрлаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради ва фаоллаштиради

Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гурҳларда чизма тузадилар: аввал асосий муаммони (ғоя, вазифа) ёзадилар, сўнгра кичик муаммоларни, уларнинг ҳар бирдан эса, кичик муаммони батафсил кўриб чиқиш учун “кичик шохчаларни” чиқарадилар. Шунга асосан ҳар бир ғоялар ривожланишини батафсил кузатиш мумкин.

Иш натижаларининг тақдимоти

Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гурҳларда юқори “суягида” кичик муаммони ифодалайди, пастда эса, ушбу кичик муаммолар мавжудлигини тасдиқловчи далиллар ёзилади.

**«Piramida» chizmasi**



**“НИЛУФАР ГУЛИ”**  
**чизмаси -**  
 Муаммони ечиш воситаси.  
 Ўзида нилуфар гули кўринишини намоён қилади.  
 Унинг асосини тўққизта катта тўрт бурчаклар ташкил этади.  
 Тизимли фикрлаш.

Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гуруҳларда чизма тузадилар: тўрт бурчак марказида аввал асосий муаммони (ғоя, вазифа) ёзадилар. Унинг ечиш ғояларини эса марказий тўрт бурчакнинг атрофида жойлашган саккизта тўрт бурчакларга ёзадилар.  
 Марказий тўрт бурчакнинг атрофида жойлашган саккизта тўрт бурчакларга ёзилган ғояларни, атрофда жойлашган саккизта тўрт бурчакларнинг марказига ёзадилар. Унинг ечиш

Чизмани тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида/кичик гуруҳларда чизма тузадилар: аввал асосий муаммони (ғоя, вазифа) ёзадилар, сўнгра кичик муаммоларни, уларнинг ҳар биридан эса, кичик муаммони батафсил кўриб чиқиш учун “кичик шохчаларни” чиқарадилар. Шунга асосан ҳар бир ғоялар

Иш натижаларининг тақдимоти

**«NILUFAR GULI» CHIZMASI**

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

## «Nilufar» guli chizmasini tuzish qoidalari

1. *Амалий нуқтаи назардан барча зояларни ихчам деб тасаввур қилинг (битта-иккитаси билан чегараланинг), бу ҳам ақл учун фойдали машқ ҳисобланади.*
2. *Сизга катта қозғоз варағи зарур бўлади. Доимо ўзингиз мушоҳадаларингиз натижасини бир варақ қозғозда кўриши фойдали ҳисобланади. Қарама-қарши ҳолда эса сизга бир варақдан бошқасига сакраб юришингизга ва бунда зарурий бирор муҳим нарсани унутишингизга олиб келади.*

### 7-8 mavzu: Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari.

#### Reja:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi.
2. Ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari.
3. Ta'lim modeli haqida tushuncha.
4. Ta'lim modeliga kiruvchi komponentlar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'рни va ahamiyati.
5. Ta'lim modelini ishlab chiqishda ta'limni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini tanlash omillari.
6. O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi haqida tushuncha.
7. Texnologik xaritaning rejadan farqli tomonlari.
8. Ta'lim modeli va o'quv mashg'uloti texnologik xaritasini ishlab chiqish qoidalari.

**Tayanch so'z va iboralar:** loyixalash, ilmiylik, zamonaviylik va yakuniy natijani kafolatlanganlik prinsipi, texnologik xarita, keys- stadi texnologiyasi, muammo va muommoli vaziyat, monitoring va baholash.

Ta'lim texnologiyasi quydagi uch bosqichdan iborat, ko'plab operatsiyalarni qamrab oladi: loyihalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va baholash.

**Loyixalash** – mo'ljallangan maqsad va uni amalga oshirish usuli va vositalari yig'indisini aniqlashdan iborat. Bu blok doirasida quydagi ketma-ketlikda operatsiyalar amalga oshiriladi:

- ta'lim texnologiyasini amalga oshirish vaqtini aniqlash; o'quv choragi, yarim yilligi, yillik va butun o'qitish davri uchun;

- o'quv materiallarini taxlil etish;

- maqsad va didaktik vazifalarni ajratib olish;

- o'quv materiallarini ma'lum tuzilmaga keltirish va vaqt bo'yicha taqsimlash;

- bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bosqichlari, Shuningdek, shaxsning sifat va fazilatlarini rivojlantirishni aniqlab olish;

- o'quvchilarni kiziktirish usuli va vositalarini aniqlash. O'quv materiallarini takrorlash, kirish, joriy kursatmalar berish, o'quvchilar diqqat-e'tiborini o'quv materiallarining muxim tomonlariga jalb etish maqsadida muommoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, kizikarli bilish vazifalari va Shu kabilarni oldindan belgilab olish. Ular oldindan belgilangan va maqsadga etaklovchi vosita sifatida qaralmog'i lozim. Bunday yonda Shuv taxsil oluvchiga uz o'quv - bilish faoliyatining tuzilmasi va mazmunini tasavvur etirish imkonini beradi.

Rejalashtirilgan natijalar haqida tasavvur tarkib toptirish kuydagi shakllarda rasmiylashtiriladi:

Bilim, ko'nikma ish - xarakat usuli, muxim yunalganlik, ijtimoiy muxim shaxsiy sifat va fazilatlar va boshqa yoki kutilgan natijalari yozishmasi.

Oqilona o'qitish modeli tuziladi, ular didaktik vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi va o'qitish metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari, pedagogik usullar tuplamidan iborat. Kursatiladigan kurollar va pedagogik texnik o'quv materiallariga, o'quvchilarning shaxsiy kobiliyati va rivojlanganlik darajasiga uygun bulishi kerak. Shuningdek, ta'lim muassasasining modiy ba'zas i hisobga olinishi lozim.

Darslarning tuzilmasi uylab kuriladi va kuydagicha amalga oshiriladi:

- ta'lim - tarbiya ishining xozirgi xolatini diagnostikalash;
- nazorat kilnadigan muxim kursatkichlarni ajratib olish;
- pedagogik jarayon xolatini joriy va yakuniy nazorat qilish;

Tashxislash va nazorat qilish natijalariga asosan teskari aloka boglash usullari va vositalarini aniqlash;

Ta'lim texnologiyasini amalga oshirish uchun extimoldan xoli bo'lmagan va unga xalakit beruvchi omillar tashki muxit va ularni bartaraf etish yullari uylab kuriladi.

**II.Ta'lim loyixasini amalga oshirishda** quydagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

-organilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriklarni, Shuningdek, uy vazifalari, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni tulik o'zlashtirish buycha kursat-malar berish, etalon darajasida o'zlashtirish me'yor-larini aytib berish;

- o'quvchilarning faol, mustaqil faoliyatini ragbatlantirish, bolalar dikatini bulim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday urgatish zarurligini aytib, bilishga kizikish uygotish ukish-organishga xavas, muammolarni bajarishga extiyoj uygotish. Emotsiyalar, tafakkur xodisalari bilimlarni o'quv xolatlariga tadbik etish yullari orkali mavzu bo'yicha ma'lumotlar tuplash, tuplangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni tulik o'zlashtirishga oid uzgartirish, kushimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bulim yoki mavzu bo'yicha tuplangan bilim-larga ishlov berish. Ta'lim jarayoni stoxastik xark-terga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalash-tirilgan, favkulodda va tasodifiy xodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, organilgan natijalarga asoslanib loyixaga yangi uzgartirish, kushimcha, tuza-tishlar kiritiladi, bolalarning etalon darajasiga kanchalik yakinlashganliklari ham aytib utiladi;

- bulim yoki mavzu buycha umumiy xulosalar chiqarish, chikarilgan xulosalarni murakkab o'quv xolatlariga tatbik qilish. Oralik nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bulim buycha axborot tuplash, tuplangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchilar erishgan yutuklarni taxlil qilish, o'quvchilarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchilaklarini ko'rsatish, sinfnng xar bir o'quvchisiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan kushimcha topshiriklar berish, bolalarni o'quv materiallarini yanada atroflicha etalon darajasida o'zlashtirishga ragbatlantirish;

-yakuniy nazoratning asosiy fukksiyasi bolalar-ning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past uzlashtirgan o'quvchilarni ogoxlantirish, kushimcha topshiriklar berish.

**III.Nazorat qilish-baxolash blokining** vazifasi quyilgan maqsadni amalga oshirishning borishi haqida joriy, oralik va yakuniy nazoratlarni o'tkazish, ya'ni muntazam ravishda teskari alokani ta'min etish va axborotga kayta ishlov berishdan iborat. Olingan axborotni taxlil qilib, zarur xollarda kelgusida xarakatlarga uzgartirishlar kiritiladi va nixoyat, qo'yilgan maqsad va olingan natijalarning mosligi haqida xulosa chikariladi. Xar qanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita natijalarning mosligi haqida xulosa chikariladi.

Xar qanday maqsadga erishishda vaziyat bevosita uz ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham biz chizmada kursatilgan bu omilni tashki shart-sharoitlar va tusiklar shaklida ko'rsatishni lozim deb bildik.

1-Chizma.Pedtexnologiyaning funksional tuzilmasi.

Tashki shart - sharoitlar : o'quv binolari, xonalarni jixozlashda, texnik va boshqa vositalar bilan ta'minlanganlik darajasida, ijtimoiy muxit va boshqalarda uz aksini topadi.

Kuzlangan maqsadni amalga oshirish jarayonida kuyidagi omillar uziga xos tusik bulishi ham mumkin:

-pedagogik tizimning barcha tashkiliy elementlari va ularning uzaro alokadorligida uygunlikning mavjud emasligi;

-ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixo-logik, shaxsiy, individual va boshqa xususiyatlari.

- taxsil beruvchining kasbiy kompetentligi kabilar.

Pedagogik texnologiyalar kullash darajasiga ko'ra universal yoki xususiy idorada bulishi mumkin.

#### X U L O S A.

Ta'lim maqsadlarini, baxolash mezonlarini hamda ta'lim sharoitlarini takroriy xosil qilishdagi imkoniyatlaridan kelib chikib, ta'lim- tarbiya jarayonini tarbiyaviy omillariga ham " texnologik" jarayonini keng tadbik etish mumkin. Bu jixatdan "pedagogik texnologiya" ta'lim va tarbiya o'rtasidagi farkni kiskartiradi. "Pedagogik texnologiya" ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish va qismlash- tirish, ta'lim natijalarini standartlashtirish, ta'lim jarayonidagi samarali teskari aloka, avtomatlashtirish imkoniyatlari kabi muxim ta'lim muammolarini xal qilish imkonini beradi. Ushbu muammoni ishlab chikishda "pedagogik texnolgiya" dagi ta'lim tizimlarini kurishdagi tajribasini hisobga olish va tankidiy taxlil qilish maqsadga muvofikdir.

"Pedagogik texnologiya" ning rivojlanish istikbollari uning nazariy asoslarining tankidiy taxlil kilinishi, ta'limga reduksion yondashishdan voz kechish bilan belgilanadi. Bir vaktning uzida "Pedagogik texnologiya" nazariy asoslarini uzgartirish bilan birgalikda uning "muammo maydoni" ni ham uzgartirish lozim.

Ta'lim jarayonining "texnologik" kurulishi kator muammolarni keltirib chiqaradi. Ular sirasiga, birinchi navbatda, didaktik maqsadlarini ishlab chikish, ularni muvofik ravishda tarkib toptirish, mos ravishdagi ta'lim jarayonini loyixalashtirishda uning shakl va mazmuni muvofikligini taminlash, o'quvchilar tomonidan tajribaning tulakonli uzlashtirilishi, barcha ta'lim oluvchilar saviyasini tenglashtirish va oshirish kabilarni kiritish mumkin.

Bulgusi mutaxassislarini sifat jixatidan zamon talabi darajasida tayyorlashga avvalo ularga aniq bilimlar berish, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni kelgusi faoliyatlarida unumli kullashga urgatish orkali erishish mumkin. Shunday ekan, o'quv-tarbiya jarayonini ta'lim nazariyasi faoliyati nuktaii nazaridan kurib chikib, barcha ta'lim-tarbiya ishlarini "pedagogik texnologiya" yunalishiga o'tkazish, maktab amaliyotidagi ixtiyoriylik bilan uning xar bir elementini jiddiy asoslash lozim bo'ladi.

Pedagogik texnologiya (PT) – Shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 – ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyiligini anglab yetadigan va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, qanoatli, o'zgarlar fikrini xurmatlaydigan, milliy-madaniy va umum insoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qay darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq.

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zidan – "texos" (techne) – san'at, hunar va "logos" (logos) – fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana Shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni: PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishining kafolatlaydigan jarayondir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik adabiyotlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinislarini ucratis mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "O'quv jarayoni texnologiyasi" va hokazo.

PT o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini quris, ularni joriy etis sartlarini aniqlastiris, mavjud imkoniyatlarni hisobga logan holda

belgilangan maqsadga erishni ta'minlaydi. Yoxud PT o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir. Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, smaradorligi, oldindan loyihalani zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Ob'ektiv borliqni o'rganisning tizimli yondasis metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishning oqilona usullarini aniqlasdan iborat" deb tusuntiradi. Shuningdek, olimi zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: "O'qitish texnologiyasi – bu o'quv jarayonini nima real tavsiflash o'sa, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa. Bu alohida fan.

PTni fan sifatida e'tirof etish G.K.Selevko tomonidan ham ma'qullandi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmunca oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'limda qo'llaniladigan usullar, prinsiplar va regulyativlar sifatida ham real o'qitish jarayoni sifatida mavjuddir".

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, PT belgilangan boslang'ich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilayapti. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa uning bir yoqlamaliligi ko'zga tashlanadi yoki bunday yondaShuvlarda o'quvchi saxshi inkor etilayapti. Bu kamchiliklarni birinchi bo'lib akademik V.P.Bespalko payqadi va o'zining yirik asarida "PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihadidir" deb ta'rifladi.

**II.** Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi PTning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi PT fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

#### **O'quv tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirish prinsipi.**

Ma'lumki, o'qitish jarayoni boshqariladigan jarayondir. O'qituvchi pedagogik texnologiya qonuniyatlariga ko'ra maqsad, faoliyat, natija yo'nalishida amalga oshirib, ya'ni ta'lim natijasini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'qish-o'qitish masalalarini va ularni hal etish texnologiyasini loyihalash qonuniyatlari bilan yaqindan tanish bo'lishi lozim. Loyihalangan texnologiya dars mavzuiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilib, tanlangan qo'shimcha ma'lumotlar o'quvchilar kuchiga, bilim darajasiga, yosh va individual xususiyatlarga mos kelishi kerak. Shuningdek, o'qish-o'qitish jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalaridan foydalanish smaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo'llash malakasini o'qituvchi o'zida shakllantirgan bo'lishi lozim. Bu albatta, o'qituvchidan ijorkorlikni, yangilikni anglay olish va undan aniq foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi ko'z o'ngida doimo nimani o'qitish? Kimni o'qitish? va qanday o'qitish? muammosi turishi kerak bo'ladi.

**Ilmiylik, zamonaviylik va yakuniy natijani kafolatlanganlik prinsipi** tajribada sinalgan, yaxshi natija berishga mos bo'lgan ta'lim-tarbiyaning shakl, metod, vositalari faol metodlarini doimiy ravishda ilmiylikka yo'llashni talab etadi. O'qituvchi-tadqiqotchi uzluksiz izlanishi didaktik ma'lumotlarni oqilona qo'llash malakasiga ega bo'lishi mumkin. Maktab tajribasida ilmiy asoslangan didaktik yangiliklarni qo'llash, zamonaviylikni e'tirof etadi. Pedagogika nazariyasidagi yangi metod, metodlaridan foydalanish, ta'lim mazmuniga mos shakl metodlarini tanlash o'qitishni zamonaviylashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xarakterda bo'lish prinsipi mavjud. Bu prinsip pedagogik texnologiyalar tizimida ta'lim-tarbiyada o'quvchi manfaatining ustivorligini ta'minlash prinsipini joriy etishni taqozo qiladi. Shunga asosan o'quv tarbiya jarayonida ko'proq o'quvchining mustaqil o'qishi, mutoala qilishi, tahlili qilishiga e'tibor qaratilmog'i talab etiladi. O'quvchilar bilim,

ko'nikma, malakalarini egallashlarida ularning qiziquvchanligini, tashabbuskorligini uyushtirish pedagogik texnologiyasining yo'nalishlaridandir. O'qituvchi – o'quvchi faoliyatini tashkil qilish, mustaqil o'qish, fikrlash, tahlil qilish, qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalashi lozim.

Yangi pedagogik texnologiya zamonaviy talab, ehtiyojlardan kelib chiqib, texnologik jarayon xususiyatlariga asoslanadi. Ma'lumki davr, taraqqiyot ishlab chiqarish o'zgarib, rivojlanib borish xususiyatiga ega. Mavjud texnologiyalar maxsulot turiga qarab ishlab chiqarish qurollarini, ishchi o'rinlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi va u zudlik bilan o'zgartiriladi. Texnologiyaning bu sifat ko'rsatgichi egiluvchanlik deb ataladi. Ta'lim tarbiyada ham davrning o'zgarishi, taraqqiyotning yangi bosqichga o'tishi munosabati bilan ta'lim va tarbiyaning maqsadi va vazifalarining o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgarish o'z navbatida ta'limning mazmunini, shaklini, metodlarini, vositalarini o'zgarishiga olib chiqdi. Bu yangi pedagogik texnologiyaning egiluvchanlik prinsipining asosini tashkil qiladi.

Shunday qilib yuqorida izohlangan pedagogik texnologiya prinsiplari ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini ilmiy asosda qurishga, o'quvchilarning ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish, tahlil qilish, shaxsiy mulkiga aylantirishga va Shu asosda shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi. Demak ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, shakl, metod vositalari) ga yaxlit holda yondashilsa pedagogik texnologiyalar o'z muddaosiga erishadi.

### **O'qitish jarayonining tuzilishi, uni loyihalash va loyihalash bosqichlari**

O'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'qituvchi, avvalo, o'qitish jarayonini tahlil qilishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o'qish bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o'rgatishi, o'zlashtirilgan bilimlarni ko'nikmalarga aylantirish uchun o'quv mavzulari bo'yicha metodik tizimni yaratadi, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mazmunini ishlab chiqadi. Yaratilgan metodik tizim va ma'lumotlar mazmuni yordamida o'quvchi tasavvur qilishi lozimlilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etadi va o'quv mashg'ulotlari uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllari (nazariy dars, amaliy mashg'ulot)ni maqsadga mos tanlaydi va uni echishga yo'llaydi.

Buning uchun o'qituvchi, avvalo, o'qitish jarayonini, uning tuzilishi aniq tasavvur qilishi lozim. Ma'lumki, har qanday jarayon, ma'lum natijalarga erishish uchun oldinga qarab intilishni, harakatlar yig'indisidan iborat. O'qitish jarayoni ta'lim o'rgatuvchi o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'quvchi faoliyat hamkorligining yig'indisini tashkil etadi.

Jarayon sifatida ta'lim uch element birikmasidan iborat: o'qitish, o'qish va ta'limning mazmuni.

O'qitish yoxud o'rgatuvchi faoliyati, bilim oluvchilar faoliyatlarini boshqarish, ya'ni o'quvchilarning o'quv ishlarini uyushtirish, ularning bilish jarayonlariga rahbarlik qilish, nazorat uyushtirish, ma'naviy axloqiy sifatlarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

O'qitish jarayonining bu ikki elementi bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalanib, o'quv tarbiya ishlarini takomillashtirish, ijtimoiy buyurtmani hal etishga qaratilgan. Shunga ko'ra bu jarayonda shaxsning qobiliyatlari, fazilatlarini, ma'naviy axloqiy sifatlari, bilish qobiliyatlari rivojlanadi, bo'lajak kasb egalarida tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik rivojlanadi va o'quv mehnati madaniyati tarbiyalanadi.

Mazkur jarayonning samarali bo'lishi, ijtimoiy buyurtmaning aniq hal bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishish uchun, o'qitish jarayonini loyihalash, ya'ni ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbqiq etish talab qilinadi. Zero, "Pedagogik texnologiya metodining o'ziga xos xususiyati Shundaki, unda ta'limning rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv bilish jarayoni loyihalashtiriladi.

Xo'sh loyiha nima? O'quv loyihasi, o'qitish jarayonini loyihalashtirish deganda nima nazarda tutiladi ?

Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g'oya, ma'lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo'llarini belgilab beruvchi g'oyalar, fikrlar, obrazlardir.

O'quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbqiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir. O'qitishni

loyihalash esa ta'limning umumiy maqsadi, mazmuni o'quv maqsadlari o'qish, o'qitish, o'zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o'qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta'limning umumiy maqsadlari asosida, o'quv maqsadlarini, buning uchun o'qish va o'qitishni, o'zlashtirishni rejalashtirgan holda, o'qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o'quv mazmuni asosida o'zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun, o'quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o'quv mashg'ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo'lsak, unda o'quv jarayoni ma'lum modullar, birliklardan iborat bo'ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo'shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir.

Ma'lumki, o'quv jarayoni 3 ta bir-biri bilan bog'liq o'qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Motivlar. (M)
2. O'quvchining o'qish faoliyati. (O'F)
3. O'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati. (B)

Shunday qilib, o'quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin.  **$O'J=M+O'F+B$**

Mana Shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo'lga qo'yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalashtirish yoki o'quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik texnologiyaning bu qismi amalga qo'llanilganda ta'limning tabiatga uyg'unlik qoidasiga asoslansa, ya'ni o'qituvchining tabiiy xususiyatlari-qiziqishi, istak, xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor.

Pedagog olim Malla Ochilovning ta'kidlashicha pedagogik texnologiya metodining muvaffaqiyati, ta'limni rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv-biluv jarayonini loyihalashtirishdir. Muallifning fikricha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda o'qituvchi ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, dastur, darslik, ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar mazmunini o'qituvchi-o'quvchining oldingi ish faoliyati mazmuni, kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyati inobatga olinadi. O'quv jarayonini loyihalashda o'quvchilarning belgilangan maqsad sari harakatlanishi uzluksiz nazorat qilishni e'tibordan chiqarmaslik kerak.

Shunday qilib, ta'lim jarayonining qurilmasi, uni loyihalashning:

- a) ta'lim maqsadlari va natijalarni belgilashni;
- b) natijalar asosida (diagnostikalash orqali) nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishni; hamda o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (dars konspekti) ni ishlab chiqish bosqichlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi.

### **3. Dars loyihasi va uni amalga oshirish modeli.**

Hozirga kadar ko'pgina maktab va kollejlarda dars loyihasini tuzish, ta'lim maqsadini belgilash yoki ta'limni tashkil etish yo'llari kabi elementlar vaqt sinovidan o'tdi.

Dars loyihasining har bir elementida ma'lum bir malakalarni shakllantirish maqsadi bo'lib, ularni bir qancha ta'lim metodlari talablari va amaliy ishlar vositasida amalga oshiriladi.

Dars loyihasida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Mo'ljalni belgilash - Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo'yiladigan savollar, qo'yiladigan muammolar va hokazo.

2. Maqsad - talabalar bugun nimani o'rganadi va natijada qanday ishni bajaradi (malaka). Ular o'qituvchiga bugungi o'rganganlari asosida ma'lum bir faoliyat turini bajarib ko'rsata olishlari lozim. Bu vazifani qanday bajarishni O'qituvchi belgilaydi.

3. Kirish - o'qituvchi talabalar o'rganishi lozim bo'lgan materialni belgilaydi, konsepsiyani ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo'llarini ko'rsatadi.

4. Modellash (namoyish qilish)-O'qituvchi o'rganilayotganlarni va natijada o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmani grafik shaklda ko'rsatadi yoki namoyish qiladi.



5. Amaliy boshqaruv - o'qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ularning malaka egallashlari uchun qadamma - qadam rahbarlik qiladi. Talabalarni eshitish, ko'rish sezgilarini ishga soladi va faoliyatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

6. Tushunchalarni tekshirish - o'qituvchi turli savollar yordamida talabalar qanchalik tushunganlarini dars davomida tekshirib, olga borish mumkinmi yoki yukligini aniqlaydi. Agar olga borish mumkin bo'lmasa orqaga kaytib bajariladigan ishlarni belgilaydi.

7. Mustaqil amaliyot - o'qituvchi talabalarni o'zlarini tekshirib ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o'zlari o'rganganlarini tekshirib ko'radilar.

8. Darsni tugallash - Darsni xulosalash oldida talabalar o'z ishlarini, o'rganganlarini o'qituvchiga so'zlab berish, namoyish qilish orqali ko'rsatadilar.

### **Darsni o'tkazish modeli.**

Darsni o'tkazish modelini uchta kategoriyaga bo'lish mumkin.

1. Ko'rgazmali izchillik.
2. Dars sxemasi. (tuzilishi)
3. Asosiy texnologik xarita.

Bo'lar og'zaki, yozma yoki grafik shaklda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi ta'sirlardir. Buni dars davomida og'zaki tushuntirishlar (ya'ni, eshitish) yoki harakatli ko'rsatishlar (ya'ni, bajarish) metodlaridan foydalanib, yaxshi natijaga erishish mumkin.

### **Darsda belgilangan vazifalar tahlili:**

O'qituvchi darsni taxminan rejalashtirar ekan rejadagi sifatlarni bolalarga o'rgatish va ularda Shu ko'nikma va malakalarni qanday shakllantirish yo'llarini izlashi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'zini o'quvchi urnida tasavvur etib, bu ko'nikma va malakalarni bir necha qismlarga bo'ladi. Shundan keyingina o'qituvchi har bir qismni ko'rgazmali tashkil etadi va belgilangan ko'nikmani o'quvchi egallashini ta'minlaydi. Ba'zi o'qituvchilar belgilangan ko'nikmani talabaga o'rgatish uchun boshidan oxirigacha ko'rsatib, gapirib beradi. Bunda "tugal material" (ya'ni izohlangan ko'nikma) odatdagi kabi dars jihozi hisoblanadi.

O'quv fani bo'yicha talim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqiladi:

- iqtisodiyot OO'YU da ta'limni texnologiyalashtirish qoidasi;
- fan bo'yicha o'quv axborot maqsadi, tuzilmasi, mazmuni va hajmi;
- DTS tomonidan belgilangan, o'quv rejasida aniqlab berilgan vaqtida va berilgan sharoitda ta'lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning konseptual yondashuvlari.

**1. Kirish.** Ta'lim texnologiyasining bu qismida iqtisodiyotning bozor tamoyillari keskinlashuvi sharoitida va jamiyatning demokratiyalashuvida ta'lim berishni texnologiyalashtirishning *dolzarbligi* asoslanadi, o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim berish texnologiyasiga qisqa tavsiflar beriladi.

**2. Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari.** Tanning bu qismida quyidagilar yoritiladi:

- *o'quv fanining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, auditoriya soatlarining umumiy hajmi* va o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq *ularni mavzular bo'yicha taqsimoti, ish turlari*;
- *o'quv fanining mazmuni*, o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq o'quv fanining mavzu mazmuni bayon etiladi;
- *o'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning konseptual holatlari* - ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning asosi bo'ladigan, ta'lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirishning konseptual asoslari.

**3. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim texnologiyasi.** Har bir ta'limiy texnologiya ta'lim texnologiyasi, ta'limning texnologiya xaritasi, texnologiya xaritasiga ilovalardan iborat bo'ladi.

**O'quv fani bo'yicha o'qitish rejasining tuzilishi va mazmunli tarkibi**

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning *ta'lim modeli* jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma'ruza, seminar va boshq.) va *ko'rinishi* (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lim modeli: *usullar, shakllar va o'qitish vositalari*;
- *ta'lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

*O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi* uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

*Ilova*. O'quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, Shuningdek chizma, jadval, slydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu erda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

### 3.3. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu (raqami) .....(nomi).....  
 Ta'lim berish texnologiyasi (ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulot)

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>Talabalar soni: ...</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq..), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg'ulot
<i>Ma'ruza rejasi o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ... 3. ... 4. ...
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ... bilan tanishtirish; ... tasnifini berish; ... tushuntirish; ... ochib berish; ... shakllantirish; ... o'rgatish va boshq.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> ... ko'rsatadilar; ... tasniflaydilar; ... aytib beradilar; ... shakllantiradilar; ... tartibli ravishda ochib beradilar
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: referat, test va boshq.

### O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Mavzuiy rejadani farqli o'laroq texnologik xaritada (1) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati, (2) o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti, (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari, (4) ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko'rsatiladi.

#### **Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari:**

*1 - bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.*

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. *Ta'lim beruvchi* mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshq.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

*Ta'lim oluvchilar* tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

*2 - bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy / ma'lumot beruvchilik.*

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. *Ta'lim beruvchi* o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

*Ta'lim oluvchilar* ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

*3 - bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.*

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati. *Ta'lim beruvchi* mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylarga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

*Ta'lim oluvchilar* o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

### 3.5. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	<i>ta'lim beruvchi</i>	<i>ta'lim oluvchilar</i>
1 - bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar.  Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2 bosqich. Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor-so'rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi	Javob beradilar YOzadilar. Gruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3 bosqich.	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan	O'z-o'zini, o'zaro

Yakuniy (daq..)	ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini etkazadi	baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar
-----------------	--	--

DTS tomonidan belgilangan, o'quv rejasida aniqlab berilgan vaqtda va berilgan sharoitda ta'lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning konseptual yondashuvlari.

1. Kirish. Ta'lim texnologiyasining bu qismida iqtisodiyotning bozor tamoyillari keskinlashuvi sharoitida va jamiyatning demokratiyalashuvida ta'lim berishni texnologiyalashtirishning dolzarbligi asoslanadi, o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim berish texnologiyasiga qisqa tavsiflar beriladi.

2. Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari. Ta'limning bu qismida quyidagilar yoritiladi: o'quv fanining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, auditoriya soatlarining umumiy hajmi va o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq ularni mavzular bo'yicha taqsimoti, ish turlari; o'quv fanining mazmuni, o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq o'quv fanining mavzu mazmuni bayon etiladi;

o'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning konseptual holatlari - ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning asosi bo'ladigan, ta'lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirishning konseptual asoslari.

## **2. O'quv fani bo'yicha o'qitish rejasining tuzilishi va mazmunli tarkibi**

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning ta'lim modeli jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- dastlabki ma'lumotlar: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- shakl (ma'ruza, seminar va boshq.) va ko'rinishi (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasini tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;

- tanlangan ta'lim modeli: usullar, shakllar va o'qitish vositalari;
- ta'lim berish sharoiti: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;

- monitoring va baholashga asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

Ilova. O'quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, Shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

**2.O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi haqida tushuncha.**Hozirgi vaqtda taqdim etilgan materialni ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganishlari uchun keys-texnologiya tarzidagi

o'quv-uslubiy ta'minot ishlab chiqilgan. Uning tarkibiga darsliklar, ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, turli ko'rgazmali qo'llanmalar kiritilgan.

Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimida ham "interfaol usul-lar", "breynshorming", "keys-stadi"lar, "treninglar" kabi qator yangi atamalar ishlatila boshlandi. Ushbu usullarning ijobiy ham-da ayrim murakkab tomonlari to'g'risida o'quv qo'llanmalar, kitob-lar ham paydo bo'ldi. Psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlaridan Shu narsa ma'lumki, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirayotgan odam eshitganlarining faqat 10 foizini, ko'rganlarining 50 foizini, nihoyat, bevosita amaldagi bajargan ishlarining 90 foizini xotirada saqlab qoladi. Axborot oqimi shiddatli bo'lgan hozirgi davrda ta'lim olayotganlarga etkazilayotgan yangiliklarning asosiy qismi o'zlashtirilishiga harakat qilinmasa, boshqa ma'lumotlar girdobida keraklisi g'arq bo'lishi turgan gap.

Hozirgi zamon talabasiga ta'lim berishning o'ziga xos jihatlaridan biri kun sayin ta'lim tizimining takomillashib borishi bilan bir qatorda, professional kadrning shaxsiy sifatleri, u egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka hamda ko'nikmalarga bo'lgan talablar ham ortib borayotganligidir. Zero, bugunning mutaxassi-si davlat ta'lim standartlari o'z ichiga olgan murakkab bilimlar majmuini ongiga singdirib olishi uchun auditoriyada o'qigan o'quv-chi-professor ma'ruzalarni sust o'zlashtiruvchi bo'lishi bilan cheklanishi sira mumkin emas.

Keyingi yillarda, ta'limning turli bosqichlari u yoki bu ilg'or texnologiyalarni ham nazariy, ham metodologik jihatdan asos-lagan o'quv qo'llanmalari yaratildi. Ularda Kadrlar tayyorlash mil-liy dasturining asosiy g'oyasi o'z ifodasini topgan. O'quvchi-tala-balar hukmiga havola etilgan ushbu kitoblarning yangiligi Shun-daki, unda iqtisodchilar tayyorlovchi oliy o'quv yurtida tahsil ola-yotgan talabalar bilan ishlayotgan o'qituvchi-professor uchun turli xil pedagogik shart-sharoitlar hamda imkoniyat inobatgan olinga-ni holda Pedagogik texnologiyalar ilk marotaba haqi-qiy o'quv qo'llanmasi sifatida batafsil bayon etilgan.

Fikrimizcha, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, yangilikka qizi-quvchan o'qituvchi bir vaqtning o'zida, ya'ni bir o'quv yili mobayni-da kamida 10-12 xil o'qitish texnologiyalari yoki usullarini qo'llashi mumkin. U yoki bu usulni muayyan ma'ruza yoki seminar mashg'u-lotida qo'llash-qo'llamasligi esa uning mahorat va ayni mavzuning manntig'iga, o'z oldiga qo'ygan pedagogik vazifaga bog'liq. Yangi qo'l-lanmada, aytish mumkinki, o'n ikki nafar o'qituvchining o'n ikki xil mavzuni yoritishda qo'llaydigan pedagogik usullari o'z aksini topgan. Demak, agar iqtidorli va o'z ish uslubiga ega bo'lgan professional pedagoglarning ko'pligini inobatga olsak, bu jarayon naqadar serqirra va turfa xil, bu kabi qo'llanmalar esa behisob bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv guruh o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek texnologiya talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarini hamkorlikda qo'llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o'rgatuvchi ta'lim texnologiyasidir.

Amaliy vaziyatlarni hal etish usublari va vositalari, ya'ni keys-stadi (ingilizcha "case"-yig'ma, aniq amaliy, holat, stadi-o'quv) texnologiyasi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat deganidir.

Gary Thomas quyidagi keys-stadiga oid tarifni keltirib o'tadi: Keys stadilar bu shaxslarni, voqealarni, qarorlarni, davrlarni, loyihalarni, qonunlarni, tashkilotlarni va boshqa tizimlarni bir yoki undan ortiq usullar orqali avvaldan o'rganib kelinayotgan tahlili hisoblanadi. Keysning subyekt tahliliy vaziyatlardir, ob'ekti esa uni tahlil qilish jarayonidir.

Cheklangan miqdordagi elementlarni o'rganish uchun namunalardan va jiddiy bayonnomalardan(qoidalar to'plamini) foydalanish o'rniga, keys stadi usuli o'z ichiga yagona bir vaziyat yoki voqeani uzoq muddat davomida chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Ular voqealarga, ma'lumot yig'ishga, ma'lumotni tahlil qilishga va natijalarni e'lon qilishga tizimlashtirilgan qarashlarni ta'minlaydi. Natijada o'rganuvchi sodir bo'lgan voqeani qanday sodir bo'lganligi haqidagi tushunchasini yanada rivojlantirishi mumkin va kelajakdagi izlanishlar uchun nimalar muhim hisoblanishini bilib olishi mumkin. Keys- stadilar, farazlarni dunyoga keltirishda hamda ularni sinovdan o'tkazishda muhim rol ni o'ynaydi.

Keys-stadi bo'yicha yana bir ta'rif bu uni tadqiqot strategiyasi deb belgilanishidan iborat. Keys-stadi bu bir yoki bir nechta keyslarni, ko'p miqdordagi dalillarni o'z ichiga olishi mumkin, turli-xil dalil manbalariga bog'liq va nazariy vaziyatlarning oldingi rivojlanishidan manfaat olishini anglatadi. Keys- stadi statistik izlanishlar va ko'p ma'lumot to'plagan holda tadqiqot qilish bilan farqlay olish lozim. Bir mavzudagi tadqiqot keys- stadi ma'lumotlaridan foydalanib, xulosalar qabul qilish uchun asos keltirib beriladi. Bu yana Lamnek fikrlarida o'z tasdiqini topadi va shakllanadi. Keys-stadi – bu tadqiqotli yondashish, aniq ma'lumotlar olish texnikalari va metodologik paradigmalari orasida joylashgan. Ba'zida keys-stadi, keys-buk bilan adashtiriladi, deb hisoblaydilar.

Keys-buk metodi, yoki boshqacha qilib aytganda keys metodi asosan Ameriaka Qo'shma Shtatlarining huquqshunoslik maktablarida huquqni o'qitishni asosiy uslubi hisoblanadi. U Garvard huquqshunoslik maktabida Kristofer Kolumbus Langdell tomonidan kashf qilingan. Bunda huquqiy hujjatlarni mavhum rezyumesini o'rganish o'rniga Amerika qonunlarini yaqindan tanishishni yaxshi yo'li bu sud fikri va qarorining o'zini o'rganib chiqishdir, degan tamoyil asos qilib olingan. Shu maqsadda amerikalik huquqshunos professorlar huquqning aniq sohalariga tegishli mashhur sudlarda amalga oshirilgan ishlarni yig'ishadi, bo'lar maxsus o'quv-qo'llanmalar "keysbuklar" deb ataladi. Ba'zi professorlar ishlarga o'zgartirishlar kiritib, ularning mag'zinigina ayrim ma'lumotlarni olib tashlagan holda qoldiradi, ba'zilar esa ishni bus-butunligicha qoldiradi. Umumiy usullardan biri bu yangi qonun yaratishga turtki bo'lgan ishga aloqador barcha ma'lumotlarni qisqacha xulosa bilan keltirib berishdan iboratdir. Odatda amerika huquqshunoslik maktablarida keysbuk uslubi Suqrot metodi bilan uyg'unlashgan. Mazkur guruh uchun o'qituvchi bir nechta vaziyatlarni o'qishga beradi va yana unga qo'shimcha bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqishni talab qilishi mumkin. Guruhda o'qituvchi o'rganish tayinlangan ish bo'yicha talabalarga savollar beradi, ularning qonularni, vaziyatni tushungan, tushunmaganligini aniqlab oladi va bu jarayon bahs munozara tarzida kechadi. Agarda ma'lum bir qonun jiddiy bahsga sabab bo'lsa, unda bu qoida Shubha ostiga tushadi. Bu o'qitish metodi boshqa o'quv dasturlaridagi o'qitish metodidan 2 ta xususiyati bilan farq qiladi:

1) O'quvchilardan birlamchi manbalardan, ya'ni qonun tilida yozilgan ishlardir.

2) Amerika huquqshunoslik maktablarida asosan guruhda keysni anglash uchun diologlardan foydalaniladi, to'g'ridan- to'g'ri ma'ruza o'qib berish orqali emas. Ba'zi huquqshunoslik maktablarida esa keysbuk metodi ma'ruzalar bilan uyg'unlashtirilgan bo'ladi. Bo'lar asosan soliq qonunlarini va savdo-sotiqqa oid qonunlarni o'rganadigan sinflarda uchraydi. Bu usul yana Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarning umumiy qonunlarida qo'llaniladi. Keysbuk uslubi, keys -stadi uslubiga juda o'xshaydi, lekin ular bir xil emas.

Keys- stadi texnologiyasi aniq o'quv materiallar asosida maxsus ishlab chiqilgan vaziyatlarni aniqlash, yechishga yo'naltirilgan bo'lib oldindan o'quv soat mavzusi asosida tuziladi va talabalar bilan birgalikda tahlil qilish maqsadini ko'zlaydi.

Keysda bayon qilingan muammoli vaziyat ma'lum bir institusional tizimda ko'rib chiqiladi, bunda hayotdagi tipik muammolar qayta yaratadigan holda real yoki sun'iy qurilgan hodisalar sifatida aks etiriladi.

Keys- stadi texnologiyasi kelib chiqishi va ta'lim tizimida qo'llanilishi o'tgan asrning yigirmanchi yillariga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga qaraganda bu texnologiya undan ham oldinroq mavjud bo'lib o'quv jarayonlarida qo'llanilib borilgan. Keys-stadi texnologiyasining kirib kelishida yunon faylasufi Suqrotning maktabi alohida ahamiyatga egadir. Chunki Suqrotning shogirdlari bilan olib borgan bahs-munozarali suhbatlari, aynan keys-stadi texnologiyasini eslatadi. Shuningdek turli kashfiyotlarning o'z tasdig'ini topishi, isbotlanishida ham keys-stadi texnologiyasi o'ziga xos o'ringa ega. Masalan tanqidiy keyslar ko'pchilik nazariyalarni isbotini topishda qo'llanilgan.

Tanqidiy keysni umumiy muammoga bog'liq bo'lgan strategik ahamiyatga ega keys deb aytish mumkin. Tanqidiy keys quyidagi umumlashtirish turiga ijozat beradi, "agar bu ushbu keys uchun haqiqiy bo'lsa, bu hamma(ko'pchilik) keyslar uchun haqiqiy hisoblanadi". Keys-stadi yana mashhur faylasuf Karl Popperring falsifikatsiya (sohtalashtirish) deb nomlangan test turini

umumlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Buning inkor shakli “agar bu ushbu keys uchun to‘g‘ri hisoblanmasa, unda bu har qanday keys uchun haqiqiy hisoblanmaydi” degan ko‘rinishda bo‘ladi. Falsifikatsiya bu ilmiy takliflarni rad qila oladigan jiddiy testlardan biridir: agar faqat bitta kuzatuv ilmiy farazga mos kelmasa, u holda bu faraz rad qilinishi yoki qaytadan o‘rganilishi kerak.

Poppoerning o‘zi mashhur “qora oq qushlar” misolidan foydalanib, kuzatuv jarayonida faqat bitta qora qushning aniqlanishi bu farazni rad qilinishini yoki soxta ekanligini aniqlab beradi va Shu yo‘l orqali bu umumiy ahamiyatga ega bo‘lib, kelajakdagi izlanishlarga va nazariya yaratishlarda turtki bo‘ladi.

Galileo Galiley tomonidan Aristotelning Butun dunyo tortishish qonuni rad qilinishi o‘z-o‘zidan emas bu keys-stadiga asoslangan va bu keys ma‘lumotlarga tayangan holda tanlangan. Raddiya asosan farazdan boshlangan, keyinchalik u tajriba orqali o‘z isbotini topgan. Shunga qaramasdan, Aristotelning tortishish qonuni rad qilinmasdan oldin 2000 yilgacha ilmiy fakt deb qabul qilinib kelgan. O‘zining tajribasida, Galileo quyidagi sababni keltirgan: agarda ikkita jism bir vazndagi bir xil tepalikdan tashlab yuborilsa bir xil paytda, ular yerga bir xil tezlikda birdaniga tushishadi. Agar bu ikkita jism bir-biriga birlashtirilsa, bu jism ikki marta ko‘p vaznda bo‘ladi va Aristotel qonuniga ko‘ra yerga ikkita ayrim jismga qaraganda tezroq qulaydi. Bu natija Galileoni qoniqtirmaydi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf qilishni yagona yo‘li bu qulash omili hisoblangan vaznni olib tashlashdan iborat edi. Galileoning tajribalari har xil vazndagi jismlarni har xil tepalikdan va har xil shamol tezligida tashlab ko‘rishdan iborat emas edi. Aksincha bu yagona tajriba, ya’ni keys -stadi edi.

Galileoning qarashi ikkilanishlarga sabab bo‘ldi, Aristotelning qarashi esa darrov rad qilinmadi va havo nasosi kashf qilinmaguncha yarim asr hukm surdi.

Havo nasosi kashf qilinishi talabalarga ma‘lum tajribalarni o‘tkazishga yordam berdi, bunda tanga yoki qo‘rg‘oshin parchasi vakum trubalari ichida pardek bir xil tezlikda tushishadi. Bu ilmiy tajribadan keyin Aristotelning qarashi butunlay rad qilindi. Lekin, metallarning va parni oqilona tarzda tanlanganini ta’kidlab o‘tish lozim. Shular yordamida Galileo o‘z fikrini isbotlab berish uddasidan chiqdi. Keysni strategik tarzda tanlash keysning umumlashtirishga olib kelishini kuzatish mumkin.

Keys-stadi texnologiyasi ilk marotaba 1870 yilda Garvard biznes maktabida qo‘llanila boshlangan. “Muammo” (situatsiya) atamasiga keladigan bo‘lsak, ushbu so‘z ko‘proq tibbiyot va huquqshunoslik sohalarida qo‘llanilib kelingan, ta’lim tizimida bu so‘z yangicha talqin qilinadi.

1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o‘qituvchilari yuristlarning o‘qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta’limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o‘qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Turli-xil vaziyatli mashqlar to‘plangan ilk kitob 1921 yilda Kouplend va Garvard biznes maktabining rahbari Volas Donam homiyligida chop qilingan.

Keys- stadi texnologiyasining rivojlanishida Garvard va Manchestr maktablari alohida ahamiyatga egadir, ular bir-biridan qo‘llanish usullari orqali farq qiladi.

Keys- stadi uslubi birinchi marotaba ijtimoiy fanda Frederik Le Play tomonidan 1929 yil oila byudjeti statistikasini hisoblashda qo‘llangan. Keyinchalik keys stadilar ijtimoiy fanlarda yangi nazariyalarni yaratishda sotsiologlar Barney Glaser va Anselm Strauss tomonidan 1967 yil, “asoslangan nazariyada” tadqiqot metodi sifatida qo‘llanilgan.

XX asarning boshlarida Garvard maktabining o‘qituvchilari darslarida ma’ruza o‘qish jarayonida fikrlashga undovchi masalalarni to‘liq tushuntirmaganlar, bu masalarga javoblarni talabalarining o‘zlari toptirishga harakat qilganlar va talabalarining bildirgan yechimlarini qayd qilib borganlar. Bu jarayon davomida turli hil muammolarni ham kiritib, talabalarni yechimlarni topishga undaganlar.

XX asrning 70-80 yillariga kelib ushbu texnologiya dunyo bo‘ylab keng tarqaldi. Ko‘pgina mamlakatlarda bu texnologiyadan faqat iqtisod fanlarini o‘qitishda qo‘llanilib kelingan edi. O‘sha paytda bu texnologiya ustida rossiyalik olimlardan G.A Bryanskiy, Yu.Yu Ekaterinoslavskiy, O.V Kozlova, Yu.D.Krasovskiy, V.Ya. Platonov, D.A Pospelov, O.A.Ovsyannikov, V.S. Rapoportniklar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ammo bu davrda texnologiyaga yetarlicha

darajada e'tibor qaratilmagan, turli ijtimoiy qatlamlar tomonidan taziyyiqga uchraganligi sabab bu texnologiya dars jarayonlarida qo'llanilmay qo'yilgan.

Keys-stadi texnologiyasi 1990-yillarning ikkinchi yarimda Rossiyalik mutaxassislar tomonidan yana qayta o'rganila boshlandi. Iqtisodiyot sohasida olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohatlar natijasida, zarur paytda mustaqil va to'g'ri qarorni qabul qilib, qiyin bir holatdan chiqaradigan, to'g'ri tavakkal qila biladigan iqtisodchilarga talab keskin oshdi. Buning natijasida ko'plab oliy ta'lim muassalarida o'qitilayotgan fanlarda keys texnologiyasi qo'llanila boshlandi va Shuningdek iqtisodiyot sohasiga yangi yo'nalishlar qo'shildi: menejment, marketing, sotsiologiya, siyosatShunoslik va boshqalar. Ushbu yo'nalishlar orqali ta'lim sohasiga interaktiv o'qitish uslublari kirib keldi.

Keys stadi o'zining uzoq shakllanish bosqichlariga egaligi bilan ahamiyat kasb etadi. Keys-stadilar farazlarni sinovdan o'tkazish uchun qo'llanilishi yaqin o'n yilliklarda paydo bo'lib, mashhur uslubga aylanishga ulgirdi. Keys-stadilardan foydalanish ta'limda, xususan ta'lim evolyutsiyasida mashhurlikka ega bo'ldi. Hozirda tajriba olamida ma'lum bo'lganlarning ko'pchiligi keys-stadilar yordamida erishilgan va ko'p sohalarda qo'llaniladi, Shular ichiga psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, tarix, ta'lim, iqtisodiyot, siyosatShunoslik, menejment, geografiya, biologiya va tibbiyot kiradi. Masalan, barcha yuqori saviyadagi siyosatShunoslikka oid jurnallardagi maqolalarning yarimi keys-stadilardan foydalanadi. Lekin bu yerda, Oksford professori Bent Flyvbjerg ta'kidlaganidek aqlga zid fikr bor. Keys-stadilar keng ko'lamda qo'llanilayotgan bir paytda, ularga bo'lgan e'tibor pastligi va umuman e'tibordan chetda qolayotgani tushunarsiz holat. Oliygo'hlarda taklif qilinayotgan kurslar buning isbotidir. Ma'lumki keys - stadi paradoksi mavjudligi uning tadqiqot uslubi deb qabul qilinganligi sabablidir. Bu keys stadi tushunmovchilikni hal qilish orqali maqbul yechimini topishi mumkin.

Zamonaviy o'quv qo'llanmalarining metodologik asosini, al-batta, aniq-ravshan bayon etilgan pedagogik g'oya tashkil etishi lo-zim. O'qituvchi ta'lim samaradorligiga erishish uchun talaba ongi-ga eng zarur va maqbul axborot bilan taminlovchi ko'plab uslublar orasidan ayni pedagogik maqsadga erishishga imkon beruvchi eng ta'sirchan vositalarni aniqlay olishi, uni muayyan vaziyatlardagi samarasini baholay bilishi hamda kutilgan natijaga belgilangan vaqt va sharoitda erishishga yordam beradiganini tanlab, Shu orqali o'ziga xos qimmatli majmuani – ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga erishishi lozim. Bu o'rinda "texnologiya" tushunchasiga qo'shib qo'llaniladigan ayrim atamalarning mohiyatiga e'tibor qa-ratsak bo'ladi:

Ta'limiy texnologiya – bu yaxlit ta'lim jarayonini optimal-lashtirish maqsadida uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi texnik vositalar hamda inson omilining o'zaro uyg'unligini inobatga olgan, dars berish jarayonida bilimlarni (ma'lumotlar, tavsiya-lar, aniq tushunchalar va boshqalar) imkon darajada to'la o'zlashti-rilishiga yo'naltirilgan tizimli uslubni yaratish, qo'llash va ama-liyotga joriy etishni o'z ichiga oladi.

O'qitish texnologiyasi – dars mobaynida ma'lumotlarni uzatish, vaqt va sharoit mezoniga monand tarzda eng samarali usul-larni qo'llashni tartibga soluvchi o'zaro muloqot jarayonidir.

Pedagogik texnologiya – yaxlit ta'lim jarayonini texnologik, ya'ni uslubiy jihatdan ta'minlashni nazarda tutadi. Yuqoridagi ikki tushunchaga bog'liq tarzda, bu jarayon bevosita o'qitishning barcha bosqichlarida qo'llaniladigan barcha pedagogik usullarni na-zarda tutadi. Shu sababli aynan Shu tushuncha – pedagogik texnolo-giyalar orqali biz bugun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning barcha yo'nalishlariga joriy etiladigan optimal uslublar haqida gapirmoqdamiz.

Shu kungacha yaratilgan qo'llanmalar mualliflari J.Yo'ldoshev, O'.Tolipov, L.Golish, N.Azizxo'jaeva, S.Usmonov, F.Farberman va boshqa mualliflarning fikricha, har bir ta'lim yo'nalishi va bos-qichiga mos tarzdagi turlicha texnologiya borki, barchasiga xos umu-miy pedagogik maqsad bo'lgani uchun (ya'ni yangi bilimlar o'zlashti-rilishi sharoitini optimallashtirish) ularning bir-biridan farq-li va umumiy jihatlari mavjud.

E'tirof etilayotgan farqlar birinchi navbatda, darsning shak-liga (ma'ruza, seminar, mustaqil ishlarni tashkil etish), uzluk-siz ta'limning bosqichiga (maktab, kollej, lisey, bakalavriat, ma-gistratura va hokazo), ixtisoslik yo'nalishiga aloqador bo'lishi aniq. Faqat bir narsani ta'kidlash joizki, Pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining, ma'lumot manbaining ta'sir doirasi



kengayishi, Shu bilan bir qa-torda o'quvchi-talabani o'zlashtiruvchiligini ham, faolligini ham ta'minlovchi vositadir. Yangicha yondaShuvda talaba sust o'zlash-tiruvchidan dars jarayonining yoki bu bosqichda o'z fikrini bema-lol izhor qiladigan, paydo bo'lgan savollarga javob olish imko-niyatiga ega bo'lgan, fikrlashida biror xatoliklar bo'lsa, uni bar-taraf etishda shaxsan ishtirok etadigan faol sub'ektga aylanadi. Ayni Shu jihat, bizningcha, o'ta muhimdir. Zero, mustaqil O'zbe-kiston davlatining fuqarolarida, eng avvalo, mustaqil fikr va shaxsiy pozisiya bo'lishi lozimligiga erishish kabi mas'uliyatli vazifani unutmashimiz kerak.

Xullas, o'quvchi-talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayonida amaliy mashg'ulotlar va seminarlardan foydalanish an'anaviy ishlarimizdan hisoblanadi. Ana Shu mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun maksimal ravishda talabani faol ma-qomga ko'taradigan, uni o'qituvchi bilan deyarli bir maqomga olib chi-qadigan ish – amaliy o'yinlarni tashkil etish, intellektual trening-lar chog'ida biyron bo'lish, turli vaziyatlar, “keys – stadi”ni echishda uning bilimi, dunyoqarashini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi tex-nologik vositalar va usullardan foydalanishni hamda amaliyotda qo'llashni bilish o'qituvchilar uchun nihoyatda zarurdir.

Ta'limning globallaShuvi sharoitida ta'lim sohasi bilan ja-miyatning rivojlanib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelganligi kuzatilmoqda. Ta'lim ti-zimi oldiga barkamol shaxsni shakllantirish, ta'lim sohasi bilan mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishning Pedagogik texnologiyar si nazariyasini yaratish va ta'lim jarayonini puxta lo-yihalashga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondaShuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar yozish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, talabalarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, talabalar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda «Yangi pedagogik texnologiyalar» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondaShuvlarni keltiramiz:

Shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondaShuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmogi lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondaShuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondaShuv. Bu yondaShuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

#### **Talabalar bilimni nazorat qilish uchun savollar:**

1. Ta'lim texnologiyasi necha bosqichdan iborat?
2. Loyixalash atamasini izohlang?
3. Ta'lim loyixasini amalga oshirishda nimalarga alohida e'tibor qaratiladi?
4. Nazorat qilish-baxolash blokining vazifasi nimalardan iborat?
5. O'quv tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirish prinsipining mazmunini tusuntiring?
6. O'qitish jarayonining tuzilishi, uni loyihalash va loyihalash bosqichlari?

7. Dars loyihasi va uni amalga oshirish modeli?
8. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasinasosini nima tashkil etadi?

### **7-Mavzu: Ta'lim shakllari - ta'lim texnologiyasi tarkibi.**

#### **Reja:**

1. Ta'lim shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.
2. Shakl, ta'lim shakllari, ta'limni tashkil etish shakllari tushunchalari.
3. Ta'limni tashkil etish shakllarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati.
4. Ta'limni tashkil etish shakllarining tasniflanishi.
5. Ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.

**O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha.** Ta'lim insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki paytlaridayoq katta rol o'ynagan. Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli ya'ni dars necha yillardan beri takomillashib, unga qo'yilgan talablar murakkablashib va zamonaviylashib bormoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

Ya. A. Komesnkiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi. Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon mamlakatlariga tadbiiq etilmadi. Ularda 1917 yilga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi (shakli) davom etib keldi. Ushbu maktablarda 6 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga bir xonada bir vaqt maboynida mashg'ulot olib borilardi. Shu boisdan bolalarning bilim darajalari va o'zlashtirishi ham turlicha bo'lar edi. O'zbek maktablari oktyabr to'ntarishidan keyin sinf-dars tizimiga o'tdi. Hozirgi davrgacha guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va shuncha vaqt maboynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

**Sinf-** yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir. **Dars** deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars - o'quv ishlarining markaziy qismidir. Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi: Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi. Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi. Endilikda mustaqil respublikamiz xalq ta'limi oldiga qo'ygan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maktab ta'limini tashkil qilishning yangi-yangi shakllari yaratilmoqda. Bugungi kunda maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

**Sinf-dars** shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

**Sinf-dars** shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba yer uchastkalarida ishlash, ekskurtsiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.

**Sinf – dars shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.**

Ta'lim maskanlari oldida turgan yangi vazifalar va ehtiyojlar o'quvchi-talabalarga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini - darsning tashkiliy daqiqalari deb ataladi. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi yoki tuzilishiga kirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish muhimdir. Tajribali va mahoratli o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar. Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa – butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi. Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib o'qtirish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Darsda rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi darsni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi, turli xil ta'lim metodlaridan unumli foydalanish va o'quvchilarga ko'proq muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularga yangi materialni bayon qilishi dars sifatini oshiradi. Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir. Buning uchun:

a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni o'qtirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. Ya'ni o'qituvchi bayon qilayotgan mavzu o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir. O'qituvchi darsda mavzuni bayon qilish davomida o'quvchilarga muammoli vaziyat tug'diradigan savollar berib, ularni fikrlash va izlanishga undasa o'quvchilar ushbu materialni puxta o'zlashtirib oladi.

v) Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faolligi (og'zaki, yozma mashqlar va laboratoriya-tajriba ishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog'i lozim. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilimlarini ham ishga tushirishga hizmat qiladi va to'g'ri baholash uchun katta imkoniyat tug'diradi.

g) dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallari boshqa fanlarning aloqador mavzulari bilan bog'lanishini ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega.

Darsda o'quv – tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan deb hisoblash qabul qilingan. Shunga asosan o'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondoshishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Umuman olganda, sinfga ham reproduktiv, ham ijodiy topshiriqlar berish mumkin.

**Darsga bo'lgan talablar, dars turlari va ularning tuzilishi.** Dars - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu soxada ko'pgina islohatlar amalga oshirilmoqda. Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim: .

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'log'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i, shuningdek xilma xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq zarur.

5. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

6. Darsda o'quv materialining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

7. Darsda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilar:

Yangi bilimlarni bayon qilish darsi (ma'ruza).

O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.

O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

Takrorlash – umumlashtiruvchi va kirish darslari.

Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanishi).

Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirishini nazorat qilib borishiga yordam beradi. Maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri – yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

a) yangi bilimlarni bayon qilish;

b) yangi bilimlarni mustahkamlash;

v) yangi bilimlar ustida ishlash;

g) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalari topshirish.

Demak, dars boshdan – oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (savol-javob), yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish (masala va misollar yechdirish, grafik ishlari olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi-tushuntirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va h. k) kabi boshqa elementlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga buysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi. Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo'lavermaydi. U o'qitish usuli bilan bog'langandagina dars tuzilishini tashkil qiladi. Ya'ni dars tuzilishining o'zgarishi bilan oq dars olib borish usuli ham o'zgaradi. Darsning tuzilishi qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'limning darsda qo'llanadigan metodlari va usullariga, o'quvchilarning tayyorgarlik va kamolat darajasiga, darsning o'quv jarayonidagi o'rniga bog'liqdir.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Masalan, aralash dars turning tuzilishi: uy vazifalarini so'rash, tekshirib ko'rish; yangi materiallarni bayon qilish; yangi materiallarni mustahkamlash; uy vazifalarini topshirishni o'z ichiga oladi. Bunda:

a) uy vazifalarini ko'rish suhbat (savol-javob), misol va masalalar ishlatish yo'li bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining birinchi qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o'qituvchi tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma'ruzasi, suhbat kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining ikkinchi qismi, darsning ikkinchi bosqichi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining uchinchi qismi, uchinchi bosqichi;

g) uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishini to'rtinchi qismi, darsning to'rtinchi bosqichidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan dars turlarining hammasi o'z tuzilishiga ega bo'lganidek, ma'lum bosqichlarga ham ajraladi.

Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma'lum bir qismi yoki yirik mavzu o'tib bo'lganidan keyin o'tkaziladi. Bunda o'tilgan materiallarni takrorlash – qayta esga tushirish va mustahkamlash maqsadida o'tilgan mavzularni qamrab olgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan savollar orqali umumlashtirish nazarda tutiladi.

### **Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari.**

Oliy maktabdagi o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil etishning ko'p qirrali yagona tizimiga asosan amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishning shakl va usullari tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;

- talabalarning o'quv va bilish faoliyati.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonunida «Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi» deyilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga ham o'rgatadi. Shu o'rinda yurtboshimiz ta'kidlaganidek «Ayniqsa o'sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq qaray olmaydi. Bunda oliy o'quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir». Shu nuqtai nazardan oliy maktablarda bilimlarni hozirgi zamon darajasida berib borish alohida ahamiyatga ega. Hozirda oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat, ya'ni bakalavriat va magistratura. Mana shu bosqichlarni amalga oshirishda, aniqrog'i, oliy ma'lumotli yetuk mutaxassis tayyorlashda o'qitishning bir qancha tashkiliy shakllari qo'llaniladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asosan olib boriladi.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlar, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil ta'limi kabilar kiradi.

**Ma'ruza**– bilim berishning shunday shakli, unda pedagog (o'qituvchi) tomonidan berilayotgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar talabalarga yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruza - o'quv jarayonining ilg'or usullaridan biri bo'lib, dastlab u o'rta asrlarda biron bir kitobni o'qish yoki uni izohlash yo'li bilan namoyon bo'lgan. Jamiyat rivojlanishi maboynida og'zaki tushuntirishning bu usuli XVIII asrda lotin tilida amalga oshirildi. XVIII asr o'rtalariga kelib ma'ruzalar rus tilida o'qiy boshlandi. Uning ilg'or namoyandalardan biri M.V. Lomonosovdir.

Fanlar bo'yicha ma'ruzada hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;
- talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtiriladi;
- o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarining barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi. Didaktik maqsadiga (yo'nalganligiga) ko'ra kirish, tematik va umumiy – yakuniy ma'ruzalar farqlanadi.

**Amaliy mashg'ulot** - o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarining umumiy tushunchasi hisoblanadi. Agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg'ulotlar talabalarning bilimini sinashga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda mashqlar, laboratoriya ishlarini o'tkazish, har xil ilmiy tajribalarni o'tkazish kabilar amalga oshiriladi. Bilim berishning bu shaklida ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyot bilan bog'lanadi va o'quvchilar tomonidan tajribalar amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulot shakllaridan biri seminardir.

**Seminar** – talabalarning ma'ruzadan olgan ilmiy-nazariy bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan ta'lim shakllaridan biridir. Seminar jarayonida o'qituvchining o'rni juda yuksak, ya'ni o'qituvchi talabaning o'rniga javobni aytib bermaydi, balki muhokamalarni tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Seminar mashg'ulotiga tayyorlanish talabalardan katta mas'uliyatni talab etadi. Jumladan, talabalar seminar darslariga tayyorgarligi davomida mustaqil o'qishlari, kerakli adabiyotlar bilan ishlashlari, ro'znoma va jurnallardan foydalana bilishlari, shuningdek boshqa mavzuga oid manbalarni izlab topishlari, ularni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi.

**Laboratoriya mashg'ulotlari**- Bunda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi. Laboratoriya mashg'uloti odatda maxsus jihozlangan xonada hamda tegishli apparat, asbob-uskunalar: mikroskop, lupa, kolba, o'lchov asboblari va boshqa qurollar bilan ta'minlangan joylarda (auditoriyada) olib boriladi.

**Ekskursiya** – ta'lim va tarbiya ishlarining shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, dala, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus

muassasalarga (muzey, ko'rgazma va h.k.larga) tashkiliy ravishda olib boriladi. Ekskursiya usuli asosan o'qituvchi yoki ekskursiya o'tkazishga mas'ul bo'lgan shaxsning kuzatilayotgan ob'ektni bayon qilishi, tushuntirishi orqali olib boriladi. Ekskursiya oxirida, albatta yakunlovchi dars o'tkaziladi va unda o'quvchi-talabalar tomonidan tayyorlangan chizma, rasm, taassurotlar kabi materiallardan foydalaniladi. O'qituvchi mulohaza va fikrlarni umulashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

**Amaliyot** – ta'lim shakllaridan yana biri bo'lib, unda talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiq etadi. Bu jarayonda amaliyotchiga amaliyot davomida oliy o'quv yurtidan ilmiy rahbarlar tayyorlanadi. Amaliyot talaba uchun kelajak ish faoliyatida ilk qadami bo'lib, shu amaliyot davomida talaba oliy o'quv yurtida olgan bilimlarini qanchalik amaliyotga qo'llay olishini o'z nuqtai nazaridan ham baholaydi va bu orqali unda kelajagini tasavvur qilishga imkon yaraladi.

**Kurs ishi** – oliy maktab o'quv rejasida qayd qilingan ta'lim berishning shakllaridan biri. Kurs ishlari biror fanning nazariy kursi tugallangandan so'ng amalga oshiriladi. Ta'lim berishning bu turi talabalarining ilm olish davrida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, nazariy bilimlarini qanchalik amaliyot bilan bog'lay olishi negizida paydo bo'ladi. Kurs ishi tayyorlash jarayonini bevosita mustaqil ishlar tarkibiga kiritish mumkin. Kurs ishi ham o'quv rejasida kiritilgan bo'ladi.

**Diplom ishi** – talabaning oliy o'quv yurtida olgan bilimlarining natijasi, ilmiy izlanishlarning boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, ta'lim berishning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Diplom ishi bir mutaxassislikning talaba tomonidan tamomlanayotgan, shu mutaxassislik rahbari bilan birga tayyorlanadigan va o'quv yurti rejasida qayd qilingan ta'lim berish shakllaridan biridir.

Oliy maktabda o'quv jarayoni mustaqil ta'limni tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Talabalarining mustaqil taxsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan initalishi sifatida qaraladi. Mustaqil ta'limning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish. Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'z ustida ishlashga hamda ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir. Mustaqil ta'lim buyicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasi tuziladi. Umuman olganda barcha oliy maktablarda ta'lim berishning tashkiliy shakllari amal qilar ekan, ularga bir qator talablar qo'yiladi.

## **8-mavzu: Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasi tarkibi.**

### **Reja:**

1. Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.
2. Usul, ta'lim usullari tushunchasi.
3. Ta'lim usullarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati.
4. Faol ta'lim usullari, interfaol usullar tushunchalari.
5. Ta'lim usullarining tasnifi.

### **1. Ta'lim usullari to'g'risida tushuncha.**

Ta'lim jarayonida to'g'ri usul tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. O'qitishning samarali borishi, o'quvchi-talabalarining har bir fanni chuqur o'zlashtirib olishlari, shuningdek ular bilimlarni ongli va mukammal egallashlari uchun hamda yoshlarda mustaqil va ijodiy faoliyat-fikrlarining rivojlanishiga bevosita o'qituvchining ta'lim usullaridan keng va mohirona foydalana olishiga bog'liqdir. Pedagogika tarixidan, pedagogika amaliyotida ham o'qitish usullarining juda katta boyligi to'plangan.

**Ta'lim** usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Demak, o'qitish usullari har ikkala

faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni, usullarni o'z ichiga oladi. Ammo, har ikkala faoliyat ham hamisha bir xil va bir yo'nalishda bo'lavermaydi. Dars jarayonida o'tiladigan mavzuning xarakteri, mazmuniga qarab, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati turlicha yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

**Ta'lim** usullari, o'qituvchining o'qitish faoliyati tug'risida o'tmishda ham, jumladan Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida alohida asoslab berilgan. Abu Nasr Forobiyning «Fan va san'atning afzalligi» risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar mukammal ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi fikrlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga aniq ishonitirish kerakligini o'qitirgan.

Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba usullari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javob usullari (Abu Rayxon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish usullari (Forobiy, al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning hammalari o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar.

Hozirda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida kengroq joriy etilishi zahirida o'quvchi-talabaga berilishi lozim bo'lgan ilmiy bilimlar ko'lami o'qitish usullari va shakllarining doirasini kengashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

O'qitishning hikoya, suhbat, ma'ruza, illyustratsiya turlari, namoyish qilinadigan asbob-uskunalar va priborlarni ko'rsatish, mashqlarni, mehnat topshiriqlarini, laboratoriyada o'tkaziladigan tajribalarni bajarish, xalq pedagogikasi materiallaridan foydalanish usullari va uslubi, o'quv munozaralari, o'quv faoliyatida rag'batlantirish va tanbeh, o'quv materiallarini muammoli bayon qilish, muammoli suhbatlar, tadqiqot tajribalarini qo'llash, kitob ustida ishlash, kompyuterlardan mustaqil foydalanish kabi usullarni qo'llash, og'zaki so'rash, yozma ishlar, avtomatlashtirilgan qurilmalar yordamida dasturlashtirilgan nazorat usullaridan foydalanish va hokazolalar o'qituvchilar uchun juda tushunarlidir.

Ta'lim jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishida, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal egallashlari uchun o'qituvchining asosiy vazifasi darsda samarali usul-metodlardan foydalanib, o'quvchi-talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, mustaqil hayotga tayyorlash, shuningdek ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishdan iboratdir. Shunday qilib, o'qitish usullari o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'lidir.

Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur usul orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilaydi.

4. Ta'lim usulining tushunarligi bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliliigi.

7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqliigi.

Har qanday ta'lim usulidan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi. Shu boisdan unga erishishda pedagogik faoliyatda o'qituvchidan yuksak bilim, ijodkorlik va pedagogik qobiliyat hamda mahoratli bo'lishni talab etiladi.

## 2. Ta'lim usullarining turlari.

Ta'lim usullarini tasniflashda o'quvchiga dastur materiallarini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarini tushunishda yordam beradi, o'qituvchining faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoit vujudga keltiradi.

Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda o'qitish usullarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganamiz.

1. Ta'limning og'zaki usullari.
2. Ta'limning ko'rgazmali usullari.
3. Ta'limning amaliy usullari.
4. Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.
5. Ta'limning induktiv va deduktiv usuli.
6. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.
7. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.
8. Kitob bilan ishlash usuli.

**Ta'limning og'zaki usullari.** O'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llanib kelinmoqda. Didaktikada o'qitishning og'zaki usullari uch turga: o'qituvchining hikoyasi, suhbat va maktab ma'ruzasiga ajratiladi. Og'zaki bayon qilish usulida ikki faoliyatning, ya'ni bir tomondan o'qituvchining o'quv materiallarini mohirlik bilan og'zaki bayon qilib berishi va ikkinchi tomondan, bayon qilinayotgan materiallarni o'quvchilar diqqat bilan tinglab, ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qilinadi. Og'zaki bayon qilishda (tushuntirishda) o'qituvchi o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda ularning diqqatini tez jalb etishi va bilishga doir ishlarni faollashtirish zarur.

**Hikoya.** Bu usul maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu juda qisqa va aniq, yuqori sinflarda esa katta materiallarni bayon qilishda to'liq hikoyadan foydalaniladi. Hikoya yakunlangach, u suhbat va tushuntirishlar bilan to'ldiriladi. Hikoyada o'qituvchining nutqi yorqin, aytgan so'zlari bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, hikoya qilish - o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid omil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir.

O'quv materiallarini **tushuntirish** - o'qituvchi tomonidan o'tilayotgan mavzuning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, ta'rif, qonun va qoidalarni uqtirishdir.

**O'quv ma'ruzasi.** Ushbu usuldan yangi bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish uchun foydalaniladi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda, ularni to'la qamrab oladi. Ma'ruza asosan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida, o'rta maxsus kasb-xunar kollejlari va akademik litsey hamda oliy o'quv yurtlarida o'qiladi.

**Suhbat.** Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Ko'pincha, bu usul savol-javob usuli deb ham yuritiladi. Suhbatning to'rt xil turi mavjud bo'lib, ular: yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materiallarni takrorlashda qo'llanadigan suhbatlardir. O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholashda ham o'tkaziladi.

**Ta'limning ko'rgazmali usullari.** O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik usulidan foydalanishning muhimligi o'qituvchining o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishi bilan izohlanadi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi. O'qitishda namoyish etish usulidan foydalanish materiallarning xarakteriga – mazmuni, shakli va hajmiga bog'liqdir. Ko'rgazmali materiallar xarakter e'tiboriga ko'ra ikki turda bo'ladi:



1. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

2. Tasviriy-ko'rgazmali materiallar: buyum, narsa va hodisalarning tasvirini ifodalovchi materiallar: rasm, surat, diafilm, kinofilm, jo'g'rofiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h.k. Tasviriy - ko'rgazmali materiallar – illyustratsiya materiallari deb ham ataladi. Ta'lim jarayonida tasviriy – illyustratsiya materiallaridan foydalanish keng qo'llaniladi.

Ekskursiya ta'lim va tarbiya ishlarining shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (tabiatni kuzatish, zavod, fabrika) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko'rgazmalar) tashkiliy ravishda boriladi.

**Ta'limning amaliy usullari.** O'qitishning amaliy usullariga yozma mashqlar (masalalar yechish, chizmalar tayyorlash), tajriba – laboratoriya tipidagi mashqlar (frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyot, o'qitishning texnik vositalari va boshqalar); mehnat topshiriqlarini bajarish usullari kiradi. Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qullaniladi. O'qitishning amaliy usullaridan foydalanishning ijobiy tomoni o'quvchilarni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni mustaqil kuzatishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularda mustaqillik, faollik va tashabbuskorlik ortadi. Amaliy ish tajribalari – ko'nikma, malakalari, hosil qilinadi va mehnat madaniyati rivojlanadi.

#### **Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.**

O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari o'quvchilarning yangitishuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklarida rajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproaktiv usullar birinchi navbatda, o'quvchilarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi. Reproaktiv tipidagi amaliy mashqlar shunisi bilan farqlanadiki, bu ishlarining davomida o'quvchilar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llaydilar.

**Muammoli vaziyat** - o'quvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. O'quvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va mustaqil izlanish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi.

**Ta'limning induktiv va deduktiv usuli.** *O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari o'quv materialini mazmunining xarakteri va mantig'ini yoritish usulidir. Induktiv metodda o'qituvchi avval faktlarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi va umumlashtiradi.*

**Deduktiv metod** - o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishda xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishning qaysi birini tanlashni anglatadi.

#### **O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.**

O'qitish tizimida barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining samarali bulishi uchun nazorat ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, nazorat qilish tufayli o'qitishdagi o'zaro muloqot, o'qitishning borishini jadal boshqarish va kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish, yangi darsga aniq vazifalar qo'yish imkonini beradi. Nazorat ham bir qancha turlarga: og'zaki, yozma va laboratoriya turlarga bo'linadi.

O'qituvchi yoshlarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatishda o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishga, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni ko'ra olish mahoratini shakllantirmog'i lozim. Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usulbarini o'zaro mohirona biriktirish barcha o'quv fanlari bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

### **3. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.**

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb kishining aktiv faoliyatga bo'lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu boisdan rag'batlantirish - o'qituvchi faoliyatining muhim omili hisoblanadi. Ammo rag'batlantirish kishining faoliyatga bo'lgan ichki mayliga ta'sir qilgandagina real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. Shu bilan birga yana bunday ichki undash faqat tashqi

rag'batlantirishlar ta'siridagina emas, balki o'quvchilarning o'z-o'zining ta'sirida ham, uning oldingi tajribasi, ehtiyojlari va hokazolar ta'sirida yuzaga keladi.

O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri - o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishdir. Rag'batlantirish o'quvchi-talabani ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi va uni yanada yaxshiroq o'qishga undaydi. Rag'batlantirish yo'llari bu yaxshi baho qo'yish, maxsus tanlangan topshiriqlar berish, fotosuratlarini maxsus rag'batlantirish oynalariga ilish kabilardir. Muvaffaqiyatga erishish vaziyatini o'quvchining oraliq harakatlarini rag'batlantirish, ya'ni uni yangi zo'r berishlarga maxsus undash yo'li bilan ham tashkil qilish mumkin. Muvaffaqiyat vaziyatlarni yaratishda u yoki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida qulay ma'naviy-ruhiy muhitni ta'minlash muhim o'rin egallaydi.

Rag'batlantirish va tanbeh berish usullari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Masalan, baho bilan rag'batlantirish, maxsus tanlangan topshiriqlar berish yo'li bilan o'qishdagi muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, imtiyozli stipendiyalar tayinlash, tajriba va laboratoriya ishlarini tayyorlashda qatnashish, ekranlarni jihozlashlari orqali rag'batlantirish; bilimlarni jamoatchilik tomonidan ko'rish yakunlariga qarab rag'batlantirish va hokazolar.

O'qishga doir tanbehlar: dars paytidagi og'zaki tanbeh berishlar, bahosini pasaytirib qo'yish, ish daftariga yozishlar, xatolarni ko'rsatish, koyish va boshqa usullar orqali qo'llaniladi. Koyish hamda jazolashning boshqa turlarini qo'llash o'qitish usulida istisno hol, chunki bu usul eng so'nggi ilojisiz chora hisoblanadi. Maktabda, shuningdek barcha ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarga tan jazosi berish, o'zlashtiraolmagani uchun uni haqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon iboralar bilan so'kish aslo mumkin emas. Pedagogik faoliyatda bu kabi usullardan foydalanish nojoiz sanaladi.

#### **4. Muammoli ta'limning maqsad va mohiyati**

Muammoli ta'lim deganda o'quv materialini o'quvchi-talabalar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yusinda o'rgatish tushuniladi. Ta'limda muammoli yondoshishni joriy etishdan maqsad hozirgi ta'lim jarayonini o'quvchi-talabalarining ijodiy fikrlashini faol rivojlantiradigan usullar bilan to'ldirishdan iborat.

Ta'limda muammoli yondoshish o'quv dasturlarida ham, o'qituvchi bilimlarini bayon etishda ham, o'quvchilarning mustaqil ishi va hokazolarda ham o'zining ifodasini topishi lozim. O'quvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi. Har qanday ta'lim o'quvchi uchun muammolidir, chunki ta'lim o'quvchini unga hozirgacha noma'lum bo'lgan narsa bilan tanishtiradi: o'quvchi yangi materialni o'zlashtirishi, o'qituvchi va ta'lim muassasasining hamma talablarini bajarishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar oldiga har qanday o'quv muammosini emas, balki faqat ular tushuna oladigan va sub'ektiv muammo sifatida qabul qilishi mumkin bo'lgan muammolarni qo'yishi kerak.

O'quvchi ongida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, o'quvchining faol fikrlash faoliyati, o'quv materialini puxta o'zlashtirib olishlari haqida Sharq pedagoglari ham o'zlarining qimmatli fikrlarini aytib o'tganlar.

Ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'zining pedagogik va didaktik qarashlarida, o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, shuningdek, o'quvchining zerikmasligini, xotirasiga malol keltirmaslikni ta'kidlab, «Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, ha deb bir narsani o'qiyberish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi voqea – narsa kishiga rohat bag'ishlaydi», degan edi.

Muammoli bayon qilish jarayonida izlanishni o'qituvchi olib boradi, o'quvchilarga ilmiy isbotlash bo'yicha fikrlash namunasini ko'rsatadi, o'quvchi-talabalar faqat uning mulohazasini kuzatadilar, muammoni hal qilishga qaratilgan qiziqishni o'rganadilar. Muammo – mohiyatiga ko'ra, zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan masaladir. O'qituvchi o'quvchi oldiga muammo qo'yar

ekan, muammoni hal qilish yo'lidagi harakat davomida o'quvchi izlanadi, ijod qilishga intiladi, muammo ustida avvalgi tajriba va bilimga tayangan holda fikr yuritadi.

Shu o'rinda shuni aytish joizki, ta'lim jarayonining samarali bo'lishida muammoli vaziyatlar yaratilgan vaqtda o'quvchi-talabalar ham faol qatnashishi hamda o'rtaga tashlangan muammolarni o'zlari ham hal qilishga erishishi mumkin. Bunday hollarda dars qiziqarli bo'ladi va o'quvchilar shu mavzuni yaxshi o'zlashtiradi, shuningdek yetarli bilim-ko'nimalarga ega bo'lishadi.

O'qitish jarayonida o'quvchilarni bilishga havas, izlash-qidirishga undaydigan masalalarni hal qilish jarayoni bilan bog'liq intellektual hislar va ruhiy kechinmalar hosil qiladigan muammoli vaziyatlar yaratish mumkin. Bu kabi muammoli vaziyatlar yaratishda mahoratli pedagoglar ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi ham maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi oliy maktabdagi samarali o'qitish usullaridan bo'lgan muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarash tashkil etadi. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta'lim tizimining har bir bosqichida o'rganiladigan fanlarga xosdir. Muammoli vaziyat fanning mazmuni, o'ziga xos xarakter xususiyatlari, uni o'rganish usullarini hisobga olgan holda yaratiladi. Fikrimizcha, muammoli ta'lim o'quvchilar oldiga muammoli savol yoki topshiriqlar qo'yish, muammoli vaziyat yaratish, muammolarni mustaqil hal etish, izlanishga o'quvchilarni jalb etish, yakuniy xulosalar chiqarish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Muammoli ta'lim muammoli vaziyat, o'quv muammosi, muammoli savol, muammoli topshiriq kabi kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Muammoli ta'limni amalga oshirishda o'qituvchi to'g'ri savol qo'ya bilishi lozim. Demak, muammoli ta'lim – o'quvchi (talaba)ni mustaqil fikrlashi va izlanishga o'rgatishi, noma'lum narsalarni yoritishga erishishni tarbiyalaydi hamda ilmiy bilishni rivojlantirishga asosiy kumak beradi. Shuningdek, muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustaqil o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda, talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

## **9-Mavzu: Loyihaviy ta'lim texnologiyasiga kirish.**

Reja:

- 1.Loyihaviy o'qitish texnologiyasiga kirish.
- 2.Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlari.
- 3.O'quv loyihaviy faoliyat tuzilishi.
4. O'quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari.

### **1. O'quv tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirish prinsipi.**

Ma'lumki, o'qitish jarayoni boshqariladigan jarayondir. O'qituvchi pedagogik texnologiya qonuniyatlariga ko'ra maqsad, faoliyat, natija yo'nalishida amalga oshirib, ya'ni ta'lim natijasini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'qish-o'qitish masalalarini va ularni hal etish texnologiyasini loyihalash qonuniyatlari bilan yaqindan tanish bo'lishi lozim. Loyihalangan texnologiya dars mavzuiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilib, tanlangan qo'shimcha ma'lumotlar o'quvchilar kuchiga, bilim darajasiga, yosh va individual xususiyatlarga mos kelishi kerak. Shuningdek, o'qish-o'qitish jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalaridan foydalanish samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo'llash malakasini o'qituvchi o'zida shakllantirgan bo'lishi lozim. Bu albatta, o'qituvchidan ijorkorlikni, yangilikni anglay olish va undan aniq foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi ko'z o'ngida doimo nimani o'qitish? Kimni o'qitish? va qanday o'qitish? muammosi turishi kerak bo'ladi.

**Ilmiylik, zamonaviylik va yakuniy natijani kafolatlanganlik prinsipi** tajribada sinalgan, yaxshi natija berishga mos bo'lgan ta'lim-tarbiyaning shakl, metod, vositalari faol metodlarini

doimiy ravishda ilmiylikka yo'llashni talab etadi. O'qituvchi-tadqiqotchi uzluksiz izlanishi didaktik ma'lumotlarni oqilona qo'llash malakasiga ega bo'lishi mumkin. Maktab tajribasida ilmiy asoslangan didaktik yangiliklarni qo'llash, zamonaviylikni e'tirof etadi. Pedagogika nazariyasidagi yangi metod, metodlaridan foydalanish, ta'lim mazmuniga mos shakl metodlarini tanlash o'qitishni zamonaviylashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xarakterda bo'lish prinsipi mavjud. Bu prinsip pedagogik texnologiyalar tizimida ta'lim-tarbiyada o'quvchi manfaatining ustivorligini ta'minlash prinsipini joriy etishni taqozo qiladi. Shunga asosan o'quv tarbiya jarayonida ko'proq o'quvchining mustaqil o'qishi, mutoala qilishi, tahlili qilishiga e'tibor qaratilmog'i talab etiladi. O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini egallashlarida ularning qiziquvchanligini, tashabbuskorligini uyushtirish pedagogik texnologiyasining yo'nalishlaridandir. O'qituvchi – o'quvchi faoliyatini tashkil qilish, mustaqil o'qish, fikrlash, tahlil qilish, qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalashi lozim.

Yangi pedagogik texnologiya zamonaviy talab, ehtiyojlardan kelib chiqib, texnologik jarayon xususiyatlariga asoslanadi. Ma'lumki davr, taraqqiyot ishlab chiqarish o'zgarib, rivojlanib borish xususiyatiga ega. Mavjud texnologiyalar maxsulot turiga qarab ishlab chiqarish qurollarini, ishchi o'rinlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi va u zudlik bilan o'zgartiriladi. Texnologiyaning bu sifat ko'rsatgichi egiluvchanlik deb ataladi. Ta'lim tarbiyada ham davrning o'zgarishi, taraqqiyotning yangi bosqichga o'tishi munosabati bilan ta'lim va tarbiyaning maqsadi va vazifalarining o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgarish o'z navbatida ta'limning mazmunini, shaklini, metodlarini, vositalarini o'zgarishiga olib chiqdi. Bu yangi pedagogik texnologiyaning egiluvchanlik prinsipining asosini tashkil qiladi.

Shunday qilib yuqorida izohlangan pedagogik texnologiya prinsiplari ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini ilmiy asosda qurishga, o'quvchilarning ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish, tahlil qilish, shaxsiy mulkiga aylantirishga va shu asosda shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi. Demak ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, shakl, metod vositalari) ga yaxlit holda yondashilsa pedagogik texnologiyalar o'z muddaosiga erishadi.

## **2. O'qitish jarayonining tuzilishi, uni loyihalash va loyihalash bosqichlari**

O'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'qituvchi, avvalo, o'qitish jarayonitahlil qilishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o'qish bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o'rgatishi, o'zlashtirilgan bilimlarni ko'nikmalarga aylantirish uchun o'quv mavzulari bo'yicha metodik tizimni yaratadi, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mazmunini ishlab chiqadi. Yaratilgan metodik tizim va ma'lumotlar mazmuni yordamida o'quvchi tasavvur qilishi lozimlilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etadi va o'quv mashg'ulotlari uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllari (nazariy dars, amaliy mashg'ulot)ni maqsadga mos tanlaydi va uni echishga yo'llaydi.

Buning uchun o'qituvchi, avvalo, o'qitish jarayonini, uning tuzilishi aniq tasavvur qilishi lozim. Ma'lumki, har qanday jarayon, ma'lum natijalarga erishish uchun oldinga qarab intilishni, harakatlar yig'indisidan iborat. O'qitish jarayoni ta'lim o'rgatuvchi o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'quvchi faoliyat hamkorligining yig'indisini tashkil etadi.

Jarayon sifatida ta'lim uch element birikmasidan iborat: o'qitish, o'qish va ta'limning mazmuni.

O'qitish yoxud o'rgatuvchi faoliyati, bilim oluvchilar faoliyatlarini boshqarish, ya'ni o'quvchilarning o'quv ishlarini uyushtirish, ularning bilish jarayonlariga rahbarlik qilish, nazorat uyushtirish, ma'naviy axloqiy sifatlarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

O'qitish jarayonining bu ikki elementi bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalanib, o'quv tarbiya ishlarini takomillashtirish, ijtimoiy buyurtmani hal etishga qaratilgan. Shunga ko'ra bu jarayonda shaxsning qobiliyatlari, fazilatlarini, ma'naviy axloqiy sifatlarini, bilish qobiliyatlari rivojlanadi, bo'lajak kasb egalarida tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik rivojlanadi va o'quv mehnati madaniyati tarbiyalanadi.

Mazkur jarayonning samarali bo'lishi, ijtimoiy buyurtmaning aniq hal bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishish uchun, o'qitish jarayonini loyihalash, ya'ni ta'lim jarayoniga pedagogik

texnologiyani tadbiiq etish talab qilinadi. Zero, “Pedagogik texnologiya metodining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda ta'limning rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv bilish jarayoni loyihalashtiriladi.

Xo'sh loyiha nima? O'quv loyihasi, o'qitish jarayonini loyihalashtirish deganda nima nazarda tutiladi ?

Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g'oya, ma'lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo'llarini belgilab beruvchi g'oyalar, fikrlar, obrazlardir.

O'quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbiiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir. O'qitishni loyihalash esa ta'limning umumiy maqsadi, mazmuni o'quv maqsadlari o'qish, o'qitish, o'zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o'qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta'limning umumiy maqsadlari asosida, o'quv maqsadlarini, buning uchun o'qish va o'qitishni, o'zlashtirishni rejalashtirgan holda, o'qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o'quv mazmuni asosida o'zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun, o'quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o'quv mashg'ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo'lsak, unda o'quv jarayoni ma'lum modullar, birliklardan iborat bo'ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo'shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir.

Ma'lumki, o'quv jarayoni 3 ta bir-biri bilan bog'liq o'qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Motivlar. (M)
2. O'quvchining o'qish faoliyati. (O'F)
3. O'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati. (B)

Shunday qilib, o'quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin.

**O'J=M+O'F+B**

Mana shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo'lga qo'yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalashtirish yoki o'quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik texnologiyaning bu qismi amalga qo'llanilganda ta'limning tabiatga uyg'unlik qoidasiga asoslansa, ya'ni o'qituvchining tabiiy xususiyatlari-qiziqishi, istak, xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor.

Pedagog olim Malla Ochilovning ta'kidlashicha pedagogik texnologiya metodining muvaffaqiyati, ta'limni rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv-biluv jarayonini loyihalashtirishdir. Muallifning fikricha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda o'qituvchi ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, dastur, darslik, ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar mazmunini o'qituvchi-o'quvchining oldingi ish faoliyati mazmuni, kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyati inobatga olinadi. O'quv jarayonini loyihalashda o'quvchilarning belgilangan maqsad sari harakatlanishi uzluksiz nazorat qilishni e'tibordan chiqarmaslik kerak.

Shunday qilib, ta'lim jarayonining qurilmasi, uni loyihalashning:

- a) ta'lim maqsadlari va natijalarni belgilashni;
- b) natijalar asosida (diagnostikalash orqali) nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishni; hamda o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (dars konspekti) ni ishlab chiqish bosqichlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi.

### **3. Dars loyihasi va uni amalga oshirish modeli.**

Hozirga kadar ko'pgina maktab va kollejlarda dars loyihasini tuzish, ta'lim maqsadini belgilash yoki ta'limni tashkil etish yo'llari kabi elementlar vaqt sinovidan o'tdi.

Dars loyihasining har bir elementida ma'lum bir malakalarni shakllantirish maqsadi bo'lib, ularni bir qancha ta'lim metodlari talablari va amaliy ishlar vositasida amalga oshiriladi.

Dars loyihasida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Mo'ljalni belgilash - Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo'yiladigan savollar, qo'yiladigan muammolar va hokazo.

2. Maqsad - talabalar bugun nimani o'rganadi va natijada qanday ishni bajaradi (malaka). Ular o'qituvchiga bugungi o'rganganlari asosida ma'lum bir faoliyat turini bajarib ko'rsata olishlari lozim. Bu vazifani qanday bajarishni O'qituvchi belgilaydi.

3. Kirish - o'qituvchi talabalar o'rganishi lozim bo'lgan materialni belgilaydi, konsepsiyani ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo'llarini ko'rsatadi.

4. Modellashtirish (namoyish qilish) - O'qituvchi o'rganilayotganlarni va natijada o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmani grafik shaklda ko'rsatadi yoki namoyish qiladi.

5. Amaliy boshqaruv - o'qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ularning malaka egallashlari uchun qadamma - qadam rahbarlik qiladi. Talabalarni eshitish, ko'rish sezgilarini ishga soladi va faoliyatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

6. Tushunchalarni tekshirish - o'qituvchi turli savollar yordamida talabalarning qanchalik tushunganlarini dars davomida tekshirib, olga borish mumkinmi yoki yukligini aniqlaydi. Agar olga borish mumkin bo'lmasa orqaga kaytib bajariladigan ishlarni belgilaydi.

7. Mustaqil amaliyot - o'qituvchi talabalarni o'zlarini tekshirib ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o'zlari o'rganganlarini tekshirib ko'radilar.

8. Darsni tugallash - Darsni xulosalash oldida talabalar o'z ishlarini, o'rganganlarini o'qituvchiga so'zlab berish, namoyish qilish orqali ko'rsatadilar.

#### **Darsni o'tkazish modeli.**

Darsni o'tkazish modelini uchta kategoriyaga bo'lish mumkin.

1. Ko'rgazmali izchillik.
2. Dars sxemasi. (tuzilishi)
3. Asosiy texnologik xarita.

Bular og'zaki, yozma yoki grafik shaklda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi ta'sirlardir. Buni dars davomida og'zaki tushuntirishlar (ya'ni, eshitish) yoki harakatli ko'rsatishlar (ya'ni, bajarish) metodlaridan foydalanib, yaxshi natijaga erishish mumkin.

#### **Darsda belgilangan vazifalar tahlili:**

O'qituvchi darsni taxminan rejalashtirar ekan rejadagi sifatlarni bolalarga o'rgatish va ularda shu ko'nikma va malakalarni qanday shakllantirish yo'llarini izlashi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'zini o'quvchi urnida tasavvur etib, bu ko'nikma va malakalarni bir necha qismlarga bo'ladi. Shundan keyingina o'qituvchi har bir qismni ko'rgazmali tashkil etadi va belgilangan ko'nikmani o'quvchi egallashini ta'minlaydi. Ba'zi o'qituvchilar belgilangan ko'nikmani talabaga o'rgatish uchun boshidan oxirigacha ko'rsatib, gapirib beradi. Bunda "tugal material" (ya'ni izohlangan ko'nikma) odatdagi kabi dars jihozi hisoblanadi.

### **10- mavzu: Loyihaviy ta'lim texnologiyasiga kirish.**

#### **Reja:**

1. Loyihaviy o'qitish texnologiyasiga kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlari.
2. "Layoqatlilik", "Layoqat", "Kasbiy layoqatlilik", "Tayanch layoqatlar" tushunchalari. Loyihaviy layoqatlilik.
3. Ta'lim tizimida loyihaviy o'qitishning dolzarbligi va o'rni.
4. Loyihaviy o'qitishning asosiy tushunchalari: loyiha, loyihaviy faoliyat, loyihalashtirish, loyihalash usuli, o'quv loyihasi.
5. Loyihaviy ta'limning mazmuni.
6. O'quv loyihasi tushunchasi.
7. O'quv loyihaviy faoliyat tuzilishi. O'quv loyihalarining turlari. O'quv loyihasing tipologiyasi.
8. O'quv loyihalarining qiyosiy tavsifi. O'quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari.
9. Loyihaviy ta'limning texnologiyasi. O'quv loyihasing pasportining tuzilishi.

## 10. Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi.

### 2. Loyihaviy ta'limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlari. Loyihaviy ta'limning asoslari.

Loyihaviy ta'lim quyidagi dolzarb ta'lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlaydi;

nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan boholash va o'quvchilarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;

-kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

O'quv loyihaviy faoliyat - bu qo'yilgan vazifaga erishish, ta'lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan biror-bir yakuniy ma'lumot ko'rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni yechish uchun ta'lim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlari majmuasi.

Tayyorgarlik bosqichi: loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish - auditoriya ishi.

Loyihani bajarish bosqichi: auditoriyadan tashqari.

Yakunlovchi bosqich: loyiha taqdimoti, o'quvchilar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi - auditoriya ishi.

**O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROSESSUAL TUZILMASI (1-BOSQICH)**  
Tayyorlov: "loyihaga kirish" fazasi o'quvchilar amalga oshirishadi:

vaziyatga moslashish;

muammoni shaxsan o'zlashtirish (muammoni tushunish va amaliy faoliyatning muayyan sohasi uchun uning yechimi dolzarb va muhimligini anglash); loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;

loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va o'qituvchi bilan muloqotning xarakteri.

O'quvchilar loyiha ustidan ishlash shakllarini tanlashadi: alohida yoki guruh bo'yicha. Agar guruhli shakl tanlangan bo'lsa: guruhlarga birlashishadi;

loyiha bo'yicha ishlar turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi; loyiha bajarish bo'yicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi; uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;

natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;

loyiha ma'suli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

### O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROSESSUAL TUZILMASI

(2-BOSQICH) Loyihani bajarish.

Loyihaning ushbu davrida o'quvchilar o'zlarining vazifalari bilan muvoffiq tarzda va ma'lum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar; turli manbalardan axborot to'plash, tahlil etish va umumlashtirish ishlarini olib boradilar; tadqiqot o'tkazadilar, hisob-kitoblarni bajaradilar; zarurat tug'ilganda maslahatlashadilar; oraliq natijalarni muhokama qiladilar; hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar. hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

**O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROSESSUAL TUZILMASI (3-BOSQICH)** Yakuniy: taqdimot, himoya, baholash, refleksiya  
Loyihaning jamoa taqdimoti vaqtida quyidagilarni aks ettirishadi:  
muammo, maqsad va vazifalarni tushunish;

ishni rejalashtirish va amalga oshirishni bilish;  
yechimlarni izlash jarayoni tahlil qilish;  
loyihalar va taqdimotning o'zaro baholashadi;  
faoliyat va natijaning refleksiyasini amalga oshirishadi: ish davomida va yakunida yuzaga  
kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashni  
namoyon etadi;  
loyiha faoliyati haqida hisobot topshirishadi.

O'quv loyihasi uslubiy pasportining tuzilishi:  
Pedagogik annotatsiya.

1. Loyiha topshirig'i.
2. O'quvchilarga uslubiy ko'rsatmalar.
3. Loyihali ta'limning texnologik xaritasi.

Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi

O'quv predmeti

O'quv mavzusi

Qatnashchilar

Ta'limning maqsadi

Rejalashtiriladigan o'quv natijalari

Oquvchilar loyihani muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan oldingi bilim va ko'nikmalar ro'yxati

Loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi

Loyihani bajarish tartibi

Loyihaning baholanishi

Loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari

Ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi

Hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

### **3.O'quv loyihasi. O'quv loyihaviy faoliyat.O'quv loyihasing muddatlari.**

#### **3.1 O'quv jarayonini loyiha asosida tashkil etish:**

1. O'quv predmeti mavzusini va mazmunini tanlash.
2. Darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilab olish.
3. Darsning o'quv mazmunini ishlab chiqish beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash.
4. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni ifoda etish.
5. Darsning shakli, metod, vositalarini tanlash.
6. Tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligi hisobini olish.
7. Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini yaratish.
8. Nazariy olib borish, testlar, savollarni ishlab chiqish.
9. Loyihani dars jarayoniga tatbiq etish.
10. Dars jarayonini olib borish va yakunlash mexanizmini yaratish.

**3.2.**Loyihali o'qitish faoliyati o'quvchining o'quv faoliyatini tashkil etuvchi jarayon hisoblanadi.

Bunda:

2. O'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv loyihalari, kichik loyihalarning maktab o'quvchilari tomonidan bajarilishi ko'zda tutiladi.

3. O'quv loyihalari oldindan ishlab chiqilgan mezon ko'rsatkichlari asosida baholanadi, loyihada predmetlararo maqsadlar ko'zda tutilsa, yakuniy baholar ham chiqarilishi mumkin.



4. Loyiha asosida faoliyat tashkil etilganda o`quv-mavzularda rejalashtirilayotgan loyihani topshirish muddatlari ko`zda tutiladi.
5. Loyiha asosida o`quv faoliyatini tashkil etishga o`qituvchi rahbarlik qiladi va u loyihaning koordinatori hisoblanadi.
6. Loyihalar yakka shaxslarga va guruhlariga qaratilgan bo`ladi.
7. Loyiha topshiriqlari aniq, ravon shakllantirilgan, uning maqsad va vazifalari tushunarli aniqlangan, o`quvchilar bilan uning ijro yo`llari va mexanizmlari kelishilgan bo`ladi.
8. Ayrim hollarda yuqori sinf o`quvchilarining xohish va istaklariga binoan loyihalarni shakllantirish loyiha rahbari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.
9. O`quv yili davomida o`rnatilgan tartibda tuzilgan loyihalar taqdimotini ilmiy konferensiyalarda, pedagogik kengashlarda, metod- birlashmalarda o`tkazish, himoya qilish yoki tanlovlar tariqasida o`tkazish mumkin.

**3.3. Dars loyihalari o`zining davomiyligiga qarab:**

- kichik loyihalar (bir soatli);
- qisqa muddatli loyihalar (4 soatga mo`ljallangan)
- haftaga mo`ljallangan loyihalar;
- uzoq muddatga mo`ljallangan loyihalar (ko`pincha bunday loyihalar darsdan tashqari ko`pincha ta`limni amalga oshirishga xizmat qiladi) bo`lishi mumkin.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar o`qituvchidan darsni tashkiliy jihatidan puxta o`ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida, o`quvchilarni jarayonga qiziqitira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. O`quv jarayonini loyiha asosida tashkil etishda o`qituvchi faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini o`tashi talab etiladi.

O`qituvchi loyiha raxbari sifatida yuqori madaniyatli, ijodkor, izlanuvchan, tashkilotchi bo`lmog`i kerak.

Loyihalar shunday tuzilishi kerakki, u o`quvchi shaxsiga qaratilib, uning shaxsiy rivojlanishiga xizmat etishi kerak.

Loyihalar asosida o`quv jarayonini tashkil etishda o`qituvchi fidoyilik ko`rsatishi, o`quvchini ruhlantirishi, ularni qiziqitirish orqali pirovard maqsadga erishishi talab etiladi.

Loyiha asosida tashkil etiladigan darslar va unga sarf etiladigan vaqt, tashkiliy ishlar, beriladigan va to`g`ri yo`lga soluvchi savollar oldindan rejalashtirilishi kerak.

Undan tashqari dars jarayonida sodir bo`lishi mumkin bo`lgan kamchilik, xatolar, ularning oldini olish, jarayonning tahliliy tomonlari ham oldindan hisobga olinishi kerak.

**Loyihalash** (lot. rrojectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo`lib, proekt ma`lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

**Loyihalash metodi** ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo`lib, o`qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O`qituvchi dars vaqtdan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo`llanilishi va uni hal etish muammolari ko`rib chiqiladi.

Loyihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo`ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari stjirish, tadqiqot o`tkazish, tahlil qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to`g`rilash;

- turli yechim. takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash);
- jamoada ishlash, turli nuqtayi nazar, fikrlarning muhokamasida qatnashishga rag'batlantiradi.

Loyihalash metodini qo'llab, dars o'tish jarayonida o'quvchi, talabalarning vazifasi:

- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish.

O'qituvchining vazifasi:

- o'quvchi, talabalami mustaqil ijodiy faoliyatlarini unumli bo'lishi uchun sharoit yaratish.

Bu metodni iqtisodiy fanlarni o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar biznes-reja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loyihalar ishlab chiqishni o'rganadilar. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya'ni darsni qanday o'tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o'z faoliyatlarini rejalashtirishni o'rganadilar. Shu bilan birga mazkur metodning o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, ularni, albatta, hisobga olish zarur.

Birinchidan, bu metodni mavzular, alohida predmetlar bo'yicha qo'llash juda qiyin. Chunki, bir muammoning kelib chiqish sabablari nihoyatda xilma-xil. Ularni bir fan doirasida hal qilish qiyin. Ikkinchidan, barcha talabalar ham loyiha tayyorlab, qo'yilgan muammoni yecha olmaydi.

Uchinchidan, bu metod o'qituvchidan chuqur bilim, tajriba, o'z ustida tinimsiz ishlash, turli loyihalarda shaxsan qatnashishini talab qiladi.

Loyihalash metodini qo'llash uchun birinchi navbatda loyihalash ob'yektini aniqlaymiz. Qanday masala, muammo mavjudki, uni yechib loyihaning natijasini qanday bo'lishini belgilaymiz.

1. Bu o'tilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo'lishi mumkin. Loyiha talabalarning o'z xohishlari, qiziqishlariga ko'ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo'lishi mumkin yoki o'qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham talabalar zarur axborotlarni to'plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo'yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loyihaning mazmunini belgilaymiz.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Loyihaning umumiy tavsifi o'qituvchi tomonidan beriladi. Aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddan tashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiy rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida talaba bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

Loyiha qatnashchilari belgilanadi.

Loyiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir- birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi.

Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo'yiladi.

3. Loyihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uni harr^muddatlari bilan ko'rsatiladi.

4. Loyihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

**1-bosqich.** Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

**2-bosqich.** Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi.

Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar. Material, axborot to'playdilar. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qiladilar. Jadvallar, grafiklar ishlab chiqadilar. Namoyish etiladigan, illyustrativ materiallar tayyorlashadi.

**3-bosqich.** Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xoniaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talabalar asosida taxlanadi.

**4-bosqich.** Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqr ga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavdalandirishi kerak. Matilda, albatta, jadvallar, grafiklar, chizma, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

**5-bosqich.** Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasini elon qilingach, lugallangan hisoblanadi.

**6-bosqich.** Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida jyiiri yoki komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Jyuri a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan" loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi.

Hay'at ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Bu mezonlar muammoni o'rganish darajasi, matnni aniq tushunarli tarzda bayon qilinishi, o'ziga xosligi, rasmiylashtirish sifati, ko'rgazmali, namoyish materiallardan foydalanilgani, berilgan takliflar va ularni muammoni yechishga yordam berishi va boshqa jihatlarini mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida kichik guruhlar tayyorlagan loyihalarni o'qituvchi boshchiligida talabalardan tuzilgan hay'at baholashi mumkin.

Talabalar tomonidan tayyorlangan loyihalarni baholash mezonlari:

1-jadval

№	Mezonlar	Eng yuqori ball
1	Tanlangan muammoning dolzarbligi	5
2	Muammoni o'rganilganlik darajasi	5
3	Maqsad va vazifalarni aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi	5
4	Tanlangan muammoning qisqacha mazmunini yoritilishi	5
5	Bajariladigan ishning qisqacha mazmunining yoritilishi	5
6	Ko'rgazmali, namoyish materiallaridan foydalanish	5
7	Loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar, ularning manbalarini ko'rsatilishi va asoslanishi	5
8	Rasmiylashtirish sifati	5

Talabalar loyiha ustida ishlash jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa, mustaqil tahliliy fikr yuritishga o'rganadilar. Ularda yangi g'oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to'g'ri strategiya tanlash, aniq masala-muammoni yechish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bunda o'qituvchi ularning ishini kuzatadi. maslahatlar beradi, qo'llab-quvvatlaydi.

Boshqa hech qaysi metod o'quvchi-talabalarda bu metodchalik mas'uliyatni his qilishni shakllantirmaydi, tarbiyalamaydi.

Loyihalash metodi asosida dars jarayonini tashkil etishda o'quv guruhi ichida ishchi guruhlar tuziladi. Ular o'zlashtirish darajalariga qarab uch ishchi guruhga bo'linadi. Bunda kuchli ishchi guruhlar mustaqil shug'ullanganda, o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchTalabalar bilan mashg'ulot o'tkazishi uchun ko'proq vaqt ajratiladi.

Ishchi guruhlar ishtirokchilarining o'zlashtirish darajasi taxminan teng bo'lganida ta'limda yuqori natijaga erishiladi. Bunday guruhlarni ta'lim oluvchilarning o'zlari tuzgani ma'qul, chunki ular o'zlarining qaysi guruhga mos ekanliklarini juda yaxshi bilishadi. 2-va 3-ishchi guruhidan 1-ishchi guruhga o'tishga imkon beriladi. Kichik guruhlarda har bir o'quvchi yakka tartibda loyiha ishini bajargani uchun individual amaliy usuldan ham foydalanish mumkin.

Individual usulning laboratoriya usulidan farqi, talabalar o'z faoliyati davomida olgan bilimlaridan foydalanib, amaliy vazifani hal etishga harakat qiladi. Ushbu usul talabalar bilimini chuqurlashtiradi, mahoratini oshiradi, shuningdek, ularning o'rganish faoliyatini yanada kuchaytiradi.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodi, shakli
1-bosqich, tayyorgarlik	O'qituvchi talabalarga iqtisodiyotda qanday muammolar bor, o'zlari uchun qiziqarii bo'lgan muammolarni tanlashlarini taklif qiladi yoki topshiriqlami o'zi tayyorlaydi.	Aqliy hujum. Mustaqil ish
	O'quvchi talabalarga loyihalash mazmuni, loyihalash ob'yekti, usullari, bosqichlari haqida ma'lumot beradi.	Bayon qilish
2-bosqich	O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. Har bir kichik guruhga o'zlarini qiziqtirgan muammoni tanlash va uni yechish bo'yicha loyiha tayyorlashni topshiradi.	Ixtiyoriy
3-bosqich	O'qituvchi loyihani qanday tayyorlashni tushuntiradi. Talabalar faqat loyiha tayyorlaydilar. Uni amalga oshirish talab qilinmaydi (chunki uni bir dars jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi).	Bayon qilish
Asosiy qism	Talabalar loyiha tuzishga kirishadilar. Loyihalar taqdimoti	Mustaqil kichik guruh
Yakuniy qism	O'qituvchi o'quvchi-talabalarni baholaydi. Xato va kamchiliklarni ko'rsatadi. Darsni umumlashtiradi va yakunlaydi.	

Bu metodni qo'llash, kurs ishi, diplom ishi, bitiruv malakaviy ishi bajarishda yaqqol naniyon bo'ladi. Buni har bir talaba individual tarzda bajaradi.

### 11-Mavzu: Interfaol ta'lim, uning shakllari va ishtirokchilari.

Reja:

1. Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari
2. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari
3. An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar
4. Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari
5. Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash

#### Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

#### Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi.

(Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratadi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz:

### An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
	qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon

		shakllantirish, mustahkamlash.	qilish, himoyalashga o'rgatish.
	O'qituvchi ning vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
	O'quvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
	Vaqttaqsi moti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh;kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
0	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.
1	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara,

		maslh'uloti, davra suhbati, bahs, munozara, konsultastiya va boshqalar.	davra suhbati, amaliy ishlar va boshqalar.
2	Kutiladigan natija	Mavzu o'quvchilarning ko'nikma, o'zlashtirishlari.	bo'yicha bilim, malakalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o'xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o'zining mashhur «Mahbub ul-qulub» asari muqaddimasida shunday yozgan edi: «Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...». Bunda shu asarni har kim turlicha, ya'ni o'z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o'zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo'llay bilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan biz interfaol ta'lim usullarining an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o'rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi — har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga,

o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;
- o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- o'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;
- sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
- davomatni va intizomni saqlash;
- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

- DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;
- interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
- interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
- mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;
- zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;
- interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

- mavzuni sayoz bilishi;
- nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;
- o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;
- kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;
- ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;
- kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;
- tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;
- o'quvchiga xayrixohlik, samimiylilik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;
- mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

o'quvchilarga tegishli omillar:

- davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;
- zarur tayyorgarliksiz kelishi;
- ilmiy atamalarni bilmasligi;
- diqqatni jamlay olmasligi;
- eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;
- qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;
- dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;
- manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

- ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirtalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;
- mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;
- vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'ymaslik;
- vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.



Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

### **Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari**

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

- **Moderator** – ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.
- **Trener**–o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.
- **Tyutor**–masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.
- **Fasilitator**–darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
- **Mentor**–ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
- **Kouch**–ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).
- **Konsultant**–maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.
- **Lektor**–nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.
- **Ekspert** – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.
- 1. **Innovator**–yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy q
- 2. **Kommunikator**–o'zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.
- 3. **O'qituvchi**–mashg'ulot mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan mazmuni tushuntirish, o'quv jarayoniga rahbarlik.
- 4. **Menejer**–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.
- 5. **Spekter**–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.
- 6. **Assistent**–mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.
- 7. **Sekretar**–zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.
- 8. **Texnolog**–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.
- 9. **Metodist**–ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.
- 10. **Koordinator**–loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.
- 11. **O'quvchilar** – ta'lim oluvchilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

### **Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash**

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

## **12- mavzu: Ta'limning keys texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari.**

### **Reja:**

1. "Keys", "Keys-stadi" tushunchalari. Keysni ishlab chiqishning protsessual tizimi.
2. Keyslar tipologiyasi. Keys matnining yozilishi.
3. Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va yechish bo'yicha yo'riqnomasi. Amaliy vaziyatni tahlil qilish qoidasi.

### **Keys-stadi haqida tushuncha**

Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, study – ta'lim ko'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

### **Keys-stadi metodining kelib chiqishi haqida ma'lumot**

Ushbu metod dastlab 1920 yilda Garvard biznes maktabida qo'llanilgan. Garvard biznes maktabining o'qituvchilari biznes yo'nalishidagi aspirantura bo'limi uchun to'g'ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani echish uchun biznes maktabining o'qituvchilari tomonidan qo'yilgan dastlabki qadam etakchi biznes amaliyotchilaridan intervyu olish hamda mana shu menedjerlarning faoliyati, unga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot yozish bo'ldi. Ma'ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to'qnash kelgan konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo'lib munozara tashkil etish asosida

uning echimi topish tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo`nalishidagi ta'lim muassasalarida keng targ`ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko`payib bormoqda. XX asrning 50 yillaridan boshlab biznes-keyslar G`arbiy Evropa mamlakatlarida ommalashdi. Evropaning etakchi biznes maktablari keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar.

### Keys-stadi maktablari



### Keys turlari

Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko`ra, keys uch qismdan iborat bo`ladi: 1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar; 2) aniq vaziyat bayoni; 3) keys topshirig`i.

### Keys - stadi metodi quyidagilarni ko`zda tutadi:

- keys topshirig`ini yozma ko`rinishda tayyorlashni;
- talabalarining keys topshirig`ini mustaqil o`rganishlari va muhokama etishni;
- Professor-o`qituvchi rahbarligida auditoriyada hamkorlikda keys-topshirig`ini muhokama etishni;
- «muhokama echimdan ham muhim» tamoyiliga rioya etishni.

### Bosqichlari :

1. Aniq vaziyat bilan tanishuv
2. Izlanishga doir: topshiriq mate-riallarida ifoda etilgan axborotni baholash
3. Muhokama etish: muqobil echim-larning imkoniyatlarini muhokama qilish.
4. Qaror qabul qilish: guruhlarda echimni izlab topish.
5. Munozara: har bir guruh o`z echimini himoya qiladi.
6. Natijalarni taqqoslash: guruh-larda qabul qilingan echimlarni taqqoslash.

### Bosqichning maqsadi:

1. Muammoli vaziyatni tushunish
2. Echim uchun zarur axborotni topishga o`rgatish.
3. Alternativ fikrlashni rivojlantirish.
4. Echim variantlarini taqqoslash va baholash.
5. Echimni dalillar bilan asoslash
6. Alohida echimlarda aks etgan qiziqishlarning o`zaro aloqadorligini baholash.

### Keys-stadining o`ziga xosliklari:

1. Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo`lishi.
2. Jamoaviy va guruhlarda o`qitish.

3. Individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.
4. Xil-xil o`quv loyihalarini ishlab chiqish.
5. Muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o`quv-bilish faoliyatini rag`batlantirish

### **Maqsadning belgilanishi**

Keysolog faoliyati mazmunini bosqichma-bosqich ko`rib chiqamiz:

Keysning o`quv kursi tuzilmasidagi o`rmini belgilash.

Uning ta'lim maqsadini to`liq ifoda etish.

Keysning talabalarning ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun «mas'uliyat zonasi»ni aniqlash: o`zlashtirilishiG`kengaytirilishiG`rivojlantirilishi lozim bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalar ro`yxati.

### **Keñslar tipoloriyasi**

Asosiy manbalari	1. Daladagi 2. Kabinetdagi 3. Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	1. O`tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys 2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira 3. Prognostik keys
Keys ob'ekti	1. Shaxsiy 2. Tashkiliy-institutsional 3. Ko`p sub'ektli
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy yozishma 4. Jurnalist tergovi 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistika materiallar majmui 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui
Tipologik belgilari	Keys turi
Hajmi	1. Qisqa (lo`nda) 2. O`rtacha miqdordagi 3. Katta (uzun)
Tuzilmaviy o`ziga xos xususiyatlari	1. Tuzilmalangan 2. Tuzilmalanmagan
O`quv topshirig`ini taqdim etish usuli	1. Savolli 2. Keys-topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. Muammo, echim yoki kontseptsiyani izohlash 2. Treningli, o`quv mavzui predmeti bo`yicha malaka va ko`nikmalar orttirishga mo`ljallangan 3. Tahlil va baholashga o`rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va echish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o`rgatuvchi

	5. Vaziyat sub'ekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi
Rasmiylashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-keys 4. Audio-keys 5. Multimedia-keys

### Keysni ishlab chiqishning protsessual tizimi

- Maqsadning belgilanishi
- Muammoning shakllanishi
- Keys dasturiy kartasining ishlab chiqilishi
- Institutsional tizimni izlanishi
- Axborotni yig'ish usullari va vositalarining tanlanishi
- Axborot yig'ilishi, keys mavzulari bo'yicha tanlash
- Vaziyat modelining qurilishi
- Keys matnining yozilishi
- Keysning to'g'riligi va samaradorligining tekshirilishi
- Keysning natijaviy variantining tayyorlanishi
- Keysning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi

### Keys-metodini amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatining bosqichlari:

- 1) tayyorgarlik bosqichi;
- 2) asosiy bosqich: keys-stadi metodini amalga oshirish;
- 3) tahliliy, baholovchi bosqich.

### Keys bilan ishlash jarayonida professor-o'qituvchining harakat strategiyasi mavjud:

- 1.O'qituvchi muammoni echimini topishga yordam beruvchi kalit vazifasini bajaruvchi qo'shimcha savollarni yoki ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin;
- 2.Ayrim vaziyatda o'qituvchining o'zi javobni aniqlashtirishi mumkin;
3. Muammo ustida talabalar ishlayotgan vaqtida o'qituvchi hech qanday yordam bermasligi mumkin.

Talabalar tomonidan keysni echish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar talabalarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish talaba mustaqil ravishda:

- 1) keys materiallari bilan tanishadi;
- 2) taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- 3) muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- 4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;

5) taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bo'yicha jamoa bo'lib ishlash talabalar kichik guruhlariga bo'linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:

- 1) guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
- 2) echimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;
- 3) muammoli vaziyat echimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
- 4) taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

real vaziyat yechimiga doir o'z variantlarini taqdim etadilar;

- 2) tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydilar va echimning to'g'riligini asoslaydilar;
- 3) boshqa guruh a'zolarining savollariga javob beradilar va o'z takliflarini asoslaydilar.

Jamoa bo'lib keys ustidan ishlash:

- guruhlar taklif etgan echimlar variantlarining muhokamasi;
  - taklif etgan echimlarning o'zaro baholanishi;
  - taklif etilgan echimlarning xayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (talabalar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.
- 
- guruhlar taklif etgan echimlar variantlarining muhokamasi;
  - taklif etgan echimlarning o'zaro baholanishi;
  - taklif etilgan echimlarning xayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (talabalar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

Keys №1. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish hammamizga yaxshi ma'lumki, oliy ta'limda seminar mashg'ulotlari talabalarda o'rganilgan materiallarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Seminar mashg'ulotlarini o'tkazilish tartibiga e'tibor qarataylik. Odatda, seminar mashg'ulotlarini assistent o'qituvchilar olib borishadi. Seminar mashg'ulotlarini ham tashkil etishda xilma-xil yondashuv mavjud. Ba'zi professor-o'qituvchilar mashg'ulot jarayonida tayyorlanib kelgan talabalardan so'raydi, ularni baholab qo'yish bilan cheklanadi. Kimdir ommaviy tarzda savol-javob o'tkazish orqali maqsadga erishishga harakat qiladi. Biroq reyting tizimi qoidasiga ko'ra, har bir seminar mashg'ulotida talabalarning bilimni tekshirib, belgilangan mezon doirasida hammaning ball olishiga erishish lozim. Lekin ko'pchilik o'qituvchilar bunga erishish imkoniyati yo'q, deb hisoblashadi. Ayrimlar esa talabalar yozib kelgan konspekt va faolliklariga asoslangan holda ball qo'yib berish mumkin, deb hisoblashadi.

Vaziyatni baholash uchun savollar: Seminar mashg'ulotlarini assistent o'qituvchilar samarali tashkil etmoqdalar deyish mumkinmi? Seminar mashg'ulotini tashkil etish samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak? Seminar mashg'ulotlarida kutilgan natijaga erishish maqsadida ishni qanday tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq? Seminar mashg'ulotlarida talabalarning hammasini baholashga qanday erishish mumkin?

Vaziyatni o'rganish va vaziyatni baholashga doir savollarni tahlil etish asosida mavjud seminar mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan SWOT-tahlilni amalga oshiring.

Strength – kuchli tomonlar	
Weakness – zaif tomonlar	
Opportunities – imkoniyatlar	
Threats – tahdidlar	

### Keys: Pedagogik nizo va uni hal etish yo'llari

Ma'lum muddat tibbiy davolanishda bo'lib, yangi o'quv yilidan yana qaytadan ishga qaytgan "Kasbiy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi N.Xafizov menejment bakalavriyat ta'lim yo'nalishi 303 guruhida kasbiy pedagogika fanidan seminar mashg'ulotini o'tkazayotgan edi. Seminar mashg'ulotida talabalarni kichik guruhlarda ishlashlarini tashkillashtirdi. Talabalar kichik guruhlarda ishlarni davom ettirayotgan bir paytda, mashg'ulot boshlanganiga o'ttiz daqiqa bo'lganida mazkur guruh talabasi A.Petrova eshigini ochib, auditoriyaga kirishga ruxsat so'radi. O'qituvchi esa mashg'ulot boshlanganiga ancha vaqt bo'lganini, u bir necha marotabadan bo'yon kechikib kelayotganini aytib, mashg'ulot vaqtida kechga qolgan talaba A.Petrovaning auditoriyaga kirishiga ruxsat bermadi. Talaba esa, auditoriyadan chiqib ketishni xohlamadi. O'qituvchi undan auditoriyadan chiqib ketishni talab etdi va oxir-oqibat xonadan chiqarib yubordi. Ertasi kuni auditoriyaga kiritilmagan qizning onasi nomidan fakultet dekanatiga shikoyat xati kelib tushdi. SHikoyat xatida talaba-qizning onasi homilador ekanligiga qaramasdan va har qanday holatda ham o'qituvchi talabani mashg'ulotga kiritmasdan, uni turtib auditoriyadan chiqarib yuborgani pedagogik etika zid ish ekanligi, o'qituvchining kompetentligini aniqlash uchun Davlat test markazidan xolis ekspertlar chaqirib, sinovdan o'tkazish va shikoyatga yozma ravishda javob qaytarish, agar kerakli chora ko'rilmasa, yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi haqidagi talabni qo'ygan edi.

### Keys: Pedagogik nizo va uni hal etish yo'llari

Ertasi kuni fakultet dekani va o'rinbosari N.Xafizovni bu haqida ogohlantirdi. O'qituvchi esa dekanga u hech qanday ortiqcha harakat qilmagani, talaba qiz hamma vaqt darsga kechikib kelishini aytib qo'pol munosabatda bo'ldi. Bir hafta muddat o'tib, dekan kafedra mudiridan mazkur masalani yig'ilishda muhokama qilib, qaror chiqarib berishni so'radi.

Kafedra majlisida mazkur masala muhokama etildi. Kafedra professor-o'qituvchilari har qanday vaziyatda ham N.Xafizovni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi. Biroq talaba-qizning homilador ekanligini hisobga olib, undan uzr so'rash haqidagi taklifni kiritishdi. N.Xafizovga so'z berilganda esa, u pedagogik odobiga zid hech qanday xatti-harakat sodir etmaganligini, talaba-qizdan uzr so'ramasligini bildirdi. Oradan bir hafta muddat o'tib, N.Xafizov kafedra mudirining ishdan bo'shasligi haqidagi iltimosiga karamasdan, o'z arizasiga ko'ra vazifasidan ozod etildi.

Yuqorida keltirib o'tilgan vaziyatni tahlil eting. Siz N.Xafizovning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? N.Xafizovning ishdan bo'shab ketishi to'g'ri bo'ldimi?

Aniq vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va hal etish bo'yicha tinglovchilarga uslubiy ko'rsatmalar

Ish bosqichlari va vaqti	Maslahat va tavsiyanomalar
1. Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa	Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag'ishlanganligini aniqlang.
2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O'z fikringizni guruh bilan o'rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e'tibordan chetda qoldirmang.

3. Muammo echimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa	Guruh bilan birgalikda muammo echimini toping. Muammoga doir echim bir necha variantda bo'lishi ham mumkin. SHu bilan birga siz topgan echim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.
4. Keys echimi uchun taklif etilgan g`oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Guruh bilan birgalikda keys echimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo'lishi tamoyillariga rioya qiling.

Keys echimi uchun taklif etilgan g`oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija

### Talabalar bilimni nazorat qilish uchun savollar:

- 1.Keys-stadi haqida tushuncha?
- 2.Keys-stadi metodining kelib chiqishi haqida ma'lumot?
- 3.Keys-stadi maktablari?
- 4.Keys turlari?
- 5.Keys - stadi metodi nimalarni ko`zda tutadi?
6. Keys – stadining bosqichlari?
- 7.Keys-stadining o`ziga xosliklari?
- 8.Maqsadning belgilanishi?
- 9.Keñslar tipoloriyasi?
- 10.Keysni ishlab chiqishning protsessual tizimi?
- 11.Keys-metodini amalga oshiruvchi o`qituvchi faoliyatining bosqichlari?
- 12.Keys bilan ishlash jarayonida professor-o`qituvchining qanday harakat strategiyasi mavjud?

### 13-mavzu: Ta'limning keys texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari.

#### Reja:

- 1.Axborot yig`ish usullari va vositalari. Axborot manbalari.
- 2.Keysda muammoni berish usullari. Keys tuzilmasi.
- 3.Keysning pedagogik pasporti. Pedagogik annotatsiya. Talabaga uslubiy ko`rsatmalar.
- 4.Keysning tekshirilishi va baholanishi.Keysning ta`lim amaliyotiga joriy etilishi. Keysni rasmiylashtirish.

**Tayanch so`z va iboralar:** axborot yig`ish, keys tuzilmasi, keysning pedagogik pasporti, pedagogik annotatsiya, talabaga uslubiy ko`rsatmalar.

#### Axborot yig`ish usullari va vositalarining tanlanishi.

##### Keys uchun axborot yig`ish usullari:

- Intervyu
- Suhbat
- O`rganish (arxiv hujjatlari, hisobotlarni)
- Kuzatuv va hokazo.

##### Axborot yig`ish vositasi:

- So`rovnoma varag`i
- Intervyu olish varag`i



Anketa

Har xil jadvallar va boshqalar

### **Axborot yig`ish**

Axborot manbalari:

Statistik materiallar, hisobotlar;

Vaziyat ob'ekti faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, axborotlar, prospektlar va boshqa ma'lumotlar;  
Internet;

Ommaviy axborot vositalari;

Korxonalar raqiblari, uning ta'minotchilari va iste'molchilari, tarmoqdagi ekspertlar yoki turli investitsion fondlar tahlilchilari bilan muloqot;

Talabalarning o`quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari;

Ilmiy maqolalar, monografiyalari;

Korxonalar rahbarlari bilan intervyu.

### **Keysda muammoni berish usullari:**

1-usul – muammoni keysolog ifodalaydi.

2-usul – vaziyatdagi muammo yaqqol ifodalanadi, lekin bunda vaziyatning zarur elementlaridan biri (masalan, sheriklar haqidagi) axborot bo`lmaydi.

3-usul – matnda vaziyat sub'ektlari o`rtasidagi ziddiyat mavhum ifodalanadi.

### **Keys tuzilmasi**

-Kirish

-Keys ob'ektining tarixiy bayoni(Keysologning xohishiga qarab qo`shiladi)

-Vaziyat: ob'ektning muayyan vaqt davridagi bayoni

-Muhokama uchun va keysga doir savollar

### **Keysning pedagogik pasporti**

1) pedagogik annotatsiya

2) talabaga uslubiy ko`rsatmalar

3) o`qituvchi – keysologning keysni hal etish varianti

4) ta'lim texnologiyasi

### **Pedagogik annotatsiya:**

Quyidagi elementlarni o`z ichiga oladi:

1. Keys mo`ljallangan predmet, bo`lim, mavzu, ta'lim darajasi, kurs ko`rsatiladi.

2. Keysdan ko`zlangan maqsad (ta'limiy maqsad, rejalashtiriladigan o`quv natijalari).

3. Talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo`lgan dastlabki bilim va malakalar.

4. Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun'iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma'lumot.

5. Axborot olish manbalari ro`yxati

6. Keysning o`ziga xos belgilariga ko`ra tavsifnomasi (syujet, keys ob'ekti mavjudligi, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o`ziga xos xususiyatlari, o`quv topshirig`ini taqdim etish usuli, chizmalashtirish usuli).

7. Keysdan ko`zlangan maqsad va tegishli tashkiliy-uslubiy ta'minoti o`zgarganida u qo`llanilishi mumkin bo`lgan o`quv predmetlari ro`yxati.

### **Misol KEYS**

«DESK INVEST»: sotish bozorini kengaytirish uchun marketing strategiyasining tanlanishi»  
(lavha) M. Nazarova, TDIU

### **PEDAGOGIK ANNOTATSIYA**

O`quv predmeti: «Xalqaro marketing».

Mavzu: «Marketing strategiyasi».

Ushbu keysning **maqsadi**: korxonada imkoniyatlarini tahlil etish va baholash qobiliyatini, sotish bozorini kengaytirish bo'yicha marketing strategiyasini tanlash va ishlab chiqish malakalarini rivojlantirish.

**Rejalashtiriladigan o'quv natijalari:**

- korxonada imkoniyatlarini tahlil etish va baholash qobiliyatini rivojlantirish;
- korxonada marketing strategiyasini tanlash va ishlab chiqish malakalarini oshirish;
- mustaqil tarzda qaror qabul qilish malakalarini egallash.

Talabalar ushbu keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun marketing strategiyalarining mavjud turlari, ularning xarakterli xususiyatlari va ular qo'llaniladigan shart-sharoitlar, marketing strategiyalarini tanlash va ishlab chiqishga nisbatan mavjud yondashuvlar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Ushbu keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettiradi. **Keys ob'ekti** - Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «DESK-INVEST» O'zbekiston-Avstriya qo'shma korxonasi.

**Axborot manbalari:**

- Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «DESK-INVEST» O'zbekiston-Avstriya qo'shma korxonasi Ustavi;
- «DESK-INVEST» korxonasi biznes-rejasi;
- «DESK-INVEST» korxonasi 2005-2006 yillardagi ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari haqidagi yillik hisobot.

**Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi:**

Keys hayotiy, sujestsiz keyslar kategoriyasiga kiradi va statistik materiallar asosida tuziladi. Keys qisqa, tuzilmagan. Bu keys-topshiriqdir.

Keys didaktik maqsadlariga ko'ra vaziyat sub'ektini rivojlantirishning yangi strategiyalari va yo'llarini ishlab chiqishga rag'batlantiradigan keyslar toifasiga kiradi.

Keys elektron versiyada taqdim etilgan.

**Keysdan** quyidagi o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida **foydalanish mumkin**: «Marketing tadqiqotlar», «Strategik marketing», «Marketingni boshqarish».

**Talabaga uslubiy ko'rsatmalar:**

Muammo va kichik muammolar ifodasi;

Muammo echimi algoritmi;

Vaziyatni tahlil etish va hal qilish varag'i;

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari;

O'quv uslubiy materiallar;

**Keysning tekshirilishi va baholanishi**

Yaratilgan keys ekspert tekshiruvdan va bahosidan o'tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo'lishi mumkin:

1. Keys loyihasining korxonada xodimi tomonidan ko'rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.

2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o'qituvchi-keysologning keysning ta'limdagi qimmatini xususidagi fikri, uni tekshirishning 2-usulidir.

**Keysni rasmiylashtirish yo'llari:**

1. Qo'lyozma yoki bosma qilingan variantda

2. Elektron variantda

3. Video variantda

4. Audio

5. Multimedia

**Talabalar bilimini mustaxkamlash uchun savollar:**

1. Axborot yig'ish usullari va vositalari tushuntirib bering?

2. Axborot manbalariga nimalar kiradi?

3. Keysda muammoni berish usullari qanday?

4. Keys tuzilmasi?

- 5.Keysning pedagogik pasportining mazmuni?
- 6.Pedagogik annotatsiya?
- 7.Talabaga uslubiy ko'rsatmalar?
- 8.Keysning tekshirilishi va baholanishi?
- 9.Keysning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi?
10. Keysni rasmiylashtirish?

#### **14-Mavzu: Muammoli ta'limning nazariy asoslari**

##### **Reja:**

- 1.Muammoli vaziyat yaratish usullari
- 2.Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:
- 3.Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:
- 4.Suqrotona savol-javob usuli
- 5.Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish
- 6.Intellekt kopligi nazariyasining

##### Muammoli ta'lim texnologiyasi

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur.

Bugun jamiyat ta'lim maskanlari oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi etakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash jarayoni (tahlil, umumlashtirish va boshqa shu kabilar) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarning yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Muammoli ta'lim nazariyasi o'quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Ma'lumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim ko'rsatikichi – yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar ta'lim ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy ma'nosida rivojlanuvchi ta'lim deb hisoblash mumkin.

Rivojlanuvchi ta'lim deb, ya'ni umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta'limni hisoblash mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga

tayangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish faoliyatini olib boradi.

O'qitish jarayoniga muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. O'quv dasturi bo'yicha mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
2. Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash zarur.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega. Muammoli ta'limning bosh maqsadi - o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to'liq tashunib/yeti^g| erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Turli o'quv fanlari bo'yicha o'qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishlari kerak. **Muammoli vaziyat yaratish usullari:** o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bay on qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

#### **Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:**

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;
- o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

#### **Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:**

- muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- o'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 70-80-yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida

o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. O'zbekistonda muammoli ta'limni qo'llash bo'yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatleri hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan. Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq vato'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o'qituvchining o'quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda lining fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo'liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi. Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin;

1. Savol-javoblar orqali o'quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash.
2. O'rganilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, o'quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo'lgan misollar tanlash orqaliamalga oshiriladi.
3. O'quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag'batlantirish usullaridan foydalaniladi.

1. O'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek, o'quvchidek tutib, savollar berib boradi.
4. O'quvchining to'g'ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish.
2. O'quvchining xato fikrlarini aniqlab borish.
5. O'quvchining xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o'quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o'quvchini o'z xatolarini o'zi tuzatishiga yo'naliiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo'lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat. **Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish** Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. -o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash;
2. -ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;
1. -o' quvchilarning tayyorgarlik daraj asini hisobga olish;
2. -zarur o'quv vositalarini tayyorlash;
3. -muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish;
4. -topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
3. -o'quvchilarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish;
4. -o'quvchilarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin: Muammoli vaziyat hosil qilish.

1. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.

3. Yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim: Muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi. Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab - o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi. Muammo o'quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart. Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliги, mustaqilligi, ijodiyliги, ilmiyligi, asosiligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyliги, umumlashtirilganliги, xususiylashtirilganliги, kengliги, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq. itellektual taraqqiyot darajasi o'qituvchilarda hamda o'quvchilarda qancha yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo'ladi. Shunga ko'ra o'quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxminni to'g'ri belgilash va yechimning to'g'riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi. Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin: Isbotlash - bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.

1. Tekshirish - buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.

2. Tushuntirish - bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Og'uvchilarning ijodiy tafakkur va ijodiy gobiliyatlarini ostirishda muammoliy talimdan unumliiy foydalanish uchun uning ayrim nazariy asoslari sifatida B.Blumning yuqoridagi 1.2.- mavzu ilovasida keltirilgan bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlar taksonomiyasi (tafakkurning bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajasi)ga hamda G.Gardnerning intellekt kopligi nazariyasiga asoslanish maqsadga muvofiq.

---

Intellekt kopligi nazariyasining qisqacha bayoni quyidagicha: Bu nazariyani amerikalik psixolog Govard Gardner (1943 yil 11 iyulda tug'ilgan) ishlab chiqqan. Bu nazariya har bir odam turli darajada ifodalangan kamida sakkizta tipdagi intellektga ega ekanligini ochib berdi. Ular quyidagilar:

Verbal-lingvistik intellekt-so'z xotirasi, so'z boyligi yaxshi, o'qishni yaxshi ko'radi,so'z bilan ijod qilishni yoqtiradi. Bular shoir, yozuvchi, notiqalar.

1. Mantiqiy-matematik intellekt-hisoblash va sonlar bilan ishlashni, mantiqiy masalalar,boshqotirmalarni echishni, shaxmat o'ynashni yaxshi ko'radi, tengqurlariga nisbatanko proq abstrakt darajada fikrlaydi, sabab-oqibat bog liqliklarini tushunadi. Bularmatematik, fizik va boshqalar.

2. Vizual-fazoviy intellekt-ko'rish obrazlari bilan fikrlaydi, karta, sxema, diagrammalarnitekstga nisbatan oson o'qiydi, xayolga berilish, rasm chizish, modellarkonstrukstiyalashni yaxshi ko'radi. Bular rassom, haykaltarosh, me'mor, ixtirochi,shaxmatchilar.

3. Motor-harakatli intellekt-yuqori sport natijasiga erishadi, boshqalarning harakatlari,mimikasi, odatlarini yaxshi takrorlaydi, hamma narsaga qo'l tekkizish, buyumlarniqismlarga ajratish va yig'ish, yugurish, sakrash, kurash tushishni yaxshi ko'radi.Hunarlarga qobiliyatli. Bular raqqos, mini, artist, sportchilar.

4. Musiqiy-ritmik intellekt-qo'shiqlar, kuylarni eslab qoladi, ovozi yaxshi, musiqaasbobini chaladi, xorda ashula aytadi, harakatlari va so'zlashi ritmli, ozichasezmasdan kuylaydi, biror ish qilayotib, stolni ritmik chertadi. Bular bastakor,musiqachi, qo'shiqchi, raqqoslar.

5. Shaxslararo intellekt-tengqurlari bilan muloqotni, boshqa bolalar bilan o'ynash va ulargao'rgatishni yaxshi ko'radi, turli holatlarda yetakchi bo` lib qoladi, hamdardlikni, boshqalargag amxo'rlik ko'rsatishni biladi, boshqa bolalar unga sherik bo'lishga intiladilar. Bular diniyxodim, siyosatchi, diplomatlar.

6. Ichki shaxsiy intellekt-mustaqillik hissi, iroda kuchini namoyish qiladi, o'zining yaxshi vayomon xislatlarini real anglaydi, vazifalarni hech kim xalaqit bermaganda yaxshi bajaradi,o'zini boshqara oladi, yakka ishlashni ma'qul ko'radi, oz hissiyotlarini aniq tasvirilaydi, o`zxatolaridan ibrat oladi, o z qadrini bilish hissi rivojlangan. Bular psixolog, o'qituvchi,tarbiyachilar.

7. Tabiatshunos intellekti-tabiatga, tabiat hodisalariga, jonivorlar, o'simliklarga qiziqadi,tabiat olamini tushunish, atrof-muhitning belgilari va xususiyatlarini farqlash,tasniflash va shu kabilarga qobiliyatini namoyon qiladi. Bular tabiatshunos, ekolog,qishloq xo'jalik xodimlari.

Ayrim bolalar o'zlaridagi eng ustun intellekt tipi orqali boshqalarga nisbatan osonroq o'qishlari mumkin. Har bir boladagi o'z vaqtida aniqlangan va rivojlantirilgan talant unga hayotda yuksak cho'qqilarga erishish uchun yo'l ochib beradi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoni bolalarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan holda tashkil etilishi lozim.

Bugun ta'lim-tarbiya jarayonini davr talablariga mos ravishda amalga oshirishning eng zarur omili bo'lgan zamonaviy darsning har biri o'quvchi-yoshlar uchun o'ziga xos quvonch doirasiga, har bir ta'lim dargohi esa shodlik maskaniga aylanishi lozim. Xususan, darsga ishonch bilan kelib, o'z o'qituvchisini alohida hurmat va e'zoz bilan kutib olish tuyg`usini shakllantirish bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy mezonlaridandir. Uqituvchi dars paytida o'quvchilarga to'g'ri yo'l-yo'riq berib tursa, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan bolalar faol ishtirokchiga aylanganini o'zlari bilmay qoladilar.

Tafakkur — bu inson ijodiy faolligining yuksak shakli. Shuning uchun o'quvchilarda ijodiy faollik zaminida yotuvchi mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish umumta'lim maktablari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Zero, mustaqil ijodiy fikr yurituvchi yoshlarga mamlakatimiz kelajagining porloq bo'lishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'sha oladilar.

Ma'lumki, o'quvchi faoliyati butun ta'lim-tarbiya jarayonining asosi hisoblanib, o'qituvchi turli-tuman usullardan foydalangan holda o'quvchi faoliyatini aniq maqsadlar tomon yo'naltirib turadi. Prezidentimiz I.A.Karimov «Ta'lim-tarbiya—ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib,

ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad — ozod yurt, bo'lmaydi» Umumta'lim maktablarining asosiy maqsadi yoshlarni fan asoslari bilan qurollantirish, ularni bilim olishga, mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganlaridek, «Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash esa katta boylikdir. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz».

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovastion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormokda. Innovastion texnologiyalar, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi — ular faqat pedagog, o'quvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- *o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga yo'llash;*

- *o'quvchi-talabalarning o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;*

- *o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;*

- *pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi.*

Pedagogik texnologiyaning maqsadi — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etib natijaga erishish, o'quv jarayonida o'quvchining mustaqil fikrlay olishi, ijodiy ishlay olishi, izlanishi, tahlil eta olishi va xulosa chiqara olishi, shuningdek, o'ziga, guruhga, guruh esa unga baho bera olishi kerak. O'qituvchining esa bunday faoliyat uchun imkoniyat va sharoit yarata bilishi o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir darsning mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. Pedagogik texnologiya yakka tartibdagi jarayon bo'lib, o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Fikrimizni quyidagicha ifodalash mumkin. **Interfaol degani bu** — o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish, o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning fikr-mulohaza, bahs orqali amalga oshirilishidir. O'quvchi qo'yilgan maqsadga mustaqil, o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so'zga chiqadi. Dalil va asoslar orqali fikrini yoritib berishga harakat qiladi. Har qanday matematik tushuncha yoki nazariy mavzu o'quvchilarga ma'lum bir metodlar asosida tushuntiriladi. Ana shunday metodlar ikki yo'nalishda bo'lib, ulardan biri o'qituvchining tushuntirish metodlari, ikkinchisi esa o'quvchilarning qabul qilish metodlaridir. O'qituvchining tushuntirish metodlari **ma'ruza, suhbat va mustaqil ishlardan** iborat. O'qituvchi bir soatlik darsi jarayonida ana shu uchta metoddan foydalanib dars jarayonini olib boradi. O'qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzuni o'quvchilar **reproduktiv, evristik va izlanish** metodlari yordamida qabul qiladilar. Agar o'qituvchi dars jarayonida mavzuni ma'ruza metodi bilan tushuntirsa, o'quvchilar reproduktiv metod bilan qabul qiladilar. Bunda mavzu materialining mazmuni mantiqiy tahlil qilinmaydi, ma'ruza metodi bilan dars o'tishda o'qituvchining o'zi juda faol bo'lib, talabalar esa faol bo'lmaydi. Agar o'qituvchi mavzuni suhbat metodi bilan tushuntirsa, o'quvchilar evristik metod bilan qabul qiladilar. Bunda talabalarning tushuntirilayotgan mavzu materialiga nisbatan faolligi oshadi, chunki o'qituvchi mavzu mazmunini mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan savollar asosida o'quvchilar bilan birgalikda ochib beradi, bunda bevosita o'quvchilar ham savollarga javob berish orqali dars



jarayonida faol ishtirok etadilar. Umuman olganda suhbat metodi bilan dars o'tishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi tomonidan sinf o'quvchilari uchun o'tiladigan mavzu materialining mazmuni muammo qilib qo'yiladi, so'ngra maqsadga tomon yo'naltiruvchi savollarni o'quvchilarga berish orqali qo'yilgan muammo hal qilinadi. Agar o'qituvchi mavzuga doir misol yoki masala echmoqchi bo'lib dars jarayonini rivojlantirgan bo'lsa, u mustaqil ishlash metodi bilan dars o'tadi, bunda o'quvchilar qo'yilgan masala yoki misolni echish uchun fikrlaydilar, izlanish metodi bilan mavzuni o'zlashtiradilar. Bunday dars jarayonida o'quvchilar juda faol bo'ladi, chunki ular echish uchun doskaga o'qituvchi tomonidan yozib qo'yilgan misol yoki masala yuzasidan mustaqil holda fikrlaydilar, o'ylaydilar va mantiqiy xulosa qiladilar, bu bilan ularda mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

O'qituvchining tushuntirish va o'quvchining qabul qilib olish metodlari asosida ular ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo'ladi. **Bilish inson tafakkuri. Doimo o'zingizni rivojlanish va o'sishga, o'qishga undang, zeroki, kimki o'zi o'qimasa, boshqalarda o'qishga ishtiyoq tug'dira olmaydi.**

1. **Talabalarga bilimni shunday beringki, toki, ular o'zlashtirishni xohlasin va o'zlashtirsin.**

2. **O'qitishning maqsadi faqat talabaga ma'lum bilimlarni berishdan iborat bo'lmay, ularda mustaqil va o'qituvchi yordamisiz yuqori cho'qqilarni egallash malakalarini yaratishdan iborat.**

Hamkorlik pedagogikasida shunday ulug'vor usullar mavjud bo'lib, unda har bir o'quvchi o'zini shaxs deb his qiladi, o'qituvchining unga e'tiborini sezadi, ayni chog'da o'qituvchining e'tiborini tortishga qiziqadi.

1. *O'quvchi har bir darsda o'z mehnatining munosib bahosini olishga harakat qiladi.*
2. *O'ziga mos masalalarni tanlaydi.*
3. *Har bir o'quvchining ijodi hurmat va bahoga sazovor bo'lishi lozim.*
4. *Aslida har bir o'quvchi hurmatga loyiq bo'lib, uning qobiliyatsizligiga shubha bilan qarash haqorat ekanligini to'g'ri tushunishi.*

Hamkorlik uchun ikki shart kerak:

- o'quvchilarning hatto eng kichik qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning hissiyot va sezgilarini oshirish.

Bilish xursandchiligi o'quvchini faollashtiradi, bu olingan bilimlarni yanada chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi.

Bolaning darsdagi faolligi, ruhiy holati va kayfiyati oldin ko'p hollarda qanday bo'lgan va alohida hollarda qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda, degan nigoh bilan masofa munosabatini tobora yaqinlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonlarining ikkala sub'ektiga - ham o'qituvchi, ham o'quvchiga daxldor.

*Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsiplari deb aytiladi.*

Ta'lim qonuniyatlari va mezonlari.

Ta'limning ilmiy bo'lish qoidalari.

Ta'limning mazmuni va izchilligi.

Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi.

Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'lig'ushgi.

Ta'limda ongllilik, faollik va mustaqillik mezonlari.

Ta'limda ko'rgazmalilik.  
Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi.  
Ta'limda bilim, ko'nikma va malaka muvofiqligi.  
Ta'limda o'quvchiga xos xususiyatlarini hisobga olish.

### **15-Mavzu: Mavzu: Jismoniy madaniyat o'qituvchisining pedagogik faoliyatidagi professionalizm va maxorat tushunchasi.**

Reja:

1. Jismoniy madaniyat o'qituvchisining professionalizmi
2. Jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy maxorati
3. Jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy muxim sifatleri
4. Jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy maxoratini oshirish usullari

Jismoniy madaniyat o'qituvchisi ishining omadliliqi professionalizm darajasiga bog'liq. A.K.Markova fikriga ko'ra, professional — bu kasbiy faoliyatning yuqori darajalariga ega, mexnatni amalga oshirish mobaynida o'zini ongli ravishda o'zgartiruvchi va rivojlantiruvchi, kasbiga o'zining individual ijodiy ulushini qo'shuvchi, o'zining individual burchini topgan (professional — bu o'z joyidagi mutaxasis), jamiyatda o'zining kasbiy faoliyati natijalariga qiziqishni stimullovchi va jamiyatda o'z kasbining nufuzini oshiruvchi mutaxasis [14, s.134].

Yu.D.Jeleznyak shunday yozadi, xoxlagan soxada professionalizm insonni qanday sabablar undashidan, uning xayotida aniq kasbiy faoliyat qanday ma'hoga egaligidan, qanday maqsadlarni ko'zlaganligidan va boshqalar, shuningdek inson oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun qaysi texnologiyalarni, vositalarni qo'llashidan kelib chiqadi. Shuni takidlash joizki, OTMda ta'lim olish bitiruvchining kasbiy tayyorgarligini ma'lum darajasini taminlaydi, va bu daraja qanchalik baland bo'lsa, professionalizm shakllanishi omadliroq bo'lishiga shuncha asos ko'proq bo'ladi, chunki inson faqat kasbiy faoliyat jarayonidagina professionalga aylanadi [3, s.10].

Professionalizm insonni shaxs sifatida, sub'ekt sifatida va professional sifatida integral xarakteristika xisoblanadi.

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining professionalizmi muammosini N.V.Kuz'mina, Ye.P.Ilyin kabi olimlar va boshqalar o'rganishgan.

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining professionalizmi quyidagi komponentlarga asoslanadi:

1. Pedagogik yo'nalganlik - bu pedagogik faoliyat bilan qat'iy shug'ullanish istagi [22, s.10]. Mazkur komponent ikkita motivatsion shakllanish bazasida yotadi – “bolalarga bo'lgan muxabbat” va jismoniy madaniyatga bo'lgan qiziqish.

L.N.Tolstoy bolalarga bo'lgan muxabbatni o'qituvchi shaxsining asosiy xislati sifatida ko'rgan. V.A.Suxomlinskiy unga katta axamiyat bergan, shuni ta'kidlaganki, bolalarni sevishni xech bir o'quv maskanida, xech qaysi kitobdan o'rgatib bo'lmaydi.

Bolalarga bo'lgan muxabbat bolalar bilan ishlashga bo'lgan qiziqishiga, pedagogning ularni bilimli, xam jismonan va xam ruxan rivojlangan qilish istagiga aylanadi.

O'qituvchining pedagogik yo'nalganligini shakllantiruvchi ikkinchi asosiy omil uning jismoniy madaniyatga bo'lgan qiziqishi xisoblanadi.

2. Bilim va maxorat. Jismoniy madaniyat o'qituvchisi uchun maxsus (jismoniy madaniyat o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatida amalga oshirishi uchun muxim bo'lgan) bilim bo'lgani kabi, umumiy (ijtimoiy-siyosiy, adabiyot, san'at bo'yicha va xk.) bilim xam bo'lishi kerak.

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining maxoratlari konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ (didaktik va tashkilotchilikni o'z ichiga oladi), gnostik (pertseptivni o'z ichiga oladi), xarakatlilarga (yordachilarni o'z ichiga oladi) bo'linadi.

Konstruktiv maxorat jismoniy madaniyat o'qituvchisiga o'z faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi.

Tashkiliy maxorat bevosita o'zining belgilab qo'ygan rejalarini amalga oshirish bilan bog'liq. O'qituvchi o'z faoliyatini va o'quvchilar faoliyatini tashkil qila olishi kerak.

Kommunikativ maxorat o'qituvchining o'quvchilari bilan, ishdagi kasbdoshlari bilan, otanalar bilan muloqot qila olishi bilan bog'liq.

Didaktik maxorat – jismoniy madaniyat o'qituvchisining yangi o'quv materialini o'quvchilarga aniq va tushunarli yetkaza olish, jismoniy mashqlarni ko'satib berish maxorati.

Gnostik maxorat o'quv-metodik va ilmiy adabiyotdan foylana olish maxoratini, kichik tadqiqotlar o'tkazish, o'quvchilarining jismoniy rivojlanish metodikasiga o'zgartirish kiritish uchun ularning natijalarini talil qilish maxoratini o'z ichiga oladi.

Xarakat maxorati eng avvalo o'qituvchi tomonidan jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini aks ettiradi.

3. Pedagogik burch va javobgarlik. Pedagogik burch xissiga tayanib, o'qituvchi xamisha bolalarga va kattalarga, kimki unga muxtoj bo'lsa barchaga yordam ko'rsatishga shoshiladi, o'zining xuquq va imkoniyatlari chegarasida; pedagogik odob-axloqning o'ziga xos kodeksiga so'zsiz rioya qilib u o'ziga talabchan [17, s.36].

4. Kasbiy muxim sifatlar - bu kasbiy faoliyatni omadli bajarishga imkon beruvchi turg'un shaxsiy sifatlar tizimi.

#### 1.2. **Jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy maxorati**

V.A.Yakunin fikriga ko'ra, “o'qituvchining pedagogik maxorati – bu mutaxassisga kasiy vazifalarni omadli xal qilish imkonini beruvchi kasbiy bilimlarga egaligi” [23, s.293].

A.S.Makarenko fikriga ko'ra, pedagogik maxorat - bu pedagogik jarayon xususiyatlarining mazmuni, uni qurish va xarakatga keltirish qobiliyati. Aksariyat xallorda pedagogik maxoratni pedagogik texnikasi qobiliyatlari va malakalariga tenglashtirishadi, ayni vaqtda u - faqatgina maxoratning namoyon bo'layotgan tashqi komponentlaridan biri [18, s.96].

Usta-o'qituvchi tajribali o'qituvchidan bolalar psixologiyasini bilishi va pedagogik jarayonni tuza olish qobiliyati bilan farq qiladi.

Bexudaga emas, V.A.Suxomlinskiy yozadi: «Shuni unutmangki, sizning pedagogik maxoratingiz qad rostlovchi zamin, - bolaning o'zidagi, uning bilimga va siz, o'qituvchiga bo'lgan munosabatida. Bu – o'qish, ilxomlanish, qiyinchiliklarni yengib o'tishga tayyorgarlik istagi. Ushbu zaminni e'tiborli boyiting, u bo'lmasa maktab yo'q».

Pedagogik fanda pedagogik maxoratni tashkil qiluvchilarni tushunishga bo'lgan bir qancha yondashuvlar yuzaga keldi. Ba'zi olimlar xisoblashadiki, intuitsiya va bilimning, avtoritet boqaruvning, pedagogik qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatining, bolalar ruxiyati xolatini tushunish iste'dotining, oqillik va ijodiy jasoratning, ilmiy taxlilga, fantaziyaga va tasavvurga bo'lgan qobiliyatning borligi usta-o'qituvchi uchun xos. Pedagogik maxoratga pedagogik bilim, intuitsiya qatori tarbiyachiga kamroq energiya sarflab katta natijalarga erishish imkonini beruvchi pedagogik texnika soxasidagi qobiliyatlar xam kiradi.

Pedagogik maxorat maxsus bilim, qobiliyat, ko'nikma va odatlardan tashkil topadi, ularda u yoki bu faoliyat turini mukammal qo'llashning asosiy usullari amalga oshiriladi. Pedagog xamisha tashkilotchi, murabbiy va pedagogik ta'sirning ustasi xisoblanadi. Shulardan kelib chiqib, pedagog maxoratida to'rtta nisbiy elementlarni ajratish mumkin:

- bolalarning jamoaviy va individual faoliyatini tashkil qilish maxorati;
- ishontira olish maxorati,
- bilim bera olish va faoliyatning tajribasini shakllantirish maxorati,
- pedagogik texnikani egallash maxorati. Real pedagogik faoliyatda maxoratning ushbu turlari uzviy bog'langan va bir birini kuchaytiradi.

O'qituvchi maxoratining strukturasi o'ziga xos o'rinni pedagogik texnika egallaydi. Bu ba'zi o'quvchilarga va butun guruxga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari tizimini samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan qobiliyat va malakalarning yig'indisi: tarbiyalanuvchilarga murojatda uslub va oxangni to'g'ri tpanlash qobiliyati, diqqatni boshqarish qobiliyati, temp xissi, o'quvchilar qilmishlariga o'zining munosabatini bildirish va namoyish qilish malakalari va boshqalar.[17s,335]

Pedagogik texnika asoslariga egalik — texnologiya bilan qurollanishning zaruriy sharti. A.S.Makarenko yozadi: «Men, 15-20 tacha oxangda «bu yerga kel» deb ayta olishni, yuz ifodasida, xarakatimda, ovozimda 20 ta ma'nolarni berishni o'rganganimgagina o'z ishimning ustasiga

aylandim. Faqat o'shandagina men kimdir yonimga kelib, kerakli narsani tushunmay qolishidan qo'rqmadim».

O'qituvchining pedagogik biografiyasi individual. Xar biri xam va juda tez usta bo'lolmaydi. Ba'zilarining bu uchun ko'p yillari ketadi. Afsuski shunday xolatlar xam sodir bo'ladiki, ba'zi pedagoglar o'rta darajada qolib ketadi.

Usta, o'zgartiruvchi, ijodkor bo'lish uchun o'qituvchi pedagogik jarayonning qonuniyat va mexanizmlarini egallashi lozim. Bu unga pedagoglarcha o'ylash va xarakat qilish imkonini beradi, ya'ni pedagogik xodisalarni mutaqil taxlil qilish, uni tarkibiy elementlarga bo'lish, xar bir qismning butunlari bilan aloqasini anglash, g'oyani o'qitish va tarbiya qilish nazariyasini, ko'riluvchi xodisa mantiqiga mos xulosalar, printsiplarni topish; xodisalarni to'g'ri namoish qilish —psixologik-pedagogik tushunchalarning qaysi toifasiga u mansubligini aniqlash; asosiy pedagogik vazifani (muammoni) va uni optimal xal qilish usullarini topish.

Kasbiy maxorat o'z faoliyatida ilmiy nazariyaga tayanuvchi o'qituvchiga keladi. Albatta, bunda u bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Birinchidan, ilmiy nazariya — bu umumiy qonunlarning, printsiplar va qoidalarning tartibga solingan yig'indisi, amaliyot esa xamisha aniq va situativ. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat — bu bilimlar (falsafa, pedagogika, psixologiya, metodika bo'yicha va xk.) sinteziga tayanuvchi butun jarayon, aksincha o'qituvchi bilimi odatda "taxlab qo'yilgan", ya'ni pedagogik jarayonni boshqarish uchun muxim bo'lgan umumiy bilimlar darajasiga yetirtirilmagan. Bu shunga olib keladiki, o'qituvchilar odatda pedagogik qobiliyatlarga nazariya ta'siriga qaramasdan, uning ostida emas, tirikchilik, pedagogik faoliyat xaqida tasavvurlar birlashmasi asosida ega bo'lishadi.

A.S.Makarenko xisoblaydiki, pedagogik maxoratga ega bo'lish, o'z ustida maqsadga yo'naltirilgan ishlash sharoitidagina xar bir pedagog uchun imkonli. U amaliy tajriba asosida shakllanadi. Ammo xoxlagan tajriba xam kasbiy maxorat manbai bo'lolmaydi. Bunda manbaa faqat chuqur o'ylangan va taxlil qilingan pedagogik faoliyat xisoblanadi. Pedagogik maxorat - bu shaxsiy va kasbiy sifatlar aralashmasi [18, s.98].

### **1.3. Jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy muxim sifatlari**

O'qituvchi shaxsining kasbiy muxim sifatlari – bu zamonaviy ta'lim maqsadlarini samarali amalga oshirish imkonini beruvchi shaxsning ijtimoiy zarur sifat va qobiliyatlari majmui.[3, s.9]

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy maxorati undagi ma'lum bir shaxs sifatlarining va pedagogik faoliyatga qobiliyatning borligiga bog'liq. Quyidagi sifat guruxlari ajratiladi.

O'qituvchining dunyoqarash sifatlari o'zining bor pedagogik faoliyatini o'z xalqiga, davlatiga xizmat qilishga undaganidek, o'quvchilarda faol xayotiy pozitsiya tarbiyalash uchun mustaxkam asos beradi.[18, s.14]

Dunyoqarash jismoniy madaniyat o'qituvchisining butun faoliyatini motivatsiyalaydi. Mazkur sifatlar pedagogni o'z xalqiga, o'z Vataniga xizmat qilishga undaydi. O'qituvchi umumiy dunyoqarashining aks etishi xar bir o'quvchiga, uning kelajagiga javobgarlik xissi xisoblanadi. O'quvchilarda Vatanga sadoqatni tarbiyalab, jismoniy madaniyat o'qituvchisi ularda dunyo arenasidagi mamlakatimiz sportchilarining yutuqlari bilan faxrlanish xissini xam rivojlantirishi kerak.

Axloqiy sifatlar xatti-xarakatda, xulq-atvorda aks etadi. Odoblilik, yoki axloq, — bu jamiyatda qabul qilingan va inson xatti-xarakatlarini tartibga solish vazifasini bajaruvchi norma, yozilmagan qoidalar. O'qituvchi axloqiy sifatlarning butun bir majmuiga ega bo'lishi kerak: gumanizm, muloyimlik, xalollik, talabchanlik, optimizm va xk., chunki o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash nafaqat ularga so'z shaklida ta'sir qilishga asoslanishi, balki avvalo o'zi na'muna bo'lmog'i kerak.

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining pedagogik optimizmi o'z ichiga shunday sifatlarni oladi: mexribonlik, o'qituvchining ziyrakligi, uning dilkashligi va raxmdilligi, quvnoqlik, xazil-mutoyiba xissi, o'quvchilarga, ularni oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishlariga ishonish, xatto agar ushbu o'quvchilar sust o'zlatirayotgan va tarbiyasida buzulishlari bo'lsa xam.

Biroq pedagogik optimizmni o'qituvchida omadsizliklar paytida ranjish xissi yo'q deb tushunmaslik lozim. Ranjish, ishdan vaqtinchalik qoniqmaslik tabiiy xisoblanadi va o'qituvchini ishga nisbatan samimiy munosabatidan dalolat beradi, noformal munosabatdan emas.

Shuningdek rostgo'ylik xam muxim sifat xisoblanadi. Agar o'quvchi fals'ha, o'qituvchining g'irromligini sezsa, unda o'quvchi mantiqan qaror qiladiki, uni aldashmoqdi, uning o'qituvchi so'zlariga va xarakatlariga bo'lgan ishonchi yo'qoladi. Muloqot jarayoni formal tus oladi yoki umuman to'xtaydi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonchsizlik to'sig'i paydo bo'ladi.

O'qituvchining gumanizm kabi axloqiy sifati uning odamlarga va umuman o'quvchilarning xar biriga bo'lgan munosabatani ifodalaydi. Bu insonni yer yuzidagi oliy qadriyat deb xisoblashdir.

O'qituvchining insonparvar munosabati uning o'quvchi shaxsiga qiziqishida, qiyin vaziyatlarda yordam berishida, unga xayrixoxlikni namoyon etishda, o'quvchining qadrini tan olishda, o'quvchini rivojlanishiga va uni shaxs sifatida shakllanishiga talabchanlikda aks etadi.

O'qituvchi boshqa axloqiy sifatlarga xam ega bo'lishi kerak; printsiptiallik (xatti-xarakatda dangallikka va qaysarlikka aylanmaydigan), o'z o'ziga tanqidiy munosabat, mexnatsevarlik, adolatlilik.

«Adolatlilik, deb yozadi V.A.Suxomlinskiy, - bu bolani tarbiyachiga ishonish asosi, lekin odil bo'lish uchun xar bir bolaning ruxiy dunyosini nozikliklarigacha bilish kerak».

Irodaviy sifatlarda xam jismoniy madaniyat o'qituvchisi faoliyatida muxim rol o'ynaydi. Ularga kiradi vazminlik (o'zini yo'qotmaslik), qat'iyatliq, chidamlilik, talabchanlik, dadillik, jasurlik.

Ye.P.Ильин takidlaganki, o'qituvchining bosiqliqi va vazminligi uning o'z ishiga nisbatan beparvolikka, loqaydlikka o'zgarasligi kerak. O'qituvchi xursand bo'lishga, jaxli chiqishiga, qayg'urishga, xafa bo'lishga xaqqi bor va majburdir. Lekin xatto g'azablenganda xam, u o'zini yo'qotmasligi, o'zini boshqarishi, qo'pol va kamsituvchi oxangga o'tmasligi kerak [7, s.143].

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining irodaviy sifatlardan biri uning talabchanligi bo'lishi lozim. O'quvchilar (ayniqsa o'g'il bolalar) o'zi istaganiga qo'pol majburlashlarsiz va taxdidlarsiz, shuningdek pedantizmsiz erishuvchi o'qituvchilarni juda xurmat qilishadi. Aytib o'tilgan talablardan chetlashuvchi xar birini o'quvchilar o'qituvchining irodasi sustligi sifatida ko'rishadi.

Shuningdek jismoniy madaniyat o'qituvchisi uchun uddaburonlik kabi irodaviy sifatga ega bo'lish katta axamiyat kasb etadi. Jismoniy madaniyat darsida tez qaror qabul qilishni taqazo etuvchi vaziyatlar tez-tez sodir bo'ladi. Uddaburon o'qituvchi xamisha undan munosib chiqib ketish yo'lini topa oladi.

Intellektual sifatlarda o'qituvchining didaktik qobiliyatlarini mustaxkamlaydi, unga tarbiya ishida to'g'ri qarorni topishga yordam beradi, o'qituvchi ijodining samaradorligini, o'quvchilarni tarbiyalashda va o'qitishda yangi, o'rganilmagan yo'llarni qidirishni asoslaydi.

Mazkur sifatlarga ongning aniqligi va mantiqiyliqi, uning tanqidiyligi, tasavvur, ijodkorlik, zukkolik kiradi.

Intellektual sifatlarda idrok qilish va xotira xususiyatlarini ta'riflovchi pertseptiv va attentions sifatlarga asoslanadi.

Diqqatni taqsimlanganlik kabi sifat muxim rol o'ynaydi, chunki jismoniy madaniyat o'qituvchisi bir paytning o'zida ko'p ob'ektlarni va o'z faoliyatidagi vaziyatlarini xam kuzatib borishi, o'z vaqtida kutilmagan vaziyatga munosabat bildirishi va doimo butun bir sinfni diqqat markazida tutib turishi kerak.

Bunda u o'quvchilar xolatiga va kayfiyatiga ziyraklik bilan munosabat bildirishi, o'quvchilar u tushuntirib turganlarini tushinishmoqdami yoki yo'qligini xis qilishi, tartib-intizomning barcha buzilishlarini sezishi, o'quvchilarning mashqlarni bajarishdagi xatolarini aniqlashi lozim. Tajribasiz o'qituvchilar, materialni bayon qilish, uni ko'rsatish bilan band bo'lib, o'quvchilar nazoratini nazardan qochirishadi, agarda o'quvchilarni o'z diqqatida tutib turishni xoxlashsa, unda bayon qilayotganini yo'qotib qo'yishadi, mashqni ko'rsatishda xatolar va to'xtalishlar qilishadi.

Ko'p xollarda namoishni to'xtatmaslik uchun o'qituvchi mashqni tushuntirishda, bajarishda o'quvchiga o'z ta'sirini ortga surishi lozim. Bu o'qituvchidan yaxshi qisqa muddatli xotirani talab qiladi, tartibni buzganga nima aytishi kerakligini unutmaslik uchun.

Psixomotor sifatlar jismoniy madaniyat o'qituvchisi uchun g'oyat muxim. O'qituvchi ko'rsatadigan ko'p mashqlar katta jismoniy tayyorgarlik talab etadi. Yosh o'tishi bilan jismoniy sifatlar regressiyaga uchrash xususiyatiga ega, shuning uchun jismoniy madaniyat o'qituvchisining doimiy tashvishi ularni kerakli darajada tutib turish xisoblanadi.

Psixomotor sifatlar pertseptiv va attentsion sifatlar bilan uzviy bog'langan: xis etishning tezligi, ob'ektlarga yoki signallarga e'tibor berishdagi diqqat kontsentratsiyasining darajasi va xk. Shuning uchun jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy muxim sifatlarni guruxlarga bo'lish dogma (aqida) sifatida qabul qilmaslik kerak. Ba'zi sifatlarning boshqalariga o'tishi, ularning bir birini to'ldirishi, o'zaro bog'liqligi ko'p kuzatilgan.

Didaktik sifatlar, Ye.N.Gogunov va B.I.Mart'yanov takidlashganidek, bu o'quv materialini oson qilib uzatish qobiliyatidir [4, s.152.]. Yangi o'quv materialini tushuntirishda o'qituvchi o'quvchilarning mazkur guruxiga tushunarli bo'lgan atamalarini ishlatishi, ularni o'quv faniga qiziqtirishi, o'quv faoliyatida faollikni va mustaqil fikrlashni uyg'otishi kerak. O'qituvchining mazkur qobiliyatlari uning o'quv materialini qayta tuzish, moslashtirish, qiyinni oson, murakkabni — sodda, tushunarsizni — tushunarli qilish maxoratidan iborat.

Akademik sifatlar - bu qobiliyatlar fanning ma'lum bir soxasiga taaluqli. Qobiliyatli jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z fanini nafaqat o'quv kursi xajmida, balki ancha chuqurroq va kengroq biladi. U o'z fani bo'yicha ilm-fan soxalaridagi so'nggi kashfiyotlarni o'rganishga xarakat qiladi, o'zi tadqiqot ishlarini yuritadi.

Nutqiy sifatlar - bu nutq, shuningdek mimika va pantomimika yordamida o'zining o'y-fikrlarini va xis-tuyg'ularini aniq va ravon tasvirlay olish qobiliyatlari. Bundan tashqari, o'qituvchi o'z kuchiga, o'zi aytib turganlariga ishonchi komilligini va qiziqishini namoyon qilishi lozim.

Tashkilotchilik sifatlari - bu o'quvchilarni boshqarish, ular faoliyatini tashkillashtirish, ular kollektivini shakllantirish, maktab o'quvchilarini o'quv vazifalarini xal qilishga ruxlantirish qobiliyati. Bundan tashqari, o'zining shaxsiy faoliyatini tashkillashtirish qobiliyati xam muxim.

Pedagogning nufuzi — bu o'qituvchining o'quvchilar xurmatini qozonish, ularni ishonchiga kirish, obro'-e'tiborga erishish qobiliyati. Ye.P.Ilyin fikriga ko'ra, qaysidir bir xayot va faoliyat soxasidagi obro'li odam, agar fikriga quloq solishsa, unga taqlid qilishga xarakat qilishsa va unga u yoki bu masalada qaror qabul qilishni ishonishsa shu odam obro'li xisoblanadi [7, s.123].

Kommunikativ sifatlar - bu o'quvchilar bilan muloqot qilish qobiliyati, ularga to'g'ri yondashuv topa olish, yaqin aloqa o'rnatish, ular bilan pedagogik faoliyatni amalga oshirishda maqsadga muvofiq o'zaro munosabat o'rnatish maxorati.

Ularga kiradi dilkashlik, muloyimlik, xayrixoxlik va bir qator boshqalari, o'qituvchiga muloqot jarayonida o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishga yordam berishadi va shu bilan o'qituvchining tarbiya ishida omad keltirishadi. Bunday sifatlarga pedagogik takt xam kiradi.

Pedagogik takt kundalik xayotda ruxiy deb ataluvchi ko'p sifatlarga asoslanadi. Odobli o'qituvchi paydo bo'lgan xolatni tez va bexato tushunib oladi, u yoki bu o'quvchi uchun muloqotdagi qiyinchiliklarni tushunadi, uning xolatini aniqlaydi va shuni inobatga olib yagona to'g'ri qarorni qabul qiladi, o'quvchiga mos keluvchi ta'sir shaklini tanlaydi, o'quvchini noqulay vaziyatga qo'yimaslik uchun to'g'ri so'zlarni, intonatsiyani tanlaydi.

Odobli o'qituvchi xech qachon bolaning xarakatlari, xayotga va o'qishga munosabati sabablarini bilish uchun uning ko'nglini «titib tashashni» o'ziga ep ko'rmaydi.

Pedagogik taktga rioya qilish doimo o'z fikr va xarakatlarini nazorat qilishni talab qiladi. O'z xatti-xarakatlarini va so'zlarini nazorat qila olmaslik atrofdagilarni qiyin vaziyatga qo'yishi, nomaqbul oqibatlariga olib kelishi mumkin.

I.V.Straxov o'qituvchi shaxsining quyidagi, pedagogik takti beandishalikdan farqlovchi psixologik xususiyatlarini ajratadi:

- rasmiyliksiz murojatning tabiiyligi va soddaligi;
- loqaydliksiz ishonch;
- tarangliksiz oxangning jiddiyligi;
- masxarasiz xazil va mutoyiba;
- mayda ayblovlarsiz talabchanlik;

- erkalanishsiz xayrixoxlik;
- g'azabsiz ish oxangi;
- qistovsiz o'z vaqtidagi tarbiyaviy ta'sir;
- injiqliksiz printsiptiallik va qat'iyatlik;
- takidlovlarisiz e'tiborlilik va ziyraklik;
- iltimoslarsiz buyruq berish;
- bilimdagis ustunliklarni aytmasdan o'qitish;
- beparvolikni ko'rsatmasdan eshitish.

#### **1.4. Jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy maxoratini oshirish usullari**

O'z ishinis ustasi bo'lish uchun jismoniy madaniyat o'qituvchisi maktabda besh–olti yil ishlashi lozim. Biroq keyin xam uning kasbiy mukammallashtishi sodir bo'ladi. Yoshi o'tib jismoniy madaniyat o'qituvchisida jismoniy tayyorgarlik darajasi biroz o'zgaradi, bu o'z navbatida pedagog faoliyati strukturasi dagi o'zgarishlarga xam olib keladi. O'quvchilarni boshqarish qobiliyati juda katta rol o'ynaydi. O'qituvchi ko'pincha demonstrantlarni, yordamchilarni ishlatadi. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchi maxorati dinamik xarakteristika xisoblanadi va o'qituvchining mukammallashtish jarayoni cheksizdir.

Ильин Ye.P. jismoniy madaniyat o'qituvchisi maxoratini oshirishning ikkita usulini ajratadi. Ulardan biri turli kurslarda malakani oshirishdan iborat, metodik majlislar va xk. Boshqa usul — o'z-o'zini mukammallashtirish, u bir qancha yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Tajribali o'qituvchilar tomonidan o'tiluvchi darslarni kuzatish va taxlil qilish.
2. O'zining kasbiy va umumiy eruditsiyasini (maxsus adabiyotlarni o'qish, shu jumladan «Maktabda jismoniy madaniyat» jurnalini, ushbu adabiyotni maxsus bo'limlari bo'yicha yozib olish, o'zining pedagogik ishi uchun yangi ma'lumotlarni birlashtirish va xulosalarni ta'riflash) oshirish; sport nashrlarini o'qish, sport bellashuvlari xaqidagi teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, bir qator bellashuvlarga barcha muxim sport xodisalaridan xabardor bo'lish maqsadida tashrif buyurish, sport soxasida kengroq eruditsiyaga ega bo'lish (busiz jismoniy madaniyat bo'yicha emotsional dars o'tish va sport seksiyalarida mashg'ulotlar o'tish, o'quvchilarda jismoniy madaniyatga qiziqish shakllantirish qiyin).
3. O'zinnis pedagogik faoliyatini xar kuni taxlil qilish (masalan, kundalik yordamida, unda ba'zi o'quvchilarning va butun bir sinfnis o'ziga xos xususiyatlari yozilishi, o'quvchilarga turli vaziyatlardagi u yoki bu ta'sirlarning samarasi, kelejakkdagi rejalar, darsni tashkil qilish bo'yicha fikrlar belgilanishi mumkin va xk.).
4. Murakkab bo'lmagan tadqiqot ishini o'tkazish, u o'qituvchiga o'zining faoliyati bilan bog'liq, uni qiziqtirib turgan savollarga javob berishi mumkin, (masalan, kuchni rivojlantirish uchun ular tomonidan bajarilayotgan mashqlarning samarasi qanday, butun bir sinfnis va ayrim o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi qanday, aniq u yoki bu sharoitlardagi metodlardan qaysi biri samaraliroq va xk.) [8, s.207].

Jismoniy madaniyat darsini o'tish metodikasiga taaluqli narsa o'zlashtirilganda o'z-o'zini mukammallashtirish o'qituvchi tomonidan manfaat ko'zlab qilinmasligi lozim. Xullas, ayrim o'qituvchilar, masalan, «Maktabda jismoniy madaniyat» jurnalini o'qib, faqat jismoniy mashqlar majmui va yangi nostandart uskunalar bayon etilgan maqolaga axamiyat berishadi. Ma'lumotning bunday tanlovi uni o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning umumiy yondashuvlar pozitsiyasi va printsiplari jixatidan mavjud bilimni qayta anglashga rag'batlantirmaydi, vaxolanki o'qituvchining metodik bilimlarini kengaytiradi. Shuning uchun bunday o'qituvchining nazariy bazasi oldingi darajada qoladi yoxud xatto institutda olingan ma'lumotlarni yil o'tishi bilan unitilishi natijasida yomonlashadi.

Zamonaviy o'qituvchi faqat andozalar yig'indisi egasi bo'lishi mumkin emas. Unga pedagogika, psixologiya, fiziologiya, jismoniy tarbiya nazariyasi soxasidagi nazariy ma'lumotlarni doimo yangilash zarur. Faqat shu bazadagina o'qituvchi pedagogik jarayonni qayta qurishga, o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi samaradorligini oshirishning yangi yo'llarni va vositalarini qidirishga tayyor bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini mukammallashtirish malakalarini jismoniy tarbiya fakultetida ta'lim olayotgan jarayonidanoq boshlash kerak. Bunda nafaqat u yoki bu bilimlarning ortiqcha dasturini olish zaruratini, kasbiy muxim sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirishni, balki o'z-o'zini mukammallashtirishga bo'lgan extiyojni shakllantirish xam anglash muxim, usiz kelajakda o'z kasbiga bo'lgan qiziqishni, dars beruvchiga aylanishni oson yo'qotish mumkin [5, s.207].

O'qituvchining imkoniyatlari turlicha. Ular bilim, qobiliyat, sifat ko'rinishida amalga oshishi, motivlar bilan kuchayishi mumkin. Shu bois kasbiy maxoratga erishish usullari xam turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi bir o'qituvchilarda nazariy bilimlar darajasi yetakchi omil bo'lsa, boshqalarida — tashkilotchilik qobiliyatlari, uchinchilarida esa — konstruktiv qobiliyatlar yoki irodaviy sifatlar bo'ladi. Albatta, faqat bitta qaysidir bir komponentga tayanib bo'lmaydi, xatto agar u juda yaxshi ifodalangan bo'lsada. Imkon darajasida qolganlarini xam tortish zarur.

### **MUSTAQIL ISH MAVZULARI.**

- 1.Talaba mustaqil ta'lim mavzularini tayyorlashda.
- 2.Uch darajali test topshiriqlarini ishlab chiqish.
- 3.Uch darajali testlar asosida o'quv natijasiga erishish darajasini baholash.
- 4.Ta'lim shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.
- 5.Shakl, ta'lim shakllari, ta'limni tashkil etish shakllari tushunchalari.
- 6.Ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.
- 7.Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.
- 8.Faol ta'lim usullari, interfaol usullar tushunchalari.
- 9.Ta'lim usullarining tasnifi.
- 10.Ta'lim usullarining mazmuni.
- 11.Interfaol usullar mazmuni.
- 12.Ta'lim modeliga kiruvchi komponentlar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati.
- 13.Ta'lim modelini ishlab chiqishda ta'limni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini tanlash omillari.
- 14.O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi haqida tushuncha.
- 15.Texnologik xaritaning rejadan farqli tomonlari.
- 16.Ta'lim modeli va o'quv mashg'uloti texnologik xaritasini ishlab chiqish qoidalari.
- 17.Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlari. “Layoqatlilik”, “Layoqat”, “Kasbiy layoqatlilik”, “Tayanch layoqatlar” tushunchalari.
- 18.Loyihaviy o'qitishning asosiy tushunchalari: loyiha, loyihaviy faoliyat, loyihalashtirish, loyihalash usuli, o'quv loyihasi.
- 19.Loyihaviy ta'limning mazmuni.
- 20.O'quv loyihasi tushunchasi.
- 21.O'quv loyihaviy faoliyat tuzilishi.
- 22.O'quv loyihalarining turlari.
- 23.O'quv loyahasining tipologiyasi.
- 24.O'quv loyihalarining qiyosiy tavsifi.
- 25.O'quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari.
- 26.Loyihaviy ta'limning texnologiyasi.
- 27.O'quv loyahasining pasportining tuzilishi.
- 28.Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi.
- 29.Keyslarni ishlab chiqish qoidalari.
- 30.Keys –stadi: ta'limiy amaliy vaziyat: tushuncha va vazifaviy ahamiyati.
- 31.Keysni ishlab chiqishning protsessual tizimi. Keyslar tipologiyasi.
- 32.Keys matnining yozilishi.
- 33.Axborot yig'ish usullari va vositalari. Axborot manbalari.
- 34.Keysda muammoni berish usullari. Keys tuzilmasi. Keysning pedagogik pasporti. Pedagogik annotatsiya.



- 35.Keysning tekshirilishi va baholanishi.Keysning ta`lim amaliyotiga joriy etilishi. Keysni rasmiylashtirish.
- 36.Ma`ruzada ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari.
- 37.Ta`lim texnologiyasi modeli. Ta`lim texnologiyasi modelini ishlab chiqishda ma`ruza turlarini to`g`ri tanlash.
- 38.Ma`ruzada ta`lim texnologiyasini ishlab chiqishda ta`lim shakllari, usullari va vositalaridan eng maqbulini tanlash.
- 39.Ma`ruzada ta`lim texnologiyasini ishlab chiqishda texnologik xaritani ishlab chiqish qoidasi.
- 40.Ma`ruzada ta`lim texnologiyasini ishlab chiqishda monitoring va baholash usullarini tanlash.
- 41.Seminar tushunchasi. Seminarlarning o`ziga xos xususiyati. Seminarlarning ta`lim jarayonidagi o`rni va ahamiyati.
- 42.Seminarlarning turlari. Seminarda ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari.
- 43.Ta`lim texnologiyasi modeli. Ta`lim texnologiyasi modelini ishlab chiqishda seminar turlarini to`g`ri tanlash.
- 44.Seminarda ta`lim texnologiyasini ishlab chiqishda ta`lim shakllari, usullari va vositalaridan eng maqbulini tanlash.
- 45.Seminarda ta`lim texnologiyasini ishlab chiqishda texnologik xaritani ishlab chiqish qoidasi.
- 46.Seminarda ta`lim texnologiyasini ishlab chiqishda monitoring va baholash usullarini tanlash.
- 47.Ta`lim vositasi - ta`lim texnologiyasining tarkibi. Ta`lim vositalari haqida tushuncha.
- 48.Ta`lim vositalarining ta`lim texnologiyasidagi o`rni va ahamiyati. Ta`lim vositalarining tasnifi.
49. Chizmalı organayzerlarning ahamiyati va ta`lim texnologiyasidagi o`rni.
- 50.Ma`lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari.
- 51.O`quv loyihasi bo`yicha guruhlarda ishlash. Guruhlarda ishlash qoidasi.
- 52.Guruhlar tomonidan o`quv loyihasi mavzusini tanlash.
- 53.Guruh ishtirokchilarini loyihaviy faoliyat bo`yicha vazifalari.
- 54.Loyihaviy faoliyat bosqichlari.
- 55.Loyihaviy faoliyat maxsulini taqdimotini tayyorlash.
- 56.O`quv loyihasi bo`yicha faoliyat natijasini taqdimoti. Taqdimot tayyorlash qoidalari.
- 57.Taqdimotchilarni baholash ko`rsatkichlari va mezonlari. Taqdimot va uni o`tkazish shakllari.
- 58.O`quv loyihasi bo`yicha hisobot.
- 59.Loyihaviy faoliyat mahsuli taqdimotini tayyorlash.
- 60.O`quv loyihasi mahsuli taqdimotini qilish va baholash.
- 61.Keyslar tipologiyasi. Keyslarning manbalari.
- 62.Keys ishlab chiqishning protsessual tizimi. Keysni ishlab chiqish modeli.

## Glossariy.

**Aloqa vositasi (kanali)** — axborot almashinuviga oid — yozma, og'zaki, rasmiy, norasmiy, elektron aloqa vositalari uchun yaroqli va h.k. Axborot uzatish vositalari.

**Andragogika** - kattalarni o'qitish san'ati va ilmi.

**Andragogik model** - o'qitish Shunday tashkil etiladiki, o'quvchi (o'rganuvchi) ta'lim sohasini aniqlash, o'qitishning foydaliligini baholash, usullar va o'qish jadvalini tanlash, Shuningdek, o'qitish natijalarini baholash uchun to'liq javob beradi.

**Aqliy hujum (brainstorming)** - guruhda innovatsion (yangi) ijodiy g'oyalarni to'plashning instruktor yoki moderator tomonidan boshqarib (yo'naltirib) boriladigan jarayoni. G'oyalarni ijodiy to'plashning guruhiy usuli. Mazkur usulining yuqori samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil - bildiriladigan fikrlarni har qanday tanqid qilishning taqiqlanishi.

Tizimlanmagan munozara yordamida muammoni guruhda yechishdagi ijodiylik (kreativlik)ni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnika. Ishtirokchilar o'z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladi. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda muammoni yechish variantlari maksimal darajada ortadi.

**Avtokratiklik**- insonning nodemokratik usullar bilan buyruq berish shaklida, formatlash, ko'rsatma va boshqalar bilan odamlarga ko'rsatadigan ta'siri, xoqimlik.

**Amaliy pedagogikada tashhis**- pedagogik jarayonning umumiy holatining baholanishi yoki uning ayrim komponentlari u yoki bu vaziyatdagi faoliyatini xar tomonlama to'liq kuzatish natijasida baholash.

**Akmeologiya**- insonning mutaxassisligi bo'yicha cho'qqilarga, yutuqlarga erishish, ijodiy uzoq umr ko'rish shakllari va qonuniyatlarini tadqiqot qiluvchi fan.

**Agressivlik**- shaxsning xususiyatlari yoki xislati bo'lib, atrof muhit va boshqalarga zarar ko'rsatish,- tanlanish, ko'ngilsizliklar tug'dirish, dushmanlik mayllariga egadir.

**Aksiologiya**- qadriyatlarni falsafiy jihatdan o'rganish, qadriyatli ahamiyatga ega bo'lmoq akseologiyadir.

**Akademiya** - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Amaliy ishlar metodi** – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

**Anomaliya (yunoncha – anomal)** - me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

**Ahloq** (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

**Ahloqiy ong** – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

**Ahloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yunaltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Imtihon (lot. Ehamen - sinov)** — oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, aspiranturaga kiruvchilarning, o'qishning ma'lum bosqichini tugatganlarning bilimini tekshirish (kirish yoki qabul imtihonlari)

**Ishontira olish** — axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan xoli, erkin ravishda o'zlashishiga erishishni ko'zlagan ruhiy ta'sir etish metodi.

**Ishonch hosil qilish** — shaxsning muayyan qoida va talablarini ongli ravishda o'zlashtirish vositasida tarbiyalash metodi, tegishli ma'lumotlar va argumentlarga asoslanib, shaxsning o'z hukmi va xulosalari to'g'riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalari.

**Ichki pozitsiya (mavqe)** — shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog'liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo'nalganligini belgilovchi ijtimoiy ko'rsatkichlari tizimi.

**Istiqbolni belgilash malakasi** — ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

**Idrok** — aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

**Ijtimoiy adaptatsiya** (yunoncha adapto - moslashish) — anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

**IjtimoiylaShuv** — ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslaShuvi.

**Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar** - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

**Izohlash (tarbiya metodi sifatida)** — tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

**Ilmiy dunyoqarash** - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

**Ilmiy fikrlash** — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondaShuv.

**Ilmiy qarash (yunoncha «idea»** - g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya.

**Individ** (lotincha "individium" bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) — xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

**Individuallik** - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

**Individual (yakka) o'qitish** - o'quv jarayoni shakli, modeli bo'lib. Unda: 1) o'qituvchi bir o'quvchi bilan o'zaro faoliyat yuritadi.

2) yolg'iz bir o'quvchining o'zi ta'lim vositalari kitoblar, kompyuter va boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.

**Innovatsiya**- o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda, ta'lim - tarbiya berish shakllari, metodlari, yangi maqsad va mazmuni joriy etish.

**Ideal**- oliy takomillaShuv, qaysidir sohadagi takomillaShuv, intilishning eng so'nggi maqsadi.

**Absolat va nisbiy haqiqat** — bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi kategoriyalar. Nisbiy haqiqat o'sib absolut haqiqatga aylanadi

**Abstrakt tafakkur** — narsa va hodisalarning bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari, qonuniyatlari haqidagi mavhum tushunchalar asosida fikrlash turi. Bunda mavhum tushunchalar hosil qilinadi.

**Abstrakt tnShuncha** — narsa va hodisalarning mavhum belgi, xususiyat, sifat va o'zaro munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar.

**Avtoritar pedagogika** (avtoritar pedagogik texnsjlogiya) — ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlikda o'qituvchining obro'siga asoslanish, unga o'quvchilarning ko'r-ko'rona, so'zsiz itoat etishlari. Bunda o'quvchilarning erkin va mustaqil fikrlashlari, Shunday harakatlar qilishlari cheklangan bo'ladi.

**Avtoritet** - shaxsning boshqalar e'tirof qilgan obro'si, fazilati, boshqalarga nisbatan ta'siri va ular tomonidan qadrlanishi. Avtoritet chin yoki sohta bo'ladi.

**Adaptiv mashg'ulot** — o'quvchining tashqi muhitga, jamoaga, mehnat vazifalarini balara olishga moslaShuvini ta'minlashga qaiatil-gan mashg'ulot.

**Algoritm** — pedagogik texnologiya tarkibiy bo'laklari (modullari) o'zaro joylaShuvining hamda pedagogik texnologiyajarayonlarini amal-ga oshirish ketma-ketligining awaldan belgilangan tartibini (qoi-dasini) bildiradi.

**Algoritm lash** — pedagogik texnologiya tarkibly bo'laklari (moduUari)ning o'zaro joylaShuvini hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketJigi tartibi

(qoidasi)ni belgilash jarayoni.

**Atama** — tabiiy tildagi soʻz yoki soʻz birikmalari (real yoki abstrakt narsalarni ifodalovchi). Atamaning u yoki bu kontekstdagi maʼnosi toʻgʻrisidagi masala doim muhokama qilinadi, chunki odatdagi til koʻp maʼnoli. Odatdagi til koʻp maʼnoli boʻlgani sababli, atamaning har bir holatdagi qoʻllanilishi maʼnosi muhokama qilib boriladi.

Bir fan yoki ilmiy nazariyada atamalar bitta maʼnoda ishlatiladi.

Atamalar nazariy, emperik turlarga ajratiladi. Nazariy atamalar tajriba bilan asoslangan, emperik atama esa tajriba orqali tasdiqlangan xulosalarga tegishli boladi.

**Bakalavr, magistr** - oliy taʼlimning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

**Bakalavriat** — oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi negizida oliy taʼlim yoʻnalishlaridan biri boʻyicha fundamental bilimlar beradigan, oʻqish muddati toʻrt yildan kam boʻlmagan tayanch oliy taʼlim;

**Bilim** — borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, emperik, nazariy bilimlarga ajradadi.

Kundalik bilim sogʻlom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan koʻra bilishi uchun asos bolib xizmat qiladi.

**Ilmiy bilim** — tizimli, asosli va narsa, hodisalar mobiyatiga chuqur kirib boradigan boʻladi. U emperik va nazariy darajada boʻladi.

**Emperik bilim** — bilishning kuzatish, oʻlchash, tajriba usullarini qoʻllash natijasi. Narsa-hodisalarning sifat va miqdor koʻrsatkichlarini ifodalaydi. Emperik koʻrsatkichlar orasidagi bogʻliqliklarning mun-jtazam takrorlanishi emperik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular, koʻpincha, ehtimollik xususiyatiga ega boʻladi.

**Nazariy bilim** — emperik holatlarni tasvirlash, tushuntirish, yaʼni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

**Bilish** - obyektiv borliqning ongda aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagi darajalarda boʻladi:

**Hissiy bilish** - sezgilar, idrok, tasavvur orqali.

**Ratsional bilish** — tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalar-dan oʻtib nazariyalarda oʻrii oladi.

**Shu bilan birga, bilish** — kundalik, badiiy, ilmiy boʻladi. Ilmiy bilish tabiatni va jamiyatni bilishga ajraladi.

**Birlamchi modul** - pedagogik texnologiyani uning biror dara-jasidan boshlab tasvirlashda dastlabki modul sifatida tanlangan va oʻz

tarkibiga bitta yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul toʻplami.

**Vertikal pedagogika** — yuqori sinf oʻquvchilarining quyi sinf oʻquvchilariga yordam koʻrsatishini tashkil qilish shakli. Bunda bir oʻquvchining ayrim fan boʻyicha oʻzidan bir sinf yuqorida oʻqiydigan oʻquvchilardan ilmiy rahbari va bir sinf quyida oʻqiydigan oʻquvchilardan otaliqdagi oʻquvchisi boʻladi.

Oʻquvchilarga oʻzlaridan quyi sinf mavzusini takrorlash, quyi sinf oʻquvchisidan sinov olish varaqasini (savollar, misol yoki topshiriqni) tayyorlash topshiriladi. Sinov haftada bir marla oʻtkaziladi. Sinov jarayonida quyi sinf oʻquvchisi mavzuni toʻliq oʻzlashtirgunicha oʻzaro muloqot davom etadi. Natijada yomon baholar boʻlmaydi.

**Guruhli taʼlim** — bir oʻqituvchi bir necha oʻquvchini oʻqitadigan taʼlim shakli. Gurahlar oʻquvchilar soniga qarab: kichik (3-6 oʻquvchi), oʻrta (7—15 oʻquvchi), katta (15 dan ortiq oʻquvchi) gurahlarga ajratiladi. Shuningdek, har bir gurahdagi taʼlim oluvchilarning yoshiga, taʼlim yoʻnalishiga va Shu kabilarga qarab guruhlarga ajratiladi.

**Diagnostika** — pedagogikaning boʻlimi, taʼlim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorliklari, bilim, koʻnikma, malaka va mahoratlarini, oʻquvchining bilimlarni

o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlarni o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan Shug'ullanadi.

**Didaktika** — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan Shug'ullanadi.

**Inversnoy ta'limi** — ag'darish, joyini almashtirish; tafakkur tizimini shakllantirish yo'nalishidagi ta'lim.

**Innovatsiya** — yangilanshni, o'zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.

**Integral** — chambarchas bog'liq, butun, yagona; o'z cheksiz kichik qismlarining yig'indisi.

**Intelekt** — insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati; tushunish, mulohaza, tafakkur, aql.

**Interfeol mashg'ulot** — o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

**Kichik modul** — pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni taslikil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

**Kognitiv** — atrof odam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiyalovchi tafakkurni shakllantirish, bilish extiyojlarini rivojlantirish ta'limi.

**Kreativ** — tadqiqotchilik xarakteriga ega; o'quvchilarda ijodiy tafakkurni jadal (maqsadga yo'naltirilgan) ravishda rivojlantirish ta'limi.

**Ko'nikma** — ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajarish. Shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan balariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Harakat turlari bo'yicha uch turga: harakat ko'nikmalari, sensor ko'nikmalar, aqliy ko'nikmalarga bolinadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ma'lum vaqt takrorlamaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. Uni qayta mashqlar bajarish, malaka oshirish orqali tiklanadi.

**Magistratsira** - bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

**Malaka** — shaxsning ma'lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, Shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko'nikmalari yig'indisi. Kasbiy axborotlarning tez ko'payib borayotgani ilgari o'zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to'ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo'ladi.

**Malaka amaliyoti** — o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va uquv hosil qilish, ta'lim dasturining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

**Malaka oshirish** — mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni.

**Malaka talablari** — uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

**Marketing** — bozor bolatini chuqur o'rganish, oldindan baholarni bilgan holda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar taslikil qilish, g'oyalar yaratish va ularning sotuvini tashkil qilish orqali yuqori foyda olishni ta'mmlash.

**Mahorat** — shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslaShuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradoriik bilan qo'llash.

**Menejer** — korxonada, muassasa, tashkilotni zamonaviy usullar asosida boshqaruvchi

mutaxassis.

**Menejment** — korxonada, muassasa, tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida qoʻllaniladigan bosliqarish, ya'ni xodimlar va ishchilar mehnatini tashkil qilish tamoyillari, usullari, vositalari, shakllari.

**Modul** — pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy boʻlaklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy boʻlaklar, ya'ni modullar eng kichik boʻlaklardan hamda ularning turli miqdordagi toʻplamlaridan iborat boʻladi. Bunda eng kichik tarkibiy boʻlakni eng kichik modul, boshqalarini esa oʻz ichiga qancha Shunday modulni olishiga qarab, tegishli darajadagi modullar deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning eng kichik modullari eng asosiy tushuncha boʻlib, ular goʻyoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi «rishtacha»lar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega.

Bunda kichik modul, modul toʻplami, birlamchi modul va mo-dul darajasi degan tushunchalardan foydalaniladi. Ular quyidagi-cha taʼriflanadi:

**Modul darajasi** — pedagogik texnologiyani tasvirlash koʻlamlariga muvofiq ravishda tanlangan birlamchi modullarning oʻz tarkibida aslida qancha moʻdullarga ega ekanligi koʻrsatkichi.

**Modul toʻplami** — pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yigʻindisi.

**Modullashtirish** — pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni.

**Monitoring** — korxonada, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus taslikil qilingan tizimli kuzatuv. Me'yoriy xujjatlar, yuqori tashkilotlarning buyruq va qarorlari ijrosi oʻz muddatida hamda qanday sifat va darajada amalga oshirilayotganligini kuzatuv tizimi.

**Taʼlim-tarbiya sohasida monitoring** — oʻquv jarayoni va uni boshqarishning uzluksiz kuzatuvini olib borish.

**Metod** — grekcha soʻz boʻlib, yoʻl, axloq usuli maʼnolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yoʻli, usuli yoki qiyofasi, shakli, koʻrinishi.

**Metodik** — metodikaga tegishli qatʼiy ketma-ketlikka, tizimga, ilgari oʻrnatilgan reja, tizimga aniq, rioya qilish.

**Metodika** — biror ishni maqsadga muvofiq oʻtkazish metodlari, yoʻllari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida maʼlum oʻquv fanini oʻqitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va Shu kabilar.

**Methodist** — biror oʻquv fanini oʻqitish yoki tarbiyaviy ishlar metodikasi sohasidagi mutaxassis.

**Metodologik** — metodologiyaga tegishli, nazariy asoslanish.

**Metodologiya** — bilishning ilmiy metodi haqidagi taʼlimot. Biror fanda qoʻllanadigan metodlar majmuasi.

**Motiv** — odamni oʻqishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yigʻindisi.

**Oliy maʼlumot darajasi** — shaxs tomonidan oliy taʼlimning muayyan taʼlim dasturini mazkur maʼlumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, oʻzlashtirishi natijasi.

Oliy maʼlumot haqida davlat hujjati (diplom) - akkreditatsiya-dan oʻtgan oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy taʼlimning taʼlim dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz taʼlimning keyingi bosqichlarida oʻqishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

**Oliy taʼlim** - uzluksiz taʼlimning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy taʼlim muassasalarida amalga oshiriladi.

Oliy taʼlim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Oliy taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy maʼlumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat taʼlimi yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklarining

tizimlashtirilgan ro'yxati.

**Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti** — ta'limning bakalavriat nuayyan yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmum, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zarariy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan me'yoriy hujjat.

**Pedagogik texnologiya** — eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rfi barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng ko'lami, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini taklif qilishimiz mumkin:

**Pedagogik texnologiya** — axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda bydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni ochish hamda axborotlar orasidagi yangi bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar qaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

**Pedagogik texnologiya** — ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-islubiy vositalari majmuidir.

**Pedagogik texnologiya** — bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnikaviy resurslarini va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

**Pedagogik texnologiya** — ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlash uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

**Demak, pedagogik texnologiya** — insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat,

**Pedagogik texnologiya** — o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

**Pedagogik texnologiya** — o'qituvchi rahbarligida o'quvchining mustaqil ravishda bilim olishi, o'rganishi, o'zlashtirishi jarayoni.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumilashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi lara-yonlarni o'z ichiga oladi.

Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lib, awalo, jarayon ko'rinishida amalga oshiriladi va Shu ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shu bilan birga, bu jarayon o'ziga xos qonuniyatlar-ga ega bolib, bu qonurtiyatlarini insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda.

**Pedagogika** - ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarini o'rganuvchi fan. U barkamol insonni voyaga yetkazish maqsad-lariga xizmat qiladi.

**Perspetiv qobiliyat** - o'quvchining mhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqarivchi qobiliyat.

**Salbiy motiv** — bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchining o'qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatimizni yo'qqa chiqaradi.

**Strategiya** — tashkilot, sohalar, hududlar, mamlakat, millat taqdiri uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan, aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan asosiy harakatlarning uzoq, muddatli dasturi. Ta'lim sohasidagi bosh maqsadlarga qaratilgan uzoq muddatli ishlarni amalga oshirish dasturi ta'lim strategiyasini hosil qiladi.

**Taktika** — bosh maqsad yo'lida xususiy, oraliq masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil qilish usuli. Pirovardida strategik maqsadlarga ko'proq; samara biian erishishni ta'miniash uchun sharoitning o'zgarishlarini mos ravishda hisobga olish.

**Tarbiya** — 1. Bolani boqib va ta'lim berib katta qilish, voyaga yetkazish uchun qilinadigan mehnat va g'amxo'rlik. 2. Ish-hunar, odob-axloq o'rgatishga va unxuman kishining g'oyaviy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi. 3. Parvarish, qarov: 1) tarbiyalab katta qilmoq, voyaga yetkazmoq, o'stirmoq, ulg'ay-tirmoq; 2) ilm-hunar bermoq, odob-axloq o'rgatmoq, tarbiyalab biror xislat-fazilatni singdirmoq; 3) parvarish qilmoq.

**Tafakkur operatsiyalari** — qiyoslash, tahlil, sintez, abstraklashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlash.

**Ta'lim** — ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanishi zarur bo'lgan malumot va ko'nikmalar majmui; bilim.

**Ta'lim dasturi** — o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi, bloklarga jamlangan ro'yxati.

**Ta'limning jamoa usuli** (jamoat ta'limi) — o'quvchilarning bir-birini o'qitish shakli. Har bir o'quvchiga yangi dars mavzusi bo'yicha bir varaqdan kam bo'lmagan hajmdagi ilmiy matn yoki maqolani qayta so'zlab berish va hamma savollarga javob bera olish darajasida o'rganish topshiriladi. Har bir o'quvchi navbatma-navbat bir necha: o'quvchi bilan bittadan abzatsni, misolni, savolni o'zaro muhokama qilib, o'zlashtiradi. So'ngra kichik guruh yoki butun sinf oldida so'zlab beradilar va o'qituvchining savollariga javob qaytaradilar, yozma bayon qilishlari ham mumkin. Bu usulni qo'llash jarayonida yakka va guruhli ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

**Ta'lim menejeri** — ta'lim muassasini zamonaviy menejment qonunlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

**Ta'lim metodi** — o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

**Ta'lim sifatini nazorat qilish** — o'qitish mazimini va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

**Texnologiya** — biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan yo'llar, usullar majmuasi.

**Trener** — ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trening mashg'ulotlarini olib borish (rahbarlik qilish) uchun maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis.

**Trening** — ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trenerlar tomonidan (rahbarligida) o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

**Tushunish (I)** — tafakkur jarayoni yangi mazmunni o'zlashtirish va uni mavjud g'oya hamda tasavvurlar tizimiga qo'shish. Ilmiy bilishning asosiy funksiyalaridan biri.

**Tushunish (II)** — ma'lum namuna, standart, me'yor yoki tamoyil asosida baholash jarayoni va natijasi.

**Tushunishga yordam beruvchi izohlash** — baholash standartini izlash va uni muhokama qilinyotgan masalaga muvofiq kelishini asoslashdan iborat.

Tabiatni tushunish uning hodisalariga unda nimalar ro'y berishi lozimligi nuqtai nazaridan, ya'ni narsa va hodisalarning me'yoriyligi yoki tabiiyligi to'g'risidagi ilgarigi tasavvurlarni bilish tajribasiga tayanadigan o'rnatilgan nuqtai nazardan kelib chiqadigan baho berishdan iborat.

**Tushuntirish** — ilm-fanning eng asosiy vazifasi. Atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tushuntirishning dastlab mifologik, diniy, natur-filosofiya tizimlari paydo bo'lgan. Hozir tushuntirishning quyidagi shakllari mavjud:

**Ilmiy tushuntirish** — obyektiv qonuniyatlar asosida tushuntirish. Bu — voqea-hodisalarni, ularning mohiyatini to'g'ri tushuntirish hisoblanadi.

**Ratsional tushuntirish** — hodisalar va odamlar harakati qanday amalga oshirilgan bo'lsa, ularning to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'iy nazar, asli holicha tushuntirishdan iborat.

Bundan tashqari, harakatni amalga oshiruvchining maqsadini tushuntirishda ham urring to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'iy nazar, Shu maqsadning o'zini tushuntirish shakli qo'llaniladi.

**Tushuncha** — narsa va hodisalar, ularning xossalari, ular orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi fikrlar.

Ilmiy tushunchada mohiyatni ifodalovchi alohida belgilar umumlashtiriladi.

Har bir tushunchaning mazmuni va hajmi bo'ladi. Mazmun — tushuncha orqali aks ettirilgan belgilar yig'indisi, Shu mazmunga tegishli belgilarga ega narsa, hodisalar yig'indisidan iborat.

Tushunchada aks ettiriladigan narsalar doim kengroq sinf tarkibidan ajratuvchi belgilarga ega bo'lib, Shu kengroq sinfga nisbatan turlarni ifodalaydi. Masalan, turli burchakli uchburchaklar — umu-man uchburchaklar sinfiga nisbatan tur. Uchburchaklar esa geometrik shakllar sinfiga nisbatan tur hisoblanadi.



**Tushunchalar hajmiga ko'ra** — hajmsiz, bir elementli, ko'p elementli bo'ladi:

- hajmsiz — oltin tog'i; suv parisi.
- bir elementli — Ulug'bek rasadxonasi; Samarqand shahri.
- ko'p yoki umumiy elementli — o'simlik; raqamlar; tarixiy voqea; tabiat hodisasi.

Tushunchaning mazmuni ortsa, hajmi kamayadi va aksincha, Masalan, uchburchak tushunchasi mazmuniga teng tomonli belgisini qo'shsak, uning mazmuni, ya'ni belgilari soni ortadi va hajmi kamaydi, chunki teng tomonli uchburchak tushunchasi, uchburchaklar tushunchasining bir qismini tashkil qiladi. Tushunchalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- ilmiy tushunchalar. Bu barcha fanlarga oid bo'lib, fizikaviy, kimyoviy, falsafiy, tibbiy, texnika, siyosat, huquq, iqtisod, tarixiy va boshqa tushunchalar;
- badiiy-estetik tushunchalar — san'at, adabiyot, musiqa, teatr, kino va boshqalar;
- sport, jismoniy tarbiya, kasb-hunarlariga oid tushunchalar;
- mifologik, diniy tushunchalar va boshqalar.

**Uslub** — biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

**Usul** — biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

**Faollik** — biror maqsad yo'lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

**Evristik** - yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi; o'quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkumi rivojlantiradi.

**Eksklyuziv** — g'ayri oddiy, faqat ma'lum bir obyektga taalluqli, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar va boshqa belgilar. Faqat o'ziga berilgan (huquq).

**Emperik** — hissiy tajriba asosidagi bilimlar va ularning yagona manbaini hissiy tajriba deb tushunish.

**Yakka ta'lim ikki xil shaklda bo'ladi:** 1) bir o'quvchini bir o'qituvchi o'qitishi — ta'limning juft shakli; 2) mustaqil ta'lim olish — ta'limning yakka shakli.

**Yakunlovchi davlat attestatsiyasi** — bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim dasturining bajarilishi sifatini baholash.

**O'zlashtirish** — tushunish, o'rganish orqali axborotni ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni balarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi.

o'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi:

- 1) o'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;
- 2) ularni amaliy faoliyatda qo'llash; ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;
- 3) ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umurnlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

**O'rganish** — axborotdan foydalanaish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil balarish ko'nikmalarini egallash.

**O'rgatish** — axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarai qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlar orqali amalga oshirish jarayoni.

**O'qitish sifatini nazorat qilish** — talabning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash.

**O'qitishning me'yoriy muddati** — ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

**O'quv yili** — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faolyati davri. o'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2007-2008 o'quv yili.

**O'quv fanlari bloki** — ta'lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan

o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

**O'quv rejasi** — oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat.

**O'quv semestri** — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning malum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

**O'quv fani** — ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, uquv va ko'nikmalar tizimi.

**O'quvfani dasturi** — ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

**Hamijodkorlik** — ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi.

**Hamkorlik pedagogikasi** (hamkorlik pedagogik texnologiyasi) — ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan. shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:  
№  
" 28 " 08 2020 yil



"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlar bo'yicha prorektor  
dovs. Seb. Xodjanliyazov  
2020 yil

TANLOV FAN JISMONIY MADANIYATNI O'QITISH  
TEHNOLOGIYALARI VA LOYIHALASHTIRISH

FAN DASTURI


Bilim sohasi:	100000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	610000 – xizmat ko'rsatish
Ta'lim yo'nalishi:	5610535-sport faoliyati (xotin qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha)

Urganch - 2020 yil

Tanlov fan “Jismoniy madaniyatda o’qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fan dasturi Urganch davlat universiteti kengashida tasdiqlangan “\_\_”08. 2020 yil \_\_ - sonli bayonnoma)

**Tuzuvchilar:**

Sh.R.Xasonova




- UrDU, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasida katta o’qituvchisi

**Taqrizchilar:**

F.T.Masharipov

- UrDU, “Sport faoliyati” kafedrasida mudiri.

A.A.Sadullayev




-UrDU, “Sport faoliyati” kafedrasida katta o’qituvchisi.

UrDU Jismoniy madaniyat

fakulteti dekani:


2020 yil “27” 08 \_\_\_\_\_



dots. S.U.Ko’palov

“Sport faoliyati” kafedrasida mudiri:

2020 yil “26” 08 \_\_\_\_\_



dots. F.T.Masharipov

## **Kirish**

«Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish» o'quv fani dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'ati tomonidan 2010 yilning 17 aprelida "Ilg'or pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim ta'lim muassasalarida joriy etishni tashkil etish" to'g'risidagi 3/1 sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 5610535-"sport faoliyati" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni ta'limni texnologiyalashtirish asoslari bo'yicha tasavvurlarini boyitish va innovatsion pedagogik ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy va amaliy bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

### **Fanning maqsadi va vazifalari.**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda jismoniy madaniyatni o'qitish jarayoni, treninglar, ochiq munozaralar, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoa ishlashni tashkil qilish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga ega qilish hamda talabalarning ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonga tayyorlashdan iborat bo'lib, jismoniy madaniyatni mazmuni, maqsadi shuningdek, talabalarning imkoniyati, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim berish jarayonini o'qitish jarayonida keltirilgan texnologiyalar asosida o'zining mualliflik texnologiyalari bilan o'zgartirish va rivojlantira olish bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish.

**Fanning vazifasi** – talabalarga o'quv jarayoni va o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik innovatsion texnologiyalarini joriy etish yo'llarini o'rgatishdan iborat bo'lib quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi;

- o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirishga ;
- o'quv fani bo'yicha talabaning o'quv uslubiy majmuani ishlab chiqishga;
- ma'ruzalarda interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llay olishga;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarda interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llay olishga;
- ta'limning keys-texnologiyasini yarata olishga;
- loyihaviy ta'lim texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy qila olishga;
- maqsadni belgilashni va uch darajali testlarni ishlab chiqishga;
- ta'limning optimal usul, shakl va vositalarini tanlash va ulardan ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida samarali foydalana olishga;
- grafik organayzerlarni, o'quv vazifalarni va slayd taqdimotlarni ishlab chiqish olish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

«Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- jismoniy madaniyatni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari; pedagogik texnologiyalar, ularning jismoniy madaniyatni o'qitishda foydalanish imkoniyatlari;

o'quv jarayonini ilmiy va amaliy jihatdan tashkil etish muammolari; metodologiya, metodika va texnologiya tushunchalari **haqida bilimga ega bo'lishi kerak.**

- an'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlari va pedagogik texnologiya; zamonaviy kommunikativ texnologiya. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda texnik vositalardan foydalanish texnologiyasi; seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning eng so'nggi texnologiyalari **haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.**

- axborot texnologiyalari. Jismoniy madaniyatni o'qitish bo'yicha axborotlarni jamlash va qayta ishlash; shaxsga qaratilgan texnologiyalar, o'yinli texnologiyalar, musobaqa texnologiyalari, bahs-munozaraning yangi shakllari **haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.**

### **Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi**

«Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish» fani asosiy ixtisoslik fan hisoblanib 6-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, jismoniy tarbiya gigienasi va sport tibbiyoti, jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi, gimnastika va uni o'qitish metodikasi, engil atletika va uni o'qitish metodikasi, milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi, harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi, sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi, jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish, suzish va uni o'qitish metodikasi, sport psixologiyasi, sport mahoratini oshirish kabi fanlardan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlikni talab etadi.

### **Fanning ta'limdagi o'rni**

«Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish» o'quv fani pedagogik innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirishda alohida o'ringa ega bo'lib talabalarda kasbiy innovatsion faoliyatni shakllantirishda hamda rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning «Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi innovatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. “Maqsadni belgilash”, “O'quv loyihasi” va “Keys-stadi” va “Chizmalı organayzerlar” kabi pedagogik innovatsion texnologiyalar fanni o'qitishda keng foydalaniladi.

### **Asosiy qism**

### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

### **Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.**

Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish. Ta'limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi va ahamiyati. Ta'lim texnologiyasining evolyutsion taraqqiyoti. Ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari. Ishlab chiqarish texnologiyasining mazmuni

va mohiyati. Pedagogik texnologiyasining tuzilishi va mohiyati. Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan pedagogik (ta'lim) texnologiyasini qiyosiy tahlili. Ta'lim texnologiyasi bilan o'qitish metodikasining qiyosiy tahlili.

### **Ta'lim texnologiyasining tuzilishi.**

Ta'lim texnologiyasining (TT) tashkiliy elementlari. Ta'lim texnologiyasining maksadini aniklash. Ta'lim texnologiyasining belgilari.

### **Ta'lim texnologiyasining bosqichlari.**

Ta'lim texnologiyasining bosqichlari. Ta'lim texnologiyasining birinchi bosqichi-loyixalash. Ta'lim texnologiyasining ikkinchi bosqichi-ta'lim loyixasini amalga oshirish. Ta'lim texnologiyasining uchinchi bosqichi-nazorat, baxolash.

### **O'quv jarayonini texnologiyalashtirishda didaktik masalalarni hal qilinishi.**

Tashxislanuvchi maqsad. O'quv elementi. Abstraksiya pog'onalari. O'zlashtirish darajalari. Test. O'zlashtirish koeffitsenti. Ta'lim mazmuni. O'quv dasturi va darslik.

### **Ta'lim texnologiyasining maqsad va mazmunining mohiyatini oydinlashtiruvchi ko'rsatkichlar.**

Ta'lim mazmunini murakkabligi. O'zlashtirishning avtomatlashuv darajasi O'zlashtirish sifati-anglashuvchanlik. Anglab o'zlashtirishning darajalari. Ta'lim mazmunini didaktik tayyorlash. Didaktik jarayon kompochoqli mexizmlar.

### **Ta'lim texnologiyasini boshqarish.**

Boshqarish tizimining qisimlari. TT da boshqarish subekti va boshqarish ob'ekti. Boshqarish turlari. Didaktik jarayonda o'qitish usullari. Didaktik jarayonni belgilovchi omili - tashkiliy shakllari. Ta'limda o'rgatuvchi va o'rganuvchi faoliyatlari uyg'unlashuvi.

### **“Ta'lim shakllari - ta'lim texnologiyasi tarkibi”**

Ta'lim shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibi. Shakl, ta'lim shakllari, ta'limni tashkil etish shakllari tushunchalari. Ta'limni tashkil etish shakllarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati. Ta'limni tashkil etish shakllarining tasniflanishi. Ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.

### **“Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasi tarkibi”**

Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasining tarkibi. Usul, ta'lim usullari tushunchasi. Ta'lim usullarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati. Faol ta'lim usullari, interfaol usullar tushunchalari. Ta'lim usullarining tasnifi. Ta'lim usullarining mazmuni. Interfaol usullarning boshqa usullardan farqli tomonlari. Interfaol usullar mazmuni. Ta'lim usullarini tanlash omillari.



### **“Loyihaviy ta`lim texnologiyasiga kirish”**

Loyihaviy o`qitish texnologiyasiga kirish. Zamonaviy ta`lim tizimining asosiy maqsadlari. “Layoqatlilik”, “Layoqat”, “Kasbiy layoqatlilik”, “Tayanch layoqatlar” tushunchalari. Loyihaviy layoqatlilik. Ta`lim tizimida loyihaviy o`qitishning dolzarbligi va o`rni. Loyihaviy o`qitishning asosiy tushunchalari: loyiha, loyihaviy faoliyat, loyihalashtirish, loyihalash usuli, o`quv loyihasi. Loyihaviy ta`limning mazmuni. O`quv loyihasi tushunchasi. O`quv loyihaviy faoliyat tuzilishi. O`quv loyihalarining turlari. O`quv loyihasining tipologiyasi. O`quv loyihalarining qiyosiy tavsifi. O`quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari. Loyihaviy ta`limning texnologiyasi. O`quv loyihasining pasportining tuzilishi. Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi.

### **Amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar**

Talabalar “Jismoniy madaniyatni o`qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fanining amaliy mashg`ulotlarida o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullarini qo`llashga, yangi innovatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilishga qaratilgan faoliyatlar ko`zda tutiladi.

Bunda a`lohida e`tiborni o`rganilgan va o`zlashtirilgan ta`lim texnologiyalarni mutaxassislik fanlarini o`qitilishiga joriy qilinishiga qaratiladi.

### **Ta`limni texnologiyalashtirishga kirish.**

Ta`limni texnologiyalashtirishga kirish. Ta`limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi va ahamiyati. Ta`lim texnologiyasining evolyutsion taraqqiyoti. Ta`lim texnologiyasining asosiy tushunchalari. Ishlab chiqarish texnologiyasining mazmuni va mohiyati. Pedagogik texnologiyasining tuzilishi va mohiyati. Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan pedagogik (ta`lim) texnologiyasini qiyosiy tahlili. Ta`lim texnologiyasi bilan o`qitish metodikasining qiyosiy tahlili.

### **Ta`lim texnologiyasining tuzilishi.**

Ta`lim texnologiyasining (TT) tashkiliy elementlari. Ta`lim texnologiyasining maqsadini aniqlash. Ta`lim texnologiyasining belgilari.

### **Ta`lim texnologiyasining bosqichlari.**

Ta`lim texnologiyasining bosqichlari. Ta`lim texnologiyasining birinchi bosqichi-loyihalash. Ta`lim texnologiyasining ikkinchi bosqichi-ta`lim loyihasini amalga oshirish. Ta`lim texnologiyasining uchinchi bosqichi-nazorat, baxolash.

### **O`quv jarayonini texnologiyalashtirishda didaktik masalalarni hal qilinishi.**

Tashxislanuvchi maqsad. O`quv elementi. Abstraksiya pog`onalari. O`zlashtirish darajalari. Test. O`zlashtirish koeffitsenti. Ta`lim mazmuni. O`quv dasturi va darslik.



## **Ta'lim texnologiyasining maqsad va mazmunining mohiyatini oydinlashtiruvchi ko'rsatkichlar.**

Ta'lim mazmunini murakkabligi. O'zlashtirishning avtomatlashuv darajasi.  
O'zlashtirish sifati-anglashuvchanlik. Anglab uzlashtirishning darajalari.  
Ta'lim mazmunini didaktik tayyorlash. Didaktik jarayon kompochoqli mexizmlar.

## **Ta'lim texnologiyasini boshqarish.**

Boshqarish tizimining qisimlari. TT da boshqarish subekti va boshqarish  
ob'ekti. Boshqarish turlari. Didaktik jarayonda o'qitish usullari.  
Didaktik jarayonni belgilovchi omili - tashkiliy shakllari. Ta'limda o'rgatuvchi  
va o'rganuvchi faoliyatlari uyg'unlashuvi.

## **Ta'lim shakllari - ta'lim texnologiyasi tarkibi**

Ta'lim shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibi. Shakl, ta'lim shakllari,  
ta'limni tashkil etish shakllari tushunchalari. Ta'limni tashkil etish shakllarining  
ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati. Ta'limni tashkil etish shakllarining  
tasniflanishi. Ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.

## **Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasi tarkibi**

Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasining tarkibi. Usul, ta'lim usullari  
tushunchasi. Ta'lim usullarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati. Faol  
ta'lim usullari, interfaol usullar tushunchalari. Ta'lim usullarining tasnifi. Ta'lim  
usullarining mazmuni. Interfaol usullarning boshqa usullardan farqli tomonlari.  
Interfaol usullar mazmuni. Ta'lim usullarini tanlash omillari.

## **Seminar mavzularini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Innovatsion pedagogika tushunchasi.  
Innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari  
Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari  
Yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari  
Refleksiv - innovatsion texnologiyalar  
O'qituvchini innovatsion faoliyatini muammolarni ijodiy imkoniyatini  
aktuallashtirish va rivojlantirish  
O'qituvchilik kasbi. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabati  
O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorligini tashxis qilish diagnostikasi  
metodlari  
O'qituvchi pedagogik faoliyatidagi psixologik to'siqlar  
Pedagogik ta'sir etish texnologiyasining muammosi  
Pedagogik texnologiya ta'siri elementlari.

Pedagogik ta'zir texnologiyasining darsda qo'llanilishi  
Ta'limning asosiy qo'zgatuvchi motivlari  
Moslashtirish strategiyasi  
Boshlang'ich maktabda o'quv jarayonini tashkil etish  
Tarbiya maqsadini ishlab chiqish to'g'risida  
Tarbiya tizimida ijtimoiylashtirish o'rni to'g'risida  
Tarbiya tizimida pedagogik tizim  
Tarbiya tizimida innovatsiyalar  
Interaktiv o'qitish shakllari  
Boshlang'ich sinflar uchun ijodiy tasavvurni rivojlantiruvchi umumiy lavhali  
ko'rinishlar  
Mashg'ulot o'tkazish tizimi

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
  - tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
  - nazariy material boyicha misol va masala yechish,
  - avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
  - maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- masofaviy ta'lim.

Talabaga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko'rsatiladi va o'xshash misollar yordamida tekshiriladi.

#### **Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:**

Ta'lim shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.

Shakl, ta'lim shakllari, ta'limni tashkil etish shakllari tushunchalari. Ta'limni tashkil etish shakllarining tasniflanishi.

Ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.

Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasining tarkibi.

Faol ta'lim usullari, interfaol usullar tushunchalari.

Ta'lim usullarining tasnifi.

Ta'lim usullarining mazmuni.

Interfaol usullar mazmuni.

Ta'lim modeliga kiruvchi komponentlar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati.

Ta'lim modelini ishlab chiqishda ta'limni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini tanlash omillari.

O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi haqida tushuncha.

Texnologik xaritaning rejadan farqli tomonlari.

Ta'lim modeli va o'quv mashg'uloti texnologik xaritasini ishlab chiqish qoidalari.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlari. "Layoqatlilik", "Layoqat", "Kasbiy layoqatlilik", "Tayanch layoqatlar" tushunchalari.

Loyihaviy o'qitishning asosiy tushunchalari: loyiha, loyihaviy faoliyat, loyihalashtirish, loyihalash usuli, o'quv loyihasi.

Loyihaviy ta'limning mazmuni.

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;

- amaliy mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan aqliy hujum, guruhli fikrlash, klaster va keys stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

### **Didaktik vositalar**

**1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish bo'yicha kerak bo'ladigan barcha vositalar, turli xil jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirishga mos keladigan plakatlar, elektron doska –Hitachi, LCD monitor, elektron ko'rsatkich.

**2. Video audio uskunalar:** video, audiomagnitofon, ovoz kuchaytirgich.

**3. Kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, proektor, DVD- diskovod, Web- kamera, video – ko'z (glazok).

### **Foydalanilgan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar**

1. Azizxodjaeva N,N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Cho'lpon -T: 2003 y

2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010.

3. Mavlyanova R.A., Raxmanqulova N.X. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Uslubiy qo'llanma). Toshkent – 2007.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Yo'ldasheva S., Xoshimova M. Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent – 2008

2. Tolipov O'., Usmonbaeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent-2005

3. Yo'ldashev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent -2005

#### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:

№ \_\_\_\_\_

“ 28 ” 08 2020 yil

**TASDIQLAYMAN**  
O'quv ishlar bo'yicha prorektor  
Ilots. S. U. Nojaniyazov

2020 yil

TANLOV FAN. “JISMONIY MADANIYATNI O'QITISH TEHNOLOGIYALARI  
VA LOYIHALASHTIRISH”  
FANIDAN  
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:  
Ta'lim sohasi:  
Ta'lim yo'nalishi:

600 000 – Xizmatlar  
610 000 – Xizmat ko'rsatish  
5610535 – Sport faoliyati (xotin qizlar  
sporti)


Umumiy o'quv soati – 88 soat  
Shu jumladan:  
Ma'ruza – 40 soat (20x2, 8-semestr)  
Seminar – 48 soat (24x2, 8-semestr)  
Mustaqil ta'lim – 72 soat (36x2, 8-semestr)

Urganch 2020 yil



Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Urganch davlat universiteti 2020 yil "\_\_\_" avgustdagi \_\_\_-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan T.F."Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fan dasturi Urganch davlat universiteti Kengashining 2020 yil "\_\_\_"avgustdagi "\_\_\_"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:**


Sh.R.Xasonova  - UrDU, "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

F.T.Masharipov  - UrDU, "Sport faoliyati" kafedrasida mudiri.  
A.A.Sadullayev  -UrDU, "Sport faoliyati" kafedrasida katta o'qituvchisi.

UrDU Jismoniy madaniyat  
fakulteti dekani:


2020 yil "27" 08



dots. S.U.Ko'palov

"Sport faoliyati" kafedrasida mudiri:

2020 yil "26" 08



dots. F.T.Masharipov

## 1.O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

“Jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- jismoniy madaniyatni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari; pedagogik texnologiyalar, ularning jismoniy madaniyatni o'qitishda foydalanish imkoniyatlari; o'quv jarayonini ilmiy va amaliy jihatdan tashkil etish muammolari; metodologiya, metodika va texnologiya tushunchalari **haqida bilimga ega bo'lishi kerak.**

- an'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlari va pedagogik texnologiya; zamonaviy kommunikativ texnologiya. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda texnik vositalardan foydalanish texnologiyasi; seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning eng so'nggi texnologiyalari **haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.**

- axborot texnologiyalari. Jismoniy madaniyatni o'qitish bo'yicha axborotlarni jamlash va qayta ishlash; shaxsga qaratilgan texnologiyalar, o'yinli texnologiyalar, musobaqa texnologiyalari, bahs-munozaraning yangi shakllari **haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.**

## 2.Ma'ruza mashg'ulotlari

1-jadval

№	Ma'ruza mashg'ulotlari	Dars hajmi
1	<p><b>Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.</b> Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish. Ta'limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi va ahamiyati. Ta'lim texnologiyasining evolyutsion taraqqiyoti. Ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari. Ishlab chiqarish texnologiyasining mazmuni va mohiyati. Pedagogik texnologiyasining tuzilishi va mohiyati. Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan pedagogik (ta'lim) texnologiyasini qiyosiy tahlili. Ta'lim texnologiyasi bilan o'qitish metodikasining qiyosiy tahlili</p>	2
2	<p><b>Ta'lim texnologiyasining tuzilishi.</b> Ta'lim texnologiyasining (TT) tashkiliy elementlari. Ta'lim texnologiyasining maqsadini aniqlash. Ta'lim texnologiyasining belgilari</p>	2
3	<p><b>Ta'lim texnologiyasining bosqichlari.</b> Ta'lim texnologiyasining bosqichlari. Ta'lim texnologiyasining birinchi bosqichi-loyixalash. Ta'lim texnologiyasining ikkinchi bosqichi-ta'lim loyixasini amalga oshirish. Ta'lim texnologiyasining uchinchi bosqichi-nazorat, baxolash.</p>	2
4	<p><b>O'quv jarayonini texnologiyalashtirishda didaktik masalalarni hal qilinishi.</b> Tashxislanuvchi maqsad. O'quv elementi. Abstraksiya pog'onalari.O'zlashtirish darajalari. Test. O'zlashtirish koeffitsenti. Ta'lim mazmuni. O'quv dasturi va darslik.</p>	2
5	<p><b>Ta'lim texnologiyasining maqsad va mazmunining moxiyatini oydinlashtiruvchi ko'rsatkichlar.</b> Ta'lim mazmunini murakkabligi. O'zlashtirishning avtomatlashuv darajasi. O'zlashtirish sifati-anglashuvchanlik. Anglab o'zlashtirishning darajalari. Ta'lim mazmunini didaktik tayyorlash. Didaktik jarayon kompochoqli mexizmlar.</p>	2
6	<p><b>Ta'lim texnologiyasini boshqarish.</b> Boshqarishning tizimining qismlari. TT da boshqarish sub'ekti va boshqarish ob'ekti. Boshqarish turlari. Didaktik jarayonda o'qitish usullari. Didaktik jarayonni belgilovchi omili - tashkiliy shakllari. Ta'limda o'rgatuvchi va o'rganuvchi faoliyatlari uyg'unlashuvi.</p>	2



7	<b>Ta`lim shakllari - ta`lim texnologiyasi tarkibi.</b> Ta`lim shakllari – ta`lim texnologiyasining tarkibi. Shakl, ta`lim shakllari, ta`limni tashkil etish shakllari tushunchalari. Ta`limni tashkil etish shakllarining ta`lim texnologiyasidagi o`rni va ahamiyati. Ta`limni tashkil etish shakllarining tasniflanishi. Ta`limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.	2
8	<b>Ta`lim usullari – ta`lim texnologiyasi tarkibi.</b> Ta`lim usullari – ta`lim texnologiyasining tarkibi. Usul, ta`lim usullari tushunchasi. Ta`lim usullarining ta`lim texnologiyasidagi o`rni va ahamiyati. Faol ta`lim usullari, interfaol usullar tushunchalari. Ta`lim usullarining tasnifi. Ta`lim usullarining mazmuni. Interfaol usullarning boshqa usullardan farqli tomonlari. Interfaol usullar mazmuni. Ta`lim usullarini tanlash omillari.	2
9	<b>Loyihaviy ta`lim texnologiyasiga kirish.</b> Loyihaviy o`qitish texnologiyasiga kirish. Zamonaviy ta`lim tizimining asosiy maqsadlari. “Layoqatlilik”, “Layoqat”, “Kasbiy layoqatlilik”, “Tayanch layoqatlar” tushunchalari. Loyihaviy layoqatlilik. Ta`lim tizimida loyihaviy o`qitishning dolzarbligi va o`rni. Loyihaviy o`qitishning asosiy tushunchalari: loyiha, loyihaviy faoliyat, loyihalashtirish, loyihalash usuli, o`quv loyihasi. Loyihaviy ta`limning mazmuni. O`quv loyihasi tushunchasi. O`quv loyihaviy faoliyat tuzilishi. O`quv loyihalarining turlari. O`quv loyihasing tipologiyasi. O`quv loyihalarining qiyosiy tavsifi. O`quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari. Loyihaviy ta`limning texnologiyasi. O`quv loyihasing pasportining tuzilishi. Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi.	4
<b>JAMI</b>		<b>20 s</b>

Ma`ruza mashg`ulotlari mul'timedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o`tiladi.

### 3.Seminar mashg`ulot mavzulari

3-jadval

№	Seminar mashg`ulotlari mavzulari	Dars hajmi
1	INNOVATSION PEDAGOGIKA TUSHUNCHASI. INNOVATSION JARAYONLAR RIVOJLANISHINING UMUMIY YO`NALISHLARI.	2
2	Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkili asoslari Yangiliklar kiritish mazmuni va yo`nalishlari	2
3	REFLEKSIV - INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR O`QITUVCHINI INNOVATSION FAOLIYATINI MUAMMOLARNI IJODIY IMKONIYATINI AKTUALLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.	2
4	O`QITUVCHILIK KASBI O`QITUVCHI BILAN O`QUVCHILARNING O`ZARO MUNOSABATI	2
5	O`qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorligini tashxis qilish diagnostikasi metodlari	2
6	O`QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATIDAGI PSIXOLOGIK TO`SIQLAR. PEDAGOGIK TA`SIR ETISH TEXNOLOGIYASINING MUAMMOSI.	2
7	Pedagogik texnologiya ta`siri elementlari PEDAGOGIK TA`SIR TEXNOLOGIYASINING DARSDA QO`LLANILISHI.	2
8	TA`LIMNING ASOSIY QO`ZGATUVCHI MOTIVLARI MOSLASHTIRISH STRATEGIYASI.	2
9	BOSHLANG`ICH MAKTABDA O`QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH TARBIYA MAQSADINI ISHLAB CHIQISH TO`G`RISIDA.	2

10	TARBIYA TIZIMIDA IJTIMOIYLASHTIRISH O‘RNI TO‘G‘RISIDA TARBIYA TIZIMIDA PEDAGOGIK TIZIM	2
11	Tarbiya tizimida innovatsiyalar INTERAKTIV O‘QITISH SHAKLLARI	2
12	BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN IJODIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRUVCHI UMUMIY LAVHALI KO‘RINISHLAR	2
	<b>JAMI</b>	<b>24 s</b>

Seminar mashg‘ulotlari mul’timedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada har bir akadem guruhga alohida o‘tiladi. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o‘tiladi, hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Ko‘rgazmali materiallar va axborot multimedia qurilmalari yordamida o‘tkaziladi.

#### 4. Mustaqil ta‘lim

4-jadval

№	Mustaqil ish topshiriqlari mavzulari	Dars hajmi
<b>1</b>	Ta‘lim shakllari – ta‘lim texnologiyasining tarkibi.	2
<b>2</b>	Shakl, ta‘lim shakllari, ta‘limni tashkil etish shakllari tushunchalari.	2
<b>3</b>	Ta‘limni tashkil etish shakllarining tasniflanishi.	2
<b>4</b>	Ta‘limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari.	2
<b>5</b>	Ta‘lim usullari – ta‘lim texnologiyasining tarkibi.	2
<b>6</b>	Faol ta‘lim usullari, interfaol usullar tushunchalari.	2
<b>7</b>	Ta‘lim usullarining tasnifi.	2
<b>8</b>	Ta‘lim usullarining mazmuni.	2
<b>9</b>	Interfaol usullar mazmuni.	2
<b>10</b>	Ta‘lim modeliga kiruvchi komponentlar va ularning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati.	4
<b>11</b>	Ta‘lim modelini ishlab chiqishda ta‘limni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini tanlash omillari.	2
<b>12</b>	O‘quv mashg‘uloti texnologik xaritasi haqida tushuncha.	2
<b>13</b>	Texnologik xaritaning rejadan farqli tomonlari.	2
<b>14</b>	Ta‘lim modeli va o‘quv mashg‘uloti texnologik xaritasini ishlab chiqish qoidalari.	2
<b>15</b>	Zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy maqsadlari. “Layoqatlilik”, “Layoqat”, “Kasbiy layoqatlilik”, “Tayanch layoqatlar” tushunchalari.	2
<b>16</b>	Loyihaviy o‘qitishning asosiy tushunchalari: loyiha, loyihaviy faoliyat, loyihalashtirish, loyihalash usuli, o‘quv loyihasi. Loyihaviy ta‘limning mazmuni.	4
	<b>JAMI:</b>	<b>36 s</b>

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha referat yoziladi va video materiallar shaklida tayyorlanadi.



**T.F.“Jismoniy madaniyatni o`qitish texnologiyalari  
va loyihalashtirish” fanidan  
BAHOLASH MEZONLARI**

Maruza	20 soat
Seminar	24 soat
Mustaqil	36 soat

Oraliq (ON) va Yakuniy (YN) Nazoratlarda: Har bir nazorat turi 3 ta savoldan iborat yozma ishi shaklida o`tkaziladi. Har bir javob 0 dan 10 gacha bo`lgan ballarda faqat butun sonlarda baholanadi.
